Хулоса ва таклифлар. Шунини таъкидлаш лозимки, ҳозирги кунда инновацион технологиялар педагогик жараён ҳамда ўқитувчи ва талаба фаолиятига янгилик, ўзгаришлар киритиш бўлиб, уни амалга оширишда асосан, интерактив методлардан тўлиқ фойдаланилади. Интерактив методлар жамоа бўлиб фикрлашдан иборат, яъни у педагогик таъсир этиш усуллари бўлиб, таълим мазмунининг таркибий қисми ҳисобланади. Бу методларнинг ўзига хослиги шундаки, улар фақат педагог ва талабаларнинг биргаликдаги фаолияти орқали амалга оширилади. Бугунги кунда мамлакатимизда мутахассисларнинг илмий салоҳиятини бирлаштиришга имконият етарли. Назария ва амалиёт бирлигининг таъминланиши педагогик технологиянинг асл моҳиятини аниқлашга йўл очади. Педагогик технология бу соҳадаги назарий ва амалий изланишларни бирлаштириш доирасидаги фаолиятни акс эттиради. Шунинг учун ҳам иқтисодий таълим жараёни самарадорлигини ошириш, таълим олувчиларнинг мустақкам назарий билим, фаолият, кўникма ва малакаларини шакллантириш, уларни касбий маҳоратга айланишини таъминлаш мақсадида ўқитиш жараёнида янги педагогик технологиядан фойдаланиш давр тақозоси ҳамда ижтимоий зарурият сифатида кун тартибига қўйилди. Иқтисодий таълим жараёнига янги педагогик технологияни татбиқ этиш кадрлар тайёрлашга йўналтирилган умумий жараён мазмунининг сифат жиҳатдан ўзгаришини таъминлайди.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2017 йил 22 декабрдаги Олий Мажлисга мурожаатномаси. Халқ сўзи газетаси, 2017 йил, 23 декабрь.
2. Йўлдошев Ж.Е., Усмонов С. Илғор педагогик технологиялар. - Т.: Ўқитувчи, 2004.

3. Педагогика: 1000 та саволга 1000 та жавоб / Мет. қўлл. У.И.Иноятов, Н.А.Муслимов, М.Усмонбоева, Д.Иногомova. - Т.: Низомий номидаги ТДПУ, 2012. - 193 б.
4. Толипов У., Усмонбоева М. Педагогик технологияларнинг тадбиқий асослари - Т.: 2006. II
5. Авлиякулов Н.Х., Мусаева Н.Н. Модулли ўқитиш технологиялари. - Т.: "Fan va texnologiyalar" нашриёти, 2007. - 97 б.
6. Ишмухамедов Р., Абдукодиров А., Пардаев А. Таълимда инновацион технологиялар / Амалий тавсиялар. - Т.: "Истеъдод" жамғармаси, 2008.-180 б.
7. Рузиева Д., Усмонбоева М., Холикова: Интерфаол методлар: моҳияти ва қўлланилиши / Метод. қўлл. - Т.: Низомий номли ДТПУ, 2013. - 115 б.
8. Yunfu Xu, Aiya Li, (2020). The relationship between innovative human capital and interprovincial economic growth based on panel data model and spatial econometrics, Journal of Computational and Applied Mathematics, Volume 365, 2020, 112381, ISSN 0377-0427, <https://doi.org/10.1016/j.cam.2019.112381>.
(<http://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S037704271930384X>)
9. Merve Dogruel Anuşlu, Seniye Umit Firat (2019). Clustering analysis application on Industry 4.0-driven global indexes, Procedia Computer Science, Volume 158, 2019, Pages 145-152, 1877–0509, <https://doi.org/10.1016/j.procs.2019.09.037>.

ФИО автора: *Ilauatdinova J.*

O'zbekiston san'at va madaniyat instituti, estrada va ommaviy tomoshalar rejissorligi mutaxassisligi 1-kurs magistranti

ФИО научного руководителя: *Egamberdiev F.T.*

Название публикации: «QORAQALPOQ MUSIQA SAN'ATINING TARIXIY ILDIZLARI (JIROVCHILIK VA BAXSHISHILIK MISOLIDA)»

Annotaciya

This article describes the musical art of the karakalpak people. The article describes the musical culture of karakalpaks, their peculiarities, history and to this day, famous people.

В данной статье описывается о музыкальном искусстве каракалпакцев. В статье рассказывается музыкальной культуре каракалпакцев, их особенностях, истории и по сей день известных людях.

Ushbu maqolada qoraqalpoq xalqining musiqa san'ati haqida bayon etiladi. Maqolada qoraqalpoqlarning musiqa madaniyati, o'ziga xos taraflari, tarixi va buguni, atoqli namoyandalari haqida so'z etiladi.

Key words: Desert nightingales, The School of Jirous, Aqimbet baxshi.

Ключевые слова: Соловьи пустыни, Школа джырауцев, Акимбет башши.

Kalit so'zlar: Sahro bulbullari, Jirovchilik maktabi, Aqimbet baxshi.

Ha'r bir millat o'zining milliyligi, milliy qa'diriyatlari bilan biri-biridan ajralib turadi. Qoraqalpoq xalqi azal-azaldan o'ziga xos milliy musiqalariga, yetuk ijroshilariga ega xalqlardan biri sanaladi. Qoraqalpoq xalqining musiqa san'atiga yuqori baho bergan qozoq xalqining folklorist olimi Shoxan Valixanov, o'zining „Qozoq poeziyasi formalari“ asarida: „Qoraqalpoqlar sahrodagi birinchi shoirlar va qo'shiqchilar. Qoraqalpoqlar sahro bulbullaridir“ degan edi. Taniqli qozoq olimining ushbu jumalari qoraqalpoq xalqining musiqa san'ati nechog'lik yuksak darajada ekanligidan darak beradi [3, 154].

Qoraqalpoq xalqida shunday maqol bor: „Saz benen sawbetti yalgan demenler, Adam ata binyad etkenli bardı“. Qoraqalpoq xalqi asrlar bo'yi to'y va bayramlarin, quvonchli kunlarin qo'shiq-ku'ysiz, musiqasiz o'tkizmagan. Xalq o'zlarining milliy qo'shiqlariga, ajoyib baxshi va jirovlariga, qissaxonlariga ega bo'lgan. Qoraqalpoq xalq qo'shiq va kuylarida xalqning boy tarixi va a'nanalari, orzu-umitlari, ezgu tilaklari ifoda etiladi, insonni vatanni ulug'lashga, mehnatsevarlikka da'vat etadi. Taniqli filalogiya ilimlari doktori Najim Dawqaraev: „Qoraqalpoq xalqi o'zining qayg'uli kunlarida ham, shodli kunlarida ham qo'shiqsiz, soz va kuysiz, og'zaki poeziyasiz yashay olmaydi“ deb yozgan edi [1, 17].

Qoraqalpoq musiqa san'atida jirovlar, jirovchilik san'ati alohida joy egallaydi. Boshqa turkiy xalqlar singari, qoraqalpoqlarda ham jirovchilik azaldan yaqshi rivojlangan bolib, birqansha jirovlar maktabiga ega bo'lgan. Filalogiya ilimlari doktorlari Najim Dawqaraev, Qalli Ayimbetov, Kamal Mambetov, Qabil Maqsetov

singari olimlar qoraqalpoq jirovchilik tarixini o`rganish davrida, qoraqalpoq jirovchilik tarixini 3 ta katta davrga ajiratahdilar:

1-davr: Qoraqalpoq jirovlarining tarixini o`rganishda, eng qa`dingi davr bu Qo`rqit ota obrazi bilan bog`liq bo`lib sanaladi. Qo`rqit otaning o`zi afsonaviy shaxs bo`lishiga qaramay, ushbu davrning eski turkiy yozma yodgorliklardagi jirov obrazining bosh fonida gavdalanadi.

2-davr: Qoraqalpoq jirovlarining to`liq shakllanishi va o`zining klassikalik davrini yaratgan XIV-XV asrlar. Bu davrda qoraqalpoq jirovlar maktabining asoschisi Soppasli Sıpira jirov va Dosmámbet, Shalkiyiz jirovlarni alohida aytib o`tish joiz bo`ladi.

3-davr: XVIII-XIX asrlar, bu davrning atoqli jirovlari qatoriga Jiyen jirov va Shanxay jirov (1814-1889 yy), Jiyemurat jirov (1836-1908 yy), Erpolat jirov (1861-1938 yy), Nurabilla jirov (1888-1954 yy) va Abdirasul jirovlarni kiritsak bo`ladi.

4-davr: XX asrning boshlaridan bugungi kunga qadar vaqtni ichiga olib, bu vaqt oralig`ida Jumabay jirov Bazarov (1927-2006 yy) va Shamurat jirov (1925-1998 yy), Qiyas jirov (1903-1974 yy) singari atoqli jirovchilik namoyandalari yashab o`tkan. Qoraqalpoq jirovlari repertuaridan „Alpomish“, „ Edige“, „Qirqqiz“, „Qoblan“ singari 25 ga yaqin dostonlar o`rin olgan. Professor Qabil Maqsetov fikricha qoraqalpoq jirovlarining kuylari 40 tan ziyot bo`lgan. Jirov kuylari ichida „Nama basi“, „Kóz aydın“, „Shanxay namasi“, „Keń qayır“, „Ilgal“, „Noğaylı“, „Muńlı“ va „Iğbal“, singari kuylar foydalanilib, dostonlar va termalar ijro etilgan. Umuman olganda qoraqalpoq jirovchilik maktabi boshqa turkiy xalqlarga qaraganda yuksak darajada rivojlangan bo`lib, bu haqida o`zbek musiqa tadqiqotchisi, professor F.I.Karamatli shunday jumlar bitgan edi: „Bu ovoz odamzot ibtidosidan buyon kelayotgan musiqaning eng qa`dingi nusqasidir“ [2, 86-93]. Bugungi kunda ham qoraqalpoq jirovchilik maktabidan Baxbergen Sırımbetov va Jánıbek Pıyazov singari yuksak iste`dodli jirovlar yetishib chiqqan bo`lib, ular qoraqalpoq jirovchilik san`atini xalqaro maydonlarda namoyish etmoqdalar.

Qoraqalpoq xalqida dutor chalib, qo`shiq aytadigan hunar egasini baxshilar deb ataganlar. Qoraqalpoqlarda: „So`z yetmagan joyga,soz yetadi“ degan ajoyib maqol bor. Baxshilar ijro etkan repertuarlarida qoraqalpoq xalqining turmushi, og`il va qizlarining dovyurakligi, muhabbatga sodiqligi va xalqning vatanga fidoyiligi singari ajoyib hislatlari tarannum etiladi [5, 42]. Baxshishilik san`atining rivojlanish tarixiga nazar qaratadigan bo`lsak, uning jirovchilikdan keyingi asrlarda, ya`ni XIX asrning o`rtalaridan Aqımbet baxshi maktabidan boshlanishini kuzatsak bo`ladi. Aqımbet baxshi qoraqalpoq baxshishilik maktabining asoschisi bo`lib, o`zidan ajoyib shogirdlarni, izdoshlarini yetishtirib chiqaradi. Aqımbet baxshining o`z kasbining yetuk namoyandasi va buyuk ustozı bo`lganligi to`g`risida qoraqalpoq xalqining klassik shoiri Ajiniyaz (1824-1878 yy) shunday baytlarni bitgan edi:

Boldı xosh waq neshe kún, dúnyada ol áshiret etip,

Yigirma-ottız shákirti yurdi ańa xızmet etip,

Berdi ruxsat, neshshelerin ózindek ustaz etip [4, 394-398].

Qoraqalpoq musiqa tarixida 4ta baxshishilik maktabini aytib o`tish joiz bo`lib, ular: Aqımbet, Gáripniyaz, Arzı va Qutım maktablari bo`lib, bu maktablarning ha`r biri

o`zlarining alohida ijro uslubiga ega bo`lganlar. Qoraqalpoq jirovlari asosan, qaharmonlik dostonlarni ijro etken bo`lsa, baxshilar muhabbat kuychilari bo`lib, „G`arip-ashiq“, „Sayatxan-Hámre“, „Ashiq Nájep“, „Gúlsanevar“ singari oshiqlik xarakterdagi dostonlarni mohirona tarzda ijro etkanlar [5,44]. Qoraqalpoq baxshilari dostonlarni ijro etishda „Nama basi“, „Alaqayis“, „Jeti asırım“, „Ilme Sultan“, „Nar iydiringen“, „Dembermes“ va boshqa ko`plab 30 ga yaqin kuylardan foydalanganlar [4,418-423]. Yuqorida nomlari keltirilib o`tilgan qoraqalpoq baxshishilik maktablaridan nafaqat Qoraqalpog`iston, ba`lkim butun dunyo hamja`miyatiga o`zlarining nomlarini tanitishga erishgan baxshilar yetilishib chiqqanlar. Xususan Muwsa baxshi (1854-1907 yy), Juman baxshi (1871-1949 yy), Esjan baxshi (1901-1952 yy), Japaq Shamuratov (1893-1973 yy), Ámet Tariyxov (1923-1989 yy), Genjebay Tlewmuratov (1929-1997 yy) singari xalqning ko`nglidan joy olgan baxshilar o`zlaridan ajoyib shogirdlar va boy merosni qoldirishgan [4, 402-404]. Hozirgi kunimizda ham ilgari yashab o`tkan ustoz baxshilarning davomchilari baxshishilik san`atini targ`ib qilmoqda. Bugungi kun qoraqalpoq baxshilar ichida G`ayratdin O`temuratov, Te`nel Q`alliev va Azat Otarbaevlar alohida e`tirofqa sazovar bo`lib, ular xalqaro miqyosida ham baxshishilik san`atini kengnan targ`ib qilmoqdalar. Qoraqalpoq baxshishilik san`atining yana bir maqtovg`a e`tirofli taraflaridan biri, bu qoraqalpoq baxshishilik san`ati tarixida professional ayol baxshilarning yetilishib chiqishi hisoblanadi. Qoraqalpoq ayol baxshilarining taniqli vakilasi qoraqalpoq klassiki shoirlaridan biri bo`lmish Berdaq (1827-1900 yy)ning qizi Xurliman qiz baxshi (1861-1906 yy) bo`lib, Xurlimanni qoraqalpoq ayollar baxshishilik maktabining asoschisi deya atasak hesh adashmagan bo`lamiz. Keyingi davrlarda xalqning yuragidan joy olgan, Qanig`ul, Sapura va Ayımxan singari baxshishilik san`ati vakillari yashab o`tkan bo`lsa, hozirgi zamonamizda Q`albiyke Uzaqbergenova, G`ulnara Allambergenova, Ziyada Sharipova va G`ulbahar Aqımbetovalar baxshishilik san`ati an`analarini davom ettirib kelmoqdalar [5, 55-64] .

O`zbekiston Respublikasi birinshi prezidenti I.A.Karimov: „Xalqimizning suyanchi, ota-bobolarimiz qoldirgan meroslarning o`zi bir xazina. Bu xazinadan aqilga muofiq foydalanishimiz darkor. Ota-bobolarimiz va`siyatiga sodiq va munosib avlod bolmog`imiz kerak“ deganlariday ushbu behobaho ma`naviy boyliklarimizni avaylab-asrab, uni otadan-bolaga shu vaqtga qadar yetib kelishiga, albatta ijrochilarimizning, jirov va baxshilarning o`rni katta bo`ldi. Xalq qo`shiq-kuylarining, o`sib kelayotgan yosh avlodga milliy ongini uyg`otishda, ularning o`z xalqiga, eliga vataniga sodiq inson bo`lib ta`rbiya topishida xizmati alohida. Shu sababli, musiqa san`atining juda qiyin bo`lishiga bog`liqli, bo`lajak kadrlarni saylab olib, olarda xalq meroslarini qa`dirlash, o`rgatish, rivojlantirish masalalarin ustozlar o`z oldiga bosh maqsad etib qo`ymaqlari darkor.

Adabiyotlar

1. Айымбетов Қ. Халық даналығы. –Нөкис.; 1988.
2. Бахадырова С. Қарақалпақ қандай халық. –Ташкент.; 2017.
3. Мақсетов Қ. Қарақалпақ фольклористикасы. –Нөкис.; 1989.
4. Нызанов М. Қарақалпақлар. –Нөкис.; 2020.
5. Nadirova A. Qaraqalpaq muzika tarixi. –Tashkent.; 2018.

ФИО авторов: *Тўхтаназаров Абдусайд Қаюмжон ўгли*

Наманган Давлат Университети, География йўналиши

3- босқич талабаси

Камолов Исломбек Муроджон ўгли

Жахон Иқтисодиёт ва Дипломатия Университети Сиёсатшунослик йўналиши 2- босқич талабаси

Название публикации: «ЭТНИК ЗИДДИЯТЛАР ВА НИЗОЛАРНИНГ ХАЛҚАРО ХАВФСИЗЛИККА ТАЪСИРИ ҲАҚИДА»

Аннотация: Мақола дунёда содир бўлаётган этник зиддиятлар ва можаролар ҳамда уларнинг замонавий кўринишини тавсифига бағишланган.

Калит сўзлар: Этнос, этник жамоа, эскалацион таъсирлар, минтақавий кучлар, диаспора, санкция, таҳдидли ва таҳдидсиз тўқнашувлар, фуқаролар уруши, диний тўқнашувлар, бюрократик низо, этник маданий низо, этник иқтисодий низо, этник сиёсий низо, қабилавий низо, маданий фарқлар.

Аннотация: В статье описаны этнические противоположности и конфликты в мире и их современный вид.

Ключевые слова: этнос, этническая общность, влияния эскалации, региональные силы, диаспора, санкции, насильственные и ненасильственные конфликты, гражданская война, религиозные конфликты, бюрократический конфликт, этнокультурный конфликт, этно-экономический конфликт, этнополитический конфликт, племенной конфликт, культурные различия.

Annotation: The article describes the ethnic conflicts and conflicts in the world and their modern appearance.

Keywords: Ethnos, ethnic community, escalation influences, regional forces, diaspora, sanctions, violent and non-violent conflicts, civil war, religious conflicts, bureaucratic conflict, ethno cultural conflict, ethnic economic conflict, ethno political conflict, tribal conflict, cultural differences.

Кириш. Юз бераётган урушларнинг келиб чиқиши сабаблари нималардан иборат? Зиддиятларнинг бошланишига энг асосий омил деб нимани кўрсата оламиз? – деган саволларга жавоб беришга ҳаракат қиладиган бўлсак, энг аввало қайсидир давлатда низолар бошланишидан олдин ушбу давлатнинг аҳолиси ўртасида содир бўлаётган ишлари бунга яққол мисол қилишимиз мумкин. Этник низолар жтимоий муносабатларда келиб чиқишининг аҳамияти ва кўламига қараб ўзгариб боради. Миллатлараро ва Конфессиялараро адоватларни пайдо бўлиши ҳатто бир-бирига яқин қардош халқлар ўртасида ҳам уруш ва жанжаллар чиқаришлари мумкин. Мисол тариқасида, Африкада юз бераётган қабилалар ўртасидаги жанглар, Афғонистонда, Тоғли Қорабоғда, Ироқда, Сурияда, Яқин Шарқда, Украинада юзага чиққан ички низолар ва уларнинг оқибатларини келтиришимиз мумкин.

Ишнинг асосий мақсади - Жаҳондаги этник низолар, тўқнашувлар ва уларнинг келиб чиқиш сабаблари, турлари ҳамда уларни географик аҳамиятини тавсифлашга қаратилди.

Асосий қисм. Этнос (юнонча. *ἔθνος*) [инглизча. *ethnos*] тушунчаси - бу мураккаб ғоя. Бу бир нечта умумий хусусиятлар бўйича бир бутун бўлиб бирлашган шахслар гуруҳидир. Булар: умумий физик (антропологик) хусусиятлар, умумий тарихий ҳаёт тарзлари бир бутунлиги ва ниҳоят умумий тил. Булар ўз навбатида умумий дунёқарашни халқ психологиясини - қисқаси бутун маънавий маданиятни яратиши мумкин бўлган асослардир.[1] Этнос - бу кишиларнинг умумий келиб чиқишини тан оладиган, ўзаро ўхшаш урф-одатлар тўпламини, турмуш тарзини, улар улуғлайдиган, ўзлари эъзозлаб, ҳимоя қиладиган анъаналар комплексини мужассам этадиган ва энг асосийси, умумий тилда сўзлашадиган, ибодатлари бир бўлган одамлар гуруҳи ҳисобланади. Аслида этник бирлик – этнографиянинг илмий объектидир.[2] Этнос атамасининг келиб чиқиши юнонча “миллат” сўзидан келиб чиқади. Улар ушбу хусусиятлари билан бошқа этник гуруҳлардан ажралиб турадилар. "Этнос" - қадимги юнон тилида бир жамоани тасвирлаш учун ишлатилган, яна умумий наслга нисбатан ишлатилган. Бошқача қилиб айтганда, "этнос" қариндошликни

тасвирлаш учун ишлатилади. Этнос ғояси маданий, ижтимоий, жисмоний (соматик) ва бошқа ўзига хос хусусиятлари билан одамларнинг аниқ бирлашмаси сифатида қараладиган баъзи "халқларни" ўрганишни ўзида мужассам этади.

Жаҳонда этник жамоалар борки, бир-бири билан турли хил сабаблар туфайли низоларга боришади. Кўпинча, этник зиддиятлар икки йўл билан тарқалади: диффузион - бир давлатдаги этник зиддият шу каби ҳолатга эга бўлган бошқа давлатдаги можарони қўллаб-қувватлаганда юзага келади. эскалация ёки юқумли таъсирлар - бир мамлакатда юзага келган можаро чегаралар бўйлаб, этник озчиликни ташкил этадиган, ўзига чегарадош бўлган қўшни мамлакатларга тарқалганда содир бўлади. Бир гуруҳ геосиёсатчи олимларнинг фикрича, “этник можаролар ички низолар, келишмовчиликлар сифатида бошланиши мумкин, аммо хорижий (ташқи кучлар) давлатлар аралашганда, минтақавий ёки халқаро инқирозга айланади” деб айтиб ўтишган.

Қўшни давлатлар, минтақавий кучлар ва халқаро кучлар кўпинча, жиддий аҳамиятга эга муаммоларни меъёрдан ошириб юборшади ва этник низоларнинг халқаро оқибатларини бартараф этишга қодир бўлмай қолишади. Бироқ, кўп ҳолларда, бундай ташқи ва ички ҳаракатлар этник инқирознинг қурбонларини эмас, балки ўзларининг манфаатларини фаол равишда ошириш учун амалга оширилади. Чет эл диаспоралари молиявий, ҳарбий, сиёсий ва маънавий қўллаб-қувватлаш орқали этник гуруҳнинг ҳамжихатлиги ва қудратга эга бўлишига катта ҳисса қўшиши мумкин. Ташқи ҳаракат (куч)лар баъзи ҳолларда низоларни қўзғатишда ёки таҳдидли курашларни вақтини чўзишда муҳим рол ўйнайди. Ҳарбий, иқтисодий ёки сиёсий манфаатларни қўлга киритиш учун можароли-стратегик аҳамиятга эга “таъсирли” бўлган давлатлардан фойдаланишади ва можарога бевосита аралашади.

Шу билан бирга, бундай ҳаракатлар этник можарони олдини олиш ва ҳал қилишда халқаро миқёсдаги иштирок муҳим аҳамиятга эга бўлган чоратadbирларни амалга ошириши мумкин:

➤ Халқаро ҳамжамиятлар ўртасида сулҳ ва тинчлик тўғрисидаги битимларни муҳокама қилиш, ташкиллаштириш ва назорат қилишда муҳим рол ўйнайди;

➤ ўтмишдаги инсон ҳуқуқлари бузилишини текшириш ва ҳуқуқларни тадқиқ этиш;

➤ тинчлик келишувларидаги қоидаларни таҳлил қилиш ва амалга ошириш;

➤ гуманитар, ҳарбий ва иқтисодий ёрдамни ўз ичига олган тинчлик операцияларини ўтказиш;

➤ қурол-яроғ эмбарголари ва иқтисодий санкцияларни жорий этиш;

➤ ишонч ва алоқаларни кучайтирадиган ва келажақдаги низоларни ҳал қилишнинг тинч йўллари қўллаб-қувватловчи механизмларни ишлаб чиқиши.

[3]



1-расм: Этник можаролар ва ҳодисаларнинг келиб чиқиш сабаблари

Манба: https://www.researchgate.net/figure/Reported-incidents-by-causes-of-conflicts_fig1_280937836

Шундай қилиб, қўшни давлатлар ва халқаро ҳамжамият минтақадаги муаммоларнинг қурбонлари ёки фаол иштирокчилари бўлиши мумкин - баъзан

бошқа ҳолларда, этник гуруҳларни ҳарбий, иқтисодий, сиёсий қўллаб-қувватлаш ёки музокаралар ва тинчликни амалга оширишда қатнашиш орқали. Минтақавий беқарорлик этник низоларнинг манбаи бўлгани каби, унинг оқибати ҳам шу даражада минтақа ҳаёти учун ҳам характерлидир.

Этник зиддиятлар ўзининг келиб чиқиш сабабларига кўра, олимлар уларни қуйидаги турларга ажратиб ўтишган. Этник низоларнинг иккита кенг тоифаси мавжуд:

- Таҳдидли (куч ишлатилувчи);
- Таҳдидсиз (куч ишлатмаслик йўли билан).


Таҳдидли (куч ишлатилувчи); Таҳдидли этник низоларда - этник зиддиятлар этник келишмовчилик ва этник низолардан келиб чиқадиган ҳаракатларни англатади. Таҳдидли этник зиддиятлар, асосан, ижтимоий ва сиёсий тенгсизликка асосланган кўринишда кенг учрайди. Кўпинча бу кўринишдаги зиддиятлар жамиятнинг мавқеини ўзгартириш учун тўлиқ ваколатга эга бўлган раҳбарлар томонидан қўлланилади. Ушбу тўқнашувда одамлар қурол олиб, бошқа душман этник гуруҳга ҳужум қилишади ва бошқа этник гуруҳларнинг аъзоларига маънавий, маданий, ижтимоий-иқтисодий зарар етказишади. Бу таҳдидлар натижасида кўплаб одамлар қурбон бўлган ёки жароҳат олган ҳолда, бу этник можаронинг азият чеккан қисми бўлишади.

Масалан: 1971-йил шарқий Покистон ғарбий Покистондан этник асосда ажралиб чиққан уруш. Яна бунга ўхшаш бир мисол - Карачидаги кўплаб этник низоларни келтириш мумкин. [8]

Таҳдидсиз зиддият. Таҳдидсиз этник зиддиятларда одамлар бошқа этник гуруҳнинг қурол билан тўғридан-тўғри ҳужумига дуч келмайдилар. Ушбу зиддият сиёсий ва маданий зиддиятлар атамаси билан тенг характерлидир. Кўпинча бу курашлар ирққа асосланган сиёсий лавозимларга эришишга интилиш учун содир бўлади. Зиддият этник ёки ирқий келиб чиқиш асосида бошланади, чунки бунда етакчилар этник мансабга эга бўлишни хоҳлашади, аммо бу зиддиятда қурбонлар учун ўша ҳудуднинг минимал даражада турмуш

даражаси, фаолияти ва яна инфратузилмани йўқ қилиш сабабларини келтириб чиқаришлари мавжуд бўлган тури саналади.

Масалан: Буркина-Фасодаги диктатуранинг кулаши, Болгариядаги коррупция ишлари туфайли ҳукуматнинг кулаши (2014), 2014-йилгача бўлган Украинадаги фуқаролар уруши пайтида таҳдидсиз қаршиликлар шулар жумласидандир.



2-расм: 2017-йил давомида бўлиб ўтган тўқнашувлар

Манба: Хеиделберг Халқаро Конфликтлар Тадқиқотлари Институти (НПК), Конфликт Барометр 2017. <https://hiik.de/konfliktbarometer>, accessed March 14, 2018. [Info & download](#)

Изоҳ: Ушбу харита НПК ҳисоботида асосланган. Ушбу таҳлилий марказ халқаро зиддиятларнинг умумий индексини ҳисоблаб чиқади (ишлатилган қуроллар, жангчилар сони, ўлдирилган одамлар, қочқинлар / кўчирилганлар ва

вайронагарчиликлар). Харитада можаро "макони" тури (чегаралардан ташқарига чиқадиган, чегараланган ҳудуд, маҳаллий ёки тарқоқ) ва қуролли гуруҳларнинг талаблари (кучларни ўз ҳудудида курашиши ёки ҳудудидан чиқиши) кўрсатилган. Ушбу типология асосида 2017-йилда можароларнинг асосий марказлари: Сурия ва Ироқ, Афғонистон ва Покистон, Африканинг марказий қисми (Дарфурдан КХДРгача, Марказий Африка Республикаси ва Жанубий Судан орқали), Ливия, Яман, Колумбия ва Мексика; бошқа марказлар кўпроқ маҳаллий аҳамиятга эга бўлган (Донбасс, Нигер дельтаси, Мянма, Филиппин, Салвадор ва бошқалар).

Этник низоларнинг кичик турлари: Диний тўқнашувлар: баъзи этник низолар дин асосида бошланади. Одамлар дин ҳақида қатъий эътиқодга эга ва ҳеч қачон ўз эътиқодларида мослашувчанликни намоён этмайдилар. Агар бирорта дин - диннинг хавфсизлигини ҳимоя қиладиган одамлардан унинг сақланиб қолиш учун ҳар қандай таҳдидни кўrsa, демак, миллатлараро низолар дин асосида бошланади. Ушбу можаро таҳдидли ёки таҳдидсиз бўлиши мумкин. Масалан: Нигериядаги этник ва диний инқироз (2013) [5].

Бюрократик зиддият: Баъзи олимлар этник можаро бюрократик идоралар ва иш жойларини эгаллаб олиш бюрократик зиддиятнинг натижаси деб айтиб ўтишган. Ҳар бир инсон ўз минтақасида гегемонликни хоҳлайди, шунинг учун зиёлилар ирқ соясида мавқеларни эгаллашга ҳаракат қила бошлайдилар, кейин этник кураш сабабли идораларни эгаллай бошлайдилар. Кам маълумотли одамлар билимли кишилар билан курашишни бошлайдилар ва бу можаронинг асосий сабаби шундаки, маълумотли одамлар сони камроқ, аммо барча ирқларни бошқаради, шунинг учун кам маълумотли одамлар ҳукмронлик қилишни хоҳлашади ва гегемонлик учун улар зиддиятни бошлайдилар. Масалан: Мустақиллик даврида Шри-Ланкада янги озод қилинган Жанубий Осиё давлатлари орасида гуллаб-яшнаши кутилган эди. У 1931-йилдаёқ умумий сайловлар ўтказиш ҳуқуқига эга бўлди ва ҳокимиятни мустамлака ҳукмдорларидан маҳаллий ҳукуматга нисбатан тинч йўл билан топширди. Унинг

озчиликни ташкил этган тамил аҳолиси зўравонликка мойил бўлмаган пассив одамлар сифатида қаралди.[4] Шри-Ланкани тез орада камраб олган этник можаро Иккинчи Жаҳон уруши тугаганидан бери дунёдаги энг зўравон ва узок давом этган бўлиниш ҳаракатларидан биридир.

Этник маданий зиддият: Бу турдаги маданий зиддият ҳам ўз навбатида иккига бўлинади:

Таҳдидли этник маданий зиддият: Баъзи этник гуруҳлар ўзлари қабул қилган маданиятни бошқа маданиятлардан афзалроқ, устунроқ деб ҳисоблашади. Бошқа “кучсизроқ” маданиятлар таҳдидни қабул қиладилар, чунки бу одамлар ўзларини пассив (қуйироқ) ҳис қиладилар, сўнгра бу одамлар можаролар орқали ўзларининг паст даражаларини камайтиришга ҳаракат қиладилар. Бу кўринишдаги маданиятнинг яна бир сабаби, ҳар ким ўз маданиятини ёйишни истайди ва ҳаракатлар кўпайиб кетганда, маданиятлараро тўқнашувлар юзага келади, чунки ҳамма ўз маданиятини тарғиб қилишни хоҳлайди. Кейин маданиятларга асосланган этник зиддиятлар бошланади. Этник маданиятларнинг тарғиб қилиниши - маданий асосдаги этник низонинг сабабчиси бўлиб, ҳозирги вақтда энг долзарб муаммолардан бири бўлиб қолмоқда.

Таҳдидсиз этник маданий зиддият: таҳдидсиз этник можаро - маданий қадриятлар ўртасидаги курашлар туфайли пайдо бўлади. Ушбу зиддиятда турли хил этник гуруҳлар яшаш ва маданий эътиқод одатлари учун курашишни бошлайдилар.

Этник иқтисодий зиддият: Этник иқтисодий зиддиятларда турли хил этник гуруҳлар ўз ҳаракатларини бошқа соҳаларда тарғиб қилишни истайдилар ва улар иқтисодиётда устунликни эгаллашга ҳаракат қилиш ва бошқа этник гуруҳларнинг бизнесида тўсиқлар яратиш орқали эришадилар. Шу билан бирга, ресурсларни тақсимлаш учун кураш бошланади. Агар бирон бир гуруҳ бошқасидан кўра кўпроқ манбаларга эгалик қиладиган бўлса, бу гуруҳлар ўртасида адоватни келтириб чиқаради.

Этник сиёсий зиддият. Ҳар қандай этник гуруҳ борки, ўз этник гуруҳи ёки иркининг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш учун сиёсатдаги позициясини оширишга интилади. Сиёсий раҳбарлар қонунчиликни бошқарадилар ва сиёсатда турли ноўрин қонунлар ва қарорлар белгилайдилар, бу эса турли этник гуруҳлар ўртасида зиддият ва бир-бирига бўлган муносабатларни кескинлашувига олиб келади.

Этник сиёсий зиддият - бу этник ҳамжамиятни сиёсийлаштириш билан боғлиқ бўлган этник низоларнинг шаклларида биридир.

А.Р. Аклаев "Этнополитик конфликтология"[6] асарида батафсилроқ бу тушунчага таъриф беради:

“Этник сиёсий зиддиятлар - бу сиёсий субъектларнинг сиёсий кучга эришиш ёки уни қайта тақсимлаш, унинг рамзларини белгилаш, шунингдек, гуруҳ сиёсий мақоми ва давлат сиёсатининг устувор йўналишлари билан боғлиқ бўлган манфаатлари ва кадриятларини рўёбга чиқаришга интилишидаги тўқнашув”.

1-жадвал

XX ва XXI асрларнинг энг муҳим этносиёсий тўқнашувлари

<u>Закавказия</u>	<u>Яқин Шарқ</u>	<u>Европа</u>
Грузия-Жанубий Осетия можароси	Туркия-Курд можароси	Шимолий Ирландиядаги можаро
Грузия-Абхазия можароси	Араб-Исроил можароси	Молдова-Гагауз можароси
Қорабоғ можароси	Шимолий Кавказдаги можаро	Туркларнинг Кипрга босқини
	Осетия-Ингуш можароси	Хорватия ва Босния можароси

Манба: https://en.wikipedia.org/wiki/Ethnic_violence#cite_note-7 сайти маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган.

Этник зиддиятларнинг яна бир кичик турли кўринишларидан бири бу-
қабилавий (этник қабила ва уруг-қабилаларнинг зиддиятлари). Масалан:
Африкадаги "қабила" можаролари: Руанда ва Бурунди. [7]

Хулоса. Маданий тафовутлар ва этник зиддиятлар халқаро сиёсатни бошқарувчи ва шакллантирувчи муҳим масалалардандир. Умумаданий алоқалар ва этник ўзига хослик, айникса, гуруҳлараро муносабатларни шакллантирувчи асосий омил бўлганлиги сабабли, бу тўқнашувлар инсонларнинг жуда кўп моддий, маънавий, иқтисодий-ижтимоий талофат кўришига олиб келади ва халқаро хавфсизликка катта таҳдид солиб келмоқда. Сиёсий беқарорлик, қочқинлар оқими, турли кўринишдаги сиёсий тўқнашувлар ва бошқа халқаро ҳаракатлар этник можароларнинг халқаро сиёсий “қун тартиби”даги муаммо бўлиб қолишига замин яратмоқда. Бирок, можароларга сабаб бўладиган фақат маданий фарқлар эмас, балки халқаро ташқи таъсирларнинг сиёсий, мафкуравий ва иқтисодий мақсадлари сабабли, низолар давлат ёки этник гуруҳ бўлишидан қатъий назар келиб чиқади. Этник ва маданий зиддиятларнинг мураккаблигини инобатга олган ҳолда, халқаро аҳамиятга молик масалаларни ҳал қилиш олимлар олдидаги улкан ечимсиз муаммога айланиб бормоқда.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Н.М.Могиланский 1916. “Предмет и задачи этнографии”, Живая старина 25: 1–22.
2. Широкогоров С.М. Этнос: Исследование основных принципов изменения этнических и этнографических явлений. - Шанхай, 1923.
3. Ethnic Fears and Global Engagement: The International Spread and Management of Ethnic Conflict by David A. Lake Donald Rothchild, 1996
4. Bandarage, Asoka. The Separatist Conflict in Sri Lanka. New York: Routledge, 2009.
5. Communal conflicts in Nigeria
https://en.wikipedia.org/wiki/Communal_conflicts_in_Nigeria?wprov=sfla1
6. А.Р. Аклаев. “Этнополитическая конфликтология”, ISBN 978-5-7749-0516-4

7. "Tribal" Conflicts in Africa: A Case Study of Rwanda and Burundi

https://escholarship.org/content/qt61r9t454/qt61r9t454_noSplash_329890b72b2280ed5b119657e3ee343f.pdf?t=mnq1jl

8. https://en.wikipedia.org/wiki/East_Pakistan

ФИО автора: *Jo'rayeva Iroda Umid qizi*

Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Internet jurnalistika va ijtimoiy tarmoqlar fakulteti

3-kurs talabasi

Toshkent, O'zbekiston

Название публикации: «INTERNET JURNALISTIKASINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI»

Annotatsiya. Ushbu maqolada internet jurnalistikasini rivojlantirishning dolzarb masalalari haqida soʻz yuritilgan. Hozirgi kunda zamonaviy axborotlardan xabardor boʻlish, ularni oʻrganish, uzatish va takomillashtirishda internet jurnalistikasining oʻrni nihoyatda beqiyosdir.

Kalit soʻzlar: internet-nashrlar, axborot-texnologiya, maʼlumot, jurnalistika, jurnalist etikasi, tarmoq, aloqa.

Аннотация. В статье рассматриваются актуальные вопросы развития интернет журналистики. Сегодня роль интернет-журналистики в понимании, изучении, передаче и улучшении современной информации огромна.

Ключевые слова: интернет публикации, информационные технологии, информация, журналистика, журналистская этика, сеть, коммуникация.

Annotation. This article discusses current issues in the development of online journalism. The role of online journalism in understanding, studying, transmitting and improving modern information is enormous today.

Key words: online publications, information technology, information, journalism, journalistic ethics, network, communication.

Butun dunyoda boʻlgani kabi O'zbekistonda ham internet-nashrlar axborot yetkazuvchi asosiy maydon vazifasini o'tamoqda. Odamlarning qisqa, lo'nda, tezkor va ekskluziv axborotlarga bo'lgan talabi kun sayin ortib bormoqda. Bu esa o'z-o'zidan u yoki bu nashrning ommalashuviga sabab bo'lmoqda.

Hozirgi XXI asr axborot-texniyalogiyalari asri bo'lib, olimlar tomonidan kashf etilgan kashfiyotlar omma e'tiboriga havola etilib ulgurmay, bundanda yangi va mukammalroq variantlari kashf etilmoqda. Bu esa texnika sohasida o'sishga, insonlarga qulaylik yaratishga olib kelmoqda. Yurtimizda ham biz yoshlarni texnikaning eng so'nggi yutuqlaridan xabardor qilish bilan bir qatorda, yangidan-yangi imkoniyatlar, shart-sharoitlar yaratib berish yuzasidan samarali ishlar olib borilmoqda.

Albatta, shu o'rinda yurtboshimizning olib borayotgan siyosatlarini takidlab o'tish joiz. Chunki, ular biz yoshlarga ishonch bildirib, imkoniyatlar yaratib berdilar. Ular "XXI asr – intellektual qadriyatlar ustuvorlik qiladigan asr ekanligini e'tiborga olgan holda, Vatanimiz yigit va qizlarini har tomonlama barkamol shaxslar etib shakllantirish borasidagi keng ko'lamli chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirdilar. Shu maqsadda, o'quv jarayoniga yangi axborot-kommunikatsiya va pedagogika texnologiyalarini, elektron darsliklar hamda multimediyaga vositalarini keng joriy etish hisobiga mamlakat maktablari, oliy ta'lim muassasalarida ta'lim berish sifatini tubdan yaxshilash, ta'lim muassasalarining o'quv-laboratoriya bazasini eng zamonaviy o'quv va laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi bilan mustahkamlash, shuningdek, o'qituvchilar va murabbiylarning mashaqqatli mehnatini moddiy hamda ma'naviy rag'batlantirishning samarali tizimini shakllantirishni nafaqat maktablarda, oliy ta'lim muassasalarida, balki har bir oilaning hayotida zamonaviy axborot va kompyuter texnologiyalari, raqamli hamda keng formatli telekommunikatsiya aloqa vositalari, Internet tizimini tatbiq etish, o'zlashtirish va yanada rivojlantirishni takidlab o'tdilar.

Hozirgi kunda zamonaviy axborotlardan xabardor bo'lish, ularni o'rganish, uzatish va takomillashtirishda Internet jurnalistikasining o'rni nihoyatda beqiyosdir. Shu o'rinda savol tug'iladi.- Ho'sh Internet jurnalistikasi o'zi nima? Uni bizga ahamiyati nimalarda ko'riladi?

Savolga javob berish maqsadida, uni quyidagicha ta'riflar bilan izohlash mumkin.

Asosiy ma'lumot kanali bo'lgan Internet orqali dunyo miqyosidagi ommabop ma'lumotlarni doimiy ravishda yig'ish, qayta ishlash va tarqatishdan iborat bo'lib, u ommaviy targ'ibot va tashviqot yuritish vositalaridan biridir. U tomonidan tarqaliyotgan axborot, universitet tili bilan aytganda o'zining "auditoriyasi"ga ega

bo'lib, uning jamoat va dunyoqarash tasavurlarini ijtimoiy yo'naltira olishi, zamonaviy reallik, rang-baranglig qonuniyatlari jamiyat hayotining siosiy-iqtisodiy rivojini boshqaruvchi asosiy qonuniyatlar haqida ma'lumot bera olishi lozim.

Axborot jurnalistika, uning auditoriyasi orasidagi vosita bo'lib, u o'zining jurnalistikaning siyosiy institut sifatidagi o'z oldiga qo'ygan xilma-xil muammolarini yechishga xizmat qilishi kerak. "Ommaviy axborot vositalari"- atamasi ham shunga asoslangan.

Internet jurnalistikasi oddiy jurnalistikaga nisbatan o'zining qanaqangi yangiliklari va afzalliklari bilan kirib keladi?

- Interaktivligi. Bunday xususiyat Internet texnologiyasining o'zida mujassam bo'lib, bunda u o'zining ko'p tomonlama "tarmoq"li aloqasini taminlaydi.

- Professional yondashuv. Bunda u har bir o'quvchi yoki guruhning o'zlarini shaxsiy qarashlari, fikrlari va talablarini hisobga olish imkonini beradi.

- Matbuotga yo'nalganligi. Bu holatda har bir o'quvchi, o'zining hohlagan axborotini, hohlagan darajada olishi va uni hohlagan darajada o'rganishi, tahlil qilishi imkoniga ega.

- Oniylik. Buni afzalligi shunda bo'lib, unda ma'lumotlarni uzatish tezligi nihoyatda katta bo'lishi bilan bir qatorda, kerakli ma'lumot uzatilgan joyga tez va shu bilan bir qatorda sifatli yetib boradi.

- O'lchamlilik. Bu o'quvchilarga u yoki bu axborotni muhimlik darajasini tez va qulay aniqlab olishga imkon yaratadi.

- Hamfikrlilik. Bunda ma'lumot sahifasini tez va qulay ravishda har bir tashrif etuvchi fikrini hisobga olgan holda yangilab borish imkoniyati tushuniladi.

- Tejamlilik. Internet ma'lumotlarini tarqalishidagi ta'minotni qimmatligiga qaramasdan, har bir o'quvchiga kerakli ma'lumot qog'ozli ma'lumotga nisbatan tezroq va arzonroq, eng muhimi sifatli yetib boradi.

Hozirgi kunda yaratilayotgan yurtimizdagi Internet jurnalistikasi sahifalari orasida bunday talablarga javob bera oladiganlari ham, bera olmaydiganlari ham bor. Shu xususda, yani internet jurnalistikasini takomillashtirish maqsadida me'zonlar, o'quv markazlar va ko'plab saytlar yaratilsa, maqsadga muvofiq bo'lardi.

Jurnalist etikasi tamoyillari, uning axloq-odobi me'yorlari ilk bor 1954-yil 25-28-aprelda Bordo shahrida o'tgan Xalqaro jurnalistlar federatsiyasining II Jahon Kongressida qabul qilingan "Jurnalist faoliyati prinsiplari Deklaratsiyasi"da qayd qilingan. Bu hujjatga Xalqaro jurnalistlar federatsiyasining 1986-yil 2-6-iyunda Xelsinkida o'tgan XVIII Umumjahon Konferensiyasida bir qator o'zgartishlar kiritilgan. Unda quyidagi bosh tamoyillar (prinsiplar) bayon etiladi: "Haqiqatni barcha hurmat qilishi lozim, jamiyatning ana shu haqiqatni bilishga bo'lgan huquqi – muqaddasdir, axborotni xolisona to'plash va uni OAVda chop etishda erkinlik prinsiplari qo'llanilishi darkor. Jurnalistning xolisona sharh qilish huquqi, tanqid qilish huquqi, kasbiy sirini saqlash huquqi, axborot manbaini oshkor qilmaslik huquqi va boshqa huquqlari mavjuddir".

Hujjatda keltirilgan qoidalarning ayrimlari O'zbekistonda qabul qilingan OAVga doir qonunlarda ham o'z ifodasini topgan.

Internet-nashrlar O'zbekiston an'anaviy jurnalistikasida yangi davrni boshlab berdi. Platformalar jurnalistlariga qo'yilayotgan talablar gazeta va jurnallar, radio va televideniye talablaridan yuqori. Boisi, xodim bir vaqtning o'zida ham jurnalist, ham fotomuxbir, ham sayt administratori vazifalarini bajarishi kerak. Shu sabab ham O'zbekistonda keng qamrovli, ko'p qirrali, tezkor jurnalist kadrlarga ehtiyoj katta.

Sohada professional bo'lmagan, jurnalistika amaliyotidan xabardor, ammo nazariyasini o'rganmaganlar juda ko'p. Achinarlisi shundaki, internetda ishlayotgan hamma – blogger, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalar administratori, tarjimon, "frilanser", reportyor, "kopirayter"lar bir nom bilan ataladi – jurnalist! Shu sababdan ham fan nazariyasini o'rganish, jurnalistikaning mohiyatini tushunish, uning maqsad va vazifalarini to'liq anglab yetish unchalik muhim bo'lmay qolgan. Asosiy g'oya – xabar yetkazish, tanqid va tahlil qilish. Buning uchun kerak bo'ladigan bilim, saviya, mahorat, hayotiy tajriba ko'pincha ikkinchi darajaga tushib qolyaptiki, ba'zan berilayotgan xabarlar na umuminsoniy, na milliy qadriyatlarga mos keladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, jurnalistning so'zi, yozayotgan maqolasi, tayyorlayotgan ko'rsatuv va eshittirishi jamiyatda hal qiluvchi kuchga ega. U davlat va xalqning ayni davrdagi kayfiyatini o'zida aks ettiradi. Shunday ekan, jurnalist o'z

pozitsiyasiga ega bo'lishi, jamiyat manfaatini shaxsiy manfaatidan ustun qo'yishi, savodli, kuzatuvchan bo'lishi lozim.

Jurnalistikaning rivojini nazariyasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Yuqorida ta'kidlanganidek, internet-jurnalistika sohada yangi davrni boshlab berdi. Mamlakatda internet OAVlar soni ko'payib borayotgani kishini quvontiradi. Biroq, bu sohada kadrlar tanqisligi sezilayotgani, jurnalistika fakultetlarida onlayn-jurnalistika bo'yicha mutaxassislar tayyorlashga e'tiborning sustligi, O'zMU Jurnalistika fakultetida Internet jurnalistikasi kafedrasini faoliyatining tugatilganligi, nazariy va amaliy bilimga ega bo'lgan pedagoglarning yetishmasligi, o'zbek tilidagi o'quv qo'llanmalar, sohaga oid adabiyotlarning ozligi sohada qator muammolarni keltirib chiqarmoqda. Shu bois:

- internet OAVlarida tarqalayotgan xabarlarining chek-chegarasi yo'qligi, qamrovi kengligi, yolg'on axborotlar ham yashin tezligida dunyoning narigi chekkasiga yetib borayotganini inobatga olib, bunday axborotlarning tarqalishiga nisbatan vaksina sifatida har bir internet OAV ta'sis hay'ati yoki tahririyat kengashiga jurnalist diplomiga ega bo'lgan bitta bo'lsa ham professional jurnalistni kiritish;

- O'zbekiston jurnalistlar uyushmasi OAVlarda muxbir, "kopirayter", tarjimon reportyorlar bazasini yaratish, ommaviy axborot vositalari uchun professional jurnalistlar taqsimotini yo'lga qo'yish;

- jurnalistika fakultetlarini tugatgan, ammo ish bilan ta'minlanmagan kadrlar uchun alohida aloqa markazi yoki portal tashkil etish;

- mavjud OAVga doir milliy qonunchilikka internet OAVga daxldor o'zgartish va qo'shimchalar kiritish;

- milliy professional jurnalistlar etikasi qoidalarini ishlab chiqish;

- internet jurnalistikaga doir o'quv qo'llanma va darsliklar chop etish kabilarga keng ahamiyat qaratish joiz.

Zamonaviy media-maydon sifatida internet ommaviy axborot vositalarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishda O'zbekiston mustaqil bosma ommaviy axborot vositalari va axborot agentliklarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondi muhim o'rin tutadi. Materialni sifatli qilib uzatish internet ommaviy axborot vositasining muhim ustuvorliklaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ворошилов В.В. Журналистика. Учебник.: изд-во Михайлова В. А., 1999.
2. Do'stmuhammad X. Jurnalist bo'lmoqchimisiz? — T.: 2001.
3. Журналистика западноевропейских стран. Учебн. пособ. (Отв. ред. В.С. Соколов). — Л.: 1990.
4. Jo'rayev S., Azizov Sh. Ijodiyot asoslari (Shaxs va jamiyat). — T.: «Ma'rifat-ijodkor», 2003.
5. Ученова В.В. Публицистика и политика. — М.: «Политиздат», 1978
6. Mo'minov F.A. Jurnalistika ijtimoiy institut sifatida. - T.: «Universitet», 1998

ФИО автора: *Otakova Mahbuba Alisherovna*

Ichki ishlar vazirligi

Xorazm akademik litseyi

huquqshunoslik fani o'qituvchisi

Xorazm, O'zbekiston

Название публикации: «HUQUQIY ONG VA HUQUQIY MADANIYATNI YUKSALTIRISH BUGUNGI KUNNING ZARURIY TALABI»

Annotatsiya. Ushbu maqolada huquqiy davlat qurishda huquqiy ong va huquqiy madaniyatning o'рни kattaligi va buning uchun avvalo har bir shaxsning huquqiy immunitetini, huquqiy savodxonlik darajasini yaxshilash masalalari yoritib o'tilgan.

Kalit so'zlar: davlat, huquq, qonun, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, partiya, shaxs, farmon, jamiyat, demokratiya, siyosat, norma.

Аннотация. В статье рассматривается роль правового сознания и правовой культуры в построении правового государства и с этой целью, прежде всего, в повышении правового иммунитета каждого человека, уровня правовой грамотности.

Ключевые слова: государство, закон, закон, правовое сознание, правовая культура, партия, личность, указ, общество, демократия, политика, норма.

Annotation. This article highlights the role of legal consciousness and legal culture in building a state governed by the rule of law, and for this purpose, first of all, to improve the legal immunity of each person, the level of legal literacy.

Key words: state, law, law, legal consciousness, legal culture, party, person, decree, society, democracy, politics, norm.

Huquqiy madaniyat xalqimizning azaliy an'analariga, udumlariga, tiliga, diniga, ruhiyatiga asoslangan holda insof va iymon, adolat va qonuniylik, insonga yuksak hurmat va e'tibor, sabr-toqat kabi ma'rifat va haqiqat tuyg'ularini ongimizga singdirishga xizmat qiladi. Shuning uchun ham kishilarning fikrini, dunyoqarashini mustaqilligimiz yo'lida fidokorona mehnat qilishga yo'naltirilgan huquqiy madaniyatni yuksaltirish hayotiy zaruriyatdir. Aholining huquqiy madaniyati va

huquqiy ongini yuksaltirish, huquqiy ta'lim va ma'rifatni, jamiyatda huquqiy bilimlar tartibotini tubdan yaxshilash, inson huquq va erkinlariga chuqur hurmat va ehtiromga asoslangan munosabatni, odamlarda qonunga itoatkorlik tuyg'usini, qonunlarni bilish va unga qat'iy amal qilish saodatmandligini qaror toptirish bugungi kunning zaruriy talabi bo'lib kelmoqda.[1]

Huquqiy demokratik davlat va adolatli fuqarolik jamiyati qurish jarayonida, avvalo, har bir fuqaroning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini shakllantirib borish asosiy va muhim vazifa hisoblanadi. Huquqiy davlat qurishning zaruriy sharti - bu qonunlarning so'zsiz bajarilishidir. Qonunlarning bir xilda va so'zsiz bajarilishi har bir shaxsning o'z vazifasiga munosabati va zimmasidagi mas'uliyatni his qilishiga bog'liqdir. [2]

Avvalo huquqiy ong va huquqiy madaniyatga olimlar tomonidan berilgan turlicha ta'riflar bilan tanishib chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi, jumladan, professor Islomov huquqiy ongga shunday ta'rif beradi: "Huquqiy ongni mamlakat fuqarolarining ham amaldagi huquqqa, yuridik amaliyotga, fuqarolar huquqlari, erkinliklari, majburiyatlariga, ham orzu qilingan huquqqa va boshqa huquqiy hodisalarga munosabatini ifodalovchi huquqiy sezgilar, g'oyalar, baholar, tasavvurlar tizimi sifatida ta'riflash mumkin".[3] Professor Dmitrievning ta'rificha: "Huquqiy ong bu insonlarning va ularning turli birliklarining hamda butun jamiyatning amaldagi huquq va huquqiy hodisalarga nisbatan qarashlari, g'oyalari, tasavvurlari yig'indisidir"[4] Huquqiy madaniyatga berilgan ta'riflarga kelsak, U.Tajixanov va A.Saidovlar o'zlarining Huquqiy madaniyat nazariyasi nomli kitobida huquqiy madaniyatga shunday ta'rif berishadi: "Huquqiy madaniyat deganda jamiyatda qaror topgan huquqiy tizimning darajasini, xalqning bu huquq tizimidan xabardorlik darajasini, fuqarolarning qonunga bo'lgan hurmati, huquqiy normalarning ijro etilish darajasi, huquqqa rioya qilmaganlarga murosasiz bo'lish, qonunga itoatkorlik darajasini tushunamiz"[5]

Demak, yuqoridagilardan xulosa qiladigan bo'lsak, qabul qilinayotgan qonunlar, har qanday normativ-huquqiy hujjatlar, huquq sohasida bo'ladigan o'zgarishlardan toliq tarzda xabardor bo'lib, o'rganib chiqilishi natijasida huquqiy ong va tushunib

yetib unga amal qilinishi esa huquqiy madaniyatni shakllantiradi. Huquqiy madaniyatning yuksak darajada bo`lishi huquqiy davlatning o`ziga xos xususiyatidir. Bozor iqtisodiyotini shakllantirish sharoitida huquqiy madaniyatni oshirish muhim vazifa sanaladi. Fuqarolarning yuksak huquqiy ongi va huquqiy faolligi ma'rifiy jamiyatda huquq ustuvorligining, huquqiy davlatning poydevoridir.

Fuqarolarning huquqiy ongini shakllantirish, huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyatchilikka qarshi kurashishning zarururiy talabidir. Haqiqattan ham shunday, huquqiy immunitet shakllangan shaxsga tashqaridan kirib keladigan yot g`oyalar, qarashlar, qonunga xilof xatti-harakatlar o`z ta'siriga ega bo'lmay qoladi. Ijtimoiylashuv natijasida shaxslar ezgulik va adolat, inson sha'ni va uning toptalishi hamda erkinlik va qullik kabi qonuniyatning mavjudligini anglab idrok etishadi. "Nima yaxshi-yu nima yomonligini" tushunib yetishda esa ularga aynan huquqiy savodxonlik, huquqiy yetuklik yordam beradi.

Mamlakatimizda mustaqillikka erishganimizdan so`ng aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishga katta e'tibor berib kelinmoqda. Jumladan, 1997- yil 29-avgustda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi" qabul qilingan edi. Unda aholi huquqiy madaniyat darajasining oshirilishi qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati xodimlarining bilimdonligiga ko`p jihatdan bog`liqligi, huquqiy madaniyatning ilmiy asoslarini tadqiq etishni rag`batlantirish, ijtimoiy – huquqiy tadqiqotlarni tashkil etish[6] norm.uz va boshqa masalalar o`z aksini topgan. Biroq bugungi kunga kelib zamon o`zgarishi, fuqarolarning fikr yuritish darajasi o`zgarganligi sababli ushbu milliy dasturni yangilash vazifasi qo`yilmoqda. Bundan tashqari 2017 –yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to`g`risida"gi Prezident farmoni, 2017-yil 7- sentabrda qabul qilingan "Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlash to`g`risida"gi qonun, 2018- yil 13- apreldagi "Davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda adliya orgnlari va muassasalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora – tadbirlari to`g`risida"gi Prezident farmoni, 2019- yil 9- yanvardag " Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to`g`risida"gi Prezident

farmoni va boshqa me'yoriy – huquqiy hujjatlarning qabul qilinganligini ko`rish mumkin.[7]

Aholining qonunlarga huquqiy jarayonlarga ishtirokini va ularning xabardorlik darajasini aniqlash uchun alohida jamoatchilik fikri so`rovlari ham o`tkazilib turiladi. Misol tariqasida 2017-yilda “Ijtimoiy fikr” jamoatchilik fikrini o`rganish Markazi tomonidan “O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 25 yilligi “ mavzusida jamoatchilik fikri so`rovi o`tkazilgan edi. O`tkazilgan so`rov ma'lumotlariga ko`ra, fuqarolarning mutlaq ko`pchiligi, ya'ni 90,5 foizi O`zbekiston Konstitutsiyasini “mamlakatdagi huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi bosh hujjat”, deb hisoblaydi, unda suveren davlat va adolatli jamiyatni shakllantirishning fundamental asoslari, inson huquqlarini himoya qilish va mustahkamlashga, demokratiya va ijtimoiy adolat ideallariga, fuqarolar osudaligi va millatlararo totuvlikni ta'minlashga sodiqlik mustahkamlab qo`yilgan. Mutlaq ko`pchilik fuqarolarning – 86,3 foizining fikricha , asosiy qonun nafaqat davrning zamonaviy talablariga javob beradi, balki istiqbolga mo`ljallangandir deya fikr bildirishgan. Mazkur so`rovda aholining o`z fuqarolik huquqlari to`g`risida xabardorlik darajasi aniqlandi. “Siz o`z fuqarolik huquqlaringizni bilasizmi?”, degan savolga fuqarolarning mutlaq ko`pchiligi – 92,6 foizi tasdiqlovchi ovoz berdi.[8] xuddi shunday ijtimoiy so`rovlar tez-tez o`tkazilib turilishi aholining fikrini o`rganish va ularda mavjud bo`lgan kamchiliklarni bartaraf etishga katta yordam beradi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Parlamentimiz haqiqiy demokratiya maktabiga aylanishi, islohotlarning tashabbuskori va asosiy ijrochisi bo`lishi kerak” nomli ma`ruzasida siyosiy partiyalar,ularning parlamentdagi fraksiyalari va deputatlarning faoliyatini tanqidiy tahlil qilib, quyidagi fikrlarni bayon etdi: “Deputatlarning ish uslubini takomillashtirish, aholining huquqiy madaniyatini oshirish maqsadida siyosiy partiyalar orqali: “Markaz - viloyat - tuman” tartibida ishlaydigan yangi tizimni joriy etish ayni muddao bo`lar edi”[9],- degan fikrni bildirganlar, chunki barcha qonunlarning yaratilishi, ishlab chiqilishi deputatlar tomonidan amalga oshiriladi. Ular xalqning orasida bo`lib barcha taklif va tavsiyalar, kamchiliklarni o`rganib chiqib xalq manfaatlaridan, xalq ehtiyojlaridan kelib chiqqan

holda qonunlarni yaratishlari shart va zarur. Bekorga “Markaz-viloyat-tuman” tartibida ishlaydigan tizim deb aytmaganlar, har qanday siyosatda bo’ladigan o’zgarish va qo’shimchalar markazdan viloyatga undan tuman va boshqa chekka hududlargacha yetib borishi xalq xabardor bo’lishi va o’z fikr –mulohazalarini yetkazishi kerak ekanligini hisobga olib bunday tizim yartish kerakligini aytib o’tganlar. Mamlakatimizda ijroga yo`naltirilgan har bir qonun, amaldagi huquqiy hujjatlarga kiritilayotgan o’zgartish va qo’shimchalardan aholini izchil hamda keng xabardor qilishda jamoatchilik ishtiroki va faolligi muhim. Kommunikatsiya texnologiyalari, davlat organlari bilan ijtimoiy sherikchilik imkoniyatlaridan samarali foydalanish lozim.[10]

Yana bir asosiy hususiyati borki, bu tez aytish davomida ingliz tiliga til tez moslashadi va miya avtomatik tarzda bunday so'zlarni tanlaydi, gap holiga keltiradi. Bunday usulni har bir ingliz tili o'rganuvchisi tez-tez takrorlab turisi kerak.

Keling buni isbotlashga harakat qilamiz: siz boshlang'ich futbol o'yini tayyorlanuvchisiz. Demak sizda to'pga bo'lgan ma'lum ko'nikma zarur bo'ladi. Bu ko'nikmani to'pni ikki oyoqda yerga tushurmasdan tepib turish (to'pni o'ynatish) orqali erishasiz. Bunday harakatdan keyin o'yin paytida bemalol to'pni his qila olasiz. Demak, tez aytish ham o'sha tilni ongda his qilib (tanib) olish uchun kerakli unsurdir.

Blake's black bikes back brake bracket block broke.

Bu tez aytishda faqat "b" harfi talaffuzda to'g'irlanadi va "L" harfi va "r" harflari bir biri bilan so'zlarda joy almashyotganiga guvoh bo'lyapmiz. Bu tez aytishda Blake va black, bike va back, brake va bracket, block va broke (zamonda moslashgan) so'zlari o'xshash va ayni paytda butunlay boshqa ma'noda kelayotganini o'rganish va xotiraga muxrlash mumkin. [1, 45]

Quyida inglizcha tez aytishlardan namunalar:

- Each Easter Eddie eats eighty Easter eggs.
 - There was a young fisher named Fisher who fished for a fish in a fissure.
 - Great gray goats.
 - Clowns grow glowing crowns.
 - She sells sea shells on the sea shore
- And the shells she sells are the sea shells I'm sure.

So'nggi tez aytishimiz juda uzun va juda qiziqarli. Bunday qiyin va uzun, so'zlarida yangilash ketish oson bo'lgan tez aytishlarni ingliz tilini o'rganishda balandroq darajaga yetgandan keyin takrorlasa, yoki yodlab aytib yursa, yana bir daraja yuqorilashdagi chegarasi ancha yaqinlashadi.

Quvnoq tez aytishlar nafaqat foydali, balki juda qiziqarli bo'lib, odamni zeriktirib qo'ymaydi va yana shu mashg'ulotni takrorlayveradi. Bu esa yaqin davrlarda ingliz tilini ancha mukammal egallashga va ravon gapirishga olib keladi. [1, 34]

Inson psixologiyasi yangi til o'rganayotganda endigina yurishni o'rgangan va endi gapira boshlagan chaqaloq kabi avval o'sha tilni tinglaydi va uni o'zining talaffuzida sinab ko'radi. Bunday sinovlar vaqt o'tishi bilan yanada katta ko'lamlarni zabt etishni hohlaydi. Ko'p so'zlar yodlanishi, qyta va qayta o'sha tildagi suhbatlarni tinglash orqali inson o'zida ma'lum nutqni shakllantirdi, biroq bu hali yetarli

bo'lmaydi. Chunki, faqat tinglash orqali nutqni mukammal darajaga olib chiqib bo'lmaydi. Uni amaliyotda sinab ko'ra boshlaydi. Bu amaliyot avval kichi-kichik so'zlarni aytib ko'rishdan boshlanadi. Ayni shu aytib ko'rish bosqichi endigina gapirishni o'rganayotgan bola darajasidda bo'ladi. Vaqt o'tishi bilan ma'lum darajadagi dag'al nutq ham paydo bo'ladi. Ammo nutq mukammallikka yetish uchun uchun endi faqat so'z yodlash emas, balki uni bir-biriga qo'shib gap holga keltirish va o'sha gapni nutqdan tez va ravon chiqarishga urinadi. Buning uchun esa tez aytishning qochirimlari, chalg'ituvari qo'l keladi.

To'g'ri, yangi til o'rganayotgan o'rganuvchining nutqi yosh bolanikiga nisbatan tezroq shakllanar. Bunga sabab Yoshi katta bo'lgan sari unda ma'lum nutq mavjud bo'ladi va yana bir huddi shunday nutqni shakllantirishda psixik to'siqqa kam uchraydi. Buning asosiy sabablarining biri tasavvur qobilyatidir.

Tasavvur qobilyati – Yoshi kattalarda ancha kuchli bo'ladi va aytilgan yangi so'zni butun borlig'i bilan tassavvur qila oladi va bu xotirada muqim qolishida katta rol o'ynaydi.

Tez aytishni aytishga ikki xil sabab, maqsad bor. Biri folklor yo'nalishida aytilib, ya'ni ma'lum qoidalariga amal qilgan holda, kayfiyat ko'tarish uchun aytiladi, keying sabab esa ma'lum maqsadda hech qnday qoidalarsiz faqat o'zining nutq qobilyatini takomiillashtirish, ma'lum til o'rganishdir. Ikkinchi maqsad anchagina muhim bo'lib, bunda muayyan maqsad asosida vaqt sarfi hisobga olinmay to'g'ri va ifodali aytish hisoblanadi. Bunday maqsadda asosan yangi til oo'rganayotganlar shug'ullanadi. Ularning xotirasi va nutqiy qobilyati anchagina rivojlanishi uchun bu mashg'ulot asqatadi. Tez aytishdan til o'rganish uchun foydalangan har bir shaxs o'zida ko'p vaqt o'tmasdan katta o'zgarishlar his qila boshlaydi. Bular nutqiy qobilyati oshadi, xotirada so'zlarni muqim saqlay oladi, o'xshash so'zlarni bir-biridan farqlay oladi, o'sha tilde gapirilgan ko'pgina so'zlarni tushuna oladi, ya'ni eshitib tushinish qobilyati oshadi.

Tez aytishning til o'rganayotganda ikki xil aytish usuli bor: ovoz chiqarib va ovoz chiqarmasdan aytish. Ovoz chiqarib aytganda noma'lum tilning so'zlari quloqqa va miyyaga o'rnashadi va o'sha so'z qachon va gapda qay holda kelishini anglab oladi.

Nafaqat so'zni, balki butun o'sha tilning ohangiga quloq moslashadi va natijasi eshitib tushinish qobiliyati rivojlanadi. Bu usul bilan IELTS (ingliz tilini bilish darajasini baholovchi sertifikat) imtihonidagi to'rt qismdan bitta qismini ya'ni eshitib tushinish qobiliyati (listening) ni qisqa muddatda oshirish va rivojlantirish mumkin. Boshqa tarafdin esa ovoz chiqarib o'qish orqali so'zlarni talaffuzi va qanday yozilishini o'rganish mumkin. Ovoz chiqarmasdan o'qish unchalik foydali bo'lmasada nutqni to'g'ri talaffuz qilishga yordam beradi. Ovoz chiqarib o'qishda o'rganuvchi quloq orqali eshitib tasavvur qilgan bo'lsa, ovoz chiqarmasdan o'qishda ko'zlar bilan ko'rib, so'zlarni ichida takrorlash orqali tasavvur qiladi va shu tilga ko'z orqali moslashadi. Bu esa shu tilda biror narsa o'qishni osonlashtiradi. Qolaversa, o'sha tildan notanish bo'lgan so'zlarni yodlaydi va shu bilan bir qatorda o'qib tushinish qobiliyati rivojlanadi.

Mening xulosam shundan iborat-ki, ingliz tilini o'rganishda tez aytishning foydasi ko'pligini, uni o'rganish vaqti masofasi sezilarli qisqarishini ko'rib chiqdik-ki, bu usul nafaqat ingliz tili, qolaversa, boshqa tillarni ham o'rganishda qo'l kelishini angladim. Chunki har bir tilda o'xshash so'zlar, o'xshash iboralar va albatta tez aytishlari ham mavjud. Bularni so'z qochirimlari deyish ham mumkin. Aytilish ohangi va yozilishi o'xshash, ma'lum ma'noni yuzaga keltiruvchi so'z va jumalardan foydalaniladigan tez aytishlar aynan shu tilni o'rganishdagi muhim kalitlardan biri ekanligini ko'rib chiqdik. Ma'lum matn yoki hikoyacha o'qib ham nutq qobiliyati yoki xotira, so'zlarni yodlash singari qobiliyatlarni rivojlantirish mumkin. Lekin, tez aytishda so'zlar gap holiga shunday teriladi-ki, bir so'z ikki so'zga ma'no-mazmuni bilan va aytilish ohangi bilan o'xshash bo'ladi. Buning natijasida o'rganuvchi bir ko'rgan so'zini yoki eshitgan so'zini uning ma'nodosh va ohangdosh so'zlari bilan birga eslaydi va gapiryotganda nutqiy to'xtalishlar kamayadi, so'zlarni bir-biriga bog'lab tezroq va aniqroq gapira oladi. Yana bir foydali tomoni bunday natijaga tezroq va samaraliroq, tartibli va ko'p qiyinchiliksiz erisha oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “Ingliz tilida tez aytishlar to’plami”, Nasim Sadikov, 2017.
2. “Kichik yoshdagi o’quvchilarning nutqini shakllantirishda tez aytish, topishmoq va maqollarning ahamiyati”, Rahimova Gulbahor, Shodiyeva Jamila, SamDU.

ФИО автора: *Napasova Sanobar Sayfulla qizi*

Samarqand Davlat Universiteti talabasi

Название публикации: «BOSHLANG'ICH TA'LIMDA FANLARNI O'QITISHDA O'QITISH USLUBLARI VA ULARNING TA'LIMY AHAMIYATI»

Аннотация. Ushbu maqola eng dolzarb bo'lgan: boshlang'ich ta'lim muassasalarida o'quvchilarning o'zlashtirishini o'stirish hamda fanning ichiga bevosita olib kirish, dars jarayonlarini turli xildagi interaktiv o'yinlar va o'quv qurollari orqali samarali tashkil qilish bo'yicha mavjud muammolarni hal etish, shuningdek amaliy yechim topishga qaratilgan.

Tayanch so'zlar: metodika, ta'lim jarayoni, pedagogik texnologiyalar, o'qish texnologiyasi.

Har bir oliy ta'limning negizini boshlang'ich ta'lim tashkil etadi. Maktabda o'tiladigan fanlarga qiziqtirish, kelajakda ma'lum sohaga yo'naltirish ko'p hollarda aynan boshlang'ich ta'limda yuz beradi. Mamlakatimizda hm boshlang'ich ta'lim sohasining jamiyat taraqqiyoti, shaxs rivojlanishidagi naqadar o'rni beqiyosligini inobatga olgan holda, maktablarda boshlang'ich ta'limni rivojlantirish bo'yicha turli xil chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bularning barchasi ta'limda ta'lim sifatini oshirish, darsni mazmunli tashkil etish va o'quvchiga yetarli malaka va ko'nikma-bilimni berish uchun amalga oshirilmoqda.

Ta'lim metodlarini to'g'ri tanlash va ulardan o'rinli foydalanish - ta'lim samarasini ta'minlashga yordam beradi

—Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida ta'lim berishning ilg'or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o'quv-uslubiy majmualarini yaratish kabilar umumiy o'rta ta'limning asosiy vazifalaridan biri sifatida ta'kidlangan.

Pedagogik texnologiya usullaridan foydalanish o'qituvchi va o'quvchi faoliyati doirasini aniq belgilab beradi.

O`qitish metodi deganda ta'lim jarayonida o`qituvchi va o`quvchilarning kutilgan maqsadga erishishga qaratilgan birgalikdagi faoliyati tushuniladi. O`qitish usullari ta'lim jarayonida o`qituvchi va O`quvchi faoliyatining qanday bo`lishini, o`qitish jarayonini qanday tashkil etish va olib borish kerakligini belgilab beradi.

O`qitish usullari har ikkala faoliyatning:

- a) o`qituvchi tomonidan o`quvchilarni bilim, ko`nikma va malakalar bilan qurollantirish;
- b) O`quvchilar tomonidan berilayotgan ilmiy bilim, ko`nikma va malakalarni o`zlashtirish faoliyatida qo`llanadigan yo`llarni o`z ichiga oladi. Inson hayotida muhim ahamiyatga ega bo`lgan o`qish faoliyati barcha predmet darslarida amalga oshiriladi. Lekin o`qishga o`rgatish yo`l-yo`riqlarini o`qish metodikasi ishlab chiqadi. O`qish metodikasi kichik yoshdagi o`quvchilarning umumiy rivojlanishi, psixologiya, xususiy metodika sohasidagi yutuqlar asosida takomillashtirilib boriladi. O`qish darsining samaradorligi ko`p jihatdan ta'lim metodlarining to`g`ri tanlanishiga bog`liq. Binobarin, fanning o`zi kabi o`qish metodlari ham doimiy rivojlanishda bo`ladi.

Masalan, eski maktablarda o`qish quruq yod olish metodi asosida o`rgatilgan bo`lsa, hozir izohli o`qish asosida olib boriladi. Yod olish metodida matndagi sozlarga izoh berishga, ma`nosini tushuntirishga, o`qilganni qayta hikoyalashga, umuman olganda, o`qishning ongli bo`lishiga mutlaqo e`tibor berilgan. Ularda ko`proq to`g`ri talaffuz, qiroat bilan o`qish, ifodali o`qish nazarda tutilgan.

Hozir maktablarda o`qish izohli o`qish metodi asosida olib borilayotgan ekan, quyidagicha savol tug`iladi: izohli o`qish nima?

Izohli o`qishga XIX asrning 60-70-yillarida rus pedagogi K. D. Ushinskiy asos slogan, u o`qishda o`quvchilarni ongli, tushunib, o`ylab o`qishga o`rgatishni alohida ta`kidlaydi va uni Izohli o`qish deb nomlaydi.

Izohli o`qish metodiga K. D. Ushinskiy ishining davomchilari yangiliklar kiritdilar. Korf va Vaxterev izohli o`qish o`quvchilarga real bilim berish vositasi desa, Vodovozov va Bunakov o`quvchilarga o`qish jarayonida ham badiiy asar tahlili

va asarning tarbiyaviy xarakteri bilan bo'g'liq holda beriladi, degan fikrni ilgari suradilar.

Professor Asqar Zunnunov o'qitishning mazmuni va usullari haqida fikr yuritib, o'quvchilarning oldin bilimlarni o'zlashtirishiga, so'ng yod olishlariga e'tibor berilishi ta'lim jarayonida izohli o'qish deb nomlanganini ta'kidlaydi.

Demak, izohli o'qish deb o'ylashga, his qilishga, asarni to'liq idrok qilishga, o'qilganning mazmunini o'zlashtirishga olib keladigan o'qishga aytiladi. Izohli o'qish asar mazmunini tushunishni, asardagi muhim fikrni, yozuvchi ilgari surayotgan g'oyani anglashni ta'minlaydi.

Izohli o'qish quyidagi tamiyillarga to'liq amal qilingandagina muvofaqqiyatli bo'ladi:

1. o'qishni hayot bilan bo'g'liq holda tashkil etish.

2. o'qishning ongli va ta'sirchan bo'lishi uchun o'quvchilarning hayotiy tajribalariga, taassurotlarga asoslanish.

3. O'qishni ko'rgazmali tashkil qilish, tabiatga, tarixiy joylarga ekskursiyalar uyushtirish, hayvonot olami va o'simliklar dunyosini kuzatish, rasmlar, jadvallar, predmetlar bilan tanishtirish hamda matnni o'quvchining ifodali o'qishi tarzida olib borish.

Boshlang'ich sinf o'qish darslarida asosan she'rlar, masallar, ertaklar, hikoyalar, afsonalar, maqol va topishmoqlar, ilmiy-ommabop asarlar o'qib o'rganiladi. Tabiiyki, ularning har biri o'ziga xos shakl, uslub va mazmunda yaratiladi. Shuning uchun ham har bir janrga mansub asarlarni o'ziga xos usulda o'qib o'rganish taqazo qilinadi.

Badiiy asarni izohli o'qishga yaqin bo'lgan metodlardan biri ijodiy o'qishdir. Atoqli metodist olim N. I. Kudryashov ijodiy o'qish metodi tarkibiga quyidagi ish usullarini kiritadi:

- a) o'qituvchilarning badiiy matnni sharhlab o'qishi hamda o'quvchilarning asarni to'g'ri va imkon qadar yanada chuqurroq, emotsional idrok etishlarini ta'minlash maqsadini ko'zda tutuvchi so'zi:

b) o'qilgan asardan o'quvchilarning bevosita olgan taassurotlarini chuqurlashtirish maqsadiga ega bo'lgan va ularning diqqatini matnning muhim g'oyaviy va badiiy,

axloqiy, ijtimoiy-siyosiy muammoning qo'yilishi;

d) o'qituvchining asar o'qilganidan keyin o'quvchilarning asarni tadqiq etish jarayonida tug'ilgan badiiy kechinmalarini faollashtirish maqsadini ko'zda tutuvchi.

Ifodali o'qish. Boshlang'ich ta'lim tizimida mantiqiy o'qish (matnni to'g'ri, tushunib, tez (me'yorida) o'qish) va adabiy o'qish mukammal o'zlashtirilganidan song ifodali o'qishga o'tiladi. U yod olingan she'riy asarlarni ifodali o'qishni ham o'z ichiga oladi. Ifodali o'qishning muvoffaqiyati o'quvchilarning asar mazmuni, g'oyaviy- badiiy xususiyatlari haqida muayyan tushunchaga ega bo'lishlari bilan bog'liq.

Ifodali o'qish intonatsiya – ohang yordamida asarning g'oyasi va jozibasini to'g'ri, aniq, yozuvchi niyatiga mos ravishda ifodalay bilishdir. Ifodali o'qish adabiyotni aniq va ko'rgazmali o'qitishning dastlabki va asosiy shaklidir, deb ta'kidlaydi metodist olim M. A. Ribnikova. Demak, Ifodali o'qishning asosiy vazifasi asarning mazmunini va emotsionalligini intonatsiya orqali o'quvchilarga ko'rgazmali qilib ko'rsatishdir. Ifodali o'qishning asosiy tamoyili o'qiladigan asar go'yasi va badiiy qimmatini chuqur tushunishdir.

Ohang va intonatsiya she'riy asarlarni ifodali o'qishda qay darajada muhim bo'lsa, nasriy asarlarni o'qishda ham muhim talablardan biridir.

Nasriy asarlarni o'qishdan oldin unda qanday g'oya ilgari surilayotganini aniqlash zarur. Masalan, ifodali o'qish oldiga qo'yilgan 4-sinfda X. To'xtaboyevning —Xatosini tushungan bola hikoyasini ifodali o'qishdan oldin o'quvchilarga xatosini tushungan bola kim ekanligi, uning xatosi nimalardan iborat bo'lganligi, maqtanchoqlikning yomon illat ekanligi to'g'risida tushuncha beriladi.

Ifodali o'qish oldiga qo'yilgan bu talab M. Abdurashidxonovning —Ha kim ekanin itl, kabi she'riy hikoyalarini o'qishga ham xosdir.

Matnni ifodali o'qishga tayyorlanish

1. Matnni diqqat bilan o'qing.

Unda nima haqida aytilganini tushunishga harakat qiling.

2. Mavzuni, asosiy g'oyani, aytilish tonlarini aniqlang.

3. Matnni nima maqsadda o'qishingiz va tinglovchilarni nimaga ishontirishingiz haqida o'ylang.

4. Gapdagi muhim ahamiyatga ega bo'lgan so'zlar ma'nosini belgilang.

5. Qayerda pauzalar bo'lishini belgilang.

6. Og'zaki, ifodali nutqning yana qanday usullaridan foydalanishingizni o'ylang, masalan, nutq tempi, ovoz balandligi yoki pastligi.

Xotira, nutq va tafakkurning rivojlanishiga 5moduldagi ishlar xizmat qiladi. Bunday ishlarni tartibga solish uchun quyidagi eslatmadan foydalanish maqsadga muvofiq.

Badiiy o'qish. Badiiy o'qish ifodali o'qishning yuksak bosqichi hisoblanadi.

Unda soz san'atining barcha komponentlari ishtirok etadi. U o'quvchidan asar ruhiga batamom kirishni, san'atkorona o'qishni talab etadi. Badiiy o'qishda asar qahramonlarining ruhiy holati, kechinmalari to'la anglab yetilgandagina ta'sirchanlikka erishish mumkin. Badiiy o'qishga tayyorgarlik ko'rishda aktyorlarning audio-video tasmlarga yozilgan ijrolaridan foydalanish yaxshi samara beradi.

Badiiy o'qishning muvoffaqiyatini ta'minlaydigan omillardan biri tanlab o'qishdir. Masalan, 3-sinfda X.To'xtaboyevning —Hassal hikoyasi bilan tanishish jarayonida Qobil boboning savollariga Shavkatning javoblari yoki S. Anorboyevning —Bahs hikoyasidagi epizodi yuzasidan o'qituvchi topshirig'iga ko'ra mazkur o'rinlarni tanlab qayta o'qilishi natijasiga ushbu asarlarning badiiy-estetik qimmatini chuqurroq o'zlashtirishga erishiladi.

Izlanish metodi. Bu metod asardagi voqea va tafsilotlar asosida o'quvchilarga savol-topshiriqlar tuzishda, qahramonlarga baho berishda keng qo'llanilgan usuldir.

O'qish darslarida reproduktiv metod keng qo'llaniladi. Xo'sh bu usulni qachon qo'llash mumkin?

Bu usullar o`quvchilarning yangi tushuncha, hodisa va qonunlarni bilishdagi ijodiy faolliklari darajasini baholash asosida qismlarga ajratiladi. Reproduktiv usullar o`quvchilarning o`quv materiallarini mustahkamroq eslab qolishlarini ta'minlash, bilishga doir faoliyatni bevosita boshqarish, kamchiliklarni tez aniqlash uchun amaliy ko`nikma va malakalarni tarkib toptirish maqsadida qo`llaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Рыбникова М.А. очерки по методике литературного чтени. – Учпедгиз 1945. – стр. 125.
2. Jo‘rayev K. ifodali o‘qish va hikoya qilish. - .: —o‘qituvchi, 1968. 7-9-betlar.

ФИО автора: *Nosirova Dinara Muxammadaliyevna*

Samarqand viloyati Yuridik texnikumi 2-bosqich talabasi

Название публикации: «HUQUQIY ONG VA HUQUQIY MADANIYAT»

Annotatsiya. Ushbu maqolada hozirgi huquqiy ong va huquqiy madaniyat kabi tushunchalarning asl mohiyati va ularni kamol toptirish uchun qilinayotgan sa'y-harakatlar haqida fikr yuritilgan. Har bir fikr qonunlar va farmonlardan misol qilingan.

Kalit so'zlar: huquq, madaniyat, Oliy Majlis, sessiya, farmonlar.

Huquqiy ong - bu jamiyatda kishilarning huquq to' - risidagi qarashlaridir, chunki huquqiy normalar jamiyatning iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotida kishilar o'rtasida turli ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda muhim rol o'ynaydi. Huquq normalari bilan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda huquqiy ong ya'ni kishilarning huquqni bilishligi, huquq normalarini bajarishligin katta ahamiyatga egadir. Huquqiy ong jamiyatda ijtimoiy ongning boshqa shakllaridan – falsafa, siyosat, din, axloqdan farq qiladi. U jamiyatda ijtimoiy ongning maxsus shakli bo'lib hisoblanadi, chunki huquqiy ong keng tushuncha bo'lib, jamiyatda huquqiy normalarni qabul qilish, ularni turmushda qo'llash, huquq to'grisida bilimlarning, ya'ni huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiya to' - risidagi murakkab ijtimoiy vazifalarni o'z ichiga oladi.

Huquqiy ong huquq bilan uzviy ravishda bo-liq. Huquqiy ong va huquqning munosabatlari uning quyidagi xususiyatlarida namoyon bo'ladi: jamiyatda huquqiy ong qonun va boshqa huquq normalarini qabul qilishda turli g'oyalarni rivojlantirishda, ularni qabul qilishda muhim rol o'ynaydi.

Jamiyatda huquqiy ong barcha fuqarolarning, davlat organlarini, ayniqsa huquqni muhofaza qiluvchi idoralar, sud, prokuratura, ichki ishlar idoralari, milliy

xavfsizlik xizmati, adliya organlari va mansabdor shaxslarni huquqni hayotda to'ri qo'llash uchun ular bilan turli ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda muhim ahamiyatga ega. Jamiyatda huquqiy ong amadlagi davlatning harakatda bo'lgan huquqning huquqiy me'yorlarini tartibga solishda, kodifikatsiya qilishda muhim rol o'ynaydi. Jamiyatda huquqiy ong boshqa ijtimoiy ong shakllaridan huquq, majburiyat, burch, huquqbuzarlik va unga qo'llaniladigan jazo choralari bilan farq qiladi.

Huquqiy ong davlatning huquqiy normalarni qabul qilish, huquqiy tashabbuskorlik faoliyatini amalga oshirishda, huquqiy normalarni turmushda qo'llashda ular bilan kishilar o'rtasidagi turli ijtimoiy munosabatlarni tarbiyaga solishda katta ahamiyatga ega. Chunki davlat miyyosidagi har qanday qonun va boshqa huquqiy normalar qabul qilishdan oldin huquqshunos mutaxassislar tomonidan o'rganilib chiqiladi. Shuning uchun huquqshunoslar siyosat va amaliyotni yaxshi bilsa, qabul qilinadigan huquq me'yorlari shunchalik mustahkam bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng fuqarolarning huquqiy ongliligi natijasida, huquqshunos olimlarning faol ishtirokida bozor iqtisodiyotining huquqiy asosini yaratuvchi ko'pgina qonunlar, Kodekslar qabul qilindi.

Huquqiy ong huquq to'g'risidagi kishilarning qarashlarini o'rgatar ekan, u o'zining tuzilishiga egadir, ya'ni huquqiy mafkura va huquqiy psixologiyadan iborat. Huquqiy mafkura deganda, jamiyatdagi turli sinflarning, tabaqa millat va elatlarning huquq to'g'risidagi qarashlari tushuniladi. Jamiyatda qabul qilinadigan davlatning asosiy qonuni Konstitutsiya va boshqa qonunlar, huquqiy normalar jamiyatdagi millatlar va elatlar manfaati nuqtai nazaridan qabul qilinadi. Huquqiy mafkura har bir davlatda huquqdan tashqari, huquqshunoslik fanlarini ham o'z ichiga oladi. Huquqiy psixologiya deb jamiyatdagi har bir kishining huquq to'risidagi qarashlari, bilimlari tushuniladi. Uning paydo bo'lishi va rivojlanishida jamiyatdagi barcha ijtimoiy

guruhlar va kishilar qatnashadi. SHuning uchun huquqiy mafkura va huquqiy psixologiya bir biri bilan bog'liqdir. Jamiyatda huquqiy ongni rivojlantirishda, huquqiy normalarni qabul qilishda huquqiy mafkura asosiy hal qiluvchi rol o'ynaydi. CHunki huquqiy mafkurajamiyatdagi huquqiy ustqarmaning mavjudligini, talabga javob berishini, huquqiy normalarning kishilar o'rtasidagi turli ijtimoiy munosabatlarni tartibga solib mustahkamlashga va rivojlantirishga katta yordam beradi.

Huquqiy psixologiya huquqiy mafkurani ta'minlab turuvchi ozuqadir. CHunki u huquq to'g'risida alohida shaxslarni va jamoatchilikning huquqiy ongidan tashkil topgan. Huquqiy madaniyat kishilarning huquq to'g'risidagi bilimiga, qonunga bo'lgan hurmati, huquqiy me'yorlarni bajarishi, ularga amal qilmaganda huquqbuzarliklar sodir qilinsa, tegishli jazo choralari olishiga aytiladi. O'zbekistonda demokratik huquqiy davlatni shakllantirish jamiyat, mansabdor shaxslar va fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirishni talab qiladi. SHuning uchun huquqiy davlatning muhim belgisi-bu huquqiy madaniyatdir. O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tishi turli demokratik islohotlarni o'tkazishlarni talab qiladi. Bu esa fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini rivojlantirishni talab qiladi. Huquqiy madaniyat umuminsoniy madaniyatning bir qismi hisoblanadi.

Unda kishilar qanchalik madaniyatli bo'lsa, qanchalik huquq normalari va qonunlarni bilsa, yuridik adabiyotlarni bilib ularga amal qilsa, shunchalik huquq buzilishi kam bo'ladi. Shuning uchun respublikamizda kishilarning huquqiy madaniyatini oshirishga katta e'tibor berilmoqda. Jumladan, Oliy Majlisning X sessiyasi jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish to'g'risida dastur qabul qildi. Bu dasturda mamlakat miqyosda aholining huquqiy madaniyatini rivojlantirish va, huquqiy savodxonligini oshirish, huquqiy tarbiyani yaxshilash, yuridik adabiyotlarni ko'paytirish, xalqning yuridik sohada bilimlarini oshirishga katta e'tibor berib,

kishilarni huquqiy ongini rivojlantirish masalasi qo'yildi. Bu borada O'zbekiston respublikasining hozirgi bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tish davrida huquqiy demokratik davlat qurishda, qonunchilikni mustahkamlashda va turli ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy islohotlar o'tkazish uchun aholini huquqiy jihatdan tarbiyalash va huquqiy madaniyatini rivojlantirish muhim rol o'ynadi. Shuning uchun hukumat tomonidan huquqiy tarbiyani yaxshilash, huquqshunos kadrlarni tarbiyalash va jamoatchilik fikrini o'rganish ishini yaxshilash haqida maxsus farmonlar qabul qilindi. Bu farmonlarda Respublika miqyosida aholini huquqiy tarbiyalash va huquqiy madaniyatini oshirish davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri deb belgilandi. Shu Farmonga asosan respublika miqyosida huquqiy tar-ibotni amalga oshirish uchun ToshDYUI huzurida huquqiy ma'rifat markazi tuzildi.

Markazning vazifalari sifatida mamlakatda huquqiy ta'lim, tarbiya va huquqiy madaniyatga e'tibor berib, aholining huquqiy ongini rivojlantirish masalalari qo'yildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Karimov I.A. O'zbekiston XX1 asrga intilmoqda Toshkent. O'zbekiston. 1992 yil.
- 2.Karimov I.A. O'zbekiston siyosiy- ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari.T., 1995 y
- 3.Tojixonov U. O'zbekistonda mustaqil davlatchilikning huquqiy-ma'naviy muammolari. T., 1996
- 4.O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi T. O'zbekiston. 2008 yil.

ФИО авторов: *Xamrayev Og`abek Oybek o`g`li*

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo`jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti
Buxoro filiali talabasi

Raximova Nodira Muxammad qizi

Urganch davlat universiteti talabasi

ФИО научного руководителя: *Xudoyqulov To`ymurod Bekmurodovich*

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo`jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti
Buxoro filiali

Название публикации: «**OLIIY TA`LIM MUASSASALARIDA ZAMONAVIY TA`LIM TARBIYANING SAMARADORLIGI**»

Annotatsiya: Maqolada oliy ta`lim muassasalarida olib borilayotgan o`qitish tartibi hamda sohada hozirga kunga qadar uchrayotgan ba`zi kamchiliklarning oldini olish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar tahlil qilinadi. Shuningdek, talaba yoshlarga faqat ta`lim emas tarbiya berishni ham kuchaytirish zarurligi, dars jarayonlarining yuqori saviyada olib borilishi, o`qishga nisbatan qo`yilayotgan talablar haqida so`z boradi.

Tayanch so`zlar: oliy ta`lim, institut, universitet, talabalar, zamonaviy kadrlar, axborot texnologiyalari, davlat va jamiyat

Ta`lim so`zi oddiy qilib xalq tilida aytganda o`qitish tushunchasini anglatadi. Ta`lim bu biror-bir fanni o`qitish ilm berish deb tushuniladi. Lekin aslida ta`lim aniq fanni o`qitish jarayoni emas, ta`lim balki oilada va odamning kasbiy hamda ishlab chiqarish faoliyatida ham ma`lumot o`zlashtirish jarayoni demakdir.

Shaxsga ilm berish uni tarbiyalashni ma`naviyatini yuksaltirishni ham o`ziga qamrab oladi. Ta`lim har bir xalqning aql zakovat va ilm borasidagi kuch qudratini rivojlantirish oila, jamiyat va davlat oldidagi o`z ma`suliyatini anglaydigan har jihatdan barkamol erkin-shaxsni shakllantirish maqsadini ko`zlaydi. Ta`lim har doim ham ustuvor soha bo`lib kelgan. Ta`lim jarayoning asosiy mohiyati tarixan to`plangan ijtimoiy bilim va tajribani yosh avlodga yetkazish avlodlar o`rtasidagi o`zaro bog`liqlikni ma`lum tizim orqali amalga oshirish hisoblanadi.

Abu Ali Ibn Sino bilim olishda shaxslarni o`quv muassasasida o`qitish zarurligini qayd etar ekan. Ta`limda quyidagi tomonlarga rioya etish zarurligini ta`kidlaydi:

- *talabaga bilim berishda birdaniga kitobga band qilib qo`ymaslik;*
- *o`qitishda jamoa bo`lib o`quv muassasida o`qitishga e`tibor berish;*
- *bilim berishda talabaning qiziqishi va qobilyatini hisobga olish;*
- *berilayotgan bilimlar talabaning faqat fikrlash qobilyatiga emas uning ichki kechinmalariga, his-tuyg`ulariga, fazilatlariga, tasavvuriga ham o`z ta`sirini o`tkazishini bilish.*

Ta`lim va tarbiya bular bir-biriga bog`liq tushunchalardir. Har qanday tarbiya yuksak ma`naviyat ortida bilim tarbiya mavjud bo`lganidek har qanday ta`lim o`zida ma`lum tarbiyaviy ta`sirini mujassamlashtiradi. Ta`limning asosiy vazifalaridan biri insoniyat hozirgacha erishgan ilmiy bilimlar va fan texnikaning yutuqlari bilan yosh avlodni ta`minlashdir. Kelajak avlodda shunday bilimlar tizimini yaratish lozimki, bu bilimlar ularning ma`naviy ongi rivoji uchun asos bo`lib xizmat qilishi lozim.

Hozirgi kunda bilimlar va ko`nikmalar hajmini belgilash va bu jarayonda qaysi omillarni ko`proq inobatga olish kerak degan masalalarga yechim topish ustida izlanishlar olib borilmoqda. Talaba qisqa muddatda o`ziga zarur bilimni olsin ortiqchasini emas. Chuqurroq mulohaza qilsak o`zbek tili yoki rus tili yo`nalishida taxsil olayotgan talabaga geografiya yoki matematika fanidan ma`ruza o`tilishini qisqartirish lozim. Shu o`rinda savol tug`iladi. Ushbu fanlardan amaliyot darsida talaba nima qiladi?

Oliy ta`lim muassasida talaba mutaxassisligini mustahkam o`rganib oliy ma`lumotli bo`lib chiqishi kerak. O`quv jarayonida asosiysi talabada tajribani oshirish birinchi ustuvor vazifa bo`lishi shart. Bo`lajak kadr kasbini yetuk mutaxassisi bo`lishi lozim. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining maqsadi – ta`lim tizimini tubdan isloh qilish uni o`tmishdan qolgan eski sarhadlardan to`lalgacha halos etish, rivojlangan demokratik davlat tuzishda yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashdan iborat. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi beshta yo`nalishdan iborat:

- *Shaxs*
- *Davlat va jamiyat*
- *Fan*
- *Ishlab chiqarish*
- *Bakalavr va magistratura*

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida shaxs - bosh obyekt va subyekt bo`lib hisoblanadi. Davlat va jamiyat kadrlar tayyorlash milliy dasturini nazorat qiluvchisi hisoblanadi. Fan kadrlar tayyorlashda va ularning malakasini oshirishda asosiy bo`g`in bo`lib xizmat qiladi. Ishlab chiqarish bu - kadrlarning davlatga yoki jamiyatning kadrlarga bo`lgan ehtiyojini qondirish. Bakalavr fundamental mutaxassislikni o`rganuvchi ta`lim bosqichidir. Magistratura bakalavr negizidagi ma`lum bir mutaxassislik bo`yicha ta`lim olish bosqichidir.

Rahbar vazifasiga tayinlangan har qanday shaxs nafaqat o`z ishini yaxshi bilishi, balki yetarli bilimlarga ega bo`lib, jamoasiga, jamiyatga va davlatga sadoqat bilan xizmat qilishi, doimo xalq bilan hamnafas yashashi kerak. Rahbar atrofida sog`lom fikrlovchi, izlanuvchan va tashabbuskor xodimlar ko`p bo`lsa, bunday jamoada muhit ham sog`lom, xodimlarning ishchanlik kayfiyati ham yuqori bo`ladi. Amir Temur bobomiz aytganidek, *“Davlat-rahbarlaru fuqarolarning sadoqati va fidoyiligila qudratlidir”*.

Ta`lim sohasida biror-bir fan sohasidagi insoniyat tomonidan erishilgan hamma narsalarni o`rganish o`qish degan fikr mutlaqo noto`g`ri fikrdir. Talabada ko`proq amaliy tajriba bo`lishi kerak. Tajribani esa shubhasiz amaliyotda va amaliy darslardan o`rganadi. Prezidentimiz aytganidek har bir shaxs o`z ishini sidqi dildan halol risq topib yeyman yediraman deb qilsa yurtimiz yanada rivojlanadi. Bu g`oyat dolzarb ishlarni o`zimiz qilmasak hech kim bizga chetdan kelib qilib bermaydi. Xalqimiz shuni yaxshi bilishi kerak: oldimizda uzoq va mashaqqatli yo`l turibdi. Barchamiz jipslashib tinimsiz o`qib o`rgansak ishimizni mukammal va unumli bajarsak zamonaviy bilimlarni egallab o`zimizni ayamadan oldinga intilsak albatta hayotimiz va jamiyatimiz o`zgaradi. Ta`lim sohasini rivojlantirishda taraqqiy etgan xorijiy davlatlar tajribalaridan ham keng foydalanishga katta e`tibor qaratilmoqda. Bugungi kunga kelib

yurtimizda nufuzli xorijiy oliy ta`lim muassasalarining filiallari tashkil etildi. Nafaqat yoshlar balki butun jamiyatimiz a`zolarining bilimi, savyasini oshirish uchun avvalo ilm-ma`rifat, yuksak ma`naviyat kerak. Sharq donishmandlari aytganidek, ***“Eng katta boylik - bu aql zakovat va ilm, eng katta meros- bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik- bu bilimsizlikdir”.***

Xulosa qilib aytganda, taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng tez va samarali yo`ldan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda. Oliy ta`limning asosiy maqsadi zamon talablariga javob bera oladigan yuqori malakali raqobatbardosh, ijtimoiy sohalarni rivojlantirishda o`z hissasini qo`shadigan, mustaqil sog`lom fikrlay oladigan yuksak ma`naviyatga ega bo`lgan yuqori salohiyatli mutaxassislarni tayyorlashdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev.Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan biga quramiz. Toshkent. “O‘zbekiston” 2017.
2. Rahimov J. Amir Temur “Temur Tuzuklari”., Toshkent – 2018.
3. Xasanov O. Liderlar kitobi Toshkent – 2020.
4. Abu Ali Ibn Sinoning shaxslarni bilim olishga o'rgatish haqida "Kitob ash shifo" asari Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi – 1993.
5. <https://lex.uz/docs/-5013007>.

ФИО авторов: *Safarov Husniddin Sirojiddin o'g'li*

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti
Buxoro filiali talabasi

Nasrullo Xamrayev

TIQXMMI Buxoro filiali katta o'qituvchisi, matematika fanlar nomzodi, dotsent

Название публикации: «МАТЕМАТИКА SOHASIDA YANGI INNOVATSIYALAR VA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING BUGUNGI KUNDAGI RIVOJI»

Annotatsiya: Maqolada Oliy ta'lim bilim yurtlarida Oliy matematika fanini o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanish jarayonida talabalarga bilim berish, ularning bilim qobiliyatini rivojlantirish, tarbiya berish kabi muhim vazifalar hal qilinadi. Ushbu masalalarni hal qilishda olib borilgan tadqiqotlarga va olingan tajribalar natijalariga binoan, ularni o'quv jarayoniga tadbiiq etish tajribalari keltirilgan va uchraydigan muammolarni yechimi ifodalangan.

Tayanch so'zlar: oliy matematika, zamonaviy axborot texnologiyalari, audio-video, kompyuter, multimedia, kompyuter-konstruktor, EHM dasturlari, eksperiment, analiz.

Ilmiy texnika taraqqiyotining hozirgi bosqichida zamonaviy axborot vositalarining ko'payishi va ta'lim tizimlariga kirib borishi, ulardan amalda foydalanish dars samaradorligini oshirishi shubhasizdir.

Afsuski, ta'lim tizimida ishlayotgan barcha o'qituvchilar o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanmoqda deb bo'lmaydi. Bunga sabab dars jarayonida zamonaviy axborot texnologiyasi metodikasi barcha fan yo'nalishlari bo'yicha ishlab chiqilmaganligidadir.

Bizning maqolamiz misollar yechish jarayoniga axborot texnologiyasi vositalarini qo'llash metodikasiga bag'ishlangan bo'lib, Oliy ta'lim tizimida ishlayotgan o'qituvchilarga amaliy yordam beradi deb o'ylaymiz.

O'quv jarayoning sifati faqatgina axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga tadbiiq etishning o'zida ko'rinmaydi, balki pedagog zamonaviy axborot

texnologiyalarini amalda to`g`ri qo`llaganda, misollar yechish darsi davomida tushinarli va unumli foydalagandagina ko`rinadi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari – bu ma`lumotlarni olish, saqlash, qidirish, qayta ishlash va axborot uzatishdir. Zamonaviy axborot texnologiyalarini quyidagilarga ajratish mumkin: **audio-video, kompyuter, multimedia, kompyuter-konstruktor**

O`quv jarayoniga yangi texnologiyalarni qo`llash:

- **Ilg`or pedagogik metodlarning rivojlanishiga;**
- **Misollar yechish jarayonida o`qituvchi ish uslubining o`zgarishiga;**
- **Pedagogik sistemaning strukturasini o`zgarishiga** olib keladi.

Ekspertlarning xulosalariga ko`ra, o`quv jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini qo`llagan vaqtda tabiiy fanlarni o`qitish samaradorligi 30% ga oshganligi aytib o`tilgan. Oliy matematika darslariga kompyuter dasturlaridan foydalanish talabalarning fanga bo`lgan qiziqishlarining ortishiga, misollar yechish darslarida, uyga vazifalarni yechishda kompyuter dasturlarini tuzib, mustaqil fikrlashlariga olib kelar ekan.

Hozirgi vaqtda 20 dan ortiq EHM dasturlari bo`lib, ulardan Oliy matematika darslarini o`tishda keng foydalanilmoqda.

Demak, tuzilgan dasturlarning qulaylik tomoni shundaki, misollar yechish jarayonida talabalarning qiziqishlarini e`tiborga olib, misollarni **qiyin** va **oson usulda yechish** texnologiyasini ajratib olish mumkin.

Masalan, Matritsa va determinant mavzusida ko`rib chiqamiz. Sonlardan tashkil topgan to`g`ri burchakli jadval matritsa deyiladi. Agar matritsa m – qator va n – ustundan tashkil topgan bo`lsa, uni o`lchami $m \times n$ bo`ladi. Matritsaning umumiy ko`rinishi quyidagi ko`rinishida bo`ladi:

$$A_{m \times n} = \begin{pmatrix} a_{11} & a_{12} & \dots & a_{1n} \\ a_{21} & a_{22} & \dots & a_{2n} \\ \dots & \dots & \dots & \dots \\ a_{n1} & a_{n2} & \dots & a_{nn} \end{pmatrix}$$

$(a_{11} \ a_{12} \ a_{13})$ – satr matritsa

$$\begin{pmatrix} a_{11} \\ a_{12} \\ a_{13} \end{pmatrix} - \text{ustun matritsa}$$

uning i – qator va j – ustundagi elementi a_{ij} ko`rinishda bo`ladi. Ba`zida matritsa

$$A = \{a_{ij}\}, \quad i = 1, 2, \dots, m, \quad j = 1, 2, \dots, n$$

ko`rinishda ham yoziladi.

Har qanday kvadrat A matrisaga $|A|$ yoki $\det A$ determinant yoki aniqlovchi mos keladi. Ikkinchi tartibli matritsani

$$A = \begin{pmatrix} a_{11} & a_{12} \\ a_{21} & a_{22} \end{pmatrix}$$

Aniqlovchisi quyidagi ko`rinishda bo`ladi.

$$|A| = \det A = \begin{vmatrix} a_{11} & a_{12} \\ a_{21} & a_{22} \end{vmatrix} = a_{11}a_{22} - a_{21}a_{12}$$

Uchinchi tartibli kvadrat matritsani

$$A = \begin{pmatrix} a_{11} & a_{12} & a_{13} \\ a_{21} & a_{22} & a_{23} \\ a_{31} & a_{32} & a_{33} \end{pmatrix}$$

ko`rinishda yozish mumkin, uning aniqlovchisi

$$|A| = \det A = \begin{vmatrix} a_{11} & a_{12} & a_{13} \\ a_{21} & a_{22} & a_{23} \\ a_{31} & a_{32} & a_{33} \end{vmatrix} = a_{11} \begin{vmatrix} a_{22} & a_{23} \\ a_{32} & a_{33} \end{vmatrix} - a_{12} \begin{vmatrix} a_{21} & a_{23} \\ a_{31} & a_{33} \end{vmatrix} + a_{13} \begin{vmatrix} a_{21} & a_{22} \\ a_{31} & a_{32} \end{vmatrix} =$$

$$= a_{11}a_{22}a_{33} + a_{12}a_{23}a_{31} - a_{31}a_{22}a_{13} - a_{32}a_{23}a_{11} - a_{33}a_{21}a_{12}$$

tartibda bo`ladi. Buni oson tushunish uchun uchburchak usulida ham

$$\begin{vmatrix} a_{11} & a_{12} & a_{13} \\ a_{21} & a_{22} & a_{23} \\ a_{31} & a_{32} & a_{33} \end{vmatrix} = \begin{vmatrix} \bullet & \cdot & \cdot \\ \cdot & \bullet & \cdot \\ \cdot & \cdot & \bullet \end{vmatrix} + \begin{vmatrix} \cdot & \cdot & \bullet \\ \cdot & \cdot & \cdot \\ \bullet & \cdot & \cdot \end{vmatrix} + \begin{vmatrix} \cdot & \bullet & \cdot \\ \cdot & \cdot & \bullet \\ \bullet & \cdot & \cdot \end{vmatrix} - \begin{vmatrix} \cdot & \cdot & \bullet \\ \cdot & \bullet & \cdot \\ \cdot & \cdot & \cdot \end{vmatrix} - \begin{vmatrix} \cdot & \bullet & \cdot \\ \bullet & \cdot & \cdot \\ \cdot & \cdot & \cdot \end{vmatrix} - \begin{vmatrix} \cdot & \cdot & \bullet \\ \cdot & \cdot & \cdot \\ \cdot & \bullet & \cdot \end{vmatrix} =$$

$$= a_{11}a_{22}a_{33} + a_{13}a_{21}a_{32} + a_{12}a_{23}a_{31} - a_{13}a_{22}a_{31} - a_{12}a_{21}a_{33} - a_{11}a_{23}a_{32}$$

hisoblash mumkin.

Agar ikkita kvadrat matritsa bir xil tartibli bo`lsa, masalan

$$A = \begin{pmatrix} a_{11} & a_{12} \\ a_{21} & a_{22} \end{pmatrix} \text{ va } B = \begin{pmatrix} b_{11} & b_{12} \\ b_{21} & b_{22} \end{pmatrix}$$

matritsalarini yig'indisi deb,

$$A + B = \begin{pmatrix} a_{11} + b_{11} & a_{12} + b_{12} \\ a_{21} + b_{21} & a_{22} + b_{22} \end{pmatrix} \text{ matritsaga aytiladi.}$$

Matritsalarini songa ko'paytirish.

$$A \cdot M = \begin{pmatrix} a_{11} & a_{12} \\ a_{21} & a_{22} \end{pmatrix} \text{ matritsani } M \text{ songa ko'paytmasi deb,}$$

$$AM = MA = \begin{pmatrix} Ma_{11} & Ma_{12} \\ Ma_{21} & Ma_{22} \end{pmatrix} \text{ matritsaga aytiladi.}$$

Matritsa va determinantlarni hisoblashning qo'shish, ko'paytirish va boshqa amallarni hozirgi kunda o'qituvchilar va talabalar uchun qulay bo'lgan MathType (Lite mode) dasturidan foydalangan holda misollar yechish ko'pchilikning Oliy Matematika faniga bo'lgan qiziqishini orttiradi. Talabalar berilgan uyga vazifalarni shunga o'xshagan dasturlardan foydalangan holda bajarishi, talabarlarning fanga bo'lgan e'tiborini kuchaytiradi. Ayni paytda zamonaviy axborot texnologiyalari takomillashib bormoqda. Talabalar o'z ustida ko'proq ishlab shunga o'xshash dasturlar ishlab chiqishi bugungi kunda darslar samaradorligini oshiradi. Matematik ta'limga kompetensiyaviy yondashuv o'quvchilarda kasbiy, shaxsiy va kundalik hayotda uchraydigan holatlarda samarali harakat qilishga imkon beradigan amaliy ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishni hamda matematik ta'limning amaliy, tatbiqiy yo'nalishlarini kuchaytirishni nazarda tutadi. Mamlakatimizning dunyo hamjamiyatiga integratsiyalashuvi, fan-texnika va texnologiyalarning rivojlanishi yosh avlodning o'zgaruvchan dunyo mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lishi, fanlarni mukammal egallashini taqozo etadi. Bu esa ta'limtizimiga, jumladan, matematikani o'rgatishga ilg'or milliy va xalqaro tajribalarasosida standartlarni joriy etish orqali ta'minlanadi

Bunday noan'anaviy darslarni o'quv jarayoniga qo'llaganimizda talabalarni fanga bo'lgan qiziqishlari ortib, mavzu bo'yicha to'liq bilim va ko'nikmalarni hosil qilish imkoniyati ta'minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

4. Qosimova A.X, Xoliqova F.A, Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent – 2004.
5. Oliy Matematika besh jildlik. 3 – jild Toshkent. O`zbekiston – 1996.
3. Alixonov S. “Matematika o'qitish metodikasi” Qayta ishlangan II nashri. T., «O'qituvchi» 1997 va boshqalar elementar matematikadan masalalar.

ФИО авторов: *Арипова Шахноза Рахмановна*

Научно-исследовательский институт
овоще-бахчевых культур и картофеля,
младший научный сотрудник

Эгамбергана Анабиби Шокировна

Институт зоологии Академии наук Республики Узбекистан,
научный исследователь

Название публикации: «РЕЗУЛЬТАТЫ БИОХИМИЧЕСКОГО АНАЛИЗА В
КОНКУРСНОМ СОРТОИСПЫТАНИИ ПЕРСПЕКТИВНЫХ ЛИНИЙ
КАБАЧКА»

Аннотация. Проведены биохимические анализы зеленцов 2 перспективных линий кабачка LH-1916 и LZ-2513, а также стандартного сорта Унумдор в лаборатории Агрохимии и качества Института овоще-бахчевых культур и картофеля. Результаты проведенных анализов показали, что по содержанию сухого вещества и общего сахара стандартный сорт Унумдор показал лучшие качества по сравнению испытанными линиями кабачка. По содержанию витамина С лучшими показателями отличилась линия LH-1916 (19,8 мг/%), затем LZ-2513 (19,2 мг/%).

Annotation. Biochemical analyzes of zelents of 2 promising lines of squash LH-1916 and LZ-2513, as well as the standard variety Unumdor, were carried out in the laboratory of Agrochemistry and quality of the Research Institute of Vegetable, melon crops and potato. The results of the analyzes showed that in terms of dry matter and total sugar content, the standard Unumdor variety showed better qualities compared to the tested zucchini lines. The line LH-1916 (19,8 mg/%) was the best in vitamin C content, followed by LZ-2513 (19,2 mg/%).

Ключевые слова: кабачки, новая линия, сорт, урожайность, биохимический анализ, сухое вещества, общий сахар, витамин С, нитрат.

Key words: squash, new line, variety, yield, biochemical analysis, dry matter, total sugar, vitamin C, nitrate.

Введение. Питательная ценность овощей обусловлена, прежде всего, биохимическим составом, определяющим их качество. Качество овощей формируется в процессе развития растений под влиянием многих факторов, в том числе и, в особенности, под влиянием применяемых удобрений, стимуляторов роста и развития, микроэлементов, улучшителей почвы [2].

Сухое вещество – один из наиболее важных показателей качества овощной продукции. От него зависит возможность и эффективность различного рода переработки овощей [3].

Содержание аскорбиновой кислоты (витамина С) в овощах во многом зависит от корневого питания растений. На почвах, слабо обеспеченных подвижным азотом, биосинтез аскорбиновой кислоты обычно усиливается при внесении азотных удобрений.

Нитраты в овощной продукции могут накапливаться после внесения в почву азотных удобрений, а также при снижении метаболических процессов в растениях, если создаются неблагоприятные условия для их произрастания [1].

Результаты исследований. В качестве объектов исследований в данном опыте испытывались в предварительном сортоиспытании 2 перспективных линий кабачка LH-1916 и LZ-2513. Перспективная линия кабачка LH-1916 была создана методом отбора с 2013 года до 2019 года из линии кабачка 0044SQ (Голландия); а линия LZ-2513 методом отбора из образца VT+KB-001 (Турция). Стандартом служил сорт Унумдор.

В конкурсном сортоиспытании перспективных короткоплетистых линий семена были посеяны 18 мая 2019 г. и 20 мая 2020 г. в открытый грунт. Проведенные фенологические наблюдения за 2019-2020 г.г. показали равномерное появление всходов стандарта и изученных линий, что составило 7 дней. Число дней от всходов до массового цветения мужских цветков у сорта Унумдор было 39 дней, у изученных линий 36 дней, опережение в развитии было 3 дня. В фазу массового цветения женских цветков вступали: линии LZ-2519 и

ЛН-1916 на 38 день от всходов, и стандартный сорт на 41 день; изученные линии вступали в фазу цветения женских цветков на 3 дня раньше стандарта.

Вегетационный период у линии LZ-2519 составил 40 дней, ЛН-1916 линий 41 дней, сорт Унумдор 44 дней. Созревание первого зеленца у линии ЛН-1916 наступало на 3 дня раньше стандарта; у линии LZ-2519 опережение в развитии составило 4 дня.

Определение средней массы зеленцов показали, что изучавшийся перспективные линии различаются между собой по величине зеленцов. Наибольшими показателями по средней массе зеленца отличились линии: LZ-2513 (285,5 г.) и ЛН-1916 (208,0 г.). Наименьшей массой зеленцов обладал стандартный сорт Унумдор (193,0 г.).

Основным показателем для оценки образцов является урожайность. Проведенные учеты урожая показали, что изученные линии кабачка по общей урожайности не уступали стандартному сорту Унумдор (16,9 т/га). Наиболее урожайной оказалась линия LZ-2513 (20,8 т/га или больше на 23,1% сравнительно к стандарту), у линии ЛН-1916 общая урожайность составила 18,9 т/га или 11,8% к стандарту. Среди изученных линий в конкурсном сортоиспытании наиболее высоким товарным урожаем зеленцов отличилась линия LZ-2513, в среднем за два года товарная урожайность составила 18,3 т/га (125,8% к стандарту). У линии ЛН-1916 товарный урожай зеленцов в среднем за два года составил 16,4 т/га (112,4% к стандарту). Стандартный сорт имел низкую товарную урожайность (14,6 т/га) по сравнению с изученными линиями кабачка.

Проведены биохимические анализы зеленцов 2 перспективных линий кабачка ЛН-1916 и LZ-2513, а также стандартного сорта Унумдор в лаборатории Агрохимии и качества Института Овоще-бахчевых культур и картофеля. Результаты проведенных анализов показали, что по содержанию сухого вещества и общего сахара стандартный сорт Унумдор показал лучшие качества по сравнению испытанными линиями кабачка (рис.1).




Рис.1. Показатели сухого вещества и общего сахара в % при биохимическом анализе зеленцов кабачка (2019-2020 гг.)




Рис.2. Показатели витамин С (мг/%) и нитрата (мг/кг) при биохимическом анализе зеленцов кабачка (2019-2020 гг.).

По содержанию витамина С лучшими показателями отличилась линия LH-1916 (19,8 мг/%), затем LZ-2513 (19,2 мг/%). У сорта Унумдор содержание витамина С составило 18,3 мг/%. Содержание нитратов у испытанных линий составляла 96,8-98,0 мг/кг, у стандартного сорта Унумдор 102,5 мг/кг. Эти значения содержания нитратов является ниже ПДК (280 мг/кг) (см.рис.2).

Библиографический список

1. Борисов В.А. Система удобрения овощных культур. М.: Росинформагротех, 2016. – 392 с.

2. Борисов В.А., Успенская О.Н., Васючков И.Ю., Коломиец А.А. Биохимический состав сортов и гибридов овощных культур в зависимости от применения удобрений, цеолита и регуляторов роста. Сборник научных трудов «Селекция, семеноводство и сортовая агротехника овощных, бахчевых и цветочных культур» М.:2016. Ст. 40-44.

3. Плешков Б.П. Практикум по биохимии растений. – М.: Колос, 1976. – 256 с.

ФИО автора: Назарова Сарвиноз Бахром қизи (Магистрант)

ФИО научного руководителя: Одилхўжаев Анвар Эшонович (т.ф.д., проф.)

Тошкент давлат транспорт университети

Название публикации: «МЕТАЛЛУРГИЯ ШЛАКИ ТАДБИҚИ»

Аннотация. Ушбу мақолада металлургия чиқиндилари ва уларнинг қўлланилиш соҳалари, ишлаб чиқариш самарадорлиги, мустаҳкамлик даражалари, экспорт ҳажмини кенгайтириш, металлургия чиқиндилари асосидаги тўлдиргичлардан фойдаланиб, енгил бетонлар ишлаб чиқариш ва бир қанча масалалар ёритилган.

Аннотация. В статье рассматриваются металлургические отходы и области их применения, эффективность производства, уровни прочности, расширение объемов экспорта, производство легкого бетона с использованием заполнителей на основе металлургических отходов и ряд других вопросов.

Annotation. This article covers metallurgical waste and their areas of application, production efficiency, strength levels, expansion of export volumes, production of lightweight concrete using aggregates based on metallurgical waste, and a number of other issues.

Калит сўзлар: металлургия чиқиндилари, ғовак тўлдиргич, кимёвий таркиб, мустаҳкамлик, енгил бетон, хом-ашё, оғир, енгил, ўта оғир, оловбардош, иссиқбардош, шлакишқорли.

Ключевые слова: металлургические отходы, пористый наполнитель, химический состав, прочность, легкий бетон, сырье, тяжелый, легкий, очень тяжелый, горючий, жаропрочный, шлак.

Keywords: metallurgical waste, porous filler, chemical composition, strength, lightweight concrete, raw material, heavy, light, very heavy, flammable, heat-resistant, slag.

Мамлакатимиз иқтисодий тараққиётининг ўсиш суръатлари дунё ҳамжамияти томонидан юксак эътироф этилмоқда. Мамлакатимиз иқтисодиётини юксалтиришнинг устувор йўналишларидан бири сифатида инновация ва интеграцияга асосланган ривожланиш йўлига ўтиш ишлари жадал равишда олиб борилмоқда. Инсоният тараққиёт йўлидан борар экан шу кунга қадар турли соҳаларда, турлича янгиликлар жорий қилинмоқда. Шу жумладан, қурилиш соҳасини оладиган бўлсак, катта ютуқларга эришилмоқда. Инсоният эҳтиёжи учун қурилиш материалларига бўлган талаб тобора ортиб бормоқда. Ушбу мақола орқали биз металлургия шлаки ва унинг қурилиш материали (бетон) таркибидаги тадбиқини кўриб чиқамиз. Ҳозирги пайтда қурилишда металлургия чиқиндисидан олинadиган тўлдирувчилар асосида турли хил бетонлар қўлланилмоқда.



Шлакли бетонлардан тайёрланган буюмларнинг нархи анъанавий бетонларникига нисбатан 20...30 % арзон ҳисобланади.

Шлакли тўлдирувчиларнинг ҳилига қараб:

- ✚ ўта оғир ($\rho > 2500 \text{ кг/м}^3$);
- ✚ оғир ($\rho = 1800\text{-}2500 \text{ кг/м}^3$) ва
- ✚ енгил ($\rho < 1800 \text{ кг/м}^3$) бетонлар тайёрланади.

Қўлланилиши бўйича шлакли бетонлар:

- ✚ конструкциябоп,
- ✚ конструкциябоп-иссиқ сақловчи,
- ✚ гидротехник,
- ✚ йўл қопламалари учун,
- ✚ иссиқ сақловчи,
- ✚ кислота ва оловбардош ҳилларга бўлинади.

Оғир бетонлар (ЎзРСТ 728-96). Ањанавий ёки шлакли боғловчилар ва шлакли тўлдирувчилар асосида иссиқлик билан қотириладиган, мустаҳкамлиги 10-30 МПа бўлган одатдаги оғир бетонлар ва автоклавда қотириладиган, мустаҳкамлиги 30-60 МПа бўлган юқори мустаҳкам бетонлар олинади.

Майда донали бетонлар (ЎзРСТ 728-96). Қурилиш саноатида майда донали оғир ва енгил шлакли бетонлар ишлаб чиқариш технологияси яхши йўлга қўйилган. Боғловчи сифатида клинкерсиз шлакли боғловчилар ва шлакли портландцемент, тўлдирувчилар сифатида эса шлакли қум ва доналанган шлак ишлатилади. Уларнинг мустаҳкамлиги боғловчи фаоллигига, ишлатилган шлак хилига, бетон таркибига, бетон қоришмасини зичлаш шароитига ва бошқа омилларга боғлиқ бўлади. Юқори фаол юзали шлакларни майдалаш орқали олинган қумлар цемент тоши билан мустаҳкам бирикиш хусусиятига эга бўлади. Натижада бетон мустаҳкамлиги оддий қумли бетонга нисбатан 40-60 % гача ортади. Ҳозирги пайтда махсус технология асосида зичлиги 1800-2300 кг/м³, мустаҳкамлиги 30-100 МПа бўлган майда донали шлакли бетонлар тайёрлаш технологияси ишлаб чиқилган бўлиб, боғловчи сифатида шлакли портландцемент тўлдирувчи сифатида эса доналанган ва хумдон шлаклари қўлланилади.

Иссиқбардош бетонлар (ГОСТ 20910-90). Шлакли материаллар иссиқбардош бетонлар ишлаб чиқаришда боғловчи, тўлдирувчи, майда туйилган қўшилма ва қотирувчилар сифатида кенг қўлланилади. Металлургия шлаклари асосида олинadиган боғловчиларнинг иссиққа чидамлилиги портландцементдан юқорироқ ҳисобланади. Бунга сабаб шлакли цемент тошида кальций гидроксид миқдорининг нисбатан камлигидир. Шлакли портландцементни қўллаш орқали 1200 °С ҳароратгача чидамли иссиқбардош бетонлар олиш мумкин. Иссиқбардош бетонлар учун тўлдирувчилар сифатида доналанган ва чиқиндисифат металлургия шлаклари, шунингдек шлакли пемза ҳам ишлатилиши мумкин.

Шлакишқорли бетонлар. Бундай бетонлар тоифасига шлакишқорли боғловчилар асосида тайёрланадиган бетонлар киради. Шлакишқорли оғир бетонларнинг тахминий таркиби қуйидагича бўлади, (% ҳисобида): туйилган донали шлак 15-30; ишқорли компонент 0,5-1,5; тўлдирувчилар 70-75. Аънавий тўлдирувчилардан (шағал, чақик тош, қум) ташқари шлакишқорли бетонлар учун тўлдирувчи сифатида табиий дисперсли материаллар ва турли ҳил саноат чиқиндилари ҳам ишлатилиши мумкин. Оғир ва енгил шлакишқорли бетонлар учун тўлдирувчи сифатида саноат чиқиндиларидан турли ҳил шлаклар, куллар ва ИЭС кулшлакли аралашмалари, куйган жинслар, табиий тош жинсларни майдалаш ва аралашдаги ҳосил бўладиган чиқиндилар, шунингдек дисперсли органик чиқиндилар (ёғоч ва қишлоқ хўжалик ўсимликлари) самарали қўлланилади. Шлакишқорли оғир ва ўта оғир бетонларнинг сиқилишдаги мустаҳкамлик кўрсаткичи 20-140 МПа чегарадаги қийматлар билан тавсифланади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. А.И. Адилходжаев, Ф.Ф. Каримова, У.Ж. Тургунбаев “Қурилиш материаллари” дарслик, тошкент: -2017. 329 б
2. Л.Н. Папов, “Қурилиш материаллари ва деталлари”, Тошкент “Ўқитувчи” 1991. 339 б
3. Х.А. Акрамов, Ш.Т.Рахимов, Х.Н.Нуритдинов, М.Т.Туропов “Бетон тўлдиргичлари технологияси“ Ўқув қўлланма Тошкент -2011, 163 б.
4. Акрамов Х.А., Нуритдинов Х.Н. “Бетон Технологияси” оқув қўлланма, ииринчи қисм. Тошкент, ТАҚИ, 2012. 93 б.

5. Тулаганов А. А., Камиллов Х. Х., Воҳидов М. М., Султанов А. А. Замонавий қурилиш материаллари, буюмлари ва технологиялари. –Самарқанд. “Zarafshon”, 2015.-140 б.

6. Кулдашев Х. Саноат чиқиндилари асосида қурилиш материалларини ишлаб чиқариш. –Самарқанд. “СамДАҚИ”, 2017.-159 б

ФИО автора: *Durdon Djumabayeva Djurabay qizi*

Qoraqalpog'iston Respublikasi To'rtko'l tumani 18-IDUM ning Ona tili va adabiyot o'qituvchisi

Название публикации: «ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH»

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi globallashuv davrida ilm-fanni o'qitishda, xususan, ona tili va adabiyot fanini o'qitishda zamonaviy va interfaol texnologiyalardan, metodlardan unumli foydalangan holda darslarni mazmunli o'tkazish haqida qisqacha yoritilib berildi.

Kalit so'zlar: Loyihalashtirish, texnologik xarita, zamonaviy pedagogik metodlar, innovatsion texnologiya, interaktiv o'yinlar.

Har bir dars, yoki mavzuni o'rganishda o'ziga xos texnologiya, metod va vositalarni tanlash va foydalanishga to'g'ri keladi. Loyihalashtirish jarayonida o'qituvchi predmetning o'ziga xos xususiyatini, o'quv joyini va sharoitini, o'quvchilarning ehtiyojlarini hamda imkoniyatlarini, bilim saviyasini, sharoitiga qarab ishlatiladigan texnologiyalarni, metodlarni tanlashi kerak. Shuning uchun ham hamisha endi bo'ladigan dars jarayoni loyihalanishi kerak. Bunda darsning texnologik xaritasini tuza olish juda muhimdir. Chunki darsning texnologik xaritasi darsning qiziq bo'lishi uchun asosiy vosita hisoblanadi. Bu esa darsda o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan bilimlarning kafolatlanishiga yordam beradi. Darsning texnologik xaritasini qanday ko'rinishda yoki qanday shaklda tuzish o'qituvchining mahorati, tajribasi, o'z oldiga qo'ygan maqsadi va imkoniyatiga chambarchas bog'liq.

Har bir darsni o'ziga xos usul asosida o'tish, o'quvchining fanga bo'lgan qiziqishini oshirish, uning qalbida ilmga muhabbat uyg'otish o'qituvchining mahoratiga bog'liq. O'qituvchining ham mahoratini oshirishga xizmat qiluvchi vositalardan biri zamonaviy pedagogik texnologiyalardir. Zamonaviy pedagogik

texnologiya – hozirgi zamon didaktikasi va pedagogikasi taraqqiyotining mahsuli. Har bir zamonaviy pedagog mavjud pedagogik texnologiyalarni o'z darslarida qo'llasa, albatta ijobiy natijaga erishadi. Bugungi kun o'qituvchisining maqsadi barkamol yoshlarni tarbiyalash, ularga puxta ta'lim-tarbiya berish, zarur axborotlar bilan ta'minlash, mustaqil fikrlashga o'rgatish, bilim va hayotiy ko'nikmalar hosil qilish, ular qalbida vatanparvarlik, xalqparvarlik tuyg'ularini qaror toptirishdan iborat. Bu ezgu maqsadlarni ilg'or pedagogik va innovatsion texnologiyalar asosida o'tilgan mashg'ulotlarda amalga oshirish mumkin.

Innovatsion texnologiya – ta'lim samaradorligini oshiruvchi omillardan foydalanish, turli pedagogik jarayonlarni loyihalash va amalda qo'llash orqali bilim egallashni takomillashtirish usullari. Uning asosiy maqsadi ta'lim jarayonida o'qituvchi va bilim oluvchi faoliyatiga yangilik, o'zgartirishlar kiritish bo'lib, interfaol metodlardan foydalanishni taqozo etadi. Interfaol usullar ta'lim jarayonida qatnashayotgan har bir bilim oluvchining faolligiga, erkin va mustaqil fikr yuritishga asoslanadi. Bu usullardan foydalanganda bilim olish qiziqarli mashg'ulotga aylanadi.

Ko'p yillar davomida an'anaviy dars o'tish ta'limning asosiy shakllaridan biri bo'lib keldi. An'anaviy darsda o'qituvchi faol, o'quvchi esa passiv ishtirokchiga aylanadi. Bu esa o'quvchining mustaqil fikrlashi, izlanuvchanlik qobiliyati rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari shiddat bilan rivojlanayotgan bir paytda bunday darslar yaxshi samara bermaydi. Bugungi davr talabi dars jarayonini noan'anaviy tarzda mazmunli tashkil etish, o'quvchilarning qiziqishini orttirib, ularning o'quv jarayonidagi faolligini ta'minlashni taqozo etadi.

Shuni ta'kidlash muhimki, «Ona tili va adabiyot» darslariga noan'anaviy darslarni olib kirish va uni ta'lim mazmuniga singdirish, dars o'tishning yangi-yangi usullarini topish Davlat ta'lim standartlari talablarini bajarishga zamin yaratadi. Inson shaxsini har tomonlama kamol toptirish, o'sib kelayotgan yosh avlodda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini uyg'otishda, milliy tilga, o'z xalqining an'analariga iftixor hissini kamol toptirishda «Ona tili va adabiyot» darslarining o'rni beqiyosdir.

Hozirgi ta'lim jarayonida interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan – kunga kuchayib bormoqda. O'qituvchi bu jarayonda o'quvchining shaxsiy rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Hozirda ta'lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo'nalishlardan biri interfaol ta'lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. Interfaol usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z fikrini bayon qilish, uni asoslangan holda himoya qila bilish, sog'lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko'nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi. Innovatsiya (inglizcha innovation) – yangilik kiritish, yangilikdir. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to'liq foydalaniladi. Interaktiv metodlar – bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir yetish usullari bo'lib ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular pedagog va o'quvchilarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi. Ushbu maqolada keltirilgan zamonaviy metodlar o'quvchida mantiqiy, aqliy, ijodiy, tanqidiy, mustaqil fikrlashni shakllantirishga, qobiliyatlarini rivojlantirishga, raqobatbardosh, yetuk mutaxassis bo'lishlariga hamda mutaxassisga kerakli bo'lgan kasbiy fazilatlarni tarbiyalashga yordam beradi.

Ona tili va adabiyot darslarida o'quvchilarni jalb etuvchi interaktiv o'yinlar o'ynash, ularning fikrlash doirasini kengaytirishda, eslab qolishda bir qancha qulayliklar yaratishda katta o'rin egallaydi. Bunday interfaol o'yinlar anchagina, masalan, “Ha... yo'q”, “Ta'rif egasini top”, “Men kimman?”, “Domino” kabi didaktik o'yinlardan foydalanish mumkin. O'yin vaqtida o'quvchilar o'zini erkin tutadi, bilimini namoyon etgisi keladi. Natijada o'quvchida ishonch, qat'iyat paydo bo'ladi. Munozaraga kirishishni o'rganadi. Fikrini asoslashga odatlanadi. Bunda o'quvchilarning yoshi, bilim darajasi inobatga olinishi lozim.

Yana bir e'tiborga olinishi lozim bolgan jihat bu ona tili va adabiyot darslari davomida kompyuter texnologiyalardan foydalanishdir. Buning uchun birinchi navbatda o'qituvchi sinfxonani kerakli jihozlar bilan ta'minlanishini tashkil etishi, so'ngra mavzuga doir taqdimotlar, videolar, qisqa filmlar, rasmlar va ijod namunalarini yaratishi yoki internet saytlaridan sifatlarini tanlab yuklab olishi lozim. Buning asosiy sababi, ular o'quvchilarning ijodkorligini va dunyoqarashini kengaytirishga, visual o'rganishni rivojlantirishga va albatta o'quv jarayonining qiziqarliroq va sifatliroq tashkil etilishiga yordam beradi. Bu usul Grammatik jihatdan murakkab mavzularning oson tushunilishiga, rasmlar orqali o'quvchilarning mustaqil oddiy gapdan to kichik matn tuza olish qobiliyatini o'stirishga, adabiyot namoyondalari hayoti va ijodini ko'z oldida gavdalantirish va yaxshiroq yodda saqlashga, ularning ijod namunalaridan ekran orqali bahramand bo'lishga yordam berishi bilan alohida xarakterlanadi.

Xulosa qilib aytganda, ona tili va adabiyot fanining chuqur o'zlashtirilishi zamonaviy pedagog foydalanadigan interfaol metodlar, o'yinlar va computer texnologiyalaridan oqilona foydalanish orqali yanada puxta, oson va tez bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Umumta'lim fanlari metodikasi" jurnali, 1-, 2-, 3-, 4-sonlar, 2018.
2. Golish L. V., Fayzullayeva D. M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. T., "Iqtisodiyot", 2012.
3. <https://marifatyogdusi.uz/>
4. <https://znanio.ru/>

ФИО автора: *Kadamova Yulduzxon Kaxramon qizi*

Ajinyoz nomidagi NDPI Maktabgacha ta'lim fakulteti talabasi

Название публикации: «NUTQ BUZILISHI DUDUQLANISH KASALLIGINING KELIB CHIQISH SABABLARI VA ULARNI KORREKSIYALASH USULLARI»

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi duduqlanuvchi bolalar nutqini o'rganish, duduqlanuvchi bolalarda mustaqil nutqni rivojlantirish usullari, logoped, tarbiyachi va ota - onalar bilan suhbat o'tkazish, bolalarda mustaqil nutqni tekshirish, bolalar mustaqil nutqini rivojlantirishni takomillashtirish, ular bilan olib boriladigan logopedik mashg'ulotlarning samaradorligini oshirish haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Duduqlanib gapirish, Nutq buzilishlari, nutqiy rejim, depressiya, dislaliya, dizartriya, taxilaliya, duduqlanish darajasi, nutq sur'ati, qo'rqqoqlik, ruhiy, teravptik.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2018 - yil 30 - sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida" gi PQ – 3955 - son qaroriga asosan maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, bolalarning sifatli maktabgacha ta'lim bilan qamrovini oshirish, undan teng foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash, mazkur sohada davlat - xususiy sherikligini rivojlantirish, maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning sog'lom va balanslashtirilgan ovqatlanishini, sifatli tibbiy parvarishini ta'minlash, bugungi kunda ta'lim tizimining eng yuqori bo'g'ini bo'lgan maktabgacha ta'lim tizimida yosh avlodni tarbiyalash masalasi ko'ndalang turadi.

Duduqlanish - periferik nutq apparatining pay tortishi natijasida nutq sur'ati va ravonligining buzulishi. Bunda ayrim tovush va bo'g'inlar, so'zlar qayta - qayta takrorlanadi yoki to'xtalib talaffuz etiladi. Oliy nerv faoliyatining buzilishi va nutq mexanizmlarini boshqarishda ishtirok etadigan oliy nerv jarayonlarining buzilishi duduqlanishning asosi hisoblanadi. Ovoz bo'limida pay tortishganda tovush paychalari bir - biriga mahkam jipslashib, o'z vaqtida bir biridan ajralolmaydi, natijada tovushlar,

bo'g'inlar to'xtalib - to'xtalib talaffuz qilinadi. Artikulyatsiya bo'limida pay tortishishi ko'proq til va lab mushaklariga tarqaladi. Nafas bo'limida pay tortishishi natijasida nafas chiqarish jarayoni nafas olishdan ustun kelib, chiqayotgan havo oqimi talaffuz etish uchun yetishmaydi. Duduqlanish uchta darajaga ajratiladi: yengil duduqlanish - kishi asabiylashgan holatida yoki tez gapirayotganida duduqlanadi. Bunday paytda tutilib qolishlar tezda bartaraf etiladi, duduqlanuvchilar o'z nuqsonidan uyalmagan holda gapiradilar: o'rtaacha duduqlanish - kishi tinch, odatdagi vaziyatda oson gapiradi va kam duduqlanadi; his- hayajonli holatda kuchli duduqlanish yuzaga keladi: og'ir duduqlanish - kishi butun nutqi davomida, doimiy chalg'ituvchi harakatlarni qilish bilan duduqlanadi. Duduqlanib gapirishning og'ir formasida pay tortishishi yuz va tana muskullariga ham tarqaladi. Bunda beixtiyor ko'z olaytirish, boshni orqaga tashlash holatlari ham kuzatiladi. Odatda tutilib gapirish 2 - 3 yoshdan boshlanadi. Duduqlanishga qattiq qo'rqish turli yuqimli kasalliklar, noto'g'ri nutq tarbiyasi va psixik zaiflik, irsiyat moyilligi sabab bo'ladi. Duduqlanish hayajonlanganda, uyalganda, kutilmagan vaziyatlarda ko'proq sodir bo'ladi. Bola o'z vaqtida to'g'ri davolanmasa, maktabga chiqqanda duduqlanish yanada kuchayadi. Duduqlanish, ayniqsa o'smirlik davrida kuchayishi mumkin. Duduqlanish nevroz kasalligining alohida formasi bo'lganligi uchun, tibbiyot, psixoterapevtik vositalar va tadbirlar kompleksi yordamida bartaraf etiladi. Vrach – psixiatr tutilib gapiruvchiga dori - darmon va psixoterapevtik davo tadbirlarini belgilaydi. Pedagogik - logopedik tadbirlarning vazifasi, muntazam o'tkaziladigan mashg'ulotlar paytida tutilib gapiruvchi nutqning to'g'ri tekis, ravon ifodali chiqishiga erishishdan iborat.

Nutq buzilishlarini tuzatish, duduqlanishni va tez gapirishni tuzatishga qaratilgan logopedik mashg'ulotlar orqali amalga oshiriladi. Yosh bolalarda duduqlanishning nevroitik shakli logopedik bolalar bog'chalari va guruhlarida yaxshi davolanadi. Bu yerda kollektiv o'yinli psixoterapiya, logopedik ritmga e'tibor qaratiladi. Oilaviy psixoterapiyaga ham diqqatni qaratish kerak, bunda bolani ishontirish, qo'llab - quvvatlash, hayolini chalg'itish, relaksatsiya muhimdir. Bolalarga barmoqlarning ritmik harakatlari bilan bir taktda gapirish yoki kuylash o'rgatiladi. O'z - o'zini boshqarish usulining asosi shundaki, duduqlanish - o'zgartirsa bo'ladigan ma'lum xulq

ekanligini oʻrnatishdir. Uning tarkibi - desensibilizatsiya, autogen mashgʻulotlar. Yordamchi dori vositalarining maqsadi – qoʻrquv, xavotir va depressiya belgilarini bartaraf qilishdir.

Duduqlanuvchi bolalarda mustaqil nutqni rivojlantirishda bolalar bilan korreksion ishlarini toʻgʻri olib borilishi ularni erkin holatda tutilmasdan muloqotga kirishishi maqsadga muvofiqdir. Logopedik mashgʻulotlarda esa bolalarni hayajonlanib, tutilib qolishlari kuzatildi. Duduqlanuvchining erkin nutq darajasi uning faqat turli darajadagi mustaqilligiga emas, balki uning tayyorgarligiga ham bogʻliqdir. Duduqlanishni korreksiyalashning muvaffaqiyati uchun atrof - muhitni toʻgʻri tashkil etish: ota - onalarning oʻzaro munosabati, ularning va boshqa kattalarning bolaga nisbatan munosabati, dam olishni oʻtkazish va boshqalar muhim ahamiyatga ega. Ota - onalar oʻz farzandlari tarbiyasida atrofdagi va kattalar uning nuqsonga nisbatan jiddiy munosabatda boʻlishlari, maktabgacha yoshda duduqlanishni oʻz vaqtida bartaraf etish lozim ekanligini, bolalar bogʻchasi va uyda rioya etish lozim bolgan yagona talablarni bilishlari, dam olish kunlarida umumiy va nutqiy rejimni, logoped va tarbiyachilarning barcha maslahatlarini qatʼiy bajarishlari muhim.

Duduqlanadigan bolalar bilan olib boriladigan logopedik ishlarning samaradorligi ularning nuqsonga eʼtiborini jalb qilishdagi turlicha darajalar bilan bogʻliq boʻladi: nuqsonga diqqatni jalb qilish qanchalik koʻp boʻlsa, logopedik ishlar natijasi shunchalik kam boʻladi. Nutqiy nuqsонni anglash, undan qutilish yoki uni niqoblash uchun boʻladigan samarasiz urinishlar ularda turli xil ruhiy xususiyatlar: zaiflik, himoyasizlik, qoʻrquqlik, tortinchoqlik, taʼsirchanlik va shu kabilarni paydo qiladi. Hozirgi davrda duduqlanuvchilarning faqat oʻziga xos ruhiy xususiyatlarini chuqur oʻrganishga emas, balki ular logopedik ish olib borishning ruhiy - terapevtik yoʻnalishlarini belgilash uchun bu alomat guruhlarini komplekslash borasida ham harakat qilinmoqda.

Logopedik nuqtai nazaridan xulosa chiqarish jarayonida quyidagilar hisobga olinadi: duduqlanish shakli, tortishish turlari, duduqlanish darajasi, nutq surʼati, duduqlanish bilan birga keladigan dislaliya, dizartriyaning yengil shakli, nutqning umumiy rivojlanmay qolishi, harakatlantiruvchi vositalar faoliyatining holati,

duduqlanish ruhiy alomatlarini bor - yo'qligi va ifodaliligi. Nutq jarayoniga e'tiborni jalb etish va uning duduqlanishga ta'siri, murakkab nutq jarayonining duduqlanishga ta'siri, duduqlanuvchining xususiy - ruxiy jihatlari, o'yinli faoliyatning xususiyati, o'quv faoliyatiga munosabat, duduqlanishini keltirib chiqaradigan vaziyatlar doirasi o'rganiladi. Logopedik xulosa tabaqalashtirib aniqlashni amalga oshirishga va duduqlanishni boshqa nutqiy zaiflashuvlardan (taxilaliya, dizatriya, fiziologik xarakterdagi nuqsondan) ajratib olishga, shuningdek duduqlanishning turli shakllarini bir - biridan farqlashga imkoniyat yaratadi. Duduqlanuvchi bolalarda og'zaki ko'rsatmalar va namoyish yoki namunaning namoyishsiz birgina og'zaki ko'rsatmalarga mos ravishda o'quv faoliyatini bajarish qobiliyati shakllanadi, idrok, xotira, tafakkur, bilishga bo'lgan qiziqishlari rivojlanadi va boshqaruv jarayonlari shakllanadi.

Bolalar aniq va umumiy savollarga javob berishga o'rganadilar; logoped, tarbiyachining talabiga ko'ra qisqa va keng javob qaytarishni mashq qiladilar; normal tempda, atrofdagilar uchun tushunarli, yetarlicha baland, aniq, ma'noga mos ravishda javob beradilar. Mashg'ulotlarda ot, sifat va tilning boshqa bo'laklarining grammatik shakllarini to'g'ri qo'llash malakalari mustahkamlanadi. Diqqatning jamlanganligi, fahmlilik, eslash, dialog vaqtida faol ishtirok etish, lozim bo'lganda esa impulsiv bayondan o'zini tiyish kabi sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan ishlar mashg'ulotlarning ajralmas qismi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. "Maxsus psixologiya" L.R.Mo'minova, SH.M.Amirsaidova, M.U.Xamidova Toshkent 2013.
2. "Bitiruv malakaviy ishi" logopediya mutaxassisligi, M.Toshmatova
3. "Logopediya" M.Y.Ayupova Toshkent 2007.
4. <https://uza.uz/oz/posts/prezident-maktabgacha-ta-lim-tizimini-isloh-qilish-2018>
5. <https://mymedic.uz/kasalliklar/nevrologiya/duduqlanish/>

ФИО автора: *Kalkorazova Shaxrizada*

NDPI Musiqiy ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Название публикации: «МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ МУАССАСАЛАРИДА МУСИҚА МАШГ'УЛОТЛАРИ»

Bog'cha yoshidagi bolalarning ma'naviy, madaniyatli qilib tarbiyalashda musiqa tarbiyasi muhim usullardan biri bo'lib hisoblanadi. Ta'lim berish maktablarida o'tkaziladigan musiqa darslarining asosiy maqsadi go'zallik qonuniyatlari asosida etuk shaxsni shakllantirish vazifalarini amlaga oshirish uchun xizmat qilishdan iborat bo'lishi kerak. Dastur maktabgacha davlat standartida ko'rsatilgan talablar asosida tuziladi. Bolalarning estetik hislarini tarbiyalash, milliy ruh, milliy musiqani o'zida shakllantirish, musiqadan muxim bilim va Amaliy odatlarni shakllantirish dasturining asosi hisoblanadi.

Dasturda ko'rsatilgan asarlar, musiqa repertuarlari Ona Vatanga muhabbat, mehnatsevarlik, tabiatni himoya qilish, do'stlik, mehr-shafqat kabi xossalar musiqali obraz orqali idroq qilishga qaratilgan. Dastur mazmuni bolalarning yoshiga mos bo'lgan (bilim va odatlar darajasi, musiqaga munosabati, qiziqishi, qobiliyati, salomatligi, quvnoqligi, bog'chadagi muhit va b.) sharoitlarni musiqiy faoliyat turlarini hisobga olgan sharoitda 5 qismga bo'linadi. Musiqa olimlari bolalarni musiqiy tarbiyalashda musiqa tinglash faoliyatiga alohida e'tibor bermoqda. Sababi har bir insonning musiqa madaniyatining shakllanishi va rivojlanishida musiqa tinglash ko'nikma va odat muhim o'rinlarning birini egallaydi. Pedagogika fanida qo'shiq aytish faoliyatining tarbiyaviy ahamiyati alohida. Milliy ruhni o'zida ifodalagan xalq qo'shiqlari, kuylari, bolalarning dunyoni badiiy his qilib va idrok qilishi, zavqlanishiga yordam beradi. Musiqa obrazlariga muvofiq har xil harakat va o'yinlarni (tantsa) o'yinda har xil obrazlarni ta'sirchan ijro etish muhim ahamiyatga ega. Sababi harakat musiqiy qobiliyatni shakllantirish va jismoniy rivojlanishda juda muhim harakatda asarning badiiy mazmuni, quvnoqligi tasvirlanadi.

Bolalar asboblardan chiqqan rang-barang kuylar bolalarni sozlarning tovushi bilan tanishtiradi. Ularda zavqlanish, quvonch kabi yoqimli ma'naviy sharoitni yuzaga

keltiradi. Dasturning mazmunida asboblardan tanishtirishdan boshqa bilimlar yoshga mos boʻlgan urib qoqilib chalinadigan sozlar va musiqiy oʻyinchoqlar yordamida oddiy ijodiy usullarni bajara oʻrgatish vazifalari qoʻyiladi. Bogʻcha yoshida bolalarning musiqiy ijodining dastlabki asoslari paydo boʻla boshlaydi. Zehnli bolalar oddiy qoʻshiq, oʻrgangan oʻyin, harakat turini mustaqil yaratgan ijodiga moslashtiradi, har xil obrazlarni yangida tahlil qiladi, oʻyinda taʼsirli xossalarni oʻylab topadi, ijodning natijasidan zavqlanadi.

Bayram ertaliklari –bolalarni badiiylik tomonidan tarbiyalash shakllaridan biri. Ularning maqsadi bolalarni estetik dunyoga olib kirib, ularda ajoyib erkin taʼsir qoldirish, bayramga bogʻliq quvonch yaratish. Ularga oʻyin-kulgular, kontsertlar, sayr, estetik soatlar va faolligi zarur. Bolalarning salomatligini saqlash, darslar uchun gigienik talablar javob beradigan darajada sharoitlar yaratish, ertaliklar va bayram tadbirlarini tashkil qilish va oʻtkazishga faol qatnashib bogʻcha rahbariyati va tarbiyachilarning pedagogik vazifasi boʻlib hisoblanadi.

1- kichik guruh, Kichik yoshdagi bolalarga musiqiy tarbiya berishdagi tarbiyachining asosiy vazifasi bu –bolalarda musiqa tinlashda paydo boʻladigan emotsional javob berish, eslatish qobiliyatining rivojlantirish boʻlib hisoblanadi. Musiqa asboblari pedagog musiqa tinglashga, qoʻshiq tinglashga oʻrgatadi.

Bolalarda ritmikani rivojlantirishda tarbiyachi ularni musiqa ostida yuritishga oddiy oʻyin xarakterlarini bajarishga, qoʻl shapatlashga va b. oʻrgatadi. Shu bilan birga predmetlar bilan murakkab emas harakatlar ishlashga oʻrgatadi. Masalan: bayroqchani yuqori koʻtarish. Shuningdek bu yoshda musiqa tinglashda oʻyinchoq koʻrsatishda keng qoʻllaniladi. U qoʻshiqning mazmuniga qarab taxlab olinadi.

2-kichik guruh, Bu yoshda har xil mazmun va koʻngil qoʻshiqlar va asboblardan yordamidagi bajarilgan kuylarga boʻlgan qiziquvchanligini keltirib chikarish va uni esda olib qolish odatlarini tarbiyalash kerak. Bolalar soz va musiqani oʻyinchoqlarni farqlay oladigan boʻlishi kerak. Tovush imkoniyati hajmida qoʻshiq aytish odatining dastlabki asosini shakllantirish, tabiiy tovushda aytishga oʻrgatish, yil oxirida bolalar tanish qoʻshiq va musiqalarni farqlay olishi, qoʻgʻirchoq chiqarish, surnaychi kabi musiqa oʻyinchoqlarini bir-biridan ajrata olishini oʻrganish kerak.

O`rta guruh, Bu yoshda bolalarning musiqani bili shva undan ta`sinlanishga tarbiyalaydi. Musiqiy asaraning tushunish va eslab qolishga o`rganadi. Milliy musiqaga muhabbat hissini tarbiyalanadi. Shunday ularning musiqaga qiziquvchanligini orttirish va qobiliyatlarini rivojlantirish. Oddiy bajarish odatini shakllantirish, bolalarni asbob bilan tanishtiradi. Chirildaq, doira. Bu yoshda bolalarning musiqa asarlarining mazmuni va xarakterini ajrata olishga o`rgatadi.

O`tkaziladigan bayramlar: Mustaqillik bayrami, hosil bayrami, Yangi yil bayram, 8-mart, Navro`z.

Katta guruh, Bolalardagi har xil xarakterdagi musiqalarga qiziquvchanlik va ta`sirchanlikni tarbiyalash, musiqani idrok qilishni rivojlantirish, kuy va ko`shiqning kirish qismi yoki umumi tovushdan tanib olishga o`rgatish. Musiqali ta`sirchanlikni boyitish, tovushlarning baland pastligi, ritm, tembr, dinamikasini ajratishga o`rgatish kerak. Bu yoshda quyidagi ijodkorlikni odatlar shakllanadi, tovushni to`g`ri aytish, musiqa ostida ritmik haraktalarni yaxshi, xalq o`yinlarni tayyorliksiz harakat bajarish olish, asboblarning tovush tembrlariga qarab ajrata olish va ularni usullardan chertishga o`rgatish. Bu yoshda bayramlarning qatoriga 14-yanvar` Vatan himoyachilar kuni bayram qo`shiladi. Bunda bolalar dovyurak askarlar, chegarachilar xaqida qo`shiqlar aytib, o`yinlar o`ynaydi. Gullar va qushlar bayram may oyida belgilanadi. Bu bayram bolalarda ona tabiatni sevish, ardoqlash va to`garak-atrofni saqlashga tarbiyalashda zaruriy o`rin egallaydi. Gul va qushlar haqida qo`shiqlar, kichik sahnalar yaratiladi.

Maktabgacha tayyorlash guruhi, Qo`shiq aytishda bolalarning xushovozligini o`stirish, ritmni to`g`ri idrok qilish qobiliyati, tiniq, aniq tovush bilan qo`shiq aytish, musiqaningn tovushlarini past-balandligining, bilimni mustahkamlash. Bolalarda musiqaninghar xil xarakteriga mos harakatlarni mustaqil bajarishga o`rgatish kerak. Bolalarda ritmikani rivojlantirishda tarbiyachi ularni musiqa ostida yurishga oddiy o`yin (tantsa) harakatlarini bajarishga, qo`l shappatlashga va boshqalar o`rgatish. Shuningdek, bolalarni musiqa ostida predmetlar bilan murakkab emas harakatlar ishlashga o`rgatadi. Masalan: bayroqchani yuqori ko`tarish.Pedagog qo`shiq o`rgatishda dastlab uning mazmunini tushuntirib, so`ng uning bajarilish sifatini nazorat

qiladi. Kata guruhlarda musiqiy tarbiya berish asosida tarbiyachining vazifasi musikaga degan qiziquvchanlik uyg`otish, quvonib bilishga o`rgatish, tinglash tilagini uyg`otish. Musiqa yordamida ularda Vatanga, xalqiga muhabbatini uyg`otish kerak. Bolaning shaxsini, uning musiqiy qiziqishini, qobiliyatini shakllantirish jarayoni bir-biri bilan birgalikda yuritiladi. Har yoshdagi bolaga musiqiy bilim berish ularni rejali turda maktabga tayyorlash maqsadi bilan yuritiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yusupova P. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. T.: O`qituvchi, 1993.
2. N.Kayumova. Maktabgacha pedagogika. T.: TDPU, 2013.
3. Xasanboeva O.U. va boshq. Maktabgacha ta`lim pedagogikasi. T.: Ilm ziyo,2006.
4. Nafisa Yusupova. Musiqa savodi metodikasi va ritmika. T.: Musiqa, 2010.

www.tdpu.uz

www.pedagog.uz

www.ziyonet.uz

ФИО авторов: *Yo 'ldoshev Soxibjon*

Samarqand tibbiyot instituti, Farmatsiya fakulteti talabasi

Norqulova Zarifa

Samarqand tibbiyot instituti, Farmatsiya fakulteti talabasi

Shamsiyeva Nilufar Olim qizi

Samarqand tibbiyot instituti, Farmatsiya fakulteti talabasi

Quchqorov Bahodir Uvaydulla o`g`li

Samarqand tibbiyot instituti, Farmatsiya fakulteti talabasi

Название публикации: «FARMASEVTIKA FANIGA KIRISH HAMDA YUQORI MALAKAGA EGA BO‘LGAN KADRLAR TAYYORLASH MUAMMOLARI»

Kirish: O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining asosiy vazifasi Respublika aholisi sog‘lig‘ini muhofaza qilish, davolash Ishlarini tashkil qilish, yuqori malakali tibbiy yordam ko‘rsatish asoslarini yaratish, davolash-profilaktika muassasalari uchun Moddiy texnika bazasini yaratish, tibbiyot va farmatsevt kadrlar tayyorlash, ularning malakasini oshirish, aholi o‘rtasida sanitariya-epidemiologiya holatini tegishli tartibda barqaror holatda saqlash Va ta‘minlashni tashkil qilishdan iborat.

Asosiy qism: Farmatsevtika ishini tashkil qilish va dorixona iqtisodiyoti fani Farmatsiya (turlari bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishining mutaxassislik fanlaridan bo‘lib, uning asosiy maqsadi farmatsevtika tashkilotlari ishini tashkil qilish, ya‘ni, turli mulkchilik shaklidagi dorixonalarining tuzilishi, undagi bo‘limlar ishini va ish joylarini tashkil qilish, dorixona assortimentini shakllantirish, dori vositalari va preparatlar hisobini olib borish, dorixonaning iqtisodiy ko‘rsatkichlarini tahlil qilish va rejalashtirish, barcha xo‘jalik jarayonlarini hisobini olib borish va hisobotlar tuzish usul va uslublarini o‘rgatishdan iborat. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ko‘rsatilgan Fuqarolarning muhim ijtimoiy huquqlaridan biri sog‘liqni saqlash Huquqidir. «Har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanish Huquqiga ega». Yuqorida qayd etilgan vazifalarni amalga oshirishda Sog‘liqni Saqlash vazirligining

Bosh boshqarmalari, tegishli ilmiy tekshirish Institutlari faoliyat ko'rsatmoqdalar, tibbiyot va farmatsevt kadrlar Tayyorlash ishlari esa tegishli institutlar va tibbiyot kollejlari tomonidan amalga oshiriladi. Malakali tibbiy xizmatni maxsus tibbiy va farmatsevtika bilimlariga ega, Gippokrat qasamyodini qabul qilgan hamda yordamga Muhtoj har qanday bemorga sidqidildan xizmat qiladigan tibbiyot Mutaxassisleri amalga oshiradilar. Qonunchilik asosida yetarli Malakaga ega bo'lmagan mutaxassislarining tibbiy va farmatsevtika Faoliyati bilan shug'ullanishiga ruxsat etilmaydi. Davlat tomonidan vakolatlangan organlar xususiy sog'lomlashtirish muassasalarini ochish hamda ularning faoliyati, tibbiy xizmat ko'rsatish darajasi sifati ustidan belgilangan tartibda nazorat olib boradi. Tibbiyot va Farmatsevtika faoliyatini olib boruvchi subyektlar faoliyatlari mavjud standartlar talablariga javob bermasa, faoliyat olib borish huquqini beruvchi ruxsatnoma (litsenziya)dan sud hukmi asosida mahrum qilinadi. Malakali tibbiy va farmatsevtik xizmat ko'rsatishning ta'minlash Ishlarini yaratilgan quyidagi shart-sharoitlar bilan muntazam ravishda ta'minlanib turishini ko'zda tutgan holda tuziladi:

- Davlat davolash va sanitariya, dam olish muassasalari tarmog'ining mavjudligi hamda hozirgi kunlarda ham muntazam faoliyat ko'rsatib turishi;
- Nodavlat va idoraviy tibbiy muassasalarini rag'batlantirish hamda rivojlantirish. Ko'plab ishlab chiqarish tarmoqlari, tashkilotlarning poliklinikalari, ambulatoriya, sanatoriya, kunduzgi davolovchi statsionar, dam olish maskanlari, shifoxona, qishloq shifokorlik punktlari, ona va bola shifoxonalari hamda sog'lomlashtirish markazlarini yanada ko'paytirish;
- Aholining barcha qatlamlarini e'tiborga olgan holda, ular o'rtasida keng qamrovli dispanserizatsiya va emlash ishlarini tegishli tartibda olib borish hamda kasalliklarni oldindan aniqlash va ularning oldini olish, tegishli tashxis qo'yish;
- Tibbiyot va farmatsevt kadrlarni tayyorlash hamda malakasini oshirish, ularning faoliyatlarini samaradorligi va malakasi ustidan Davlat nazoratini o'rnatish;

— Tibbiy sug'urta tizimini yaratish, mehnat qobiliyatini yo'qotgan, ishga yaroqsiz yoki nogiron bo'lib qolgan fuqarolarni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash hamda ularga davlat tomonidan qonun asosida belgilangan to'lovlar ajratish; Dori vositalari bilan chakana savdo qilish huquqi, asosan, mulkchilik shaklining aksioner, jamoa va xususiy dorixonalariga ruxsat etildi. Bu dorixonalaiga dori vositalarni sotishda tegishli tartib-qoidalarga amal qilish, ular bilan savdo qilish qoidalarini ta'minlash mas'uliyati yuklatilgan. Dori vositalarini sotish O'zbekiston Respublikasining «Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risida»gi 1997-yil 25-aprelda qabul qilingan Qonun asosida dorixona muassasalari tomonidan olib boriladi va dori vositalari faqat dorixona muassasalari orqali sotiladi. Dorixona ishi dorixona amaliyoti uchun xos bo'lgan standartlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Dorixonalar ishini boshqarish esa shu qonunga asosan oliy farmatsevtika ma'lumotiga ega bo'lgan shaxslargagina ruxsat etilishi ta'kidlangan. Shuningdek, dorixona dori vositalarini tayyorlash, qadoqlash, ularning sifatini nazorat qilish hamda davolash, kasallikning oldini olishga mo'ljallangan dori vositalari tibbiy buyumlarini, sanitariya va gigiyena ashyolarini, shifobaxsh oziq-ovqatlarni, ma'danli suvlarni, davolash-kosmetika mahsulotlarni xarid qilish, saqlash va sotishni amalga oshiruvchi tibbiyot muassasasi hisoblanadi. Dorixona muassasalari jumlasiga dorixonalar va ularning shahobchalari, davolash va kasallikning oldini olish muassasalarining dorixonalari kiradi. SSVning Dori vositalarini va tibbiy texnika sifatini nazorat qilish Bosh boshqarmasida Dori vositalari ekspertizasi hamda standartizatsiyasi Davlat markazi, Farmakopeya, Farmakologiya, Yangi tibbiy texnikalar kabi qo'mitalarga, Giyohvandlar nazorati qo'mitasiga, Dori vositalari va tibbiy texnikani qayd etish bo'limi hamda nazorat qilish bo'yicha Farmatsevtik inspeksiyasi mavjuddir. Dori vositalari ekspertizasi va standartizatsiyasi Davlat markazi qoshida:

- vaksina, zardob vositalari va mikrobiologik tadqiqotlar o'tkazish laboratoriyasi;
- dori vositalarining sifatini nazorat qilish va standartlash laboratoriyasi;

- tibbiy texnika sifatini nazorat qilish laboratoriyasi;
- farmako-toksikologik tadqiqotlar laboratoriyasi;
- ilmiy uslubiy va axborot bo‘limi tashkil etilgan.

Bosh boshqarmaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- O‘zbekiston Respublikasi korxonalarida ishlab chiqarilayotgan va import qilingan dori vositalarining sifatini nazorat qiladi;
- iste’molchilar va ta’minotchilar o‘rtasida dori vositalarining sifati masalasida anglashilmovchilik, kelishmovchilik va bahs bo‘lib qolgan taqdirda, dori vositalarining sifatini tahlili o‘tkazib, oxirgi yakunlovchi xulosa beradi;
- O‘zbekiston Respublikasiga chet eldan sotib olib keltirilayotgan dori vositalari va tibbiyot buyumlarini Davlat ro‘yxatidan o‘tkazishdan avval ularning sifatini har taraflama nazorat qiladi;
- yangi dori vositalariga ishlab chiqilgan me‘yoriy texnik hujjatlar loyihasiga xulosalar beradi;
- dori vositalari sifatini nazorat qilishning amalda qo‘llanilayotgan usullarini takomillashtiradi va yangi usulni ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib boradi;
- yangi dori vositalarini yaratish bo‘yicha ilmiy ishlar bilan shug‘ullanadi;
- eskirib qolgan dori vositalarini Davlat reestridan chiqarish to‘g‘risida tavsiyanomalar tayyorlaydi.

Bosh boshqarmaga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish uchun unda ekspertlar kengashi tashkil qilingan. O‘zbekiston Respublikasida bozor munosabatlarini keng joriy etish va chuqurlashtirish, tashabbuskorlik hamda tadbirkorlikni rivojlantirish, Respublika aholisini dori vositalari bilan ta’minlashni yaxshilash maqsadida yuqorida qayd etilganidek, Respublika «Dori-darmon»

aksionerlik kompaniyasi viloyatlar, Toshkent shahrida va Qoraqalpog‘iston Respublikasida uning hududiy birlashmalari tashkil etildi.

Dori vositalari bilan chakana savdo qilish huquqi, asosan, mulkchilik shaklining aksioner, jamoa va xususiy dorixonalariga ruxsat etildi. Bu dorixonalariga dori vositalari sotishda tegishli tartib-qoidalarga amal qilish, ular bilan savdo qilish qoidalarini ta’minlash mas’uliyati yuklatilgan. Dori vositalarini sotish O‘zbekiston Respublikasining «Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to‘g‘risida»gi 1997-yil 25-aprelda qabul qilingan Qonun asosida dorixona muassasalari tomonidan olib boriladi va dori vositalari faqat dorixona muassasalari orqali sotiladi. Dorixona ishi dorixona amaliyoti uchun xos bo‘lgan standartlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Dorixonalar ishini boshqarish esa shu qonunga asosan oliy farmatsevtika ma’lumotiga ega bo‘lgan shaxslargagina ruxsat etilishi ta’kidlangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. U.S. Salixbayeva; O‘zbekiston Respublikasida farmatsevtik bozori rivojlanish muammolari va istiqbollari.// Kimyo va farmatsevtika. 2002.№. b. 13.

2. E.R. Toshmuxamedov, O‘zbekiston, Qozog‘iston va Qirg‘izistonda farmatsevtikaning rivojlanishi.//Kimyo va farmatsevtika. 2001.№2.b. 3.

3. O‘zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida»gi qonuni.

ФИО автора: *Tashpo'latova Nodira Komiljon qizi*

Master course student of Uzbekistan state world languages university

Название публикации: «EXPRESSION OF RELATIONSHIP OF LANGUAGE AND CULTURE IN PHRASIOLOGY WITH THE HEART COMPONENT»

Annotation: This article is devoted to a comparative study of the national-cultural specifics of phraseological units with a component of a body part in English and Uzbek languages. The research is conditioned by the importance of comparative study of languages in order to identify their national and cultural specifics. The choice of proverbs for research is explained not only by their widespread use in everyday life, but also by the fact that they are expressive, figurative, vividly reflect the peculiarities of the spiritual and material life of the people.

Key words: national and cultural specificity, comparative study of languages, peculiarities of the spiritual life of the people, cultural information, comparative characteristics.

Introduction

In our fast-paced time, people more and more often go out into the world, there are intercultural contacts. People have become more proficient in other languages for communication, so it becomes necessary for them to know the cultural component of the language. In this regard, recently, studies of the language in terms of its interaction with culture have become extremely relevant, in connection with which a new special direction has appeared, called cultural linguistics. Cultural linguistics, the development of which began in the early 90s, is today one of the most relevant areas of modern linguistics, whose tasks include the study and description of the relationship and mutual influences of language and culture, language and folk mentality. It has to do with both cultural science and language science. Cultural linguistics studies the national and cultural semantics of linguistic units in order to understand them in their entirety of content and shades, to the extent that is as close as possible to their perception by the speakers of a given language and a given culture. In a word, this is an aspect of

linguistics that studies the problem of reflecting national culture in a language. The most complete relationship "language - culture" is reflected in the works of W. von Humboldt, who wrote: "Man predominantly: he lives with objects as the language presents them to him. Each language describes the circle of the people to whom it belongs, the circle from which a person is given to leave only insofar as it enters the circle of another language. "One of the linguistic units, an important component of which is cultural information, is a phraseological unit.

Research methodology

The cultural components of phraseological meaning focus the value-semantic relations that have been established in a given ethnocultural community, and turn out to be a cultural form of the existence of knowledge. As a consequence, we can come to the conclusion that phraseological units are a very valuable source of knowledge about the culture of the people and are a direct etymological reflection of the national and cultural specifics of a particular linguistic community, and that is why at this time phraseological units are the brightest linguistic unit of expression linguistic culture. Phraseological units can be studied in cultural linguistics from positions without equivalence, reflection in their structure of mythologemes, historical facts, traditions and customs, imagery, value norms and behavior, etc. Thus, PU (phraseological units) is the most studied culturally-marked unit of the language, since PU reflect the national-cultural specifics of the language, its originality. The phraseological unit captures the rich historical experience of the people, it reflects ideas related to work, life and culture of people. The study of phraseology is a necessary link in the assimilation of the language, in improving the culture of speech. The correct and appropriate use of phraseological units gives speech a unique originality, special expressiveness, accuracy, imagery. That is why, the task of our research includes the analysis of phraseological units from the point of view of their national and cultural specifics.

Discussion

As the analysis of our material has shown, phraseological units with a component of a body part are also of particular interest for linguoculturological studies. This group of phraseological units is a clear example of the action of not only linguistic, but also extralinguistic factors in the language. It is during their analysis that it is possible to identify both common features inherent in the human community, regardless of linguistic affiliation, and specific features due to purely extralinguistic factors. The main element of any comparison is the identification of identical (integral) and distinctive (differential) features of the compared phenomena. The postulate of identities and differences in language, formed by F. de Saussure, underlies a number of the most important methods of language analysis - opposing, field, transformational, component, etc. "As a result of formal and semantic comparison and opposition, members of language systems of any scale - grammatical paradigms, antonymic pairs, etc., and vice versa, an exhaustive description of any individual linguistic phenomenon presupposes the allocation of a set of various aspects, forms, meanings and other differences in it, and on the other hand, the inclusion of this phenomenon in various communities on the basis of some identities - formal, semantic, functional, etc. "

Results

Comparison of specific phraseological units provided researchers with material for generalizations in various directions: in translation theory, in phraseography theory, in comparative typological studies. Particularly controversial in comparative phraseology, and therefore, unresolved until our time will remain the question of the direction of comparison of phraseological units. Some researchers believe that in binary comparison of phraseological units the only possible and legitimate is the so-called one-sided comparison of phraseological material, i.e. the comparison procedure itself, as well as the presentation of its results should be one-sided (a description of the features of the English language relative to the Uzbek language or vice versa; usually this is a description of English as a foreign language based on the native Uzbek). Other scholars find two-way comparison possible and fruitful. In a two-way comparison, a

parallel description of the phrasemics of the English, Russian and Uzbek languages relative to a set of structural, semantic and functional phenomena pre-installed in these languages. A.D. Reichstein most convincingly substantiates this understanding of comparative phraseology: applied aspects of confrontational phraseology tend to one-sided comparison of phraseological units, to two-sided (multilateral) - the corresponding aspects of typological phraseology. A.D. Reichstein summarizes all studies along the following lines. By the nature and number of compared languages:

- 1) related (English and German);
- 2) distantly related (Russian and German);
- 3) unrelated (English and Uzbek);
- 4) mixed ranks (German-Russian-Uzbek).

By the nature of the PUs being compared:

- 1) a group of phraseological units with the same structure and function;
- 2) a group of phraseological units, including a semantically similar component;
- 3) a group of phraseological units with the same type of significative meaning;
- 4) a group of phraseological units with the same lexical and grammatical organization and aggregate semantics in different languages.

By the nature of the compared phenomena:

- 1) grammatical properties of phraseological units;
- 2) the lexical (component) composition of phraseological units;
- 3) phraseological semantics and semantic relations in phraseological system;
- 4) stylistic characteristics and phenomena in phraseology;
- 5) quantitative characteristics of phraseology.

Phraseological units with components of a body part can express the following conceptual features: I. The psychological state of a person. This group refers to the description of feelings, emotional, psychological states of a person: a) fear, fright: Eng.: white at the lips; have one's heart in one's mouth; Uzb.: yuzidan rangi uchgan, yuzi oqarib ketdi; b) anger and rage: Eng: give smb a black eye, black in the face; blue in the face; catch by the throat; Uzb: bo'g'zidan olmoq, yer yuzidan yo'qotmoq; c) aggressiveness, irritation, resentment: Eng: red in the face; fed to the teeth; up to the eye; to become red in the face; black (blue) in the face; fly in the face; Uzb: yuziga sapchimoq; d) state of amazement, surprise: Eng: to be blue in the face; Uzb: ko'zi chiqib ketay dedi, og'zi ochilob qoldi; e) embarrassment, shyness, shyness: Eng: to redden to the roots of one's hair; Uzb: yuzi qizarib ketdi; f) human mood: Eng: to get out of bed on the wrong foot; Uzb.: o'rnidan chap yoni bilan turmoq; g) sentimentality: Eng: have smth. at heart; tender heart; it makes the heart bleed; Uzb: ko'ngliga olmoq; bag'ri qon bo'lmoq; h) value attitude towards someone: Eng: the apple of one's eyes; Uzb: ko'zning oqu-qorasi; i) the emotional state of a person of longing, disappointment, depression, melancholy: Eng: broken heart; be sick at heart; break smb's heart; Uzb: yuragi og'rimoq', yuragi chidamadi, bag'ri qon bo'lmoq', ko'nglini sindirmoq'; j) the joy of success, victory over someone: Eng: wipe smb's face; Uzb.: burnini yerga ishqalamoq; k) emotional state of excitement: Eng: at heart; Uzb.: yuragiga o't\g'ulg'ula tushmoq; l) alertness: Eng: sleep with one's eyes open, одним ухом спит, другим слышит, keep one's eyes open, Comparative analysis of PU is the most optimal means of identifying the national cultural specifics of PU. Today in linguistics there are several different approaches to identifying the national-cultural component of phraseological units:

1) Linguistic and cultural direction, concentrated on the background knowledge of native speakers and on non-equivalent vocabulary;

2) A contrasting approach, the purpose of which is to identify not the general, as in the classical comparative method, but to identify the differences that make up the

nationalcultural originality of the phraseological equivalents of the compared languages;

3) The linguoculturological approach to the study of phraseology directs the researcher to the study of the ratio of phraseological units and signs in culture and actualizes the meaning of the system of standards, stereotypes, symbols, etc. to describe the cultural and national specifics of the phraseological system.

Bibliography

1. Maslova V.A. Introduction to cultural linguistics. M., 1997
2. Reichstein A.D. On the comparison of phraseological systems // Foreign languages at school. - No. 4. 1960.
3. Roizenzon L.I., Avaliani Y.Y. Modern aspects of the study of phraseology // Problems of phraseology and the tasks of its study in higher and secondary schools. Vologda, 1967.

ФИО автора: *Jontemirova Yulduz Nu'mon qizi*

Master course student of Uzbekistan state world languages university

Tashkent, Uzbekistan

Название публикации: «THE NOTION OF ADVERTISING DISCOURSE IN MODERN UZBEK LINGUISTICS»

Annotation: This article presents a theoretical interpretation of advertising discourse in modern Uzbek linguistics. In linguistics, discussion and the concept of a text are considered as one of the topical issues. The article discusses the features of advertising the text language in the context of parameters. Recently, along with the continuing interest in advertising practice, more and more attention is paid to the theoretical aspects of advertising, including from such sciences as linguistics, psychology, sociology, psycho and sociolinguistics, semiotics, cultural studies, and art history.

Key words: text, discourse, advertising text, structure, slogan, brand building, AIDA, language activity.

INTRODUCTION

Currently, advertising discourse is one of the most developing types of discourses. A large number of articles, dissertations, and books have been devoted to the study of advertising discourse and text, but the main issues remain debatable. There is no consensus among researchers about the status of the advertising language, its functions and functional features. Advertising discourse is a discourse used to influence individuals based on the use of available media, which helps to convey this discourse to a particular category or to a large number of people. It is considered a type of advertisement. The publicity discourse is also defined as the declaration of a set of information that contributes to the description of a commodity in order to connect it to as many individuals as possible in the commercial market. Another definition of an advertising discourse is the use of spoken or written words, and a method of addressing, in order to communicate with the public and introduce it to the idea of what may have been unknown in the past.

THEORETICAL BASE OF THE ARTICLE

Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti talabasi

Idirov Ulug'bek Yusupovich

Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti o'qituvchisi

Название публикации: «MARKAZIY OSIYODA TINCHLIKNI TA'MINLASH: MINTAQADA AFG'ONISTON POZITSIYASI»

Annotatsiya. Ushbu maqolada asosan, Markaziy Osiyoda tinchlikni taminlash borasidagi olib borilayotgan bugungi davlat siyosati hamda mintaqada dolzarb hisoblangan, Afg'on omilining qo'shni davlatlarga bo'lgan salbiy tasirini kamaytirish, haqida so'z yuritilgan, bo'lib barcha materiallar taxlil qilingan holda mavzuning mazmun mohiyatini ochishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, dunyo hamjamiyati, mintaqada tinchlikni taminlash O'rta Osiyoda Afg'on omili, terrorizm ,diniy ekstrimizim, narkobiznes, odam savdosi.

Bugungi kunda tinchlikni ta'minlash, butun jahon xalqaro hamjamiyatida dolzarb muammo sifatida qaralayotgan bir vaqtda, O'zbekistonda, shu bilan bir qatorda, O'rta osiyo mintaqasida tinchlik va barqarorlikni taminlash hamda Afg'on omili tasirini kuchsizlantirishga qaratilgan chora tadbirlarni yanada jadal tarzda olib borish Afg'onistondagi ziddiyatli vaziyatni chuqur o'rgangan holda vaziyatga to'g'ri baho berib ish olib borish bugungi kunning asosiy muammolaridan biridir.

Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash uchun O'zbekiston qo'shni Afg'onistondagi mojaroni hal qilishda faol ishtirok etmoqda. Ushbu mamlakat bilan o'zaro manfaatli hamkorlik to'g'risida muhim shartnomalar imzolandi, Yangi iqtisodiy loyihalar bo'yicha amaliy ishlar olib borilmoqda. Tinch Afg'oniston Markaziy Osiyo mamlakatlariga Hind okeani va Fors ko'rfazi portlariga chiqish imkoniyatini beradi, hamda Markaziy va Janubiy Osiyoni Yevropa bozorlari bilan birmuncha arzon va qulay yo'l bilan bog'laydi. Mana shu sabablarni etiborga olgan holda ushbu masalaga chuqur siyosiy yondashuv bilan avvalgi o'tgan yillar davomida hususan Afg'onistondagi vaziyatni barqarorlashtirish uchun O'zbekiston

Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan 2018 yil 27 mart kuni “Tinchlik jarayoni , xavfsizlik sohasida hamkorlik va mintaqaviy sheriklik “mazmuni yuqori darajadagi Toshkent xalqaro anjumani bo‘lib o‘tdi.Unda Afg‘oniston Islom Respublikasi prezidenti Muhammad Ashraf G‘ani, BMT ning Afg‘onistondagi maxsus vakili Tadamitti Yamamoto, shuningdek AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Italiya, Fransiya, Turkiya, Rossiya, Xitoy Hindiston, Eron, Pokiston, Qozogiston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston, Saudiya Arabistoni hamda BAA tashqi ishlar vazirliklari rahbarlari, 25 ta davlat vakillari ishtirok etdi. Anjuman yakunida esa Toshkent Deklaratsiyasi imzolandi.Ushbu hujjat mintaqada tinchlik va xavfsizlikni taminlash, barcha sohalarida hamkorlik va do‘stlik aloqalarini mustahkamlash, yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini yanada kengaytirishdek ezgu maqsadlarni o‘zida mujassam etdi

Mamlakatimiz birinchi Prezidenti I.A.Karimov takidlaganidek ‘‘Yer yuzida vaziyat va kuchlar nisbati shiddatli o‘zgarib bormoqda. Yangi mustaqil davlatlar maydonga chiqmoqda.Bu esa, hozirgi kunda davlatlar va halqlarning barqarorligini taminlash uchun yangicha yondashuvlarni izlab topishni, XXI asrda xavfsizlikning yangicha modellarini ishlab chiqishni tobora qattiq talab qilmoqda’’.

Ayni paytda mintaqaviy jarayonning natijasi ko‘pincha jahon siyosatining umumiy rivojlanishga ham tasir ko‘rsatadi. Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev BMT ning 72- sessiyasida takidlab o‘tganidek Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining Markaziy Osiyo Davlatlarining xavfsizlikni ta‘minlash va mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash borasidagi sa‘y harakatlarini qo‘llab quvvatlashga doir maxsus rezolutsiyasini qabul qilish taklifini kiritishni mo‘ljallaganmiz. Bu taklif BMT rahbariyati va xalqaro hamjamiyat qo‘llab quvvatlaydi , deb ishonamiz.

Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta‘minlash bilan bog‘liq muammolar to‘g‘risida so‘z yuritir ekanmiz , mintaqaning umumiy suv zaxiralaridan oqilona foydalanish kabi muhim masalani chetlab o‘tolmaymiz. BMT bosh kotibining

“suv tinchlik va xavfsizlik muammolari o‘zaro chambarchas bog‘liq“, degan pozitsiyasini to‘la qo‘llab quvvatlaymiz...Muhtaram Prezidentimiz ushbu sessiyada Orol muammosiga ham nihoyatda chuqurroq qarash lozim ekanligini yana bir karra takidlab o‘tganlaridan so‘ng, Yurtboshimiz Afg‘onistondagi vaziyatni ham nazardan chetda qoldirmagan holda Afg‘onistondagi vaziyatni barqarorlashtirish nafaqat mintaqaviy balki global xavfsizlikni taminlashning muhim sharti ekanligini ham aytib o‘tdilar.

“Aminmizki Afg‘onistonda tinchlikka erishishning yagona yo‘li - markaziy hukumat va mamlakat ichidagi asosiy siyosiy kuchlar o‘rtasida oldindan hech qanday shart qo‘ymasdan, to‘g‘ridan to‘g‘ri muloqot olib borishdir. O‘zbekiston Afg‘onistonning iqtisodiy tiklanishiga, uning transport va energetika infratuzulmasini rivojlantirishga, milliy kadrlarini tayyorlashga katta hissa qo‘shmoqda va bundan keyin ham hissa o‘shadi. Afg‘oniston masalasi global miqyosdagi masalalar markazida bo‘lishi lozim. Xalqaro hamjamiyatning sa‘y-harakatlari, birinchi navbatda Afg‘onistondagi o‘tkir ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal qilishga qaratilishi kerak. Bu jafokash yurtda tinchlik o‘rnatishga ko‘maklashish yo‘lidagi bizning umumiy harakatlarimiz also susaymasligi lozim“. Respublikamiz Prezidentining Afg‘onistondagi barqarorlikni taminlash haqidagi ushbu fikirlari nafaqat yuqori tashkilot hisoblangan BMT tomonidan balki keng jamoatchilik tomonidan ham maqqulandi va muhim vazifa sifatida qaraldi. Yana shuni takidlash joizki muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev o‘z nutqi davomida jaholat va murosasizlik omillari, oqibatida yoshlarning xalqaro terorizim va ekstrimizm domiga tushib qolmasliklari uchun, “Bizning asosiy vazifamiz yoshlarning o‘z salohiyatini namaoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo‘ravonlik g‘oyasi “virusi“ tarqalishining oldini olishdir“, deya takidlab o‘tadi davlatimiz rahbari. Davlatimiz rahbari Shavkat Miromonovich Mirziyoyev o‘z nutqi yakunida; “O‘zbekiston hech qanday blokka qo‘shilmaslik maqomini saqlab qolgan holda, ochiq muloqotga tayyordir. Biz barcha sheriklarimiz bilan tinchlik taraqqiyot va farovonlik yo‘lida hamkorlikni kengaytirishdan manfaatdormiz“ deya yana bir

bor O'zbekistonning pozitsiyasini belgilagan holda takidlab o'tdilar. Bunday tashabbuskorlik nafaqat BMTning 72 – sesiyasidagina to'xtab qolmadi, davlatimiz rahbari Shavkat Miromonovich Mirziyoyev, BMT ning 75 sesiyasida BMT bosh assambleyasida o'zbek tilida nutq so'zladi. O'zbekiston prezidenti Pandemiyalar davrida davlatlarning ixtiyoriy majburiyatlari togrisidagi xalqaro kodeksning ishlab chiqishni taklif etdi. Shavkat Mirziyoyev mintaqadagi muamolarga etibor qaratish kerakligini ta'kidlab, mamlakat Afg'oniston Markaziy Osiyoning ajralmas qismi sifatida qabul qilishni takidladi. Shuningdek, president tashkilot bosh kotibi Antoniu Gutterishning inqirozli vaziyatda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning dolzarb muammolariga bag'ishlangan sammitni otkazish boyicha taklifni maqullashni ta'kidladi.

Prezidentimiz markaziy Osiyodagi davlatlar bilan hamkorlik masalalarini ham oz nutqi davomida qayd etib ohirgi to'rt yilda O'zbekistonning qo'shni davlatlar bilan O'zaro savdo hajmini sal kam besh barobarga o'sganligini ta'kidladi.

“Mintaqada iqtisodiy integratsiya jarayonlariga Afg'onistonni keng jalb etish maqsadida “Surxon – Puli Xumri” elektr uzatish tarmog'ini , Mozori Sharifdan Hind okeani portlariga chiqadigan temir yo'l qurilishi kabi yirik infratuzulma loyihalarini amalga oshirishga kirishdik .

Fikrimizcha Afg'onistonda tinchlik va barqarorlik o'rnatish masalalari Birlashgan Millatlar Tashkilotining doimiy e'tibor markazida bo'lib qolishi zarur ...”deya takidlab o'tdi mamlakatimiz rahbari , ushbu bildirgan fikr va takliflardan shuni anglash mumkinki davlatimiz rahbari BMT ning 72 sesiyasida Orol muammosini ustunroq bilib nutq so'zlagan bo'lsalar navbattagi , 75- sessiyada esa Afg'onistondagi barqarorlikni taminlash hamda azaldan qardosh bo'lib kelgan , afg'on xalqi bilan do'stlik hamda hamkorlik aloqalarini mustahkamlash , borasida qator takliflar kiritdilar . Umuman olganda O'zbekiston ikki tomon manfaatlarini hisobga olgan holda kuchli strategik siyosatga tayangan holda ish ko'rmoqda .

Binobarin, mintaqaning barcha mamlakatlarida bevosita dengizga chiqish yo‘llari yo‘qligi sababli, quruqlik transportini rivojlantirish va tranzit salohiyatni oshirish muhim ahamiyatga ega. O‘zbekistonning bevosita dengizga chiqishi uchun esa qo‘shni Afg‘onistondagi tinchlik va barqarorlikni taminlash u yerda hukum surayotgan eskitdan qolgan mustabid tuzumni qayta isloh etish, aholi turmush tarzida Tolibon harakatining rolini kamaytirish va hukumatning rolini mustahkamlashga qaratilgan harakatlarni bosqichma bosqich amalga oshirilishi va mintaqada Afgoniston orqali dunyoga chiqayotgan narkotik moddalarning savdosini keskin toxtatish bilan bir qatorda O‘zbekistonning narkobiznesda Afg‘oniston uchun koridor vazifasini bajarmasligini ham taminlashimiz joizdir. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tinchlikni taminlash va uni barqarorlashtirish uchun BMT o‘z ustavini ishlab chiqqan va BMT Ustavida (VIII bob) mintaq miqyosida xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash uchun mintaqaviy kollektiv xavfsizlik xalqaro tashkilotlari tuzishga ruxsat beradi. Bunda quyidagi keltirilgan shartlar albatta bajarilishi lozim:

- mintaqaviy asosdagi harakatlar BMT maqsadlari va printsiplariga mos kelishi, faqat mahalliy nizolarga taalluqli bo‘lishi va mazkur hudud doirasidan tashqariga chiqmasligi kerak;
- Xavfsizlik Kengashidan vakolat olmay turib hech qanday majburlov choralari ko‘rilishi mumkin emas;
- biron-bir mintaq davlatlari o‘rtasida yuzaga keluvchi har qanday mahalliy nizolar faqat tinch yo‘l bilan hal qilinishi lozim;
- Xavfsizlik Kengashi xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash uchun mintaqaviy bitimlar doirasida amalga oshirilgan yoki amalga oshirish moijallanayotgan harakatlar haqida hamisha xabardor qilinib turilishi kerak;
- mintaqaviy asosdagi biron-bir harakat BMT xalqaro xavfsizlik universal tizimi doirasidagi harakatlarga zid kelishi mumkin emas .

Mintaqaviy tashkilotlar vakolatiga, avvalo, ularning a'zolari o‘rtasidagi nizolarni tinch yo‘l bilan hal qilish kiradi. BMT Ustavi 52-moddasining 2-bandiga binoan, mazkur tashkilotlarning a'zolari mahalliy nizolar Xavfsizlik Kengashiga oshirilgunga

qadar ulari o'z tashkilotlari doirasida tinch yo'l bilan hal qilishga erishish uchun bor kuchlarini safarbar etishlari, Xavfsizlik Kengashi esa, nizolarini hal qilishning mazkur usulini rag'batlantirishi lozimdir.

Bugungi Afg'onistondagi ziddiyatli vaziyat asrlar davomida Markaziy Osiyo mintaqasi bilan shakillangan Afg'onistonning chuqur va keng qamrovli aloqalarini deyarli to'liq cheklab qo'ygan va xavfsizlik nuqtai nazari boshqa barcha yo'nalishlardan ustun qo'yilgan. Agar Afg'on omili hal etilmasa "sen menga tegma men senga tegmayman" qabilida ish yuritilsa, birgina afg'on omili nafaqat O'zbekistonni balki butun Markaziy Osiyo mamlakatlari shu bilan bir qatorda Yaqin sharq mamlakatlarining ham iqtisodiy ham siyosiy tomondan rivojlanishiga katta to'siq bo'laadi shu sababdan

O'zbekiston Afg'onistonning halqaro maydonda o'z o'rniga ega bo'lishi ichki iqtisodiyotini tiklash, uning transport, ishlab chiqarish, energetika va ijtimoiy infratuzulmasini rivojlantirishni qo'llab quvvatlaydi. Chunki gullab-yashnayotgan Afg'oniston Markaziy Osiyoda Mintaqaviy barqarorlikning eng muhim omillaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://lex.uz/uz/docs/-258595>
2. <https://yuz.uz/uz/news/afgonistonda--tinchlik--ornatilishining-asosiy--bosqichlari--va--istiqbollari>
3. <https://translate.google.com/translate?hl=ru&sl=uz&u=https://xs.uz/uz/post/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoevning-afgoniston-bojicha-tinchlik-zharayoni-khavfsizlik-sohasida-hamkorlik-va-mintaqavij-sheriklik-mavzusida-otkazilgan-khalqaro-konferentsiyadagi-nutqi&prev=search&pto=aue>

4.

https://www.bbc.com/uzbek/lotin/2014/02/140228_latin_uzbek_reaction_on_obamas_threat_afghanistan

5.

<https://translate.google.com/translate?hl=ru&sl=uz&u=https://www.amerika.uz/uz/a/northern-afghanistan-instability/4448487.html&prev=search&pto=aue>

6.

<https://translate.google.com/translate?hl=ru&sl=uz&u=https://www.gazeta.uz/uz/2020/02/29/komilov/&prev=search&pto=aue>

7.

<https://translate.google.com/translate?hl=ru&sl=uz&u=https://kun.uz/uz/news/2021/04/09/mintaqaviy-va-global-raqobat-markazi-afgonistonda-tarix-takrorlanyaptimi%3Fq%3D%252Fnews%252F2021%252F04%252F09%252Fmintaqaviy-va-global-raqobat-markazi-afgonistonda-tarix-takrorlanyaptimi&prev=search&pto=aue>

8.

<https://translate.google.com/translate?hl=ru&sl=uz&u=https://www.trt.net.tr/uzbek/dunyo/2019/04/09/12345678910-1001-1179857&prev=search&pto=auehttps://tsuos.uz/wp-content/uploads/2020/09/Organilayotgan-mamlakat-tarixi-Afgoniston-filologiya-va-tarjima>

ФИО авторов: *Shabatova Rabiqa Janasbay-qizi*

Nukus Davlat Pedagogika Instituti talabasi

Rustamova Nazokat Abdullayevna

Samarqand Davlat Chet Tillar Instituti talabasi

Название публикации: «BOSHLANG'ICH SINFDADA MATEMATIKA DARSINI VA ÓQITISHNING TURLI SHAKLLARI»

Annotatsiya. Boshlang'ich sinflarda óquvchilari matematika darsi va óqitishning turli shakllarini kórinishidafi chiqamiz

Kalit so'zlar: nazariy ma'lumot, hisoblash malakasi, masala yechish, mustaqil uy ishlari, mashg'ulotlar, ekskursiya.

Maktab ostonasiga ilk qadam qóygan boshlang'ich sinf óquvchilari matematika darsida uni óqitishning turli shakllari kerak bóladi. Maktabda matematika óqitishning uyushtirishning tarixiy, murakkab, kóp yillik tajribada tekshirilgan va hozirgi zamonning asosiy talablariga javob beradigan shakli farzdir.

Óquvchilarning matematik bilimlarini ózlashtirish faqat óquvchilari ichida tóg'ri metodikasi tanlashga bog'liq bólmasdan, balki óquvchilari jarayonini tashkil qilish formasiga ham bog'liqdir.

Dars vaqtida óquvchilar matematikadan nazariy ma'lumotga, hisoblash malakasiga, masala yechish, har xil ólchashlarni bajarishga órganadi ya'ni darsda hamma óquvchilari ishlari bajariladi

Odatda darsda bir necha didaktik materiallar amalga oshiriladi: yangi materialni ótish; ótilgan mavzuni mustahkamlash, tizimlashtirish; mustahkam óquvchilari va malakalar hosil qilish v.h.k.

Matematika darsida turli tuman tarbiyaviy vazifalar ham berib boriladi. Óquvchilarda kuzatuvchanlikni, ziyraklikni, atrofga tanqidiy qarashni, ishda tashabbuskorlikni, ma'suliyatni va sof vijdonlilikni tóg'ri va aniq sózlashni,

hisoblash, ólchashlarni va yozuvlarda aniqlikni, mehnatsevarlik va qiyinchiliklarni yengish xislatlarini tarbiyalaydi.

Óquvchilari ishini tashkil etishning darsda tashqari quyidagi shakllari mavjud:

1. Mustaqil uy ishlari.
2. Óquvchilar bilan yakka va guruh mashgʻulotlari.
3. Matematikaga qobiliyatli óquvchilar bilan ótkaziladigan mashgʻulotlar.
4. Matematikadan sinfdan tashqari mashgʻulotlar.
5. Óquvchilar bilan ishlab chiqarishga, tabiatga ekskursiya.

Bu yerda sanab ótilgan ish shakllari va dars bir-birini tóldiradi. Asosiy masala darsga taaluqlidir. Darsda hamma narsaga bevosita Óqituvchi rahbarlik qiladi. Qóshimcha mashgʻulotlar esa ish óqituvchining ózining tomonidan yoki Óqituvchi rahbarligida óquvchilar tomonidan bajariladi.

Matematika óqitish jarayonida Óquvchilarning faolligini oshirish va matematikaga bólgan qiziqishini rivojlantirish omillaridan biri-óquvchilar bilan olib boriladigan mustaqil ishlardir.

Matematika darslarida mustaqil ishlar yangi materialni órganishga tayyorgarlik kórishda yangi tushunchalar bilan tanishishdan, bilim ôquv va malakalarni mustahkamlashda, shuningdek, bilimlarni nazorat qilishda amalga oshiriladi.

Mustaqil ishlarni shartli ravishda ikki kórinishda tashkil qilish mumkin:

1. Dars jarayonida tashkil qilinadigan mustaqil ishlar. Unga:

1) darsda yechilgan misol va masalaga óxshash, shartlari ham bir xil, lekin shtatidagi sonlar yoki harflar bilangina farq qiladigan topshiriqlar mustaqil bajarish uchun beriladi;

2) test yoki yozma ishlar ótkazish;

3)ótilgan mavzular yuzasidan kartochkalarga yozilgan topshiriqlarni bajartirish;

4)doskada topshiriqlar bajarish v.h.k.

2. Darsdan tashqari bajaradigan mustaqil ishlar, ya'ni uy ishlari.

Uy ishlari - Óquvchilarning darsdan tashqari vaqtlarida mustaqil, yakka ishlarni tashkil qilish shakllaridan iboratdir.

Xulosa órnida aytish mumkinki, talabalarni kasbiy kónikma hamda malakalarga ega bólishlarini ta'minlash masalasini samarali hal etishida boshlang'ich sinfda matematika darsini óqitishda turli shakllarini qóllashga alohida e'tibor qaratish lozim. Bu esa izlanuvchan ijodiy boshlang'ich sinf óqituvchisini tayyorlash muammosini yengillashtirishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jo'rayev.Z.H. , Tolipov Ó. , Sharipov Sh. , Uzluksiz ta'lim tizimida óquvchilari kasbga yónaltirishning ilmiy-pedagogik asoslari, T. , Fan, 2004.

2. Jumayev M.E. , Tadjiyeva Z.G. , Boshlang'ich sinflarda matematika óqitish metodikasi, T. , " Fan va texnologiya", 2005.

3. Bikboyeva N.U. va boshqalar, Boshlang'ich sinflarda matematika óqitish metodikasi, T. , "Óqituvchi", 1996.

ФИО авторов: *Vahobova Feruzaxon Bahtiyorjon qizi*

Farg`ona politexnika insituti Kimyo texnologiya fakulteti talabasi

Qodirova Shahlo Ilhomjon qizi

Farg`ona politexnika insituti Kimyo texnologiya fakulteti talabasi

Название публикации: «KIMYO FANINING RIVOJLANISH TARIXI»

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Kimyo fanning tarixi, Organik kimyo fanning tarixi, alkimyo so`zining qanday paydo bo`lganligi, organic kimyo faniga bizning vatandosh olimlarimizning qo`shgan xissalari haqida bilishingiz mumkin.*

Kalit so`zlar: *Kimyo, alkimyo, organik, misr, fan, rivojlanish, etil-spirti, uglerod, karbonat-angidrid, moddalar, noorganik, sirka, kislota*

История развития химии

Вахобова Ферузахон Бахтиержон кизи

Вахобова Ферузахон Бахтиёржон кизи

Ферганский политехнический институт,

Химико-технологический факультет,

Факультет пищевых технологий,

Студент 2 курса

Кадырова Шахло Ильхомжон кизи

Ферганский политехнический институт,

Химико-технологический факультет,

Факультет пищевых технологий,

Студент 2 курса

Аннотация: *В этой статье вы можете узнать об истории химии, истории органической химии, происхождении слова “Алхимия”, вкладе наших ученых в науку органической химии.*

Ключевые слова: *Химия алхимия органический развитие этиловый спирт углерод углекислый газ уксус кислота неорганический*

HISTORY OF THE DEVELOPMENT OF CHEMISTRY

Vahobova Feruzakhon Bakhtiyorjon qizi

Ferghana Polytechnic Institute

Faculty of Chemical Technology

Direction of Food Technology

2st year student

Kadyrova Shahlo Ilhomjon qizi

Ferghana Polytechnic Institute

Faculty of Chemical Technology

Direction of Food Technology

2st year student

Annotation: *In this article you can learn about the history of chemistry, the history of organic chemistry, how the word alchemy came into being, the contributions of our fellow scientists to the science of organic chemistry*

Keywords: *Chemistry, alchemy, organic, corn, science, development, ethyl alcohol, carbon, carbon dioxide, substances, inorganic, vinegar, acid*

Kimyo—moddalarning tuzilishi va o‘zgarishini o‘rganadigan fan. Kimyo boshqa fanlar qatori inson faoliyatining mahsuli sifatida vujudga kelib, tabiiy ehtiyojlarni qondirish, zaruriy mahsulotlar ishlab chiqarish, biridan ikkinchisini hosil qilish va, nihoyat, turli hodisalar sirlarini bilish maqsadida ro‘yobga chiqdi. Odamlar qadimda rudalardan metallarni ajratib olish, turli xil qotishmalar tayyorlash va

qo‘llash, jumladan, shisha tayyorlash va undan turli maqsadlarda foydalanishni bilganlar. Miloddan avvalgi uchinchi asrda Misrda kimyoviy jarayonlarga asoslangan hunarmandchilik rivojlanganligi ma‘lum. Pishiq charm tayyorlash, uni bo‘yash, rangli shisha olish, o‘simliklardan dori-darmon va xushbo‘y hidli moddalar tayyorlash, sopol buyumlar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan. O‘sha davrlarda kimyoviy mahsulotlar Hindiston, Xitoy va O‘rta Osiyoda ham ishlab chiqarilgan. „Kimyoviy hunar“ sohibi bo‘lgan kimyogar bir moddadan ikkinchi mahsulotni tayyorlash ishi bilan shug‘ullangan. O‘zbekistondan o‘tgan Buyuk ipak yo‘li orqali miloddan avvalgi 1-ming yillikning 2-yarmidan boshlab, mamlakatga savdo-sotiq bilan birga hunarmandchilik ham kirib keldi. Topilgan juda ko‘p tarixiy buyum va yodgorliklar O‘zbekiston hududida yashagan aholining kimyo hunaridan qadimdan boxabar ekanligidan darak beradi. Buxoro yaqinidagi Poykend manzilgozidan 8-asrga taalluqli kimyo laboratoriya topilgan. Laboratoriya jihozlari ichida turli idishlar, shisha asboblari, bolalar sumagi uchraydi.

Kimyoning fan sifatida shakllanishini tadqiqotchilar Misr bilan bog‘lashadi. Savdo-sotiq, hunarmandchilik va ma‘naviy aloqalar juda rivojlangan bu mamlakatda ilm, falsafiy qarashlar, sanoat va qishloq xo‘jaligi yaxshi rivoj topadi. Nil bo‘yidagi Iskandariya shahrida 1-asrda yozilgan traktatlarda ko‘pgina kimyoviy ma‘lumotlar, jumladan, kimyoviy jihozlarning ko‘rinishlari, kuydirish, pishirish, toblash, quruq haydash, eritish, kristallanish, ajratish va boshqa usullar haqida ma‘lumotlar keltiriladi. Mazkur manbada oddiy metallardan oltin olish g‘oyasi ham ilgari surilgan bo‘lib, mavhum bu izlanish fanning rivojlanishiga ma‘lum darajada to‘sqinlik qildi, olimlar fikrini boshqa— amalga oshmaydigan yo‘nalishga burib yubordi. Iskandariya traktatlari ma‘lumotlaridan foydalangan arab olimlari tez orada bir nechta yangi moddalar, jumladan, nitrat kislota, tuzlar va boshqalarni olishni kashf qildilar.

Misrlik olimlar tilidagi Kimyoga arablar „al“ qo‘shimchasini qo‘shib mashhur „Alkimyo“ga asos soldilar. Natijada ko‘pgina ilmiy asarlar, kitoblar, maqolalar va tajribalar ifodalari paydo bo‘ldi. Keyinchalik bu so‘z Yevropa mamlakatlarida „Ximiya“ nomi bilan ommalashdi. Muhammad Al-Xorazmiy 10-asrda „Kimyo“ so‘zi arabcha „kamoyakmi“, ya‘ni „yashirmoq“, „berkitmoq“ ni anglatadi, deydi. Turk olimi Toshko‘pir-zodaning fikriga ko‘ra, mazkur so‘z yahudiycha „kimyax“ dan olingan. Ba‘zi olimlar „Kimyo“ so‘zi Misrning qadimgi nomi „Xem“ yoki „Hame“dan olingan degan fikrni ilgari surishadi. Bu so‘z „qora“ yoki „qoramtir“ ma‘nosini anglatib, manbalarda „Kimyo“ „Misr fani“ degan ma‘noda keladi. Boshqa bir guruh olimlar esa „Kimyo“ so‘zi yunoncha „kimyo“ iborasidan kelib chiqqan bo‘lib, „suyuqlik“, „eritilgan metall“ni anglatishiga ishora qiladilar. Ammo, qanday

bo'lishidan qat'i nazar, mazkur fanning Sharq mamlakatlarida bir kator rivojlanganligi, bu borada o'rta osiyolik olimlarning xizmati katta ekanligi tarixiy manbalardan ma'lum.

Alkimyo davri – Aleksandriya alkimyosi:

Aristotelning elementlar o'zgarishi haqidagi g'oyalari metallarning transmutatsiyasi haqidagi ming yillik tadqiqotlarning "nazariy" dasturiga aylandi. Eramizdan oldingi II asrda alkimyo paydo bo'ldi, Aleksandriya akademiyasida "ilohiy mo'jizali san'at" vositasida nodir metallarning bir-biriga o'tishlari o'rgatilar edi. "Elementlarning" o'zaro aylanishi haqidagi ta'limot simob va uning birikmalarini o'rganish oqibatida paydo bo'ldi. Buyuk Aristotel' simobni suyuq kumush deb atardi. "Hydrargerum" - "kumush suv" degani. Oltin, kumush, mis kabi elementlar simob bilan amal'gama xosil qilishini ularning rangi, zichligi o'zgarishlarini metallarning bir-biriga o'tishi deb xisoblaydi.

Iskandar Zulqarnaynning o'limidan (Aleksand Makedonskiy, eramizgacha 323 yil) so'ngra u tuzgan juda katta imperiya parchalanib ketdi, ammo yunonliklarning Yaqin va O'rta SHarq mamlakatlariga hali ham kuchli ta'siri bor edi. Yana bir necha asrlar davomida bu o'lkalarda madaniyat va ilmning o'zaro qo'shilishi va bir-birini boyitishi davom etib turdi. Misrda Iskandarning xarbiy qo'mondonlaridan biri Ptolomey-Soter xokimiyatni qo'lga oldi va Aleksandriya shahrida "Museyon" ilm va musiqa o'chog'ini tashkil etib, uning kutubxonasiga juda ko'p adabiyotlarni yig'ib keldi. Bu paytda misrliklar amaliy kimyo fanini yaxshi o'zlashtirishgan bo'lsa ham, uni alohida bilim sohasiga ajratishmadi. Misrliklarning amaliy kimyo sohasidagi bilim darajasidan xayratlangan yunonliklar ularning tajribalarini o'rganishdi va misrliklar kimyo fani xudosi Oziris deb hisoblashsa, yunonlar uni o'zlarining xudolari Germes bilan baravarlashdilar. O'z navbatida bu xil taqlidlar, aralashtirishlar fanning rivojiga salbiy ta'sir etdi. Oddiy insonlar kimyogarlarni sehrgar, jodugar va xavfli bilimlar sohibi deb hisoblashar va ulardan qo'rqishardi. Jamiyat oldidagi o'zlarining sirli mavqelarini bilgan kimyo namoyondalari borgan sari o'zlarining yozuvlarini sirli va oddiy xalq tushunmaydigan qilib, xar hil simvol va belgilardan foydalanishardi.

Arab al-kimyogarlari VII asr arablarning jaxon maydoniga chiqishi bilan mashxur bo'ldi. Ilgari Arabiston yarim orolida tashqi dunyodan uzilgan holda yashab kelgan arablar Islom dini quvvati bilan G'arbiy Osiyo va SHimoliy Afrikani zabt qildilar. Eramizning 641 yilida Misrga xujum qildilar va tezda uni to'liq egalladilar. Bir necha keyingi yil davomida eronshohlar yurti ham shunday bosqinchilik bilan bosib olindi. Buyuk arab imperiyasi vujudga keldi. Qadimgi hukmronlardan ibrat olgan arab xalifalari ham ilm-fanga o'z e'tiborlarini qaratishdi.

Ular khemeia soʻzini al-khemeia shakliga aylantirishdi va 14 shunday qilib alkimyogar termini paydo boʻldi. Arablar 670 yilda Xristian dunyosining eng yirik shahri Konstantinopolni oʻz flotlari bilan qamal qilishganda ularning kemalari suv bilan oʻchmaydigan kimyoviy aralashma bilan yoqib yuborildi va ular khemeianing birinchi amaliy oqibatini oʻz terilarida sinab koʻrishdi. Bundan xulosa chiqarib oʻzini oʻnglab olgan arablar keyingi besh asr davomida alkimyoni oʻz nazoratlariga olishdi.

Organik kimyo

Organik kimyo uglerodning boshqa elementlar bilan organik birikmalar hosil qilishi va bu birikmalarning oʻzgarish qonunlarini oʻrganadigan fan. Kimyoning bir boʻlimi. Organik kimyoning asosiy vazifasi organik birikmalarni sof holda olish va ularning tuzilishini aniqlash, reaksiyaga kirishishi, reaksiyalar mexanizmini, moddalarning kimyoviy tuzilishi va xossalari orasidagi bogʻlanishni oʻrganish, shuningdek, ulardan amaliyotda foydalanish yoʻllarini tadqiq qilishdan iborat. Organik birikmalar insonning Yer mavjud boʻlishi va uning amaliy faoliyatda oʻta muhim ahamiyatga ega. Tirik organizmlarni tashkil qiladigan barcha asosiy komponentlar oqsillar, nuklein kislotalar, uglevodlar, yogʻlar, vitaminlar, gormonlar va boshqa organik birikmalardir. Deyarli barcha sintetik va tabiiy tolalar, plastmassalar, pestitsidlar, boʻyagichlar, dorilar va shahrik. ham organik birikmalarga taalluqli. Hozirgi vaqtda ajoyib xususiyatlarni oʻzida mujassamlashtirgan organik birikmalar yiliga 250 mingdan 300 minggacha sintez qilinadi, ularning umumiy soni esa 10 milliondan oshdi. Masalan, kishilar uzum sharbati achiganda spirtga aylanishini, musallas ochiq havoda turganida sirka kislota hosil qilishini bilardilar. Oʻsimlik moylari va hayvon yogʻlari oziq-ovqat sifatida qadimdan ishlatib kelinadi. Sovun va har xil boʻyoqlardan foydalanish qadim zamonlardan beri maʼlum. Sof holdagi organik moddalarni dastlab 900-yillarda arab alkimyogarlari hosil qildilar.

Organik moddalar insoniyatga juda qadimdan maʼlum boʻlgan. Ular qadim zamondan buyon shakar va moy olishni, yogʻlarni qaynatib sovun olishni bilganlar. Qadimgi Hindiston va Misrda organik kimyo fan sifatida shakllanmagan boʻlsada, odamlar organik boʻyoqlardan foydalanib, boʻyash sanʼatini rivojlantirgan. Tabiiy organik birikmalardan oqilona foydalanishda bizning ajdodlarimiz ham dunyoda peshqadamlardan boʻlishgan. Sof holdagi organik moddalar dastlab 900 yillarda arab alkimyogarlari tomonidan hosil qilingan edi. Buyuk mutafakkirimiz, tibbiyot ilmining ustozlari Abu Ali ibn Sino juda koʻplab oʻsimliklardan organik tabiatli moddalarni ajratib olgan. Kimyoviy bilimlar 16 asrdan boshlab jadal surʼatda rivojlana boshladi. Oʻsha davrda nazariy asosda boʻlmasda lekin moddalar toʻgʻrisida juda koʻp tajribalar toʻplangan edi.

Moddalar organik va noorganik moddalarga bo'linmagan edi. 1851 yilda A.Kekule organik kimyoni uglerod kimyosi sifatida ta'rifladi. Lekin bu fikr ham noto'g'ri ekanligi aniq edi. Chunki, uglerodning ba'zi birikmalari (uglerod oksidlari, metall karbonillari, karbonat kislota va karbonatlar) noorganik moddalar sifatida qaraladi. Ba'zi mellorganik birikmalarni esa noorganik moddalar sifatida ko'rish mumkin. Organik kimyoga aniqroq ta'rif 1889 yili K.Shorlemmer tomonidan berildi. Organik kimyo fani uglevodorodlar va ularning hosilalarini o'rganuvchi fandır. Birinchi marta 1806 yili Bertselius o'zining "Xayvonot kimyosi" asarida "Organik kimyo" terminini shifokor talabalarga tanishtirdi va fanga olib kirdi. Sirka kislotasi arab alkimyogarlari tomonidan V asrda vino achitqisidan xaydab olindi. Etil spirti vinoning o'zidan olindi va "Spiritus vini" vino ruxi deyildi. Efir 1625 yili V. Valentin vino spirti va kuporos moyi (H_2SO_4) dan oldi. Absolyut efir 1796 yili T.Lovits tomonidan K_2CO_3 va $CaCl_2$ ta'sirida suv va spirdan tozalandi. "Yog'larning shirin asosi" glitserin yog'lardan olindi. XIX asr boshlarida organik moddalarning tabiati xali tushunarli emas edi. 1784 yili A. Lavuaz'e vino spirti, moylar, mumlarni yoqib ulardan xosil bo'lgan karbonat angidridi va suv miqdorini o'lchadi va tarkibini aniqladi. Organik kimyoning rivojlanishida rus olimlaridan V. V. Markovnikov, N. N. Zinin, A. Ye. Favorskiy, S. V. Lebedev, N. D. Zelinskiy, A. N. Nesmeyanov va boshqalarning xizmatlari katta.

Organik kimyoning rivojlanishida O'zbekiston kimyogarlarning ham katta hissasi bor. 20-asrning 20-yillarida O'rta Osiyo universiteti kimyo fakultetida professor. S. N. Naumov boshchiligida xinon va toluxinon — dibromidlar tuzilishini aniqlash ustida kuzatuvlar amalga oshiriddi (1933). 2, 3-siklogeksandion 1,4-dikarbon efiri tuzilishi o'rganildi. Mazkur modda hosilalaridan xinoksalin, monoksalin, dioksim, monogibrazon, pi-razolon, biperazolon, oazonlar olindi, sho'rsuv nefti tadqiq qilinib, uning tarkibidagi uglevodorodlar va oltingugurt miqdori aniqlandi. 40-yillarda O. S. Sodiqov boshchiligida organik kislotalar, biologik stimulyatorlar, RR vitamini, xinozidin va boshqa olish yo'lga qo'yildi. 50-yillarda S. Yu. Yunusov O'zbekiston o'simliklari tarkibidagi noyob organik moddalarni ajratib olish va tarkibini o'rganishga kirishdi. Aromatik birikmalarni alkillash va alsillash amalga oshirildi (I. P. Sukervanik va boshqalar). Aproton va proton kislotalar alkillash reaksiyalarida katalizatorlar sifatida qo'llandi, 1-atsetilanizol olish usuli sanoatga tatbiq etildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Kimyo>
2. <https://hozir.org/kimyo-tarixi.html>
3. <https://www.cspi.uz/uz/kafedra-detel-sahifasi/kimyo-kafedراس>
4. <https://teletype.in/@masofatalim/organik-kimyo>

ФИО автора: *Xakimboyeva Gulshoda Berdinazar qizi*

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti talabasi

Название публикации: «OLQISHLAR VA QARG'ISHLAR: ULARNING HAYOTIMIZDAGI O'RNI»

Annotatsiya: Ushbu maqolada olqish va qarg'ishlarning tarixiy hamda bugungi kundagi ahamiyati bayon qilingan.

Kalit so'zlar: olqish, qarg'ish, magiya, folklor, marosim, san'at, so'z, kundalik-maishiy olqishlar, uchrashuv olqishlari, hadis.

Qadimgi insonlar so'zning magik qudratiga ishonganlari tufayli olqish va qarg'ishlarga ishonganlar. Ya'ni aytilgan qarg'ish va olqishlar hayotda o'z aksini topishiga, amalga oshishiga umid bog'laganlar. Ayrim holatlarda bu o'z tasdig'ini topgan ham. Olqish va qarg'ishlar so'z magiyasiga asoslangan. Ular marosim folklori namunalari hisoblangan. Chunki ular tarixan maxsus marosimlar aytimlari sifatida shakllangan va taraqqiy topgan. Lekin ular bora-bora marosim bilan aloqadorligini, asosan yo'qotgan. Biroq hozir ham olqish va qarg'ishlarning ayrim namunalari marosimlar paytida ijro etilishi kuzatiladi.

Olqishlar kishilarga yaxshilik, ezgu niyat, xotirjamlik, qut-baraka, sog'lik tilash maqsadida aytiladi. Ular kishilarning ruhini ko'tarib, yaxshilikka da'vat etadi. Shuning uchun janr nomi turkiy tillarda "maqtash", "sharaflash", "yaxshi istaklar bildirish" kabi ma'nolarni anglatuvchi qadimgi turkcha "ol" fe'li o'zagidan yasalgan "olqish" atamasi bilan yuritiladi. Atama "ol" o'zagiga – "qi" buyruq mayli hamda "-sh" harakat nomi yasovchi qo'shimchalarning qo'shilishidan hosil bo'lgan.

Olqishlar o'z ijro o'rniga, vazifasiga va poetik tabiatiga ega.

Ularni shu xususiyatlariga ko'ra talab qilingan o'rinda yoshi nisbatan ulug'roq kishilar tomonidan aytiladigan kundalik maishiy olqishlarga, an'anaviy marosimlar tarkibida ijro etiluvchi olqishlarga bo'linadi.

Kundalik maishiy olqishlar ijtimoiy turmush bilan chambarchas bog'liq bo'lib, inson faoliyatining deyarli barcha tomonlarini qamrab olganligi bilan diqqatni tortadi.

Shunga ko'ra, ularni ijro o'rni va ijro maqsadiga qarab, yana ichki turlarga bo'lish mumkin. Masalan biror kishi boshqa biror shaxs bilan uchrashib qolganida, bir-birlarini tanish-tanimasliklaridan qat'iy nazar hol-ahvol so'rashishdan oldin o'zaro bir-birlariga yaxshi tilak-istak bildirishilari, yuzlariga fotiha tortib sog'lik-omonlik istashlari uchrashuv olqishlari sifatida e'tirof etiladi. Uchrashuv olqishlari kishilarning bir-birlariga nisbatan hurmat-ehtiromlarini namoyon etadi. Ular shaxsning axloqini, tarbiyasini ko'rsatib beradi. Masalan, "Omin, qadam yetdi, balo yetmasin, Tinchlik, omonlik, xotirjamlik bo'lsin" aytimi ham uchrashuv olqishi sanaladi. Shuningdek, dasturxon olqish aytimlari alohida mavqega ega. Qadimdan taom yeyilgach, unga bag'ishlab maxsus olqish aytilgan. Jumladan, "Olti urug'ning oshini bersin, Luqmoni Hakim yoshini bersin, Qushday quyib bersin, Tog'day uyib bersin, Allohu akbar" deyilgan.

Kishilar biror ishni boshlashdan oldin ham, uni yakunlagandan keyin ham, albatta, olqish aytishlari o'ziga xos odat tusini olgan.

O'z navbatida qarg'ishlarni ham ikki turga bo'lishimiz mumkin. Yaxshi va yomon qarg'ishlar. Bu esa niyatga bog'liq. Xalqimizda "Yaxshi gapga ham, yomon gapga ham farishta omin deydi" - degan naql bor. Bu aslida Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning hadislaridan olingan. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam bir hadislarida shunday deydi: O'zingizni o'zingiz qarg'amang, chunki farishtalar siz aytgan duolarga omin deb turadi...(Muslim rivoyati). Musulmon kishi o'zining haqqiga ham, boshqa musulmon birodarining haqqiga ham duoibad qilib qarg'amog'i shar'an yaxshi emas. Ijtimoiy odob-axloq mavzusida qalam tebratgan ulamolar bu illatni inson tiliga ilashgan ma'naviy kasallik deb baholaydilar.

Shu o'rinda yaxshi niyatdagi qarg'ishlar ham mavjud. Masalan, "Uyingga bug'doy to'lgur", "Umring uzoq bo'lgur" kabi. Bunday qarg'ishlarning qay o'rinda, qay daraja va tartibda ishlatilishi insonning niyatiga bog'liq deb hisoblayman.

Xulasa o'rnida shuni aytish lozimki, qarg'ish va olqishlarni qay jihatdan ishlata bilish ham san'at. Insonlar bu san'atdan qanday foydalanishi orqali o'zining saviyasini, xulq-atvorini, ko'z ilg'amas jihatlarini namoyon etib qo'yishlari hech gap emas.

So'z bu – duo. Demak uni besamar va noo'rin ishlatishdan o'zni asrash kerak.

Adabiyotlar:

1. M.Jo'rayev, J.Eshonqulov. "Folklorshunoslikka kirish". Toshkent
2. Oxunjon Safarov. "O'zbek xalq og'zaki ijodi". "Musiqqa" nashriyoti. Toshkent 2010
3. "Kichik janrlar maqol, matal va topishmoq, olqishlar va qarg'ishlar janrlar poetikasi.

ФИО автора: *Xojaniyazov Tursinbay Baxitbay uli*

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogik instituti talabasi

Название публикации: «HOZIRGI KUNDA MAKTABLARDA MATEMATIKANI O'QITISHNING DOLZARB MUAMMOLARI»

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy matematikaning dolzarb muammolari va ularni hal qilish haqida so'z boradi. Yana maktab o'quvchilarining matematikani o'rganishida bir qancha muammolarga to'xtalib o'tamiz. *Kalit*

so'zlar: o'quv material, darslik, induktiv usullar, ko'nikma va malakalar, zamonaviy ta'lim standartlari, matematik model, transformatsiyalar.

Maktab o'quvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirish muammosi hali ham dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. Ushbu yechim ko'plab qarama-qarshiliklarni va o'quv jarayoniga xos bo'lgan bir qator muammolarni bartaraf etish bilan bog'liq. Ularning ba'zilari quyidagicha:

- o'quv materialining hajmi va mazmuni o'rtasida qat'iyani aniqlangan qarama-qarshiliklar mavjud bo'lib, ular ijodiy ish olib boruvchi o'qituvchining o'z chegaralaridan tashqariga chiqishga, u yoki bu masalani darslikda qabul qilinganidan farqli ravishda izohlashda ko'rib chiqishga bo'lgan tabiiy istagi;
- samaradorlik va induktiv usullar vaqtidagi samarasizlik o'rtasidagi ziddiyat;
- maktab o'quvchilarining kundalik kollektiv tarbiyaviy ishlari, bilimlarni o'zlashtirishning individual xususiyatlari, ko'nikma va malakalarini shakllantirish, ularning ishlash tezligi va tabiati o'rtasidagi ziddiyat;
- muqarrar ravishda ma'lum bir standartlashtirishga olib keladigan va matematik ta'limning ommaviy xarakteri o'rtasidagi ziddiyat, bu esa idrokning individual tabiati bilan ta'kidlanadi.

Bugungi kunda maktab matematikasi ta'limida ikkita muammo mavjud. Ushbu yechim zamonaviy ta'lim standartlariga javob beradigan zamonaviy darsliklarni nashr etishga qaratilgan bo'lishi kerak:

- 1) barcha talabalarga mustaqil ravishda ma'lumot olishga, o'quv adabiyotlarini o'qishga o'rgatilmaydi;

2) o'rganish va rivojlanish o'rtasida tanlov qilishda, osonroq o'rganishga ustunlik beriladi;

Birinchi muammoning yechimi faqat darslikdagi materialga kirish imkoni va batafsil bo'lishi bilan mumkin bo'ladi, bu maktab o'quvchilariga o'quv adabiyotlarini o'qishga va mustaqil ravishda ma'lumot olishga o'rgatishga yordam beradi. Bugungi kunda o'qituvchining asosiy vazifasi o'quvchilarning boshlarini go'yo keyingi hayotda kerak bo'ladigan ma'lumotlar bilan to'ldirish emas, balki o'zlari kerakli ma'lumotlarni olishga o'rgatish, o'quv adabiyotlarini ongli ravishda o'qishga o'rgatishdir. Ular darslikni o'zlari o'qiy olishlari uchun darslik o'qituvchi uchun emas, avvalambor ular uchun, talabalar uchun yozilishi kerak. Matematikani o'qitishda ozmi-ko'pmi muammoli ta'lim bilan bog'liq uchta yondashuv mavjud: Muammoli vaziyatlarni yaratish usuli, muammoli ta'lim usuli va muammoli ta'limning o'zi. Muammoli o'qitish usuli quyidagicha: o'qituvchi talabalarga ular hal qila olmaydigan muammoni taklif qiladi. U biror narsani tushuntiradi, nazariyaning yangi elementlarini kiritadi, so'ngra asl muammoga qaytadi va uni oxirigacha yetkazadi. Printsipial jihatdan, bu juda mos bo'lgan o'qitish usuli, ammo uning bir muhim kamchiligi bor – bu talabalarga yo'naltirilgan emas. Darsda ko'rib chiqiladigan muammo talabaga emas, balki o'qituvchiga kerak. O'qituvchi buni talabalarga yuklaydi, chunki bu yangi materialni tushuntirish jarayonini yanada qulay qiladi. Muammoli vaziyatlarni yaratish usuli bilan vaziyat taxminan bixil. Qoida tariqasida o'sha darsda, o'qituvchi talabani muammoli vaziyatga tushiradi va o'zi uni undan chiqarib tashlaydi. Ushbu ikki usuldan foydalanganda talabalar odatda passiv bo'ladi. Muammolarni o'rganishga to'g'ri yondashish ikki printsipga asoslanadi:

1) talaba to'g'ridan-to'g'ri muammoga duch kelishi kerak; muammoni hal qilishda yoki qandaydir mulohazalarni olib borishda, u shaxsan nimadir uning kuchidan tashqarida ekanligiga ishonch hosil qilishi kerak, chunki u, ehtimol, biror narsani bilmaydi;

2) muammoning yechimi o'z vaqtida kechiktirilishi kerak, muammoni "orqaga qaytarish" kerak. Faqatgina ushbu sharoitda, muammoning yechimiga erishgan

holda, talaba o'zining rivojlanishida muvaffaqiyatga erishganligini tushunadi va ma'lum ijobiy his-tuyg'ularni qabul qiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, talabalar algebra kursini bir butun sifatida tushunishlari uchun, avvalambor, ularning boshlang'ich modellarini (funktsiyalarini) to'liq o'zlashtirishlari muhimdir. Bu shuni anglatadiki, ma'lum bir funktsiyani o'rganish uchun ularning faoliyatini yangi ob'ektni (o'ziga xos matematik model-funktsiyani) tizimli ravishda, harxil tomondan, harxil vaziyatlarda ko'rib chiqadigan tarzda tashkil etish zarur. Shu bilan birga, bu izchillik tasodifiy uchastkalar majmuasi xarakterida bo'lmasligi kerak, harxil funktsiyalar sinflari uchun harxil, bu esa o'rganishda noqulaylikni keltirib chiqaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'rta maktabda matematikani o'qitish metodikasi: Umumiy metodika: O'quv qo'llanma. Fizika va matematika talabalari uchun qo'llanma. yuz. ped. in-tov / V. A. Oganesyanyan, Yu. M. Kolyagin, G. L. Lukankin, V. Ya. Sanninskiy. M.: Ta'lim, 1980 yil.
2. Ta'lim standartlari / Ed. B.A. Bordovskiy. - Sankt-Peterburg: Ta'lim, 1996 yil.
3. O'rta maktabda matematikani o'qitish metodikasi bo'yicha amaliyot: akademik. Fizika va matematika talabalari uchun qo'llanma. yuz. ped. in-tov / T.V. Avtonomova, S.V. Varchenko, V.A. Gusevvaboshqalar; Ed. IN va Mishina. - M.: Ta'lim, 1993 y.
4. Kasbiy pedagogika: Pedagogik mutaxassisliklar va yo'nalishlarda o'qiyotgan talabalar uchun o'quv qo'llanma. - M.: "Kasbiy ta'lim" uyushmasi, M., 1997 y.

ФИО автора: *Озода Юлдашхуджаева*

ЎзМУ Тарих факультети Археология кафедраси талабаси

Название публикации: «ЎЗБЕК ХАЛҚИ ЭТНОГРАФИЯСИНИ ДУНЁГА ТАНИТГАН ОЛИМ»

Этнология ва этнография соҳасининг фан сифатида шаклланишида бир қанча олимларнинг меҳнатлари синган, шу жумладан машхур олим Сергей Павлович Толстовнинг ҳам ўзига хос ўрни бор.

Бундай буюк шахс билан фаолият юритиш, илмий тадқиқотлар жараёнига гувоҳ бўлиш ёш, илмга чанқоқ, меҳнатсевар, бўлажак олим, ўз соҳасининг фидойиси бўлган бўлажак олим Исо Муродович Джабборовга насиб қилди.

Сергей Павлович Толстов Хоразм воҳасида олиб борган илмий тадқиқотлари жараёнида бирга қатнашиб ўзининг этнография фанига бўлган қизиқишини оширди. Исо Муродович Джабборов машхур этнограф бўлиб, йетишишида устози Сергей Павлович Толстовнинг ўрни катта аҳамият касб этади.

Бутун умрини ўқиш ва изланиш, билганларини ёшларга ўргатишни ўзига мақсад қилиб қўйган устозимиз Исо Джабборов Москва университетиде талабалик давридаёқ С.П.Толстов бошқарган “Хоразм экспедицияси”да фаол қатнашган.[1:23].

Фанга “Хоразм цивилизацияси”ни олиб кирган С.П.Толстовнинг Хоразм тарихи, маданияти ва этнографиясига меҳр-у муҳаббати юксак бўлган.

Устозининг бундай фидойилиги ёш тадқиқотчи қалбига ўша даврлардаёқ синган эди. Шунинг учун ҳам Исо Джабборов ўзини қизиқтирган соҳалар: Тарих, этнография, фалсафа, диншунослик ва маданиятшунослик бўйича қилган барча илмий изланишларини албатта Хоразм тарихига ёндашиб олиб борган.

“Хоразм экспедицияси” кўпгина ноёб топилмалари билан тарих хазинасини бойитади. Антик давр маданиятига оид топилмаларининг барчаси тарих илми учун том маънода жуда қимматли эди. Моҳиятан аҳамиятсиз бўлиб кўринган ашё ва белгилардан катта хулоса чиқариш илмнинг ўзига хос хусусиятларидан бири.[3:3].

Исо Джабборов ўша даврдаги дастлабки, тадқиқотларидаёқ айнан шу хусусиятларни англай билди. Хоразм воҳасига оид ёқлаган илмий тадқиқот иши турли илмий доираларда катта қизиқиш уйғотди.[1:112].

Бу тадқиқоти орқали Исо Джабборов Хоразм этнографияси масаласини биринчилардан бўлиб, фанга олиб кирди ва унга жаҳон олимларининг

эътибоирини қарата олди. Устознинг илмий фаолияти айниқса мустақиллик йилларида сермахсул бўлди.

Уларнинг; “Кўхна харобалар сири”(1961), “Ижтимоий тараққиёт, маиший турмуш ва дин”(1973), “Ажойиб кишилар ҳаёти”(1983), мустақиллик йилларига келиб 1993 йилда Исо Джабборов археолог олима Г.Дресвянская билан ҳамкорликда рус тилида “Ўрта Осиё руҳлари, авлиёлари ва маъбудалари” номли янги асарани чоп эттирди. “Ўзбек халқи этнографияси” (1994), “Буюк Хоразмшоҳлар давлати”(1999), “Антик маданият ва маънавият хазинаси”(1999), ўғили Санжар билан ҳамкорликда ёзилган “Жахон динлари тарихи” дарслиги (2002), “Ўзбеклар: турмуш тарзи ва маданияти”(2003), “Жахон этнологияси асослари”(2005-2008) “Ўзбеклар”(Анъанавий хўжалиги, турмуш тарзи ва этномаданияти) (2008) ва бошқа бир қатор фундаментал асарларни яратган.

Устознинг бир канча асарлари хорижий мамлакатларда нашр этилаётганлигининг ўзи ҳам Исо Джабборовнинг маънавияти юксак эканлигини англатади.[1:62].

Маълумот ўрнида шуни айтиш жоизки, устознинг “Ўзбеклар турмуш тарзи ва этномаданияти” номли китоби ҳақида тўхталиб ўтмаслик мумкин эмас.

Бу асарда ўзбекнинг келиб чиқиши, шажарасига оид қизиқарли фактлар келтирилган.[2:4]. Бундан ташқари мазкур китобда ўзбекларнинг анъанавий машғулоти ва хўжалик фаолияти махсус ўрганилиб халқ сифатида шаклланиши жараёнларини ўзбек халқи моддий ва маънавий маданияти, миллий урф - одатлари илмий асослаш орқали халқимиз жахоннинг энг қадимий халқларидан экани, унинг тарихи неча минг йиллар билан ҳисобланиши ва буни ҳеч ким ҳеч қачон инкор эта олмаслигини исботлаб берди. Ушбу китоб унга тақриз ёзган академик Собир Камолов таъбири билан айтганда, “Ўзбекни ўзлигини танитадиган асар бўлди” дейишимиз мумкин.[1:43].

Хоразмнинг чинакам фарзанди сифатида бу ўлканинг дини, тарихи ва маданияти ҳақида ёзганлари халқимиз маънавиятининг бебаҳо мулкига айланди; ўзбекларнинг келиб чиқиши ҳақидаги энг сўнгги монографияси ўзбек ва рус тилларида нашр этилди.[1:69]

Исо Джабборов билан суҳбатдош бўлган ҳар бир шахс устозни ёдга олар экан:” Устоз маъруза жараёнларида нафақат талабаларнинг эътиборли бўлишлари, вазифаларни вақтида бажаришларига балки, уларнинг ички дунёси, муаммоларига ҳам эътибор қилар эдилар. Устоз кимгадир маслаҳатгўй ота яна кимгадир ҳақиқий дўст эдилар” дея таъкидлайдилар.

Профессор Исо Джабборовнинг илмий – педогогик беқиёс даражада сермазмун кечди. Устознинг 300 га яқин илмий монографиялари, рисолалари,

дарсликлари, ўқув қўлланмалари, илмий ва имлий - оммабоп мақолалари ҳамда тақризлари биз ёшлар учун катта хазинага айланди.

Устозимиз Исо Джабборов илмий раҳбарлигида кўплаб талабаларда Этнология ва этнография соҳасига қизиқишлари ортди.[1:35]

Тарих фанлари номзоди, доцент Турсун Ўсарович Салимов “Исо Муродович Джабборовнинг сайҳаракатлари билан 1981 йилда илк ўзбек тилидаги “Этнография асослари” дарслиги чоп этилди. Бу дарслик Ўрта Осиёдаги миллий республикалардаги биринчи она тилидаги ўқув қўлланмаси бўлди” дея таъкидлайди.[1:101]

Азиз устозимизнинг илм – фан соҳасидаги самарали меҳнатлари Ўзбекистон ҳукумати эътиборидан четда қолмади; Эл – юрт олдидаги камтарона хизматлари учун “Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган фан арбоби” фахрий унвони, “Фалсафа фанлари доктори”, “Халқ маорифи аълочиси” кўкрак нишони билан тақдирланди.[1:110]

Хулоса ўрнида шуни айтиш жоизки, халқимиз маънавий бойлиги ҳар бир даврда яшаб ижод қилган, инсониятнинг онги ва қалбига зиё нурларини таратган шахслар мероси билан ўлчанади.

Профессор Исо Муродович Джабборов чиндан ҳам тафаккури қайнарбулоқ, илмга чанқоқ, теран фикр, ўткир зехн эгаси ва дўстликни қадрловчи инсон эдилар. Устозимизнинг маънавий мероси ҳам ана шундай безавол маънавиятимиз хазинасидан ўрин олган илмий жавоҳирлардир. Бу инсоннинг энг катта бойликлари улар ёзиб қолдирган кўп йиллик ажойиб илмий асарлари ва истеъдодли шогирдларидир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати.

1. “Илм – фан ва маърифатга бағишланган умр”. Тошкент. 2009.
2. Джабборов И.М. Ўзбек халқи этнографияси. Тошкент. 1994.
3. Джабборов И.М. Дрений Хорезм. Москва. 2014.

ФИО авторов: *Yo'ldosheva Dildora Mengliboy qizi*

ToshDAU Termiz filiali talabasi

Qurbonov Mirzoli Choriyevich

ToshDAU Termiz filiali talabasi

Название публикации: «O'ZBEKISTONNING JANUBIDA SHIRINMIYA (GLYCYRRHIZA GLABRA-L.) YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI VA DORIVORLIK XUSUSIYATLARI»

Annotatsiya. Dorivor o'simliklarni biologik xususiyatlari, areallari, ko'paytirish usullarini ishlab chiqish va sanoat ushuncha bazasini taminlashda dorivor o'simlik ya'ni Shirinmiya (*Glycyrrhiza glabra-L.*) o'simligini yetishtirish texnologiyasi va dorivorlik xususiyatlarini o'rganish mamlakat iqtisodiyotining o'sishiga xizmat qiladi.

Аннотация. Изучение биологических свойств, местообитаний, методов воспроизводства лекарственных растений и технологии выращивания и выращивания лечебных свойств лекарственных растений (*Glycyrrhiza glabra-L.*) Обеспечение в стране сырьевой базой для промышленности служит росту экономики.

Annotation. Development of biological properties, habitats, methods of reproduction of medicinal plants and study of the technology and medicinal properties of medicinal plants (*Glycyrrhiza glabra-L.*) in the development of the raw material base for industry serves the growth of the economy.

Kalit so'z. polikarp, barg, gul, tuxumsimon, ellipssimon, glyukoza, flavonoidlar, efir moylari, pektin.

Ключевое слово. поликарп, лист, цветок, яйцевидный, эллиптический, глюкоза, флавоноиды, эфирные масла, пектин

Keywords. polycarp, leaf, flower, ovoid, elliptical, glucose, flavonoids, essential oils, pectin.

Respublika hududlarida dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlashga doir ilmiy tadqiqotlarning yagona bazasini yaratish, xorijiy davlatlarning ilg'or ilmiy ishlanmalarini o'rganib borish, yetakchi ilmiy muassasalar bilan hamkorlik o'rnatish hamda zamonaviy texnologiyalar, ilmiy ishlanmalarni respublikaga joriy etish va mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanishni kuchaytirish maqsadida ko'lab qunun

Speaking is the essential part of learning a language. That is why teachers should more point out it in the class and out of the class. Using the target language can lead to the success which you are going to achieve. Teachers should create relaxed English atmosphere in their lesson. Students should not fear of making mistakes. The more they speak in English the faster they learn it. You should avoid correcting every grammar mistakes, which your students are making in their speech but not flagrant violations.

They should be corrected in the moment they are made. Grammar slows down the fluency of speech and can be trouble to speak fast. That is why grammar should be forgotten. You should not let students laugh at each other's mistakes. By doing this, you can create relaxed atmosphere among the students. Teacher should stimulate the interest of speaking English everywhere. English language should be used not only in the class but also out of the class. If a student wants to ask a question from you and, he is speaking in his native language you may not answer or pretend not to understand his words. Moreover, you can have communication classes with your students. You should not let your students speak in their own language even a word. If they do not know the word, they can give the definition of the word and, others help to guess it. If nobody knows the translation of the word and conversation cannot continue without it, they can look up from the dictionary or you can help.

Methods. During the lessons modern teachers use different methods to gain the attentions of the students such as "Brainstorm", "Silent way", and the same time they make them play some games as "Find your pair" for younger learners. "Missed letter or word", "What is wrong" and so on. Another useful method of teaching English language is memorising verbs, answering worksheets, talking dictation and repeating.

Conclusion

To sum up my article is devoted to produce more successful and skillful teacher for our future generation. As a student, I want to have a teacher who can cope with any difficulties and manage to conduct interesting classes. In the process of learning English as my second language, I came across too many teachers and I tried to learn them new, interesting and useful methods. I want a teacher who will take an interest in me as a person. From my own experience the best teacher is not only who teach something in the class but also being a friend, a mother or any relative to the student. In my opinion, teacher should treat a student as a person on an equal basis with all members of the class, regardless of sex, marital status, or race. Besides that, teacher should put herself in the place of the student. The knowledge should be the watch word, while evaluating a student.

In this article, I have drawn up a number of simple but important guidelines some of which I hope may provide helpful suggestions for the teacher of English.

Reference:

- 1) <https://www.brainy.quote.com> Quotations
- 2) <https://www.edsys.in> About English methods
- 3) <https://www.english.com> Useful Activities
- 4) <https://www.shejot.com> "Black" film

- 5) English teaching forum 2012 Patricia Miller
- 6) English teaching forum 2012 ACY. L. Jackson
- 7) “Techniques in teaching” Ann Raimes 1983
- 8) Longman dictionary

ФИО автора: *Дильбархон Махмудова Таджибаевна*

Учитель „Родного языка и Литературы“ школы № 7 Балыкчинского района
Андижанской области Республики Узбекистан

Название публикации: «ИНФОРМАЦИЯ О ПОНЯТИИ ДВУЯЗЫЧИЯ»

Аннотация: В этой статье содержится информация о двуязычии. Двуязычие - это широкое понятие и одно из самых распространенных понятий сегодня. Двуязычие во многом является результатом много этничности. Яркий тому пример - наш собственный народ. Наша нация многонациональный народ, поэтому помимо узбекского многие говорят на кыргызском, таджикском и русском языках. Это полезная ситуация. Чем образованнее человек, тем больше он приносит пользу своему народу и государству. В частности, двуязычие также делает людей образованными, то есть они знают много языков.

Ключевые слова : двуязычии.

Bilingvizm tushunchasi haqida ma'lumotlar

Dilbarxon Maxmudova Tojiboyevna

**O'zbekiston Respublikasi , Andijon Viloyati , Baliqchi tumani 7-
maktabning „ Ona tili – Adabiyoti “ fani o'qituvchisi .**

Annotatsiya : Ushbu maqolada Bilingvizm ya'ni 2 tillilik haqida ma'lumotlar berilgan. Bilingvizm keng ma'noli tushuncha bo'lib , hozirgi davrda keng uchray digan tushunchalardan biridir. Bilingvizm asosan ko'p millatlilik natijasida kelib chiqadi. Bunga yorqin misol qilib o'zimizni millatimizni misol keltirishimiz mum kin. Bizni millat ko'p millatli xalq hisoblanadi , shuning uchun ko'p axoli O'zbek tiliga qo'shimcha ravishda Qirg'iz, Tojik , rus tillarini biladi. Bu esa foydali holat hisoblanadi. Inson qanchalik bilimli bo'lsa xalqiga , davlatiga foydasi ko'p tegadi. Xususan ,bilingvizm ham xalqni bilimli ya'ni ko'p tilni bilishiga olib keladi.

Kalit so'zlar : bilingvizm.

Естественные языки принципиально неоднородны: они существуют во многих своих разновидностях, формирование и функционирование которых обусловлено определенной социальной дифференцированностью общества и разнообразием его коммуникативных потребностей.

Некоторые из этих разновидностей имеют своих носителей, т.е. совокупности говорящих, которые владеют только данной подсистемой национального языка (территориальным диалектом, просторечием). Другие разновидности служат не единственным, а дополнительным средством общения: например, студент пользуется студенческим жаргоном главным образом в «своей» среде, в общении с себе подобными, а в остальных ситуациях прибегает к средствам литературного языка. То же верно в отношении профессиональных жаргонов: программисты и операторы ЭВМ используют компьютерный жаргон в непринужденном общении на профессиональные темы, а выходя за пределы своей профессиональной среды, они употребляют слова и конструкции общелитературного языка. Подобное владение разными подсистемами одного национального языка и использование их в зависимости от ситуации или сферы общения называется внутриязыковой диглоссией (от греч. "дву-" и "язык"; буквально – "двужычие"). Простейший вариант языкового состояния — это случай, когда индивид или языковая общность владеет лишь одной формой существования языка. Это моноглоссия. Ей противопоставлена диглоссия — пользование двумя и более формами существования данного языка (эти термины введены Ч. Фергюсоном). Моноглоссия в чистом виде встречается редко. Ее можно видеть там, где единственным средством общения выступает территориальный диалект, креольский язык, койне, языки без функциональных вариантов (племенные, одноаульные).

Основной формой состояния языка обычно служит диглоссия, поскольку каждый индивид (социальная группа) «сопринадлежит одновременно нескольким и разным по охвату коллективам» (Б. А. Ларин) и может пользоваться разными языковыми подсистемами.

При диглоссии одна из форм существования языка выступает как главная, доминирующая, а вторая — как дополнение к ней. Схемы сочетаемости разных форм существования языка довольно разнообразны. Назовем их, а затем отметим типичные, наиболее распространенные в русском языке.

1-й вариант диглоссии: литературный язык — народно-разговорный язык.

Пример: чешский литературный язык и чешский обиходно-разговорный язык.

2-й вариант диглоссии: литературный язык — наддиалектное койне. Примеры: русский литературный язык национального досоциалистического периода и городские койне; современный аварский литературный язык и болмац — интердиалект, возникший на базе северных диалектов аварского языка;

3-й вариант диглоссии: литературный язык — просторечие. Это довольно редкое сочетание, однако оно все же встречается, так как в некоторых ситуациях владеющие литературной нормой могут переходить на заведомо сниженную, ненормированную речь (иногда преследуя стилистические цели);

4-й вариант: литературный язык — пиджин, возникший на его основе. Тоже редкий случай, однако теоретически допустимый, например переход на пиджин (или кяхтинское наречие) лиц, владеющих литературным языком (английским, русским).

5-й вариант диглоссии: литературный язык — креольский язык; примером может служить усвоение носителями литературных языков (английского, испанского, португальского, французского) негритянско-английского, негритянско-испанского, негритянско-французского и других креольских языков в Африке, а также в районе Карибского моря, на островах Атлантического и Индийского океанов;

6-й вариант диглоссии: литературный язык — территориальный диалект; довольно частый случай, заключающийся в том, что носитель литературного

языка, находясь длительное время в условиях диалектного окружения, усваивает местный говор и пользуется им в разговоре с односельчанами. Этот вариант диглоссии может возникнуть и иначе: выходец из деревни полностью освоил литературный язык, но не забыл и свой родной диалект;

7-й вариант диглоссии: литературный язык — социальный диалект (одного или нескольких его типов). Это случай, когда носители литературного языка, например учащиеся, студенты, солдаты, пользуются «молодежным жаргоном»;

8-й вариант диглоссии: народно-разговорный язык — литературный язык;

9-й вариант диглоссии: народно-разговорный язык — наддиалектное койне;

10-й вариант диглоссии: народно-разговорный язык — просторечие;

11-й вариант диглоссии: народно-разговорный язык — пиджин;

12-й вариант диглоссии: народно-разговорный язык — креольский язык;

13-й вариант диглоссии: народно-разговорный язык — территориальный диалект;

14-й вариант диглоссии: народно-разговорный язык — социальный диалект;

15-й — 21-й варианты диглоссии: койне (наддиалектный язык) в сочетании с литературным языком, народно-разговорной формой, просторечием, пиджином, креольским языком,

территориальными диалектами, социальными диалектами.

Следующие варианты диглоссии (не менее 30) получаются при сочетании просторечия с прочими вариантами языка, пиджина — с другими вариантами языка, креольского языка—с некоторыми другими формами, территориального диалекта - с другим территориальным диалектом, а также другими социально-функциональными вариантами языка. Что касается социальных диалектов, то они в роли основных форм общения не выступают.

Мы не перечислили всех встречающихся в языках мира форм существования языка (опущены в нашем перечне ритуальные языки, половые, половозрастные, варианты литературных языков, варианты, противопоставляемые как «старый» и «новый» язык и др.) и тем самым не дали исчерпывающего перечня диглоссных комбинаций.

Литература :

1. Teliya V.N. Russkaya frazeologiya : sementicheskiy, pragmaticheskiy I , lingvokulturologicheskiy aspekti . – M : Shkola „ Yaziki russkoy kulturi “ , 1196 – S.222.
2. Vorobyev V.V. Lingvokulturologiya , teoriya I metodi . – M. 1997 .
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati . I.I. – M. Russkiy yazik , 1981.
4. Blib // refcairc allbcsi . Ru
5. Jalolov J. Chet tili o‘qitish metodikasi. –T. 1996
6. www.dictionary.com

ФИО автора: *Дилшод Ходжиев Дилмуроджон оглы*

Заместитель директора по учебной работе школы № 21

Шафирканского района Бухарской области

Название публикации: «МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ОРГАНИЗАЦИИ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В ПРЕПОДАВАНИИ ФИЗИКИ»

**Fizika kursini o'qitishda innovatsion faoliyatni tashkil etishning
metodik shart-sharoitlari**

Dilshod Hojiyev Dilmurodjon o'g'li

Buxoro viloyati, Shofirkon tumani ,

21-sonli maktabning o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari.

Annotatsiya : Ushbu maqolada yurtimizda innovatsion faoliyatni yaxshilashga qaratilgan shart - sharoitlar , ularni amaliyotga tatbiq e'tilishi , qolaversa aynan maktablarda , litsey larda va oliy ta'lim muassasalarida fizika kursini oqitishda innovatsion texnologiyalarni roli va ularning ba'zilar haqida ma'lumotlar keltirilgan. Hususan yangi O'zbekistonimizni qurishda , yoshlarni bilimini oshirish uchun ham innovatsion faoliyatni ro'li.

Kalit so'zlar : innovatsiya, innovatsion faoliyat, ish , kuch, energiya , molekula , massa, elektrik maydon, dinamika qonuni , o'zgarmas to'k, munozara metodi, klaster usuli.

Eng katta boylik – ilm, ma'rifat,

Eng katta me'ros – yaxshi tarbiya,

Eng katta qashshoqlik – bilimsizlikdir.

Sh.M. Mirziyoyev

Kirish . O'zbekiston maktablarida fizika kursi ikki bosqichda o'rganiladi. Kursning bunday tuzilishi o'rta maxsus ma'lumot berishga mos keladi va fizika

asoslarining o'quv fani sifatida o'ziga xos xususiyatlari bilan bo'lib ?. Fizik tushunchalarning shakllanishi uzundan uzoq jarayon hisoblanadi. Kuch, massa, Ish, energiya, molekula, elektr zaryad, maydon to'g'risidagi tushunchalar; fizikaning asosiy qonunlari energiya ning saqlanish va bir turdan boshqa turga aylanish qonuni, dinamika qonunlari, o'zgarmas tok qonunlari; moddalarning elementlik, platsiklik, murtlik, mustahkam lik, qovushqoqlik (yopishqoqlik), siqiluvchanlik, Issiqlik o'tkazuvchanlik, elektr o'tkazuv chanlik kabi va boshqa xossalari to'g'risidagi tasavvurlar kursning ayni bir joyda tarkib topshi va puxta o'zlashtirilishi mumkin emas. Bu tushuncha, qonun va xossalar o'quv materialining murakkablashib borgani sari, fizik kursining har xil jismlarida bir necha marta takrorlashda, hodisa va munosabatlarni o'rganish natijasida, uzoq muddat ichida sekinatsa o'zlashtiriladi. Buning hammasi fizikani takror o'rganishni talab qiladi. Shularni hisobga olgan holda, fizikaning o'rganishni umumiy o'rta ta'limda to'g'ri, bir tekis, ketma-ketlikda hajmi jismlarini o'lish mo'ljallangan bo'lib, (kurs ning tugallangan formasi), akademik-litsey va kasb-hunar kollejlarida fizika kursining murakkab materiallarini takror o'qitish mo'ljallangan.

Akademik litsey va kasb hunar kollejlarida fizika kursi ancha yuqori saviyada o'rganiladi. Ta'lim oluvchilarning o'rta umumta'lim maktablarida olgan bilim va mala kalari yanada rivojlantiriladi, kengaytiriladi va cho'qurlashtiriladi.

Fizika kursi anchagina murakkab kurs , fan hisoblanadi. Bu shu paytgacha o'rganib , yagiliklarlar yaratildi. Endilikda kelajak avlodlarimizni , yoshlarimizga ham fizikani barcha jihatlarini to'lig'icha yetkazish bizning , pedagoglarning muhim fazifasi hisoblanadi.

Endilikda yoshlarning saviyasi anchagina baland bo'lib bormoqda. Chunki biz ommaviy axborotlar rivojlangan mamlakatda yashamoqdamiz . Yoshlarni ilmi , bilimi oshgani sayin biz pedagoglar ham yangicha metodlar va yangicha innovatsiyalar yaratishimiz zarur bo'ladi.

Dolzarbli. Bilishimiz kerakki , har bir pedagog o'z doirasida bilim saviyasiga ega. Maktablarda innovatsion metodlardan foydalanish uchun ham o'qituvchilarda shunga yarasha malaka va bilim , tashabbuskorlik talab e'tiladi. Har bir pedagogni o'z o'qitish uslubi , metodikasi bo'ladi. Pedagog o'quvchilarni tilini topa bilishi kerak bo'ladi. Innovatsion metodlardan foydalanish o'quvchilarni bilimini oshirishga ancha yordam berdi. Hususan hozirda Fizika fanini o'qitishda qo'llash mumkin bo'lgan bazi metodlar bilan tanishamiz.

Asosiy qism. Munozara metodi : Dars jarayonini yanada qiziqarliligini ta'minlovchi metod. Odatda dars jarayonida asosan o'qituvchi dars otadi, o'quvchilar esa tinglab otiradi, vaholangki bu paytda ba'zi o'quvchilar orasida zerikish hissi paydo bo'ladi. Shu zerikishni keltirib chiqarmaslik uchun pedagog darsni munozara holatida o'tsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Misol uchun : ustoz dars o'tishni boshladi. O'quvchilar ham bugungi mavzu haqida ozgina bilimga ega bo'lib kelishlari talab etiladi. Uyda faqatgina o'tgan mavzuni emas bugungi mavzuni ham o'qib kelishsa , bu yerda shu bugungi mavzu bo'yicha tushunmagan narsalari haqida ustoz bilan munozara shaklida dars o'tilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu metod jarayonida o'quvchilarni darsga qiziqishi ortadi , qolversa bilim saviyasi ham sezilarli darajada o'zgaradi.

Tanqidiy tafakkur. Tanqidiy tafakkur usuli o'qituvchi qo'ygan masala yoki muammoni o'quvchi o'z fikrini bayon qilish, o'zgalarning fikrlarini tanqidiy qayta idrok etish, o'z nuqtai nazarini asoslab berish va saqlab qolish imkoniyatiga ega bo'lishiga asoslanishidir.

Debatlar. O'z nuqtai nazarini asoslashda guruhdagi barcha o'quvchilar (yoki asosiy qismi) ning bahslashuvida faol ishtirok etishni ta'minlovchi o'qitish usulidir. Bu usuldan foydalanish tanqidiy tafakkurni rivojlantiradi. O'quvchilar o'z nuqtai nazarini ishlab chiqishi, uni taqdim etishi, himoya etishi, so'ngra raqib nuqtai nazarini rad etishi kerak. Bahs haqiqatni yuzaga keltirgani bois, o'qituvchi guruhni ikki guruhga bo'lgan holda munozarani atayin avj oldiradi.

Klaster (Tarmoqlar usuli). Bu fikrlarning tarmoqlanishi, ya'ni pedagogik strategiya bo'lib, u o'quvchilarni biron bir mavzuni chuqur o'rganishlariga yordam berib, o'quvchilarni mavzuga taaluqli tushuncha yoki aniq fikrni erkin va ochiq ravishda ketma-ketlik bilan uzviy bog'langan holda tarmoqlashlariga o'rgatadi. Bu usul bilan mavzuni chuqur o'rganishdan avval o'quvchilarning fikrlash faoliyatini jadallash tirish hamda kengaytirish uchun xizmat qiladi. Shuningdek, o'tilgan mavzuni mustahkamlash, yaxshi o'zlashtirish, umumlashtirish hamda o'quvchilarni shu mavzu bo'yicha tassavurini chizma shaklida ifodalashga undaydi.

Aqliy hujum. Bu usul ijodiy hamkorlik, birga fikrlash, hamjihatlik darsi, har kim o'z fikrini ayta oladigan va aytishi zarur bo'lgan erkinlik darsidir. Darsga qancha ko'p va yaxshi tayyorlansang, shunchalar o'zingni eshitishga, do'stlaringa gapirishga istak tug'iladi. Aqliy hujum usuli o'quvchilarning o'zlari oldingi o'tilgan mavzulardagi formulalardan foydalangan holda formulalarni chiqarib isbotlab beradi.

Masalan, «Tekis tezlanuvchan harakatda ko'chish», «Tezlik bilan ko'chish orasidagi bog'lanish», «Kinetik va potensial energiya» va boshqa formulalarni chiqarib beradi.

Tekis tezlanuvchan harakatda ko'chishda doskaga quyidagi formulalarni yozib $S = v_0 t + at^2 / 2$ formulani „Aqliy hujum“ usulida chuqarish tavsiya qilamiz
1) $v_{ypm} = S / t$ 2) $S = v_{ypm} t$ 3) $v_{ypm} = v_0 + v / 2$ 4) $v = v_0 + at$

O'quvchilar 2, 3, 4-formulalardan foydalanib $S = v_0 t + at^2 / 2$

chiqarib, tushuntirib beradilar. Mana shunday dars kashfiyotdir. O'quvchi ham o'qituvchi ham darsga xuddi shu narsa uchun ikki tomonlama ijod, hamkorlik sevinchi uchun, o'quv faoliyatida darsdan xuddi yozuvchi darajasida foydalanish quvonchi uchun kelishadi. Formula qanday shaklda bo'lmasin, u mohiyatni ochishga, to'plash, saralash, aniqlash va quyulashtirishga, o'quvchidagi oqilona ruhni va shu asosidagi estetik ruhni va mavzuni tushunishga

o'rgatadi. Hamma formulalarni bir yerga to'plab va ana shu formulalardan boshqa formulani topishga yordam beradi. Aqliy hujum usuli bu oddiy formulalardan tortib murakkab formulalarning topishning oqilona yo'lidir. Masalalari yechishda ham xuddi shu usullarni qo'llash yaxshi natijalar beradi.

Xulosa.

Bitiruv malakaviy ishning mazkur bobida fizika faniga pedagogik va innovatsion texnologiyalarni joriy qilish usullari hamda akademik litseylarida fizikani o'qitishda axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati tahlil qilindi. Shuningdek, dars jarayonida pedagogik va innovatsion texnologiyalardan foydalanish namunalari keltirildi. Biz pedagoglar doimo izlanishda bo'lib yangicha metodikalar ishlab chiqishga harakatdamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1. B.B.Mo'minov, N.I.Kamolova. Flash texnologiyasi & Action Script. Buxoro 2010. 38-42-b.*
- 2. Qarshi davlat universiteti Fizika va uni o'qitish metodikasi kafedrasida „Fizika o'qitish metodikasi“ fanidan majmua Qarshi 2010 y*
- 3. M.T.Hojiyev, K.T.Olimov. Elektron darsliklarni yaratish texnologiyasi va sifatini baholash metodikasi. – T. “Fan nashriyoti” 2005 y. 72-b.*
- 4. K.T.Olimov. Kasb hunar ta'limi tizimida maxsus fanlardan elektron darsliklarga qo'yiladigan talablar, ularni yaratish texnologiyasi va uslubiy ta'minoti, kasb mahorati. O'zbekiston Respublikasi o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi axborotnomasi. 2004 y. №5 76-109-b.*
- 5. Karlibayeva Guljahan Ermekbayeva . FIZIKA O'QITISH METODIKASI FANINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI. O'quv uslubiy qo'llanma. Toshkent – 2014.*

ФИО автора: *Foziljonova Sadoqat*

National university of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

Faculty of Foreign languages student

Название публикации: «FOSTERING STUDENTS' INTERACTION IN ESL CLASSROOMS»

Annotatsiya: There are so many various teaching methods and approaches have been developed worldwide for language teaching over the years which are become a very common in ESL classrooms. Undoubtedly, creative activities that help students to communicate with each other more effectively and using new language in their own words in an authentic situations. This chance is given by encouraging them to explore new language in the way they want.

Key words; teaching methods, language acquisition, interaction, structural - situational teaching, Audiolingualism, controlled practice, production stage, pre -task, the Task cycle.

Speaker/hearers collaboratively produce utterances which they jointly own. And language acquisition is realized through a collaborative process whereby learners appropriate the language of the interaction as their own, for their own purposes, building grammatical, expressive and cultural competence through this process.³¹

Before giving some factual data, it would be informative to know about examples of interactive teaching methods: One of them is PPP- it stands for Presentation, Practice, Produce, Jeremy Harmer said that “this grow out of structural - situational teaching whose main departure from Audiolingualism was to place the language in clear situational context”³² Lessons based on this method, the first stage would be demonstration and explanation the theme in new language. In order to be more clear it would be great to take examples. For instance present simple, in the first

³¹<https://carla.umn.edu/learnerlanguage/interaction.html> The center for advanced research on language Acquisition (Ohta, 2000, p. 51)

³²The practice of English Language teaching 4th edition

stage teacher give information and explains new theme like its usage time and its forms as a positive question and negative .After that, students trying to practice it with making some sentence or dialogues with repeating chorally and individually when teacher correct their mistakes she heard which is called controlled practice. In that time student are more capable to make a mistake with 3rd condition” when presenting the 2nd conditional, I often draw a picture of myself with thought bubbles of lots of money, a sports car, a big house and a world map”³³ Before going to production stage, teachers have to teach them on pronunciation after that students will be free to come up with their words and easily use it.

When it comes to say about TBL, this means task based learning. This method makes students to perform real situations that given as a task in center of language learning. “Students control the language they learn and produce, rather than being restricted to something pre-selected by the teacher or text.”³⁴

This process include 3 stages as Willis say which are pre -task,the Task cycle and language focus the practice. In the first stage teacher give a task with useful vocabularies that help them to organize their speech, sometimes they watch a video or heard a records of other people who did a same task, for example, if they learn about holiday teacher can give a task to do presentation or poster about this topic, after that they go on next stage. During the task cycle students organize their speech in a small groups with language and produce it on a stage .In the final one they discuss and examine the materials they found for this task and make a improvements and practice on specific language. Scholars like Baleghizadeh & Abdi (2010) claim that recast has some advantages like facilitating the delivery of complex subject matter; the most outstanding disadvantage of it is its ambiguity, which may not help learners notice their mistakes.³⁵

³³<https://www.teachingenglish.org.uk/article/planning-a-grammar-lesson>.

³⁴<https://eslspeaking.org/task-based-language-learning/>

³⁵ International Journal of Languages and Literatures June 2014

Another one is CLT-it defines as a communicative language teaching which is emphasis is language use rather than its grammar. Regarding Nunas, that method involved meaning focused communicative tasks which help learners to use opportunities of language appropriate situations. Richard and Schmidt has mentioned that, communicative language learning significant for learners to participate in real world in an effective way³⁶ and Berns has argued that, communicative language teaching plays major role in the development of certain skill sets among learners³⁷. Having said that, CLT fostering people to make a real realistic communication with do not take a pressure to accuracy. Stimulation and role plays or puzzles are effective ones in CLT. Teachers role in this method is guide their students and facilitate advices while they are doing this activities. Learners feel a desire to communicate and they get a purpose to talking with each other and they are focused on content and using different language structures rather than one. These methods that I have mentioned above are popular in encouraging student to communicate freely without any hesitations . According to my own research teachers views about considering student to socialize in ESL classrooms they utilize different technics while Headway book is greatly supported both learners and teachers in order to achieving their learning and teaching goals. In a nutshell, it is obvious that, mix of grammar, context and communicative language teaching approaches can be effective method for enhance desired level of language learning or teaching. Fotos claimed that,” instead of favoring one method over the other, grammar teaching and communicative activities should be combined to achieve teaching goals”³⁸.

³⁶Communicative language teaching possible alternati

³⁷Context of competence :Social and cultural consideration in communicative language teaching

³⁸Handbook of research in second language teaching and learning

ФИО автора: *Ibragimova Sitora Qahramon qizi*

Qarshi davlat universitetining pedagogika instituti Xorijiy til va adabiyot yo'nalishi
202-guruh talabasi

Название публикации: «INTERAKTIV O'YINLAR ORQALI INGLIZ TILINI
O'RGATISH SAMARADORLIGI»

Annotatsiya: Ushbu maqola maktab va boshqa o'quv maskanlarida chet tilini o'rgatish va shu bilan birga dars jarayonida turli xil interaktiv faol o'yinlar bilan o'quvchilarni chet tilida bo'lgan qiziqishini oshirish hamda bu o'yinlarning foydali taraflari haqida batafsil to'xtalib o'tildi.

Kalit so'zlar: innovatsion texnologiya, metodlar, interfaol o'yinlar, uslub, o'qitish atmosferasi.

Bugungi tezkor rivojlanib borayotgan zamonda xorijiy tillarni o'rgatish va o'rganishga yurtimizda katta ahamiyat berilmoqda. Chet ellik hamkorlar bilan do'stlashish, yangi do'stlar orttirish va ravon nutq so'zlay olish hozirda har bir yosh avlodni qiziqtirib kelmoqda. Shu qiziqish, intilish va ishtiyoqlarni hisobga olgan holda O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Karimovning 2012-yil 10-dekabrda PQ-1875-sonli qaroriga binoan "Zamonaviy pedagogik va axborot –kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishning ilg'or usullarini joriy etish yo'li bilan, o'sib kelayotgan yosh avlodni chet tillariga o'qitish, shu tillarda erkin so'zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish hamda buning negizida, ularning jahon sivilizatsiya yutuqlari hamda dunyo axborot resurslaridankeng ko'lamda foydalanishlari, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirishlari uchun shart-sharoit va imkoniyatlar yaratish maqsadi" ilgari surildin

Respublikamiz ta'lim tizimini isloh qilishda xorijiy tajribalarga asoslangan xalqaro standartlarga mos keluvchi o'quv dasturlari bilan muvofiqlashtirish oliy pedagogik ta'lim tizimini takomillashtirishga asos bo'ldi. O'zbekiston sharoitida milliy mintalitetimiz, urf-odatlarimizni inobatga olgan holda xorijiy tajribalar asosida ta'lim sifatini tubdan isloh qilish davr talabidir. Bu borada 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida mamlakatimizda "...ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy qilish asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rag'batlantirish, ilmiy va innovatsion yutuqlarni amaliyotga joriy qilishning samarali mexanizmlarini yaratish...", kadrlar tayyorlashning sifat darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, har bir oliy ta'lim muassasasi jahonning yetakchi ilmiy-ta'lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalari o'rnatishi va talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish, yoshlar auditoriyasi bilan ish olib borishda interfaol usullardan samarali foydalanish, ularga chet tilidan sifatli ta'lim bera olish, oliy ta'lim darajasini namunali bosqichga olib chiqish va tubdan takomillashtirish asosiy vazifalar sifatida belgilandi. Shu bois respublikamiz oliy ta'lim tizimida bo'lajak kadrlarni ishlab chiqarish va ilmiy maqsadlar uchun zarur bo'lgan axborotni topish jarayonida mutaxassislik bo'yicha original adabiyotni o'qish, xorijiy tildagi og'zaki muloqotda ishtirok etish ko'nikmasini shakllantirish maqsadida chet tili darslari o'tilmoqda. Har bir mustaqil O'zbekiston Respublikasi fuqarosi o'z kasbiga oid chet tilidagi adabiyotlarning asl nusxasini o'qiy olishi, o'qilgan matnni tushunishi va uni o'z kasbida qo'llay olishi lozim. Bundan tashqari, u berilgan mavzuda suhbatdoshi bilan chet tilida erkin fikr almasha olishi kerak. Zero, chet tillarini o'rganish bugungi globallashtirilgan davr talabidir. Shu qonun asosida va o'quvchining chet tiliga qiziqishlarini yanada kuchaytirish maqsadida har bir pedagog dars davomida o'quvchining yoshini hisobga olgan holda turli xil usullardan foydalana boshladilar. Xususan, ingliz tilini o'rganish ba'zi insonlar uchun ehtiyoj bo'lsa, ba'zilar uchun esa qiziqishdir. O'qituvchi

o'zining pedagogik mahoratini ishga solgan holda dars mobaynida har bir o'quvchi bilan iloji boricha individual shug'ullanishi kerak. Bu esa, albatta, interaktiv o'yinlar asosida o'rgatishni talab qiladi.

O'yin texnologiyasidan foydalanishning asosini o'quvchini faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyat tashkil etadi. Psixologlarning ta'kidlashlaricha, o'yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o'zini namoyon qilish, hayotda barqaror o'rnini topish, o'zini o'zi boshqarish, o'z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi. Har qanday o'yin zamirida umumiy qabul qilingan ta'lim prinsiplari, taktikasi yotishi kerak. O'quv o'yinlariga o'quv predmetlari asos qilib olinishi kerak. O'yinlar jarayonida o'quvchi oddiy darsga qaraganda bu mashg'ulotga qiziqibroq yondashadi va bema'lol faoliyat ko'rsatadi. Ta'kidlash lozimki, o'yin eng avallo, o'qitishning bir usulidir. O'quvchilar o'yinli darslarga qiziqib qatnashadilar, g'alaba qozonishga intiladilar, o'qituvchi ular orqali o'quvchiga ta'lim-tarbiya ham beradi.

Bu usul o'quvchining ingliz tilini bilish darajasini oshiririshga yordam beradi. Va hattoki, ta'lim jarayonida har bir o'quvchining faol qatnashishini taminlaydi. Interfaol o'yinlar orqali dars o'tishning afzalliklari:

1) talabning maksimal faoliyati. Barcha talabalar o'yinda qatnashadilar, bir-birlari bilan yaqindan hamkorlik qilishadi, bu talabalar va o'qituvchilar o'rtasidagi shaxslararo munosabatlarda qulay muhitni yaratishga yordam beradi: jamoaviy ijodiy faoliyat;

2) nutq sheriklari nafaqat o'qituvchining iltimosiga binoan, balki o'zboshimchalik bilan ham aniqlanadi;

3) talabalar til materiallaridan to'liq hajmda foydalanishga imkon beradigan, tilda aloqa qilish qobiliyatlari va ko'nikmalarini yaxshilashga imkon beradi;

4) Darsda foizlar va intizomning atmosferasi hukmronlik qiladi: aqliy va jismoniy faoliyat; Konsentratsiya va qiziqish. Bu usul yordamida chet tilini o'rganish natijasida lug'at boyligingiz oshadi, kommunikativ imkoniyatingiz kengayadi, yoki filmlarni ko'rish va o'qish yanada zavqliroq bo'ladi.

Bugungi kunga kelib bog'cha yoshidan boshlab katta yoshdagi mutaxassislargacha ingliz tilini o'rganishga harakat qilyaptilar. Interaktiv o'yinlar til o'rganuvchida o'rganish davomidagi qiziqishlariga motivatsion omil hisoblanadi. Ya'ni o'quvchilar o'rtasida bilim olishda raqobat paydo bo'ladi. Bir- birida o'tish hissi ya'ni ko'proq bilim egallashga bo'lgan ishtiyoq o'quvchida o'zi bilmagan holda ko'p bilim egallash imkonini paydo qiladi. Bunaqa o'yinlardan biri:

•” O'quvchilar 2ta aylana bo'lib turadila, ichma-ich aylanada bir birlariga teskari qarab turadilar, qo'shiq qo'yiladi va ular aylanib o'ynaydilar. Qo'shiq to'xtagan vaqtda esa ular ham to'xtashadi va bir birlariga qaraydilar. Keyin to'grisida kim tushgan bo'lsa o'shanga mavzu doirasida savollar beriladi va savolga javob berolmaganlar o'yindan chiqariladi”. O'yin shu tarzda davom ettiriladi.

•Ko'pchilik ingliz tilida so'zlashuvchilar Pictionary, rasm chizish o'yini bilan yaxshi tanish.

Rasm chizish maqsadi uchun siz oddiy doska yoki oq magnit doskadan foydalanishingiz mumkin. Sinfni 2 guruhga bo'lib oling va har bir jamoa uchun doskadaning bir tomonida jadval chizing. Siz jamoalarning ballarini shu yerga yozib borasiz. A jamoadan bir kishi chiqadi. Va ko'pgina teskari o'girilgan so'zlardan

bittasini tanlaydi va shu so'zni doskaga chizib beradi. Va boshqalar topishi kerak bo'ladi. So'zni birinchi bo'lib to'g'ri topgan jamoaga ball beriladi. 10 ball olgan jamoa g'olib hisoblanadi.

•Charades o'yini Pictionary o'yiniga o'xshash lekin asosiy farqi bunda so'z ifodalash uchun rasm emas harakatlardan foydalaniladi. Bu o'yin o'quvchilari sust, zerikkan va uyqusi kelgan vaqtlarda juda qo'l keladi. Ularni uyg'oting va harakatlantiring!

O'quvchilar tanlashi uchun bir necha to'rtburchak qilib qirqilgan qog'ozlarga so'zlar yozing. Fe'llarni ifodalash ancha oson. Lekin siz biroz murakkabroq, shunday bo'lsada hamma o'quvchilar biladigan so'zlardan foydalanishingiz mumkin.

Sinfni ikki jamoaga bo'ling. Va har bir jamoadan bir o'quvchi so'z yozilgan qog'ozni tanlaydi va harakat bilan ifodalab beradi. Jamoadagilar esa uch daqiqa ichida o'sha so'zni topishi kerak bo'ladi. Har bir to'g'ri javob uchun, bir ball beriladi. 10 ball jamlagan jamoa g'olib hisoblanadi.

•Last Man Standing (Oxirgi qolgan odam)

Bu o'yin tezkor o'yin hisoblanadi. Lekin O'quvchilarga o'ylash uchun biroz vaqt beradi. Bu o'yin birgalikda o'rganishga undaydi, ya'ni boshqa o'quvchilar so'zlayotganida qolgan o'quvchilar o'zlari so'z o'ylayotgan bo'lishadi. O'yinni o'ynash uchun sizga ko'ptokcha kerak bo'ladi. Va hamma o'quvchilar doira shaklida turib olishlari kerak. Birorta mavzu tanlashingiz kerak bo'ladi. Masalan: Things found in a kitchen (oshxonada topiladigan buyumlar), food, profession va hokazo.

Bundan tashqari 21-asr texnologiyalaridan foydalangan holda dars hozirgi kunda judayam rivojlangan. Dars davomida komputer texnologiyalaridan yoki televizorlardan foydalanish orqali o'qituvchilar interaktiv o'yinlarni o'z metodlariga qo'shishmoqda. Yana bir ma'lumot, chet tilini o'qitishda " kommunikativ didaktika " usuli ham ahamiyatga molikdur. Kommunikativ didaktika quyidagilarni o'zida mujassamlashtiradi:

- Ochiq va moslashuvchan dars konsepsiyasi
- Mavzu va mazmun muhim
- Darsdagi asosiy ish shakli : suhbatlashish va guruh bolib ishlash
- O'quvchilarni faollashtirish va tildan ijobiy va erkin foydalanishga e'tibor katta bo'lishi zarur
- Tushunishdan fikrni izhor qilishga prinsipi asosida mashqqa kuchli e'tibor berish
- Manoni ochishda, harakat ko'lamini belgilashda va mashqni tashkil qilishda vizualizatsiya (ya'ni ko'rish tayanchi)muhim rol o'ynaydi.
- Kundalik nutqiy muloqotni hayotiy vaziyatda o'rganish
- Tildan og'zqiki foydalanish va shu bilan birga asliy matnni tushunish muhim hisoblanadi. ("Chet tilini o'qitish metodikasi." .528.)

Ayrim til o'rganuvchilar til o'rganish uchun kuniga yarim yoki bir soat vaqt ajratsa, lekin rejada 2-3 soat belgilangan bo'lsa stressga tushadi yoki til o'rganishdan zerikib qolishi mumkin. belgilangan vaqtdan kam bo'lsada o'rganish umuman tashlab qo'yishdan ko'ra foydaliroqdir. Shu o'rinda Dolly Partonning "The way I see it, if you want the rainbow you gotta put up with the rain" jumalari yodimizga keladi, ya'ni " Kamalakni ko'rishni istasang, yomg'irga chidashing kerak" degan edilar. Mashhur nemis olimi Y.V. fon Gyote aytganidek: "Kim chet tillarini bilmasa, u o'z tilini ham bilmaydi".

Xulosa o'rnida shuni takidlab o'tish joizki, til o'rganuvchida ehtiyoj emas, ishtiyoq bo'lsagina maqsadga muvofiq bo'ladi. U xoh interfaol o'yin orqali bo'lsin, xoh texnologik vositalardan foydalanilgan holda bo'lsin, til o'rganish va chet elliklar bilan yaqin hamkorlikda bo'lish doim zaon talabiga xos tushunchalardan bo'lib qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1) O'zbekiston Respublikasining 1-Prezidenti I. Karimovning 2012-yil 10-dekabrda PQ-1875-son qarori
- 2) "Til o'ranish kaliti" Abdulaminova F.
- 3) Муминова, Ф. М. Ingliz tilini o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalanish / Ф. М. Муминова. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2020. — № 18 (308). — С. 590-592. — URL: <https://moluch.ru/archive/308/69404/> (дата обращения: 11.07.2021).
- 4) Karshiyeva Tursunoy Shodiyorovna, SamDChTI tayanch (PhD) doktoranti
- 5) Отабоева, М. Р. Chet tilini o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalanish va uning samaradorligi / М. Р. Отабоева.
- 6) ("Chet tilini o'qitish metodikasi." Zayniddin Sanaqulov.528.)
- 7) Hasanboy Rasulov. "Ingliz tili datslarida qiziqarli o'yinlar"

ФИО автора: *Tursunova Nasiba Alisher qizi*

Toshkent shahridagi YODJU texnika instituti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Название публикации: «INKLYUZIV TA'LIM VA INTEGRATSIYALASHGAN TA'LIM MOHIYATI»

Bugungi XXI ars zamonamizning texnika dunyosining rivojlanish davri tom ma'noda insonlarning salomatligiga yetarlicha o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmadi.

Yoshlarimiz orasida tez-tez kuzatilayotgan erta oila qurish, asabiy holatlarning ko'pligi, turmushlarning mustahkam emasligi, oila boshi hisoblanmish ota va onalarning ma'suliyatsiz qarashi bizda nosog'lom farzandlar dunyosini keltitib chiqarmoqda. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41-moddasiga muvofiq:., Har kim bepul bilim olish huquqiga ega. Maktab ishlari davlat nazoratidadir". Ushbu jumlar zamirida aholi o'rtasida gendir tenglik hamda barcha insonlar qanday holatda bo'lishidan qat'iy nazar, jumladan kelib chiqishi, dini, jinsi, ijtimoiy ahvoli, kelib chiqish tarixi nuqtayi nazarlariga qaramasdan barcha bilim olish huquqiga ega. Biroq ruhiy-emotsionallik nazariyasi bilan tanishar ekanmiz sog'lom va nosog'lom bola o'rtasida yetarlicha farq mavjud bo'lib, ular bir muhitda ilm ola olmasliklari ta'kidlanadi. Boisi nogiron bolada ruhiy holat yetarlicha manfiy ko'rsatkichda hamda uning tezligi sust bo'lish ehtimoli kattaligi, ularga kasalligining turiniga qarab ilm berilishi joizligi kabi bir qancha asosli qarashlar o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Shu sababdan O'zbekiston Respublikasida inklyuziv ta'lim yo'lga qo'yildi va qonun doirasida himoya qilindi.

O'zbekiston nogironlar assotsiatsiyasi raisi, Oliy Majlis senatining Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash qo'mitasi ekspertlar kengashi a'zosi **Oybek Isoqov** qonun loyihasida **inklyuziv ta'limga ta'rif berishdan boshlash kerakligini** ta'kidladi. U quyidagi ta'rifni qonunga kiritishni taklif qiladi: "Inklyuziv ta'lim — **barcha o'quvchilar uchun maxsus ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning**

farqliligini inobatga olgan holda ta'lim muassasalarida ilm olishda teng huquqlilikni ta'minlashdir".

Biroq, qonunning 20-moddasi "Inklyuziv ta'lim" bu ta'rifni o'z ichiga olmaydi. Unda faqatgina "inklyuziv ta'lim barcha bolalarga, shu jumladan ta'lim olish chog'ida o'ziga nisbatan har qanday tarzdagi kamsitishni istisno etuvchi **jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalarga** nisbatan teng huquqli munosabatda bo'lish" haqida so'z boradi.

9-moddada "Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalar, shuningdek uzoq vaqt davolanishga muhtoj bolalar davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida inklyuziv shaklda yoki uy sharoitlarida yakka tartibda ta'lim oladi" deyilgan. Ushbu moddada keltirilishiga ko'ra, inklyuziv ta'lim ustuvor emas, balki hozirgi kunda **mavjud ta'lim shakllaridan birigina** xolos.

O'zbekistondagi inklyuziv ta'lim tadqiqotchisi, yangi Zelandiyadagi Vaykato universiteti doktoranti **Galina Namning** ta'kidlashicha, **nogironligi bo'lgan bolalar uchun maxsus maktab-internatlarda yoki uyda emas, balki umumiy ta'lim muassasalarida ta'lim olish ustuvor** bo'lishi kerak.

"Bu barcha davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarining bir vaqtda yopilishini anglatmaydi, lekin bolalarning bu kabi maskanlarda va uyda o'qishiga faqatgina **alohida holatlarda** rozilik berishimiz zarur. Ta'lim muassasasini **tanlash huquqi** bolalarning o'zida va ularning ota-onasida/qonuniy vakillarida qolishi kerak", deya ta'kidlaydi Galina Nam.

Shu o'rinda inklyuziv ta'lim qanday ta'lim turi ekanini farqlab olishimiz darkor. **Inklyuziv ta'lim-** ingliz tilidan olingan bo'lib inclusive, inclusion-uyg'unlashmoq, uyg'unlashtirish qamrab olmoq, qamrab olish ma'nolarini bildiradi.

Inklyuziv ta'lim- nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etish, maxsus ta'limga muhtoj bolalar, o'smirlar rivojlanishida uchraydigan nuqsonlar yoki

iqtisodiy qiyinchiliklardan qat'iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'lim jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimidir.

Inklyuziv ta'limning bir qancha tamoyillari mavjud:

Inklyuziv ta'limning e'tirof etilishi tamoyili.

Bu tamoyilning mazmuni shundaki, 1990-yildan buyon maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim muassasalari tizimida o'qitish borasida bir qancha jahon miqiyosida deklaratsiyalar va qarorlar qabul qilindi. Ularni jahonning ko'plab davlatlari e'tirof etdilar. Ammo bugungi kunga qadar ularni hayotga joriy qilish borasida ko'plab muammolar mavjud. Ba'zi davlatlarda esa umumiy ta'lim borasida qonun yoki qarorlar qabul qilinganda nogiron bolalarning ta'lim masalasi unga kiritilmaydi. Ammo inklyuziv ta'limni tan olish faqatgina qonun chiqarish bilangina bog'liq bo'lmaydi. **Diskriminasiya** (odamlarni ajratish) va ijtimoiy noto'g'ri fikrlashga qarshi kurashish eng muhim narsadir. Ya'ni inklyuziv ta'limni e'tirof etgan holda, aholi o'rtasida targ'ibat-tashviqot ishlarini olib borish eng birinchi galdagi masaladir.

Inklyuziv ta'limning barcha uchun ochiq bo'lish tamoyili.

O'tgan yigirma yil davomida maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim muassasalari tizimida o'qitish borasida sezilarli ishlar amalga oshirildi. Ammo inklyuziv ta'lim tizimini joriy qilish asosan shaharlar miqiyosida bo'lib qishloqlardagi hududlarda hali-hamon maxsus ehtiyojli bolalar ta'limdan chetda qolib ketmoqda yoki qishloqlardagi ota-onalar nogiron farzandini shaharlardagi maxsus muassasalarga qatnashlarini ta'minlash uchun qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Shuning uchun ham maxsus ehtiyojli bolalarni inklyuziv ta'limga jalb etish barcha hududlarda ochiqdir, ya'ni hudud tanlanmaydi.

Bog'lanishning mavjud bo'lishi tamoyili.

“Bog'lanish”-bu so'zning zaminida-ommaviy binolarning sifati, ayniqsa nogiron bolalar uchun maktablarga kirishning oson bo'lishi kabilar yotadi. Bola maktab binosiga (zinapoyalar aravachada yurishga moslashtirilmaganligi sababli) kira

olmaganmi yoki maktab xojatxonasi aravachada harakatlanuvchilarga moslashtirilmaganligi uchun oddiy maktabdan chiqarib tashlamasligi kerak. Bu kabi qulayliklarni yaratish unchalik katta mablag' talab qilmaydi. Yangi maktab binosi nogiron bolalarning ehtiyojlarini e'tiborga olgan holda rejalashtirilgan paytdan boshlab qurilishi kerak. Albatta nogiron bolalar uchun yaxshi bo'lgan qulayliklar normal rivojlanishdagi bolalar uchun hech bir muammo keltirib chiqarmaydi. Jismonan bog'lanishlarni yaratish inklyuziv ta'limning asosiy muammolarini hal etishga xizmat qiladi.

Markazlashtirilmagan bo'lishi tamoyili.

Bu tamoyilning mazmuni quyidagi ikkita aspekt yordamida ifodalanadi:

A. Inklyuziv ta'lim xizmatlari umumiy ta'lim tizimining integrasiya qilingan qismi bo'lishi kerak.

B. Inklyuziv ta'lim tizimidagi vazifalar mahalliy ta'lim organlariga javobgarlik va boshqaruvni yuklash uchun markazlashmagan holda olib borilishi kerak va imkoniyatlar mahalliy sharoitlarga moslashtirilishi lozim.

Optimal integrasiya erishish uchun markazlashtirilmagan bo'lish muhimdir. Bu ayniqsa qishloq sharoitlarida ayni muddao bo'ladi. Inklyuziv ta'limning vazifalari nogiron bolalarga o'z ota-onalari bilan birga bo'lish, ularga xuddi tengdoshlari kabi o'zlariga yaqin bo'lgan maktablarda ta'lim olish imkonini beradi. Bu ularning shaxsiy sifatlarining shakllanishida muhim ahamiyatga ega.

Inklyuziv ta'limni amarali tashkil etishning bosqichlari mavjud:

1. Izlab topish va jalb qilish bosqichi. Nogiron odamlarning hayoti asosan yakkalab qo'yishlar bilan bog'liq. Ko'plab davlatlarda nogiron odamlarga past nazar bilan qaralib, ular hamjamiyaddan chetlashtirilmoqda. Buning oqibatida nogiron bolalarning ta'lim olish imkoniyatlari yanada chegaralanib qolmoqda. Millatning etnopsixologik xususiyatlaridan biri bo'lmish nogiron farzandini boshqalardan bekitish

hollari esa nogiron bolalar kelajak hayoti uchun juda fojeali holatdir. Mana shunday salbiy oqibatlarini oldini olish maqsadida aholi o'rtasida targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish lozim. Oilaga, ya'ni asosan ota-onalarga nogiron bola ham maktab ta'lim-tarbiyasini olishi shart ekanligini to'g'ri tushintirib bera olish kerak. Shunday usullar bilan ta'limdan chetda qolib ketgan nogiron bolalarni izlab topish imkoni yaratiladi. Ro'yxatga olingan bolalar o'z yaqin arofidagi umumta'lim maktablariga jalb etiladi.

2. Maxsus ehtiyojli bolalar bilan shug'illanish bosqichi. Bu bosqichda umumta'lim muassasalari tizimiga kiritilgan maxsus ehtiyojli bolalar bilan olib boriladigan o'quv-tarbiyaviy, korreksion-rivojlantiruvchi vazifalar rejasi tuzib chiqiladi.

3.Reabilitasiya bosqichi. Bu bosqichda bolalarning nogironligi tufayli bajara olmaydigan faoliyatlarini bajarish qobiliyatlari va ularning imkoniyatlari darajasini kengaytirish ishlari amalga oshiriladi. Shu sababali bu bosqichda nogiron odamlar nafaqat ta'lim tarbiya, balki ularning ishlab chiqarish faoliyatlarini oshiruvchi treninglar ham olib boriladi. Ular "obyekt" emas, balki "subyekt" vazifasini o'taydi. Natijada nogiron bolalarning nima qila olmasligi emas, balki ular nimalar qilisha qodir ekanligi diqqat markazda turadi.

4.Intergasiya bosqichi. Bu bosqich inklyuziv tarzida o'qitilgan, reabilitasiya jarayoni malga oshirilgan nogiron bolalarni ijtimoiy jamiyatga to'la kiritish bosqichidir. Integrasiya bosqichida nogiron bolalar to'laligicha ijtimoiy jamiyatga kiritiladi. Ya'ni bu bosqichda nogiron bolalarning ham o'zlarining teng imkoniyatlari va huquqlaridan foydalangan holda kasb va ishlash joyini mustaqil tanlash imkoniyati beriladi. Ko'pincha „inklyuziv“ va „integratsiyalashgan“ atamaları bilan yanglishlik yuzaga keladi.

Nogiron bolani oddiy sharoitga moslashtirish integratsiyaga qarab qo'yilgan birinchi qadamdir. Imkoniyati cheklangan bolalarning umumta'lim matabiga qamrab olinishi jahon miqyosida „inklyuziv“yoki „integratsion“ta'lim atamaları bilan yuritiladi. Integratsiyalashgan ta'lim bu- diqqat markazida bolaning aynan maktabga

kelib-ketish muammosi turgan, maxsus ehtiyojli bolaning maktab ta'limiga qamrab olishdir. Integratsiyalashgan ta'limda bolaga alohida yordamga muhtoj shaxs sifatida qaraladi. Ushbu bosqichning quyidagicha shakllari mavjud:

a)Jismoniy integratsiya: integratsiyaning bu shakli nogiron va nogiron bo'lmagan bolalar o'rtasida jismoniy farqni kamaytirishga qaratilgan. Oddiy maktab bilan yonma-yon nogiron bolalar uchun sinf yoxud guruh tashkil qilish mumkin.

b)Funksional integratsiya- nogiron va nogiron bo'lmagan bolalar o'rtasida funksional muammolarni kamaytirishga qaratilgan.

c)Ijtimoiy integratsiya- integratsiyaning bu turi ijtimoiy qatlamni himoya qiladi hamda nogiron va nogiron bo'lmagan bolalar o'rtasida ijtimoiy aloqalarni qo'llab-quvvatlash ta'rafidori.

Malakaviylik tamoyili.Maxsus ehtiyojli bolalar inklyuziv tarzda o'qitilayotgan sinflarda yuqori malakali o'qituvchilarning dars berishi talab etiladi. Bundan tashqari inklyuziv sinf o'qituvchisi defektlogiya sohasi bo'yicha ham malaka oshirgan bo'lishi kerak. Inklyuziv ta'limning ushbu tamoyili eng muhim tamoyillardan biri hisoblanadi. Boisi sog'lom bola pedagogi va nogiron bola pedagogi vazifalarida yetarlicha farq mavjud.

An in-depth study of the biological and physiological processes associated with the storage of grapes, as well as a clear understanding of them, are important for the quality of the product. To preserve the quality of grapes, it is necessary to know what processes occur in them during storage and what environmental factors affect the course of these processes.

The fact that grapes do not lose their qualities over time and lose minimal weight determines their longevity. The ability of grapes to resist microbial damage is called their immunity. Products that are not resistant to these two properties are closely related and usually susceptible to microorganisms.

The storage stability of grapes is determined by the period of storage in favorable conditions. The ability of grapes to be stored in a certain zone and season, as well as in agrotechnical and technological modes, is called conservation. Storage is usually defined as a quantity calculated as a percentage of the weight loss of the food during storage. In general, storage resistance of grapes is their natural feature. Therefore, the same variety can be stored in different ways under different conditions.

Keywords. *Grapes, the main task during storage of grapes, biological and physiological processes occurring during storage, contamination of grapes with microorganisms, biological bases of storage of grapes, resistance of grapes to storage.*

Uzumni yilning ma'lum bir davrida yetishtirilib, insonning oziqlanishi uchun zarur bo'lgan bir qator moddalar - vitaminlar, mineral tuzlar, uglevodlar, organik kislotalar va boshqalarning asosiy manbasi hisoblanadi. Uzumni saqlashdagi asosiy vazifa ulaming fizikaviy va kimyoviy tarkibini, ya'ni tashqi ko'rinishi, rangi, mazasi hamda oziq-ovqatlik qiymati va boshqa xususiyatlarini saqlab qolishdan iborat. Shu sababli, uzumni saqlashni to'g'ri hamda ilmiy asosda tashkil qilish aholini yil mobaynida ushbu mahsulot bilan ta'minlash muammosini hal qiladi.

Uzumni saqlashda bo'ladigan biologik va fiziologik jarayonlarni chuqur o'rganish hamda bu borada aniq fikrga ega bo'lish mahsulotlarni sifatli qilib saqlashda muhim ahamiyatga ega. Uzumni sifatli saqlanishi uchun saqlash mobaynida ularda qanday jarayonlar borishini va bu jarayonlarning borishiga tashqi muhitning qaysi omillari ta'sir qilishini bilish zarur.

Uzumni saqlashda ular vaznining tabiiy ravishda tushishini atigi bir foizga kamaytirish mahsulotni o'n ming tonnalab ko'paytirishga olib keladi. Shuning uchun mutaxassislar uzumni saqlashga e'tiborini kuchaytirishlari hamda bu bilan bog'liq bo'lgan barcha masalalarni chuqur o'rganishlari lozim. [3.1]

Uzumni saqlashning biologik asoslari. Uzumni ma'lum vaqt davomida sifatini pasaytirmasdan va og'irligini minimal darajada yo'qotish xususiyati ularning saqlashga chidamliligini belgilaydi. Uzumni mikroorganizmlar bilan zararlanishiga qarshilik ko'rsatish xususiyati ularning immunitetligi, deb yuritiladi. Bu ikki xususiyati bir-biriga chambarchas bog'liq bo'lib saqlashga chidamsiz bolgan mahsulotlar, odatda, mikroorganizmlar bilan tezda zararlanadi.

Uzumning saqlashga chidamliligi - ularni qulay sharoitda saqlash muddati bilan aniqlanadi. Uzumni saqlashga chidamliligini ma'lum zona va faslda hamda agrotexnik, texnologik rejimda

namoyon bolishi saqlanuvchanlik, deb ataladi. Saqlanuvchanlik, odatda, saqlash davrida mahsulotlarni yo'qotish ogirligini foizlarda hisoblangan miqdori bilan belgilanadi. Umuman olganda, uzumning saqlashga chidamliligi ularning tabiiy xususiyatidir. Shuning uchun bir navning o'zi har xil sharoitda turlicha saqlanishi mumkin.

Uzumning saqlashga chidamliligi ko'p omillarga bogliq. Agar bitta nav doirasidagi uzum mevasining katta-kichikligi, donlarining tig'izligi, po'stining qalinligi, shakli va po'stining butunligi, rangi hamda boshqa ko'rsatkichlari ma'lum nav uchun xos bo'lsa, bunday mevalar yaxshi saqlanadi. Uzumning o'ziga xos xususiyatlardan cheklanishi ularning saqlanuvchanligini pasaytiradi.

Uzumni saqlangan vaqtda ularda qimmatli oziq va ta'm beruvchi moddalar to'planmaydi, aksincha, parchalanadi. Kecliki navlar uzilgandan keyin ma'lum vaqtgacha yuqorida ko'rsatilgan moddalar to'planadi, so'ngra parchalanish boshlanadi.

Mevalar yetila borgan sari ular tarkibidagi shakarining miqdori ortib, kislota va oshlovchi moddalar kamayib boradi.

Uzum pishish davrida saxaroza bilan monasaxaridlarning nisbati o'zgarib turadi: saqlash davrida fruktoza miqdori oshadi, glukoza va saxaroza miqdori kamayadi. Uzum pishib o'tib ketsa, ularning nafas olishi hisobiga shakar miqdori kamayib ketadi. Uzumning shirinligini fruktoza miqdori belgilaydi, garchand saxaroza va glukoza miqdori fruktozanikiga qaraganda ko'p bo'lsa-da, uzum uncha shirin bo'lmaydi.

Uzumni saqlash vaqtida ular tarkibidagi kislotalar shakarga nisbatan o'zgaradi. Saqlanish davrining oxiriga borib, mevalar ancha shirin, so'ngra esa, kislotalarni yo'qotishi natijasida bemaza bo'lib qoladi. Pektin moddalar uzumni saqlanishi mobaynida parchalanib eruvchan pektinlar hosil qiladi va bu uzumning yumshoqlanishiga olib keladi. Uzumning yumshoqlanishi mevaning o'rta qismidan perferiyasi (tashqi qismiga) tomon boradi. Pektin moddalarining parchalanishi natijasida mevalarni qoraytirib yuboradigan metil spirit hosil boladi. Odatda, uzumlar so'liganda pektin moddalar to'planadi.

Uzumni saqlash davrida oshlovchi moddalar kamayib, xushbo'y moddalar esa, fermentlar ta'sirida boshqa moddalarga aylanib ketadi (oksidlanadi). Bu davrda mevalar tarkibidagi azotli moddalar, vitaminlar miqdori kamayadi. Ertapishar navlar tarkibidagi vitaminlar kechpishar navlardagiga qaraganda tez yo'qoladi. Uzumni saqlashda harorat va havoning aylanishi yuqori bo'lganda vitaminlarning kamayishi aktivlanadi. Shunday qilib, mevalar yetilish davrida gidrolitik jarayonlar sintetik jarayonlardan ustun keladi. [1,1]

Uzumning fizik xossalari hamda ularni saqlashdagi texnologik-kimyoviy nazorat qilish saqlash jarayonida ularning fizik xossalarni bilish, saqlashda bu xossalardan ilmiy asosda foydalanish muhim hisoblanadi. Uzumning fizik xossalari ularni yig'ibterib olishda, tashishda hamda saqlashda katta ahamiyatga ega.

Uzumning fizik xossalari suv bug'latishi, terlashi, issiqlik xossalari, mexanik pishiqligi, to'kiluvchanligi, g'ovakligi va boshqalar kiradi. Saqlash jarayonida mahsulotlar suvni ko'p miqdorda bug'latadi, terlaydi va natijada so'lib qoladi. Buglanish miqdori uzumning turi, navi, morfologik tuzilishi hamda uning kimyoviy tarkibiga bog'liq. Po'sti yupqa, po'stining mum g'ubori sidirilib ketgan, hujayra tarkibida oqsil va kolloid moddalar kam bo'lgan, suvni saqlab qolish xususiyati past bo'lgan mevalar suvni tez bug'latadi va soviydi. Havoning harorati baland, namligi past bolib, uning ombordagi harakati tez bolsa, buglanish tezligi ham shunchalik yuqori bo'ladi.

Bug'lanish tezligi mevadagi suvning miqdoriga ham bog'liq. Agar uzum uzishdan oldin sug'orilsa, uzilgan mevalar sersuv bo'lib, saqlash davrining boshida tarkibidagi suvni tez bug'latib

so‘lib qoladi. Ko‘pincha ularda achchiq mog‘or hosil bo‘ladi. Uzishdan oldin uzoq vaqt suv ichmagan mevalar ham saqlash vaqtida suvni tez bugiatadi va so‘lib qoladi va ular tez buziladi.

Ularning sirtidagi namlik mikroorganizmlarning rivojlanishiga qulay sharoit tug‘diradi. Uzumlarni saqlash uchun sun‘iy usulda — sovitgichlarda va tabiiy usulda ventilatsiya-tashqi havo yordamida sovitiladi. Mevang sovishi - 0,5°C dan - 1°C gacha yuz beradi. Mevalaring sovish harorati ular tarkibidagi suvning miqdoriga bog‘liq. [2,1]

Mevalar qanchalik tez sovitilsa zararli mikroorganizmlarning rivojlanishi va biokimyoviy jarayonlar sekinlashadi, natijada, mahsulotning saqlanish muddati uzayadi va nobudgarchilik kamayadi. Mexanik shikastlangan mevalar ularning sovuqdan nobud bo‘lishini kuchaytiradi.

Mevalarning issiqlik xossalari ham ularni saqlashda muhim ahamiyatga ega. Ular issiqlikni va haroratni yomon o‘tkazishi bilan tavsiflanadi. Shu sababli, hamda g‘ovakligi katta bo‘lganligi uchun ular juda sekinlik bilan soviydi va isiydi. Uzunning issiqlik va harorat o‘tkazuvchanligi yomon bo‘lganligi uchun omborlarda o‘z-o‘zidan qizish jarayoni paydo boladi, natijada, saqlanayotgan mahsulotning bir qismi yo‘qotiladi. [4,1]

Demak, uzumni saqlash davrida sifatini nazorat qilish mahsulotni uzoq va sifatli saqlanishining muhim omili hisoblanib, axolini va iste‘mol bozorini yil davomida uzum mahsuloti bilan uzluksiz ta‘minlashning asosi hisodlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Trisvyatskiy i dr. Xranenie i texnologiya sel’skoxozyaystvennix produktov. M., «Kolos», 1983.
2. N.G. Proxorova va boshq. Oziq-ovqat mollari tovarshunosligi. T., «O‘qituvchi», 1991.
3. R. Oripov va boshq. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash texnologiyasi. T., «Mehnat», 1991.
4. R.O. Mahmudov. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifatini nazorat qilish va standartlashtirish. Toshkent - «ILM ZIYO» - 2006

ФИО автора: *Safayeva Ma'mura Oqil qizi*

2nd year master's student of the National University of Uzbekistan

Название публикации: «LINGUOCULTUROLOGY THEORY IN MODERN TRANSLATION PROCESS»

Abstract: *The article deals with brief overview on linguoculturology as a newborn science and importance in translation process. The paper is aimed at materializing idea of scientific picture of linguoculturology. It is given some scholars' views about the aspect and its main issues in translation are considered in the paper.*

Key words: *linguists, culture, linguiculture, nation, value, language, research.*

The content of the language is subtly and deeply related to culture.

“Language does not exist outside of culture, that is, outside the socially inherited set of practical skills and ideas that characterize our way of life” [1]. Language helps a person to divide the material and spiritual world, including cultural values and socio-historical experience of its speakers [2]. The world's leading linguists emphasize that culture is the key to understanding and learning a language, because linguistic structures are based on sociocultural structures [3]. Russian linguistics is based on the comprehensive concept of the sociality of language, which is usually interpreted as the dialectical unity of language and culture, language and society, or, in more specific terms, as the unity of language and national culture [4]. Naturally, culture as a form of organizing human experience it is difficult to see, touch as a material thing. Everyone sees the man, his actions and interactions with other people [5].

By the end of the twentieth century, linguistics began to accept the assumption that "Language is not only connected with culture, but also a means by which it grows out of culture and expresses it." At the same time, language is a means of creating, developing, preserving (in the form of texts) and an integral part of culture. Because language creates the material and spiritual works of culture. Linguoculturology, formed on the basis of this idea for thousands of years, emerged as a new, specialized branch of science in the 1990s. Linguoculturology is an anthropocentric paradigm in linguistics is a product that has been evolving over the last decade. By the beginning

of the 21st century, linguoculturology has become one of the leading fields in world linguistics. Linguoculturology is the study of folk culture that is reflected and strengthened in language and discourse. He first examines the myths, legends, customs, traditions, rituals, customs, symbols, etc. of a particular culture. These concepts are culturally relevant and are reinforced in language in the form of everyday and ritual interactions. According to Telia V. N., linguoculturology primarily studies living communicative processes and the relationship of the language expressions used in them with the mentality of the people in synchronous movement. Linguoculturology is the study of language as a cultural phenomenon, and the interrelated language and culture constitute its subject. Consequently, Telia V.N writes: “Linguoculturology is the study of the human, more precisely, the cultural factor in man. This means that the center of linguoculturology is a set of achievements inherent in the anthropological paradigm about man as a cultural phenomenon” [6]. According to Slisshkin G.G., “Linguoculturology focuses on the human factor, specifically the cultural factor in man. The fact that the center of linguoculturology is a cultural phenomenon shows that the science of man is a phenomenon belonging to the anthropological paradigm” [7].

Alefirenko N. describes lingvoculturology as follows:

- Linguoculturology is closely related to linguistic and cultural studies bound, it has a synthesizing property;
- The main focus of linguoculturology is on cultural evidence interpreted in language;
- Linguoculturology is a branch of linguistics, so the results of its research can be used in the teaching of native and foreign languages;
- The main directions of linguocultural research:
 - a) a linguistic person;
 - b) language is a system of semiotic embodiment of cultural values [8].

There are several fields of linguoculturology formed to date:

- 1) certain social groups, the culture of a nation in a prominent period relationship lingvoculturology, i.e., specific lingvoculturological cases to be investigated;
- 2) linguocultural changes related to a particular period of a nation diachronic

linguoculturology; 3)linguocultural views of different peoples interacting comparative lingvoculturology that studies; 4)comparative linguoculturology. It has begun to develop now which is reflected in some studies. For example, Golovanivskaya M.K. in her study "French mentality from the point of view of Russian speakers" features of the mentality from the point of view of the owner of the Russian language and culture learned. Destiny, danger, luck, in Russian and French as analysis material soul, conscience, thought, idea, etc. served abstract horses; 5)linguocultural lexicography, which deals with the compilation of geographical dictionaries.

See the active development of the latter direction among those mentioned possible. For example, Malseva's D. G. dictionary contains 25 thematic sections takes. They include German geographical lacunas in the field like climate, flora and fauna world, history, customs, traditions, legends, aphorisms, various holidays and ceremonies, religious beliefs, currency, unit of measurement, industry, trade, science and technique, art, education, national cuisine, architectural monuments, national character. Such dictionaries provide a comprehensive study of the relationship between language and culture.

Linguoculturological research focuses on the following issues:

1) lingvokulturological features of a particular speech genre. It explores the language of myths, genres of folklore; 2) the study of the expression of the linguocultural concept in a work written in a particular style. It mainly analyzes the language of fiction; 3) comparative research. In this case, more Russian units are compared with English, German, French; 4) aspects of lingvoculturology in relation to pedagogical science. The aim is to identify and analyze linguocultural units for students in the social sciences.

Linguocultural research in Uzbek linguistics began to appear in recent decades. In particular, in Solieva's candidacy, Uzbek and English sentiment, that is, texts of a moral and educational nature national and cultural features are highlighted [9]. In Ibragimova's R.S. candidacy it is investigated ways of expression of the concept of woman in Uzbek and French in the dissertation [10]. Khudoiberganova's

separate chapter of his monograph "Anthropocentric study of the text" it devoted to the study of the properties is the linguocultural study of Uzbek texts [11]. In addition, professor Mahmudov's N. article "In search of ways to perfect the study of language ..." shows the essence of linguoculturology and the problems in this area [12]. Thus, linguoculturology is a social science that studies the material and spiritual culture manifested in a living national language and language processes. He said that language is a means of creating, developing, preserving and defines the most important function as manifestation.

Linguoculturology is one of the special disciplines in modern linguistics led to many productive concepts: lingvokulturema, language of culture, cultural text, concept of culture, subculture, linguocultural paradigm, cultural universality, cultural potential, cultural heritage, cultural traditions, cultural process, cultural guidelines, etc. Also, the basic conceptual apparatus of linguoculturology includes mentality, mentality, customs, rituals, cultural sphere, type of culture, civilization, paganism and so on. The most important of these concepts are cultural sema, cultural background, cultural concept, and cultural connotation, which can convey cultural information through linguistic units.

References:

1. Сэпир Э. Избранные труды по языкознанию и культурологии. – Москва, Прогресс, 1993. -С.185.
2. Уфимцева А.А. Лексическое значение: Принцип семиотического описания лексики. – Москва, Наука, 1986. -С.102.
3. Тер-Минасова С.Г. Язык и межкультурная коммуникация. – Москва, Слово, 2000. –С.29.
4. Верещагин Е.М., Костомаров В.Г. Язык и культура: Лингвострановедение в преподавании языка как родного. – Москва, Русский язык, 1990. –С.17.
5. White L. A. The concept of Culture // American Anthropologist. – Wash., 1997. –Р.17.
6. Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. -Москва, Школа “Языки русской культуры”, 1996. –С.222.

7. Слышкин Г.Г. От текста к символу. Лингвокультурные концепты прецедентных текстов в сознании дискурса. -Москва, Издательский центр «Академия», 2000. –С.128.
8. Алефиренко Н.Ф. Лингвокультурология. Ценностно-смысловое пространство языка. Учебное пособие. –Москва, Флинта, Наука, 2010. – С.21.
9. Салиева З.И. Концептуальная значимость и национально-культурная специфика сентенции в английском и узбекском языках: Автореф. дисс...канд.филол.наук. -Ташкент, 2010. –С.25.
- 10.Ибрагимова Р.С. Француз ва ўзбек тилларида АЁЛ концептининг лингвокогнитив тадқиқи: Филол. Фанлар номзоди... дис.автореф. - Тошкент, 2012.
- 11.Худойберганава Д. Матнинг антропоцентрик тадқиқи. –Тошкент, Фан, 2013. –Б.135.
- 12.Маҳмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўллари излаб. -Тошкент: Ўзбек тили ва адабиёти, 2012. –Б.3-16.

ФИО авторов: *Nasirova Kamola Bahromovna*

Umurzaqova Nargiza Abdurashidovna

Alisher Navoiy nomidagi

Toshkent davlat til va adabiyot universiteti

Folklorshunoslik va dialektologiya fakulteti

1-kurs magistranti

Название публикации: «XALQ ALLALARINING LEKSIKASIDA DIALEKTAL SO‘Z TURLARI»

Types of dialectal words in the lexicon of folk allas

Anotatsiya. Ushbu maqolamizda milliy qadriyatlarimiz va ulardan alla aytish an’anasining ahamiyati, professor Tolib Enazarov Djumanazarovichning dialektal so‘z turlari tasnifi va shu tasnif asosida o‘tkazilgan xalq allalarining leksikasida dialektal so‘z turlari va ularning tahlili hususidagi tadqiqotlarimiz asosida jamlangan ma’lumotlarni taqdim etamiz.

Annotation: This article summarizes the importance of our national values and the tradition of singing alla from them, Professor Tolib Enazarov Djumanazarovich’s classification of dialectal word types and our research on dialectal word types and their analysis in the lexicon of folk allas based on this classification. We provide information.

Tayanch so‘z va tushunchalar:

Keywords and concepts:

Sheva, lexicon, text, Uzbek folk allas, pure lexical dialectal word, lexical-semantic dialectal word, morphological-phonetic dialectal word, lexical derivational dialectal word, phraseological dialectal phrase, onomastic units, sheva representative, alla texts.

Sheva, leksika, matn, o‘zbek xalq allalari, sof leksik dialektal so‘z, leksik-semantic dialektal so‘z, morfologik-fonetik dialektal so‘z, leksik derivatsion dialektal so‘z, frazeologik dialektal ibora, onomastic birliklar, sheva vakili, alla matnlari.

Har bir ulug‘ xalqning ulug‘ o‘tmishi bo‘ladi. Xalqimizning uzoq o‘tmishiga nazar tashlar ekanmiz, uning o‘ziga xos va mos, qadriyatlariga aylangan urf-odatlariga ega ekanligi ahamiyatlidir. Urf-odatlarimizga kelin salom, chimildiq urf-odatlari, beshik to‘yi, alla aytish, tushov kesdi kabilarni aytishimiz mumkin. Bu qadriyatlarimiz necha asrlardan beri xalqimiz bilan elkadosh bo‘lib kelmoqda. Yana shunday qadriyat borki, u nafaqat ma‘lum bir millatga, balki umuminsoniyatga xosdir. Bu udum onaning murg‘ak go‘dagiga aytadigan alla qo‘shig‘idir.

Alla qo‘shiqlari har bir xalqda o‘ziga yarasha ataladi, ammo mohiyat jihatdan bo‘laklarga bo‘linmas birlikdir. Shu bilan birgalikda alla qo‘shiqlari umrboqiy qo‘shiq hamdir. Sababi dunyoda ayol bor ekan, u ona degan nomga sazovor bo‘lar ekan, albatta farzandiga alla aytadi. Chunki allada onaning o‘z farzandiga aytadigan so‘zlari bo‘ladi. Bu uning sinovli o‘tmishi, quvonchli kunlari, armonlari, orzulari va shu farzandining kelajagiga bo‘lgan ishonchining izhoridir. Alla qo‘shiqlarini tinglab ulg‘aygan farzand alla tinglamay o‘sgan boladan aqli, dunyoqarashi, insoniy fazilatlariga egaligi bilan farq qiladi. Alla bola qalbini ezulikka yo‘g‘riltiruvchi katta kuchdir.

Alla qo‘shiqlari onaning qalb qo‘shig‘i sanalganligi uchun u ma‘lum bir qolipga solinmaydi. Har bir ona o‘z qarashida va o‘z shevasida alla aytadi. Shuning uchun ham alla xalq qo‘shig‘i sanaladi. Biz bilamizki, har bir hududning o‘z shevasi mavjud. Sheva esa aynan onaning tilidir. Bizni qiziqtiradigan masalalar orasida dialektal so‘z turlari alohida ahamiyat kasb etadi. O‘z tadqiqotimizni aynan alla qo‘shiqlari ustida olib borishimizning sababi esa alla qo‘shiqlari insoniyat tafakkurining tamal toshi ekanidir. Alla qo‘shiqlarida dialektolizimlar ko‘plab uchraydi. Alla qo‘shiqlari dialektal matnning eng sarasi hisoblanadi. Sababi ona o‘z farzandi bilan yolg‘iz qolib bor hislarini bayon etayotganda bor dialektal imkoniyatlaridan foydalanadi. Xalq allalarining leksikasida dialektal so‘z turlari mavzusidagi tadqiqotimiz ustida ish boshlar ekanmiz, xalqimiz sevgan allalar yig‘ilgan Abdumurod Tilovovning “Eng sara allalar” kitobi, Muzayyana Alaviya

tomonida yigilgan alla matnlari, Nargiza Umurzaqovaning “Alla bolam alla” kitobiga kiritilgan bir qator alla matnlari, Toshkent viloyati hududlaridan ilmiy tadqiqot asosida yig‘ib olgan alla matnlarimizda uchragan dialektal so‘zlar e‘tiborimizni tortdi.

Ushbu kitobning birinchi bo‘limida xalq og‘zaki ijodiga mansub 50 dan ortiq allalar kiritilgan bo‘lib, Xorazm hqududi allalari va Xabiba Ohunova ijrosiga oid allalar ham o‘rin olgan.

Ushbu kitobda berilgan xalq og‘zaki ijodiga mansub allalarda ko‘plab dialektlar uchraydi. Quyida ushbu allalardagi dialektlarni tahlilini ko‘rib chiqamiz. Tahlil qilishda filologiya fanlari doktori, professor Enazarov Tolib Djumanazarovichning 30 yillik kuzatishlari, nazariy va amaliy adabiyotlar bilan tanishib, ularni ham tanqiduy ham qiyosiy o‘rganishlari natijasida dialektal so‘zlarning tahlil qilinishiga doir yaratgan 10 turiga asoslanib tahlilni amalga oshiramiz. Professor Enazarov Tolib Djumanazarovich dialektal so‘zlarning quyidagi turlari borligini aytib o‘tadilar:

1. sof leksik dialektal so‘zlar-ayni bir shevaga xos, boshqa shevalarda uchramaydigan so‘zlar (enə, surxək, nōxōs, murt, gəzət-ikki o‘rgachli tuya);

2. laesik-semantik dialektal so‘zlar- bir so‘z turli shevalarda o‘ziga xos, boshqa-boshqa ma’no anglatadi: (əkə so‘zi ayrim shevalarda “ota” va hatto “pochcha” ma’nolaridam qo’llanadi); 3. leksik- fonetik dialectal so‘zlar-so‘zdagi bir tovoshning boshqa tovoshga o‘zgarishi.

(Masalan, so‘z boshida adabiy tildagi y undoshi o‘rniga qipchoq lahjasiga oid dj lashgan sheva vakillari ko‘pincha jd talaffuz etadilar: jdamon-yomon, djoq-yo‘q; o‘sha shevalarda ayrim unlilar so‘z boshida diftonglashadi; tari(q), sari(q) kabi so‘zlar oxiridagi q undoshi talaffuz etilmaydi. Yog‘ so‘zi fonetik o‘zgarishga uchrab djav holatiga kelgan. F.A.Abdullayev “...fonetik o‘zgalik ma’nosidagi o‘zgalik bilan bog‘liq bo‘lsa, bunday so‘zlar lug‘atga kiritilishi kerak”.);

4. morfologik-fonetik dialektal so‘zlar- so‘zdagi egelik, kelishik, yasovchi qo‘shimchani shdevalarda o‘zgarib kelishiga aytiladi. (dpdng‘ld –opanglar; otluv‘ //o‘tdluy’-otalari; hdmmdl’ys- hammalari singari morfologik dialectal so‘zlari bor.);

5. morfologik-leksik dialektal soʻzlar-koʻshimcha qoʻshilishi natijasida soʻz tarkibining butunlay oʻzgarishiga aytiladi (moldor-mollar; kərчишка-kartoshka sabzavot turi) ; 6. leksik derivatsion dialektal soʻzlar-koʻshimcha qoʻshganda soʻz oʻzgaradi: (bergi<ber+-gi-qarz; chapqы < chap+qы-роугaga qatnashadigan ot; жәнль-har uy jonzoti; yur+-mel (QQASSR-oʻgʻ.)-yurmel-tez yuradigan, yuragʻon; quyash+lama-quyashlama-oftobroʻya; qавыг+ыshma-qавыгыыshma-ziyofat);

7. fraziologik dialektal iboralardan iborat dialektal soʻzlar-bunda dialektal soʻz iborada iborat boʻladi. (oyogʻini qoliga olli-shoshdi; увэльғжувэль бол-baxtli boʻl; сувдәй serəb bol-bola chaqali boʻl);

Abdumurod Tilovovning “Eng sara allalar” kitobiga kiritilgan quyidagi alla matnlarida yuqorida koʻrsatilgan dialektal soʻz maqomlariga kiruvchi soʻzlarni koʻrib chiqamiz.

Arslon bilakli, sher yurakli,
Qoplonginam boʻlgina, alla.
Katta boʻlib vataningga,
Sodiq boʻlgina allayo, alla...

“Qoplonginam” [qoplongynām] -frazologik ibora boʻlib, farzandni erkalash, pahlavon, kuchli sifatlarini berganda shu ibora ishlatiladi.

Boʻlgina –“a” yuklama boʻlib shevalarda maqsadni boʻrttirish, kuchaytirish maqsadida qoʻllanadi. “Sodiq boʻlgina” soʻz birikmasida farzandiga shu Vatanga xizmat qilish, uni sevish va sodiq boʻlishi kerakligi aytilyapti. Bu ibora boʻlsang ham boʻlasan, boʻlmasang ham boʻlasan, shartlik maʼnosini beradi.

Ulgʻay bolam gul Vatanda, alla,

Botir boʻlib oʻsgin, qoʻzim, alla,
Seni koʻrib bu chamanda, alla,
Yayrab quvonay, yulduzim alla.

Koʻz tikar xalq, butun oʻlka, alla,

Kelajagim, orzum deb, alla.

O‘sib burka uni gulga, alla,

Katta bo‘lgach, qarzim deb, alla...

“Qo‘zim”[qozʻɪm]- etnografizm-ya’ni qadim tarixga ega urf-odatlarimiz silsilasida maydonga kelgan bo‘lib, chorvadorchilik bilan bog‘liq. Cho‘ponlar qo‘yning yangi tug‘ilgan bolasini chiroyliligini, beozorligini, onasining ketidan qolmay irg‘ishlab yurganini ko‘rib zavq olganlar. Mana shu jajji qo‘zidek parvarishga muhtoj farzandlarini erkalab “qo‘zim” deganlar.

“Yulduzim” [yuldʻɪzʻɪm]– farzand ma’nosida. Bilamizki, yulduzlar tunda osmonni yoritib turadi. Aslida esa ularda hech qanday nur yo‘q. Ular ma’juziy ma’noda onasi hisoblangan quyoshning nurini qaytaradi. Farzand ham misli ota-onaning umr yo‘lini yoritguvchi yulduzdir. Ota-ona qanchalik yorqin nur sochsa, ularning umr shamchiroqlari shunchalik ziyoga boy bo‘ladi.

“Ko‘z tikar” [koz tʻɪkɑr]- dialektal frazeologizm hisoblanib, nafaqat ota-ona, balki butun yurt uning kelajakda yaxshi inson bo‘lib shu yurtning ravnaqiga munosib hissa qo‘shadigan, xalq uchun foydasi tegadigan inson bo‘lishidan umidvorligi nazarda tutiladi. Orzum [ɔrzum]- morfologik fonetik dialektal so‘z. –m egalik qo‘shimchasi qo‘shilgan. Adabiy tilda esa egalik qo‘shimchasining –im shakli qo‘llanib, orzuyim shaklida yoziladi.

Alla bolam- bozorim alla,

Diqqat bo‘lsam, yozarim, alla.

Uxla ko‘zi xumorim, alla,

Orom ol beozorim, alla...

Bozorim [bɔzɔrʻɪm]-umumiste’ molda ishlatiluvchi so‘z bo‘lib shevalarda bozor g‘am tashvishni ko‘taruvchi, insonni dardlarini olib esdan chiqarishiga sabab bo‘luvchi makon sifatida ifodalanadi. Qadimdan xalqimizda “Bolali uy bozor, bolasiz uy mozor” degan naql bor. Bu bolali uyda doim bolaning kulgisi, shoxliklari yangrab turgani sabab xonadon ahli bola bilan ovvora bo‘lib o‘z tashvishlarini unutadilar. Bolasiz uyni

esa aksincha, g'am tashvish o'z komiga tortadi. Sukunat hukmronlik qiladi. Har bir xonadon farzand kulgusiga to'lsin!

Ko'zi xumorim [kozъ xumоrъm]- frazeologik dialektal ibora bo'lib, orzu, armon qilib, mushtoq bo'lib erishilgan, ko'p intizor bo'lib kutilgan farzandga aytiladi. Seni shu ko'zlaringni ko'zlarim ko'rmoqlikka xumor bo'ldi. Senga alla uytishga men xumorman, sen eshitishga xumor bo'lding deya ona dilbandiga alla aytib erkalaydиро

Alla deb chiqsam cho'llara, alla,

Soliqlar solib ellara, alla bolam, alla.

Alla aytib uxlataman, alla bolam, alla,

Seni qanday yupataman, alla, bolam, alla.

Uymali to'nlar bo'yingga, alla qo'zim alla.

Cho'llara, ellara [chollārā, ellārā]- morfologik-fonetik dialektal so'z bo'lib, cho'l so'ziga -lar ko'plik va -ga kelishik qo'shimchasi qo'shilgan. Ammo shevada -ga qo'shimchasidagi g tovushi tushib qolgan.

Uymali to'n [uymālъ ton]- etnografik dialektal so'z bo'lib, to'nning mayda-mayda qaviq qilib tikilgan turini anglatadi. O'g'il farzand dunyoga kelsa chaqaloqqa atab to'n tikiladi. Qaviqlarining mayda-mayda bo'lishi esa chaqaloqning umri uzoq va mana shu mustahkam to'ndek sog'lom bo'lsin deb niyat qilinadi.

Ushbu tahlilimiz xulosasidan shunday fikrga kelishimiz mumkinki, alla matnlarida dialektal sheva unsurlari ko'plab uchraydi. Tilimizning lug'aviy boyligi sanalmish shevalarga xos bo'lgan so'zlarni to'laqonli anglab yetishimiz, ularni farzandlarimiz shuuriga singdirishimizda eng avvalo inson asliyatining tamal toshi bo'lmish alla qo'shiqlari asosiy manbaa bo'lib xizmat qiladi. Har qanday farzandda o'z tiliga muhabbat, ota-onaga, Vatanga sevgi va ishonch, insoniy hislar onasining unga atab aytgan allasi orqali ruhiyariga singadi. Alla qo'shiqlarini mohiyatini yosh avlodga tushuntirish, undagi asl shevalarga tegishli so'zlarning ma'no- mazmunini tushunib yetadigan, unga xurmat bilan qaraydigan farzandlarni tarbiyalashimiz turli hudud vakillarining bir-birlarining tillari ustidan kulmaslikka, aksincha hurmat bilan qarashga olib keladi.

Bu hurriyat zaminimizda o‘ziga bek o‘zbekning har bir xonadonida chaqaloq yig‘isi eshitilaversin, onajonlar alla aytishdan to‘xtamasin!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Enazarov Tolib Djumanazarovich. DIALEKTOLOGIYA METODOLOGIYASI. -Toshkent, “Innovatsiya-Ziyo” 2020
2. Abdumurod Tilovov. ENG SARA ALLALAR. Toshkent, “Adabiyot uchqunlari”, 2017
3. Nargiza Umurzaqova. ALLA BOLAM, ALLA.- Toshkent, “Sano-standart”, 2016
4. Oxunjon Safarov. BOLALARNI ERKALOVCHI O‘ZBEK XALQ QO‘SHIQLARI. Toshkent, 1983
5. Oxunjon Safarov. O‘ZBEK BOLALAR POETIK FOLKLORI. Toshkent, 1985
6. Guljaxon Mardonova. OILADA BOLALARNI ALLA VOSITASIDA MA’NAVIY AXLOQIY TARBIYALASHNING PEDOGOGIK IMKONIYATLARI. Toshkent, 2019. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori dissertatsiyasi.
7. Librariy.adti.uz
8. <https://www.pinterest.ru>

ФИО автора: *Xudoyberdiyeva Yulduz Karim qizi*

O‘zMU magistranti

Название публикации: «LINGVOKULTUROLOGIYA VA UNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI»

Annotatsiya: maqolada lingvokulturologiya fani, uning rivojlanishi va bu rivojlanishga hissa qo‘shgan olimlar haqida fikr yuritiladi

Kalit so‘zlar: madaniyat, lingvokulturologiya, tilshunoslik, badaviy yoki sahroyi turmush, madaniy turmush, ma’naviyat, kommunikativ jarayon.

Hozirgi kunda xalqimizning turmush darajasini yangi bosqichga olib chiqish davlatimizni ijtimoiy – iqtisodiy jihatdan rivojlantirishga qaratilgan keng ko‘lamdagi chora- tadbirlarni qamrab olgan Harakatlar strategiyasi ishlab chiqildi. Bu strategiya loyihasida ilm - fan, ta’lim- tarbiya sohalarini rivojlantirishga ham alohida o‘rin ajratilgan.³⁹ Strategiyaning amaliyotdagi tadbirini bugungi kundagi o‘zgarishlarda ham ko‘rib turibmiz. Barcha ilm-fan sohaları qatorida tilshunoslikda ham yangi yo‘nalishlar, yangi tarmoqlar vujudga kelyapti. Shu tarmoqlardan biri lingvokulturologiyadir. Bu fan madaniyat va tilshunoslikning birlashishidan vujudga kelgan. Hozirgi globallashuv jarayonida bu soha bizga juda zarur va kerakli. Chunki globallashuv jarayoni xalqlarning milliylikiga, ma’naviyatiga, madaniyatiga sezilarli darajada salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning ta’biri bilan aytganda: “Ma’naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg‘ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon- e’tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg‘otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir⁴⁰ ”. Ma’naviyatimizni, madaniyatimizni qanchalik sof saqlab, kelajak

³⁹SHavkat Mirziyoyev Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz Toshkent- “O‘zbekiston”-2017

³⁹ I.A.Karimov. Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch. Toshkent . ‘Ma’naviyat’ 2008

avlodga yetkazib bersakgina o'z oldimizga katta marralarni qo'ya olamiz. Quyida esa, Lingvokulturologiya fani va uning rivojlanishini ko'rib o'tamiz.

Lingvokulturologiya tilshunoslikning mustaqil yo'nalishi sifatida XX asrning 90-yillarida vujudga keldi. Tadqiqotchilarning qayd qilishicha, "lingvokulturologiya" (lot. lingua "til"; cultus "hurmat qilish, ta'zim qilish"; yunon. "ilm, fan") termini V.N.Teliya rahbarligidagi Moskva frazeologik maktabi (Yu.S.Stepanov, A.D.Arutyunova, V.V.Vorobyev, V.Shaklein, V.A.Maslova)⁴¹ tomonidan olib borilgan izlanishlar bilan bog'liq ravishda paydo bo'lgan. Lingvokulturologiya madaniyatshunoslik va tilshunoslik kesishgan nuqtada shakllangan til tadqiqining yangi sohasidir. Lingvokulturologiya madaniyat va tilning o'zaro aloqasini, o'zaro ta'sirini, tilda o'z aksini topgan xalq madaniyatining ko'rinishlarini tadqiq etadi. Madaniyat - jamiyat, inson ijodiy kuch va qobiliyatlari tarixiy taraqqiyotining muayyan darajasi. Kishilar hayoti va faoliyatining turli ko'rinishlarida, shuningdek, ular yaratadigan moddiy va ma'naviy boyliklarda ifodalanadi. "Madaniyat" tushunchasi muayyan tarixiy davr (antik madaniyat konkret jamiyat, elat va millat (o'zbek madaniyati), shuningdek, inson faoliyati yoki turmushining o'ziga xos sohalari (masalan, mehnat madaniyati, badiiy madaniyat, turmush madaniyati)ni izohlash uchun qo'llaniladi. Tor ma'noda "madaniyat" termini kishilarning faqat ma'naviy hayoti sohasiga nisbatan ishlatiladi "Madaniyat" arabcha madina (shahar) so'zidan kelib chiqqan. Arablar kishilar hayotini ikki turga: birini *badaviy yoki sahroi turmush*, ikkinchisini *madaniy turmush* deb ataganlar. Badaviylik - ko'chmanchi holda dasht-u sahrolarda yashovchi xalqlarga, madaniylik - shaharda o'troq holda yashab, o'ziga xos turmush tarziga ega bo'lgan xalqlarga nisbatan ishlatilgan⁴², Yevropada "madaniyat" deyilganda, dastlab insonning tabiatga ko'rsatadigan maqsadga muvofiq ta'siri, shuningdek, insonga ta'lim-tarbiya berish tushunilgan (lot. cultura - yerni ishlash, parvarishlash; tarbiya, rivojlanish, hurmatlash, ehtirom; ruschadagi "kultura" so'zi ham shundan olingan. Kultura - ijtimoiy-gumanitar bilishning fundamental tushunchalaridan biri sanaladi. Mazkur so'z

⁴¹ Телия В,Н Руская фразеология: Семантический прагматический лингвокультурологический аспекты.Москва. Школа "Языки русской культуры" 1996

⁴² O'zbekiston Milliy ensiklopediya. 5-jild.Toshkent.2003.372-373 b

XVIII asrning ikkinchi yarmi (“Ma’rifat asri”)dan boshlab ilmiy termin sifatida iste’molga kirgan. Madaniyat faqat mavjud me’yor va urf-odatlarga rioya qilish qobiliyatini rivojlantirishni emas, balki ularga rioya qilish istagini rag‘batlantirishni ham o‘z ichiga olgan. Madaniyatga mehnat faoliyatining usullari, axloq-odob, urf-odatlar, rasm-rusumlar, muloqot xususiyatlari, dunyoni ko‘rish, tushunish va yaratish usullari kiradi. Masalan, daraxtda osilib turgan barg tabiatning bir qismi, gerbariydagi barg esa madaniyatning bir qismi; yo‘l ustida yotgan toshning o‘zi madaniyat emas, biroq u ajdodlarimizning qabrlariga qo‘yilganda madaniyatga aylanadi.

Tilshunoslikda XX asrning oxirlariga kelib “til madaniyat bilan bog‘liq bo‘lib qolmasdan, balki uning o‘zi madaniyatdan o‘sib chiqqan va uni ifodalaydigan vositadir” degan faraz qabul qilina boshlandi. Ayni paytda til madaniyatning yaratilish vositasi, rivojlanishi, saqlanishi (matnlar ko‘rinishida) va uning tarkibiy qismidir. Chunki til vositasida madaniyatning moddiy va ma’naviy asarlari yaratiladi. Ana shu g‘oya asosida ming yillar davomida shakllangan lingvokulturologiya fanning yangi, maxsus sohasi sifatida XX asrning 90-yillarida vujudga keldi. Lingvokulturologiya tilshunoslikdagi antroposentrik paradigmaning mahsuli bo‘lib, u so‘nggi o‘n yilliklar davomida rivojlanib kelmoqda⁴³.

V.A.Maslova lingvokulturologiya rivojlanishini uch davrga ajratadi

1.Fanning shakllanishiga asos bo‘lgan dastlabki tadqiqotlarning yaratilishi (V. Gumboldt, E.Benvenist, L.Vaysgerber, A.A.Potebnya va E.Sepir kabi tilshunoslarning asarlari)

2.Lingvokulturologiyaning alohida tadqiqot sohasi sifatida shakllanishi

3.Lingvokulturologiyaning fundamental, mustaqil fan sifatida vujudga kelishi⁴⁴

⁴³ Usmonova. Sh.Lingvokulturologiya.Toshkent.Universitet.2014

⁴⁴ Маслова.В.А. Лингвокултурология.М. Издательский центр “Академия”.2001.С 28

V. N. Teliyaga ko‘ra, lingvokulturologiya, avvalo, jonli kommunikativ jarayonlarni va ularda qo‘llaniladigan til ifodalarining sinxron harakatdagi xalq mentaliteti bilan aloqasini tadqiq qiladi.

Lingvokulturologiya tilni madaniyat fenomeni sifatida o‘rganuvchi fan bo‘lib, o‘zaro aloqadorlikda bo‘lgan til va madaniyat uning predmetini tashkil qiladi. Binobarin, V.N. Teliya bu haqda shunday yozadi: “Lingvokulturologiya insoniy, aniqrog‘i, insondagi madaniy omilni tadqiq etuvchi fandır. Bu esa shuni bildiradiki, lingvokulturologiya markazi madaniyat fenomeni bo‘lgan inson to‘g‘risidagi antropologik paradigmaga xos bo‘lgan yutuqlar majmuasidir”

G.G.Slishkinga ko‘ra, “Lingvokulturologiya inson omiliga, aniqrog‘i, insondagi madaniyat omiliga yo‘naltirilgan. Lingvokulturologiyaning markazi madaniyat fenomenidan iborat bo‘lishi inson haqidagi fanning antropologik paradigmaga tegishli hodisa ekanligidan dalolat beradi.

N. Alefirenko lingvokulturologiyani quyidagicha tavsiflaydi:

lingvokulturologiya tilshunoslik va madaniyatshunoslik bilan chambarchas bog‘langan bo‘lib, u sintezlovchi xususiyatga ega;

- lingvokulturologiyaning asosiy e‘tibori tilda izohlanadigan madaniy dalillarga qaratiladi;

- lingvokulturologiya tilshunoslik fanlariga kiradi, shuning uchun uning tadqiqot natijalaridan ona tili va chet tillari o‘qitish jarayonida amaliy foydalanish mumkin;

- lingvokulturologiya tadqiqotlarining asosiy yo‘nalishlari:

- a) lisoniy shaxs;

- b) til madaniy qadriyatlarning semiotik gavdalantirish tizimi hisoblanadi

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, lingvokulturologiya fani orqali o‘zimizning ya‘ni o‘zbek millatining milliy madaniyatini shu qatorda boshqa millat vakillarining ham milliy madaniyatini, ma‘naviyatini, urf-odatlarini, marosimlarini o‘rganib

boramiz. Turli millatlarning madaniyatlarini qiyoslaymiz, taqqoslaymiz, solishtirib bir biriga o'xshash va farqli jihatlarini bilib olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. SHavkat Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. Toshkent. "O'zbekiston". 2017

2. I.A. Karimov. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. Toshkent. "Ma'naviyat" 2008

3. Телия В.Н. Русская фразеология: Семантический прагматический лингвокультурологический аспекты. Москва. Школа "Языки русской культуры" 1996

4. O'zbekiston Milliy ensiklopediya. 5-jild. Toshkent. 2003. 372-373 b

5. Usmonova. Sh. Lingvokulturologiya. Toshkent. Universitet. 2014

6. Маслова. В.А. Лингвокультурология. М. Издательский центр "Академия". 2001. С 28

ФИО автора: *Bozorboyev Bahodir Karim o'g'li*

Toshkent viloyati Yangiyo'l tumani

9-umumiy o'rta ta'lim maktabi tarix fani o'qituvchisi.

Ilmiy tadqiqotchi

Название публикации: «SULTON ABU SAID SHAXSINING TARIXIY MANBALARDA YORITILISHI (“HABIB US-SIYAR” ASARI MISOLIDA)»

Аннотация: *Ushbu maqolada Sulton Abu Said shaxsiyati “Habib us-siyar” asari misolida o'rganilgan.*

Калит so'zlar: *Sulton Abusaid, Xondamir, “Habib us-siyar”, bob, muqaddima, Hazoraspiy, Andhud, Hashartu, Son, Chohoryak, Panjdeh, said sulton, oqquyunlilar, “Zafarnoma”, “Matlai sadayin”, “Kundaliklar” .*

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo'lga kiritgach, jamiyatimizning har bir sohasida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar natijasida mamlakatning ijtimoiy, siyosiy hayotida muhim o'zgarishlar ro'y berdi. Xususan, o'tgan davr mobaynida tariximizni ob'yektiv o'rganish, manbashunoslik va tarixshunoslik yo'nalishidagi tadqiqotlarni yangicha metodologik asoslarda amalga oshirish uchun zarur sharoit yaratildi. Shu bilan birga o'zbek xalqining tarixiy xotirasini tiklash, uning davlatchilik taraqqiyot bosqichlarini tadqiq etish, ajdodlarimiz qoldirgan ilmiy va ma'naviy merosni o'rganish va targ'ib qilish muhim vazifalardan biri qilib belgilandi. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: “Bizning havas qilsa arziydigan ulug' tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug' ajdodlarimiz bor”⁴⁵ va ular bizga boy tarixiy meros qoldirishgan. Shunday meroslarimizdan biri G'iyosiddin ibn Humomiddin Xondamirning “Habib us – siyar fi axrobi afrodi bashar” (Bashar ahli siyratidan xabar beruvchi do'st) asaridir. Bu asar fors-tojik tilida yaratilgan bo'lib, ishonchliligi va ma'lumotlarning qimmatliligi bilan tarixiy asarlar orasida ajralib turadi.

⁴⁵ Президент Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувдаги маърузасидан // Халқ сўзи 2017 йил 4 август.

G'iyosiddin ibn Humomiddin Xondamir – manbalarda ta'kidlanishicha o'n uchta asar yozgan, ammo bizga qadar uning sakkiztasi – “Maosir ul-mulk”, “Xulosat ul - axbor”, “Makorim ul - axloq”, “Dastur ul - vuzaro”, “Nomayi nomi”, “Ravzat us -safo” ning yettinchi jildi, “Habib us – siyar fi axrobi afrodi bashar”, “Humoyunnoma” yetib kelgan. Asarlarining orasida eng katta hajmlisi “Habib us - siyar”dir. Asar 1520 – 1523- yillar oralig'ida yozilgan. U muqaddima, uchta bob, xotimadan iborat va har bir bob to'rt qismni o'z ichiga oladi. Biz uchun asrning uchinchi bobining uchinchi qismi o'ta ahamiyatlidir. Chunki unda “... Amir Temurning dunyoga kelishidan tortib to vafotigacha bo'lgan davrda kechgan siyosiy – ijtimoiy voqealar, madaniy – ma'naviy hayot hamda Xalil Sulton, Shohrux Mirzo, Ulug'bek Mirzo, Sulton Muhammad Mirzo ibn Boysunqur, Abdullatif Mirzo ibn Ulug'bek Mirzo, Abulqosim Bobur Mirzo, Sulton Abusaid Mirzo, Sulton Husayn Mirzo kabi temuriyodalarning faoliyati bilan bog'liq voqealar aks ettirilgan”⁴⁶. Yozilish uslubi jihatdan sodda, ravon tilda yozilgan va badiiy o'xshatishlardan unumli foydalanilgan: “Ertasi kuni bu diyorga ham Mirzo Abdullatifning o'ldirilgan xabari yetib, Buxoro amirlariyu ulug'lari yolvorish qadami bilan said sulton oldiga bordilar va tilni tavbaga chog'lab, ul hazratni tutqinlikdan chiqardilar va saltanat taxtiga o'tqazib, ixlos va ehtiyoj xazinasini nisor yo'sini bilan boshi uzra sochdilar”⁴⁷. Asarda temuriylar sulolasining yirik vakillaridan bo'lgan sulton Abusaid Mirzo (ko'p o'rinda manbada “said sulton”⁴⁸ ya'ni shahidlik baxtini topgan sulton laqabi bilan keltirilgan) va uning hukmronlik davriga haqida qimmatli ma'lumotlar berilgan. Bundan tashqari olim tarixiy voqealar bo'lib o'tgan joy nomlar (Hazoraspiy, Andhud, Hashartu, Son, Chohoryak, Panjdeh, va boshqalar) ga alohida e'tibor berib keltirib o'tishi asar ahamiyatini yanada oshirishga xizmat qilgan. Manbalarda qayd etilishicha, Sulton Abusaid Movarounnahr va Xurosonning yakka hukmdori bo'lgach, Oqquyunli turkmanlar bilan aloqalarning salbiy tomonga burilish nuqtasi bo'lgan. Abu Said deyarli Oqquyunlilar sardori Uzun Hasanbek

⁴⁶ Гиёсиддин ибн Хумомиддин Хондамир. Ҳабиб ус – сийар фи ахбори афроди башар. Toshkent. “O'zbekiston”.2013. 5-6 б

⁴⁷ Гиёсиддин ибн Хумомиддин Хондамир. Ҳабиб ус – сийар фи ахбори афроди башар. Toshkent. “O'zbekiston”.2013. 548 б

⁴⁸ Гиёсиддин ибн Хумомиддин Хондамир. Ҳабиб ус – сийар фи ахбори афроди башар. Toshkent. “O'zbekiston”.2013. 548 - б

bilan siyosiy aloqalarni rivojlantirmagan va Oqquyunlilar ham o'zlari tashabbus ko'rsatib chiqmaganlar. Lekin asarda bu hodisalar haqida ma'lumotlar uchramaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, temuriylar tarixi haqida ma'lumot beruvchi manbalarning ko'pchiligi bir hukmdor davri yoki kichik bir vaqtni yoritishga xizmat qiladi. Masalan, Sarafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asari faqat Amir Temur va uning vafotidan keyingi qisqa davrni, Abdurazzoq Samarqandiyning "Matlai sadayin va majmuai bahrayin" asari Amir Temur davridan Husayn Boyqaroning humronlik davri boshlanish davrini, Klavixoning "Sayohatnomasi" esa o'z ko'zi bilan ko'rgan voqealar bayoni bilan cheklanadi. Xondamirning "Habib us - siyar" asari bu manbalardan qamrab olgan chegarasi keng va ishonchliligi bilan ajralib turadi.

ФИО автора: *Omonboyeva Oynisa Rasuljon qizi*

Namangan davlat universiteti talabasi

Название публикации: «SAYLOV JARAYONLARI TARIXI VA UNING SIYOSIY AHAMIYATI»

Annotatsiya: Ushbu maqolada Òzbekistondagi sayov jaroyonlari vujudga kelish tarixi, uning mamlakat hayotida tutgan ahamiyati va uning huquqiy tuzilishlari, normalari, qanchalik muhim ekanligi haqida fikr yuritilgan.

Kalit sòzlar: Demokratik davlat, majoritar saylov, proporsional saylov, referendum, muqobillik.

Bugungi kunda har bir demokratik davlatni boshqarishda xalqning dardini tushunadigan, mamlakatning yuksak darajaga olib chiqadigan rahbar tayinlash asosiy vazifa hisoblanadi. Bunday odil rahbar tayinlanishda esa bevosita saylov jarayonlaridan foydalanish asoslidir [1]. Saylov bu- demokratiyaning asosiy kòrinishi bòlib, yoqlab yoki qarshi ovoz berishni bildiradi. Òzbekiston Respublikasi fuqarolari davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda bevosita hamda òz vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egadirlar. Bu huquq fuqarolarning referendumlarda, Òzbekiston Respublikasi Prezidenti saylovlarida va davlat hokimiyatining vakillik organlari saylovlarida qatnashishi orqali amalga oshiriladi. Òzbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan sòng barcha mustaqil va rivojlangan mamlakatlar qatori òz qonun qoidalariga ega bòldi. Shu bilan bir qatorda saylov jarayonlari ham yòlga qòyildi. Bu ham bòlsa òzbek xalqi manfaatlarini kòzlangan zamonaviy davlat boshqaruvidir. Saylov tizimi ikki ma'noda ya'ni keng va tor ma'nolarda tushuntirilganda quyidagicha bòladi. Òzbekiston Respublikasi saylov tizimi keng ma'noda hokimiyat vakillik organlarini va Òzbekiston Respublikasi Prezidentini saylash tartibi tushuniladi. Tor ma'noda esa majoritar, proporsional va aralash saylov tizimlariga bòlinadi. Òzbekiston Respublikasi saylov tizimi majoritar saylov tizimiga asoslangan. Saylov jarayoni -saylovlarni tashkil etish va òtkazish yuzasidan amalga oshiriladigan chora va tadbirlar yig'indisidir. Saylov jarayonlari tòrt bosqichda amalga oshiriladi:

1) Saylov kunini belgilash, nomzodlar kòrsatish;

2) Saylov okruglarini belgilash va ulardan saylov uchastkalarini tashkil etish, saylov organlarini tashkil etish, saylovchilar ro'yxatini tuzish;

3) Saylov oldi tashviqotini olib borish;

4) Ovoz berish va ovoz berish natijalarini aniqlash; [2].

Òzbekiston tarixida birinchi prezidentlik lavozimi 1990-yil 24-martda ta'sis etilgan. Prezident (lotincha "pre" (avval) va "sedere" (òtirmoq) ya'ni oldinda òtirmoq degan ma'noni anglatadi. Prezident -biror tashkilot, kompaniya, kasaba uyushmasi, universitet yoki mamlakat rahbari lavozimidir. Ushbu sòz etimologik tarixi jihatidan, biron bir yig'ilishda eng oldinda òtirgan kishi ma'nosidan kelib chiqqan. Prezident hozirgi kunda kòplab respublika shaklida idora qilinadigan mamlakatlar boshlig'i. BMT ga a'zo bòlib kirgan 189 mamlakatning 140 dan ortig'ida prezidentlik lavozimi joriy qilingan. Bunday boshqaruv shakli ilk bor ASH da 1787-yil vujudga kelgan.

The order of the Cabinet of Ministers to widely celebrate the 125th anniversary of the beloved writer Abdullah Qadiri played an important role not only in perpetuating the memory of the great writer, but also in promoting his personal, unique works.

Abdullah Qadiri, as a leading intellectual of his time, cared about the fate of the homeland and the nation. The tales of the time tormented the writer's heart. Through the novel “Utgan kunlar” he tried to awaken the national consciousness of the people, to teach the people about this tragic truth, talking about the “dirtiest, darkest days of our history” — the next unfortunate “khan's time” that brought the country to the brink of colonialism.

The novel has a broad range of meanings. It deals with various human destinies, sociopolitical, spiritual-moral, family-romantic problems. However, the fate of the country and the issue of independence stand out among them. The protagonists of the work, Otabek and Yusufbek Haji, are selfless people who sacrificed their lives for the independence, prosperity, and peace of this country. The novel “Utgan kunlar” is a huge and clear mirror, which vividly depicts the specific historical conditions, life, customs, spiritual world, height, and image of the Uzbek nation. The trinity in the novel is a lover, a lover, and a gentleman, at first glance, reminiscent of traditional love stories. It skillfully depicts the pure love, romance, happiness, and unhappiness of Otabek and Kumush. The reader is thrilled by the delicate details of the work, which is deeply rooted in the hearts of hardly any people. The tragic scenes that deprive Otabek and Silver of their happy moments are thought-provoking. Under the pretext of romantic adventures of lovers, the author depicts a certain historical period — the situation in Turkestan on the eve of the Russian invasion, the dark days. At the same time, he masterfully incorporates the idea that ignorance, backwardness, and internal strife are the main reasons for the country's captivity.

Due to the unique charm of the author's artistic words, no matter how many times you read “Utgan kunlar”, you will not be satisfied, you will need to read it again. The novel does not bore the reader. In the process of re-reading, new aspects of the work are opened. Episodes that are ignored in one reading are highlighted another time. This, of course, has to do with the writer's skill in creating an image, his in-depth understanding of the human heart. After all, in the world of art, as in fiction, the artistic word — poetic speech - is important: the word draws the landscape, the soul, and the image.

Abdullah Qadiri's words have a power that binds the reader to itself and attracts people like a melody. The reader cannot help but notice this. It is because of the effect of the word that the reader cries on the stage where Silver is dead. By the way, this episode was written in tears. This means that the writer's trembling, drunken, weeping heart has moved to these pages. One of the laws of art is that vague ideas are expressed vaguely, and pages written with tears are read with tears. The aesthetic world of the true writer, the creative heart, is sealed in such pages.

Abdullah Qadiri wrote his novels at a time when the Uzbek literary language was taking shape in a modern form. The writer's contribution to the rise of the status of the literary language was great. Language is a value that has the power to unite a nation. According to Qadiri scholars, Abdullah Qadiri, a native of Tashkent, does not use local dialects in his novels. He even uses other artistic means to individualize the speech of his protagonists. This means that the writer demonstrates the richness of the Uzbek literary language and the wide potential of the Uzbek language with all his skills.

“The body is a mark on the birth of a calf” or “... he sees a distant beast without seeing the prey in front of him”, “to feed the khan's sheep, to wear lids on his waist ...” saj, rhythm and subtlety in hundreds of folk phrases such as. Abdullah Qadiri said in vain: “The Uzbek language is not poor, but those who call the Uzbek language poor are poor. Let them not turn their ignorance into Uzbek. ” It was his works that proved the rich potential of the Uzbek language. In addition, as an enlightened intellectual, he cared about the Uzbek language and the future of the literary language. We must always keep in mind such a truth in the work of Abdullah Qadiri.

"Utgan kunlar" is a huge spiritual tower of imaginary and vital factors, in which the person is confronted with an artistic interpretation of the concepts of human eternity, a unique image of the most delicate emotions, a chain of interconnected social and individual states. Each generation understands and explains the novel "Utgan kunlar" in its own way. Although several volumes of commentary and analysis have been written to date, the chain of interpretations and explanations will continue in the future. Because the novel is a work of art that, according to its great art, can be a source for such interpretations.

In short, Abdullah Qadiri, who was well acquainted with the life, history, language, and customs of the Uzbeks, used them very effectively and appropriately in his works. In the magnificent literary heritage of the writer, the beauty, elegance, imagery, and expression of the Uzbek literary language are reflected in practice. At the same time, Abdullah Qadiri sometimes made a great contribution to the development of the Uzbek literary language with his valuable literary and theoretical views typical of philologists. With these unique literary and scientific services, the writer has attracted the attention of Uzbek scholars as well as foreign experts.

List of references:

1. Mirvaliyev S. Abdullah Qadiri. — T.: Fan, 2004
2. Mirzayev. S Uzbek literature of the XX century. — T.: Yangi asr avlodi, 2005
3. Qadiri A. "Utgan kunlar". — T.: "Navruz", 2019
4. The priceless values of the Uzbek people formed over the centuries
<https://kukaldosh.uz/24/02/2020/5361>.

ФИО автора: *Ахадова Шарофатбону*

Студентка 1 курса Факультета романо-германских языков направления русская филология

ФИО научного руководителя: Туракулова З.М.

Название публикации: «ТРАДИЦИЯ КАК ИСТОРИЧЕСКАЯ РЕАЛЬНОСТЬ В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ОПЫТЕ Д. КЕДРИНА»

Аннотации

Художественное мастерство поэзии Кедрина, писавшего в широком диапазоне от острых эпиграмм до масштабных исторических поэм, характеризуют соединение лиризма, эпичности, самобытного использования приёмов драматизации — монологичности, диалогов, ролевой лирики, сказового и песенного фольклорного начала. Кедрина считают одним из наиболее талантливых продолжателей и интерпретаторов русского устного народно-поэтического творчества

Ключевые слова: литература, приданое, Шах-наме, манифест, широком диапазоне

Дмитрий Борисович Кедрин — русский поэт, переводчик. По основной профессии — журналист. Родился 4 февраля 1907 года в донбасском поселке Щегловка, в семье горняка. Начал печататься в 1924 году. Учился в Днепропетровском железнодорожном техникуме с 1922 по 1924 год. В 1935 году Кедрин написал стихотворение «Приданое», о несчастной судьбе персидского поэта Фирдоуси, жившего во второй половине десятого — первых десятилетиях одиннадцатого веков. Одной из излюбленных тем поэта была жизнь и деятельность исторических личностей. Поэт не раз обращался к судьбам известных людей. Его всегда привлекали люди, чья деятельность была связана с историей страны, искусством, наукой, литературой. Что непременно доказывает глубокий патриотизм его поэзии. Однако творчество Кедрина выходило за рамки русской национальной тематики. Встречается в его трудах и тема востока. Восточные мотивы в творчестве Кедрина были не случайны. Это прежде всего результат творческих исканий и безграничного интереса поэта к культуре и литературе востока.

В поэме Кедрин мастерски воссоздает национально - исторический колорит древнего Ирана. По суждению литературоведа Юрия Петрунина, Кедрин оснастил поэму автобиографическим подтекстом, исполнил собственными переживаниями и мрачными предчувствиями приближающейся беды.

Основная идея этого стихотворения заключается в изображении жизни поэта полной трудностей и тревог. Уже в самом начале стихотворения мы узнаем о нищенском существовании Фирдоуси:

*«На деревьях взбухли почки.
В облаках курлычут гуси.
В вашем сердце полной чашей
Ходит паводок весенний,
Но, увы: к несчастью, ваши
Справедливы опасенья.
В нашей бочке - мерка риса,
Да и то еще едва ли.
Мы куда бедней, чем крыса,
Что живет у нас в подвале.*

Поэма состоит из беседы трех персонажей: поэта, его дочери, и обобщенного портрета шахского окружения во главе с правителем государства. Фердуси у Кедрина задумал написать поэму — о деяниях падишаха (то, что в литературу вошло как «Шах-наме»). По началу он уверен, что успеет написать ее за короткий срок, но работа затягивается на долгие два десятилетия. Она была по заслугам признана лишь тогда, когда автор эпоса покинул этот мир, а его дочь осталась незамужней.

Тут все необычно в контексте разговора о судьбе Дмитрия Кедрина и о литературных нравах его времени. Вот как сначала размышляет Фердуси:

*Но уймите, дочь досаду,
Не горюйте слишком рано:
Завтра утром я засяду
За сказания Ирана,
За богов и за героев,
За сраженья и победы
И старания утроив,
Их окончу до обеда,
Чтобы вился стих чудесный
Легким золотом по черни,
Чтобы шах прекрасной песней
Насладился в час вечерний.*

И в то время, когда поэт довел до конца свой кропотливый труд и послал его шаху, интересна реакция последнего и его свиты на книгу о его славных делах:

*Посреди придворных близких
Шах сидел в своем серале.
С ним лежали одалиски,*

*И скопцы ему играли.
Шах глядел, как пляшут триста
Юных дев, и бровью двигал. Да
Переписанную чисто
Звездочет приносит книгу:
«Шаху прислан дар поэтом,
Стихотворцем поседельм...»
Шах сказал : «Но разве это -
Государственное дело?
Я пришел к моим невестам,
Я сижу в моем гареме.
Тут читать совсем не место
И писать совсем не время.
Я потом прочту записки,
Небольшая в том утрата.»
Улыбнулись одалиски,
Захихикали кастраты.*

Тут насквозь ясное смешение времен. Прежние шахи и короли предавались празднествам, и это для них было первостепенным занятием, а не управление страной, что огорчает писателя.

Как известно, литературная судьба Дмитрия Кедрина была тяжёлой. При жизни он печатался редко. Рукописи произведений, ныне вошедшие в антологии и хрестоматии, в своё время возвращались поэту. Он был горд, впечатлителен и терпеливо сносил обиды, безусловно незаслуженные. Единственная вышедшая при жизни книга «Свидетели» очень невелика по объёму и не даёт полного представления о поэте.

Признание таланта Кедрина пришло слишком поздно — после его смерти. «Ах, медлительные люди, вы немножко опоздали!»— хочется сказать словами, взятыми из кедринской поэмы «Приданое». Легенда о великом и ослепительном Фирдоуси и его дочке прочитывается сейчас, как предвидение Кедриним своей посмертной писательской судьбы.

Кедрин с большой искусностью разработал удивительный, реалистичный облик поэта Фирдоуси, подчеркнув все его моменты жизни. Это произведение пронизано любовью к самому творческому труду Фирдоуси, что не может оставить безразличным его поклонников. Всемогущий шах, в конце концов, оценив труд поэта, посылает ему свои дары, но увы, —

*Стон верблюдов горбоносых
У ворот восточных где-то,
А из западных выносят
Тело старого поэта.*

Преподношениями шаха уже не может воспользоваться Фердуси, не могут в качестве приданого служить они и седой заждавшейся его дочери. Поздно!

*Встал над Тусом вечер синий,
И гуськом идут оттуда
Тридцать странников пустыни,
Тридцать войлочных верблюдов.*

Караван ушёл, дары увезены, но поэтическая легенда осталась. Сохранились стихи и поэмы Кедрина, так полюбившиеся читателям. Он ощутил ценность поэтических образов, этот зоркий, чувствительный к живому дыханию поэзии читатель.

Но в те начальные годы было мучительно трудно пробиться сквозь строй стандартных и ординарных образов к истинному творчеству, которое всегда индивидуально и в этой индивидуальности неповторимо. Что мог бы делать Кедрин? Он наследовал традицию русской реалистической поэзии, поставив во главу угла создание картин времени и характеров, выбрав канонический стих, преимущественно повествовательно-эпический, хотя и исполненный глубокого лиризма. На этом пути Кедрина ждали большие удачи. Здесь и проявилась его поэтическая индивидуальность. От каждого своего стихотворения поэт требовал содержательности и выразительности. Задача состояла не в том, чтобы протрубить или воскликнуть, а сообщить читателю нечто новое, ранее им не замечавшееся, или же привычное повернуть непривычной стороной.

Использованная литература:

1. Дмитрий Кедрин. Избранное. Стихотворения и поэмы |1957 г. Гос. издательство худ. Литературы.
2. Дмитрий Кедрин. Стихи и поэзия. Издательство: Эксмо, 2007
3. <https://poezosfera.ru/lev-ozero-poeziya-dmitriya-kedrinas.html>
4. <https://ru.m.wikipedia.org>
5. <https://www.google.com/url>

ФИО автора: *Tursumatova Shaxlo Samievna*

Farg'ona Sanoat va xizmat ko'rsatish texnikumi

Ishlab chiqarish ta'limi bo'yicha direktor o'rinbosari

Название публикации: «YANGI PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMINI MEHNAT BOZORI TALABLARI BILAN UYG'UNLASHTIRISH»

Annotatsiya: Mazkur maqolada yangi professional ta'lim tizimini mehnat bozori talablari bilan uyg'unlashtirish hamda milliy malaka tizimi qabul qilinishining ahamiyati xususida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Professional ta'lim, malaka, kasb-hunar, mutaxassis

Mamlakatimizda ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar, belgilanayotgan barcha rejalar va vazifalar yuqori malakali, yuksak ma'naviyatli, rivojlangan mamlakatlar darajasida raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashga qaratilgan.

Mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimining joriy etilishi va unda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining alohida bo'g'in sifatida e'tirof etilishi, ishlab chiqarish korxonalarini uchun zarur bo'lgan ishchi kadrlar-kichik mutaxassislarni tayyorlashga keng imkoniyatlar yaratdi.

Ta'limning rivojlanish bosqichida o'rta maxsus kasb-hunar ta'limiga e'tibor katta. Chunki, yoshlarning kasb-hunarga moyilligini oshirish, biror kasb bo'yicha yetarli bilim, amaliy malaka va ko'nikmalarini rivojlantirish kasb-hunar massalarida amalga oshiriladi. Ma'lum malakaviy toifaga ega bo'lgan kichik mutaxassislarning amaliy bilimi, muammolarni mustaqil yechish qobiliyatlarini rivojlantirish – ishlab chiqarish korxonalarida tayyorlanadigan mahsulotlarning sifatli, raqobqtbardosh bo'lishini ta'minlaydi.

O'zbekistonda joriy yildan boshlab ilk bor milliy va tarmoq ixtisoslashuv tizimi, kasb va mutaxassisliklar bo'yicha professional standartlar hamda tabaqalashtirilgan ta'lim

standarti va dasturlari bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, mehnat bozori bilan ta'lim sohasi integratsiyasini ta'minlashga xizmat qiladi.

Prezidentimizning Oliy Majlisga Murojaatnomasida mamlakatimizda 2020-2021 o'quv yilidan boshlab kadrlar malakasini xalqaro mehnat bozori talablariga moslashtirish maqsadida Milliy malaka tizimini ishlab chiqish, yurtimizda 340 ta kasb-hunar maktabi, 147 ta kollej va 143 ta texnikum tashkil etish bo'yicha aniq vazifalar belgilab berilgan edi.

O'zbekistonda yangi professional ta'limda birinchi marta har bir mutaxassisning xalqaro me'yorlarga mos malaka darajasini belgilab berishga asos bo'ladigan hujjat — Milliy malaka tizimi qabul qilindi. Iqtisodiyotning har bir sohasi bo'yicha tarmoq malaka tizimlari belgilandi.

Malaka tizimi rivojlangan davlatlarda sinovdan o'tgan, mehnat bozori, professional ta'lim, kasbga o'qitish va o'rgatish tizimining uyg'unlashuvi sifatida muvaffaqiyat qozongan. Shu bois, O'zbekistonda ham joriy yildan boshlab ilk bor milliy va tarmoq ixtisoslashuv tizimi, kasb va mutaxassisliklar bo'yicha professional standartlar hamda tabaqalashtirilgan ta'lim standarti va dasturlari joriy etilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, mehnat bozori bilan ta'lim sohasi integratsiyasini ta'minlashga xizmat qiladi.

Milliy malaka tizimining qabul qilinishi, professional ta'lim standartlarining joriy etilishi yoshlarimizning professional o'sish yo'nalishlarini belgilab olishlariga imkon yaratadi, o'z istiqbolini yuksaltirish, umuman aytganda, ertangi kunga qat'iy ishonch paydo qiladi. U, ayniqsa, investitsiya dasturlari asosida yangi texnologiyalar kirib kelayotgan sohalar, korxonalar, mehnat migrantlari sifatida xorijga ketayotgan yoshlarimiz uchun muhim ahamiyatga ega. Bir so'z bilan aytganda, Milliy malaka tizimi yoshlarimiz potensialini oshiradi, mehnat bozoridagi imkoniyatlarni kengaytiradi, raqobatbardoshlikni ta'minlaydi.

Bugun professional ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning istiqboli, samara va natijasi ish beruvchi va ta'lim muassasasining o'zaro hamkorligiga, ishlab

chiqarish va o'quv jarayonining uzviyligi, milliy malaka tizimining muvaffaqiyatli joriy etilishi, mukammal professional standart va sifatli ta'limga bog'liq. Bu tizimning muvaffaqiyatli joriy etilishi yaqin istiqboldagi taraqqiyotimiz rivojlanishini ham belgilaydi.

Professional ta'limning sifat va samaradorligini ta'minlash maqsadida o'quvchilar egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini bevosita kundalik hayotida qo'llashga o'rgatadigan kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim dasturlari yaratildi va yangi o'quv yilidan tadbiiq etish boshlanadi.

Shu bois keyingi yillarda ta'lim tizimi modernizatsiya qilinib, o'qitishning zamonaviy shakl va texnologiyalari joriy etilmoqda. Hududlarda yangi, shu jumladan, xorijiy ta'lim muassasalari tashkil etilib, talab yuqori bo'lgan mutaxassislar tayyorlashga sharoit yaratilmoqda.

Yangi professional ta'lim tizimini mehnat bozori talablari bilan uyg'unlashtirish masalasi bugun davlat va jamiyatning asosiy muammosi bo'lib kelmoqda. Joylarda ishsizlik kuzatilayotgan bir paytda ishchi kasblar bo'yicha mutaxassislarga katta ehtiyoj borligi qayd etildi. Masalan, yengil sanoatda 46 ming, qurilishda 104 ming, metallga ishlov berish bo'yicha 71 ming, xizmat ko'rsatish sohasida 67 ming nafar mutaxassis yetishmayapti.

Bu ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasida uyg'unlik yo'qligi oqibatidir. Shu bois bitiruvchining ishga joylashishi yoki o'z biznesini yo'lga qo'yishi ta'lim muassasalari faoliyatining asosiy mezonini bo'lmog'i lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Ozbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga murojaatnomasi 2020-yil

2.www.ziyonet.uz

3.www.arxiv.uz

4.www.lex.uz

ФИО авторов: *Shukurjonov Murodjon Shukurjon og'li* – talaba

Sheraliyev Abdurahmon – biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Namangan Davlat Universiteti

Tabiiy fanlar fakulteti

Название публикации: «SUVDA ERIYDIGAN VITAMINLAR QATORI: B VITAMINLAR KOMPLEKSI – BIOKIMYOVIY FUNKSIYASI VA FIZIOLOGIK XUSUSIYATLARI»

ANNOTATSIYA: B guruh kompleksi tarkibiga kiruvchi vitaminlarni organizmda vazifalari, metabolizmini va biokimyoviy funksiyasini bayon etishdan iborat. Bundan tashqari vitaminlar tashqi muhitdan oziq-ovqat mahsulotlari bilan kirishi va organizmda qisman (asosan mikroorganizmlar tomonidan) sintezlanishini, organizmni kundalik ehtiyoji juda ham kam miqdorda bo'lsa ham ma'lum bir biokimyoviy funksiyalar bu vitaminlarsiz normal kechmasligi, ayrim vitaminlar yetishmaganda kelib chiqadigan kasalliklar hamda vitaminlarning tabiiy manbalari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: tiamin, riboflamin, beri-beri kasalligi, vaskulyarizatsiyalanish, glossit, avitaminoz, gipovitaminoz, pantotenat kislota, pellagra, dermatit, dementsiya, diariya, siankobalamin, anemiya, Adisson – Birmer anemiyasi, pernitsioz anemiya.

Ассортимент водорастворимых витаминов: витаминный комплекс В – биохимическая функция и физиологические свойства

Шукуржонов Муроджон Шукуржонович – студент

Шералиев Абдурахмон – кандидат биологических наук, доцент

Наманганский государственный университет

Факультет Естественных наук

АННОТАЦИЯ: Описывает функции, метаболизм и биохимическую функцию витаминов в комплексе группы В. Кроме того, поступление витаминов из внешней среды через пищу и их частичный синтез в организме (в основном микроорганизмами) речь идет о природных источниках витаминов.

Ключевые слова: тиамин, рибофламин, авитаминоз, васкуляризация, глоссит, авитаминоз, гиповитаминоз, пантотеновая кислота, pellagra, дерматит, деменция, диарея, цианокобаламин, анемия, адиссон-бирмерская анемия, пернициозная анемия.

A range of water-soluble vitamins: B vitamin complex – biochemical function and physiological properties

Shukurjonov Murodjon Shukurjonovich – student

Sheraliyev Abdurahmon – Candidate of Biological Sciences, Associate Professor

Namangan State University

Faculty of Natural Sciences

ANNOTATION: Describes the functions, metabolism and biochemical function of vitamins in the body, which are part of the B group complex. In addition, the entry of vitamins from the external environment through food and their partial synthesis in the body (mainly by microorganisms) we are talking about natural sources of vitamins.

Keywords: thiamine, riboflavin, beriberi, vascularization, glossitis, avitaminosis, hypovitaminosis, pantothenic acid, pellagra, dermatitis, dementia, diarrhea, cyanocobalamin, anemia, Addison-Birmer anemia, pernicious anemia.

Bilamizki barcha suvda eriydigan vitaminlar oddiy diffuziya yo`li bilan ingichka ichakdan so`riladi. To`qimalarga koferment shaklida o`tib, fermentlar tarkibiga kiradi. Suvda eriydigan vitaminlar qatoriga B vitaminlar kompleksi, C, P vitaminlari kiradi. B vitaminlar kompleksiga B1-vitami tiamin(Antinevrit), B2-vitamin riboflamin(bo`y o`stiruvchi vitamin), B3-Pantotenat kislota, B5-(PP) vitamini (nikotin kislota, niatsin, antipellargik vitamin), B6-vitami (piridoksin, anidematit vitamin), B9 (Bc)-vitamini (folat kislota, antianemik, bo`y o`stiruvchi faktor), B12-vitamin(kobalamin, antianemik vitamin)lari va boshqa vitaminlar kiradi.

Tiamin B1 vitamin Antinevrit. Bu vitaminni tiamin deb atalishiga sabab uning tarkibida oltinugurt(yunoncha — tio) va aminoguruh borligidadir. Organizimimizda tiamin yetishmasligi beri-beri kasalligi (polinevrit, periferik nervlarning yalliglanishi) ga sabab bo`ladi. Bu kasallik falajlikka, yurak va qon tomirlari hamda oshqozon-ichak yo`li ishining buzilishiga olib keladi, suv almashinuvi ham o`zgaradi, shish paydo bo`ladi.

Manbai. Bu vitamin asosan boshqoqli o`simliklar kepagida, yirik tortilgan undan yopilgan nonda, achitqilarda bo`ladi. Hayvon mahsulotlaridan jigar, buyrak, yurak bu vitamining boy. Organizmning B1 vitamining bo`lgan kundalik extiyoji, taxminan, 2-3 mgga teng.

Metabolizmi. So`rilishi ichakdan bo`lib, oddiy diffuziya yo`li bilan qonga o`tadi. Jigarda tiaminfosfokinaza ishtirokida hosil bo`ladi. Tiaminning teng yarmi mushaklarda, 40% ichki organlarda, jigarda bo`ladi. Vitamin ingichka ichakdan qonga o`tadi, qon orqali jigarga boradi. Jigarda fosforlangan tiamindan TMF, TDF, TTF hosil bo`lib, umumiy qon aylanish doirasiga o`tadi va organ, to`qimalarga tarqaladi. TDF vitamining asosiy faol shakli bo`lib, hujayralarda o`zining apofermentlari bilan bog`lanadi. Bir qismi esa zaxira holida saqlanadi. Kofermentlar parchalanganda,

yana erkin tiamin hosil bo`lib, qon orqali siydik bilan chiqariladi. Bu vitamning biokimyoviy funksiyasiga keladigan bo`lsak TDF (PDG) piruvatdegidrogenaza, 2-oksoglutaratdegidrogenaza komplekslari va transketolaza tarkibiga kiradi. Mitaxondriyada TDF yordamida piruvat va 2 - oksoglutaratlarni oksidlanishidan, binobarin uglevodlar va aminokislotalardan energiya hosil bo`lishi kuzatiladi. Tiamin uglevodlar almashinuviga, xususan, pirouzum (piruvat) kislotasi metabolizmiga qatnashadi. B1 vitamin yetishmaganda kaptar miyasida va polinevrit bilan kasallangan odamlarda pirouzum kislotasining oksidlanishi va kislorodning yutilish jarayonlari pasayishi tasdiqlangan. Natijada miyada va boshqa to`qimalarda piruvat kislotaga to`planadi. Ushbu fakt, uglevodlar almashinuvida B1 vitaminining bajaradigan funksiyasini yetishmasligi oqibatidir. Yetishmovchiligi: - To`qimalarda tiaminning kofermentli shaklini yetishmasligi beri-beri kasalligiga olib keladi. Bunday hollarda nerv tolalarining spetsifik shikastlanishi, yurak mushagi qisqarishi va ritmining tezlashishi, me`da sekretsiasining susayishi, talvasa tutishi, muskullar atrofiyasiga, ko`z va asab sistemasida patologik o`zgarishlar namoyon bo`ladi.

B2-vitamin (riboflavin,bo`y o`stiruvchi vitamin). B2 vitamin sariq rangli kristall modda bo`lganligi sababli riboflavin deb nom berilgan. Flavus– yunoncha —sariq degan ma`noni anglatadi. Ushbu vitamin ba`zi mikroorganizmlarning, yosh kalamushlar va boshqa hayvonlarning o`shishi uchun zarur. Shu sababli ham B2 avitaminozining asosiy belgisi o`shishning to`xtashidir. Odam organizmida B2 vitamini ichak mikroflorasi tomonidan sintezlanib turadi. Shuning uchun odamlarda B2 avitaminozini hosil qilib bo`lmaydi.

Manbai. O`simlik mahsulotlari, achitqilar, dukkaklilar vitaminlarga boy manbadir. Sut, pishloq, tuxum, go`sht, jigar, buyrak, miyada ko`p bo`ladi. Katta odamlarning kundalik extiyoji 2 – 3 mg ga teng. Yetishmasligi: bo`yning o`shishdan to`xtashi, terining yallig`lanishi – dermatit, ko`z muguz pardasining vaskulyarizatsiyalanishi (ko`z muguz pardasini qon bilan ta`minlanishini ortishi, soch to`kilishi, til so`rg`ichlarining atrofiyasi (glossit), puls (tomir urishi) ni siyraklashishi, lab chetlari yorilishi, yuz terisi qurishi va boshqalar. Avitaminoz nerv sistemasida falajlanish va talvasa tutishi bilan xarakterlanadi.

B3 Pantotenat kislotasi. Achitqi va sut achituvchi mikroblarning o`shish sharoitini o`rganish davomida 1933-yili sholi kepagidan topilgan. Ushbu omil hayvon va o`simliklarning barcha to`qimalarida tarqalgani uchun ajratib olingan moddaga pantotenat kislotasi yoki pantoten (yunoncha — hamma yerda degan ma`noni anglatadi) nomi berilgan. Pantotenat yetishmaganda patologik belgilar– jo`jalarning o`shishdan to`xtashi, dermatit, kalamush va boshqa hayvonlar juni hamda patining oqarishi, kalamushlarda buyrak usti bezi nekrozi va qon quyilishi, ishtaxaning yo`qolishi, nerv falajlari, ichki a`zolar kasalliklarining belgilari paydo bo`ladi. Shuning uchun bu modda turli nomlar: antidermatik faktor, jigar filtrati faktori, achitqi faktori va jo`jalardagi pellagra qarshi faktor kabi nomlar bilan atalgan.

Manbai: - achitqi, jigar, tuxum, baliq, sut, go`sht va dukkakli o`simliklar. O`simliklarning yashil yaproqlarida ham pantotenat ko`p. Katta odamlarning kundalik ehtiyoji – 10 mg.

Ishlatilishi: - pantotenat kalsiy, pantatein, KoA turli dori shaklida va parfyumeriyada; asosan teri, soch to`kilishlari, jigar shikastlanganda, yurak distrofiyasida ishlatiladi.

B5 (PP) vitamin (nikotin kislotasi, antipellagrik vitamin). B5 (PP) vitamin kimyoviy tabiati jihatidan piridinring hosilasi bo`lib, nikotin kislotasi va uning amidi hisoblanadi. Nikotin kislotaning amidi pellagra kasalligini davolashda ishlatiladi. Shu boisdan uning nomi pellagra qarshi (pellagra preventing) so`zlarning bosh harflaridan olingan. B5 (PP) vitaminining yetishmasligi

odamlarda og`ir kasallik — pellagrani paydo qiladi. Kasallikka xos belgilar dermatit, diareya (ich ketish) va og`ir hollarda dementsiya (aql pasayishi, nerv va psixik buzilishlar). Bu kasallik 3ta-D kasalligi deb ham yuritiladi. Odam organizmiga oziq-ovqat orqali tushadi.

Manbai: - B5 (PP) vitaminini g`allasimonlarning donida ko`p. Go`sht mahsulotlari, jigar, sut, tuxum, kepakda ko`p miqdorda bo`ladi. Katta odamning kundalik extiyoji – 15-25 mg.

Metabolizmi: - koferment shakllari – NAD va NADFnig hosil bo`lishida qatnashadi.

Yetishmovchiligi: nikotin kislota avitaminozi-pellagra 3ta D kasalligi deb aytiladi. Bunda uning 3ta asosiy simptomlari: dermatit(yuz, burun, qo`llarda), diareya(beto`xtov ich ketishi), dementsiya(aqliy zaiflik) kuzatiladi.

B12 vitamin(ANTIANEMIK VITAMIN). Bu vitaminimizga alohida to`xtalib o`tmasak bo`lmaydi. Chunki hozirgi kunda ko`p uchraydigan kamqonlik ya`ni anemiya kasalligi shu vitaminimizga bog`liq. B12 vitamini kimyoviy tarkibida metal atomi kobalt va u bilan bog`langan (CN) sian guruhi mavjud bo`lganligi uchun uni siankobalamin deyiladi. Uning to`rtta pirrol halqasidan tashkil topgan. Halqalardagi vodorod atomlari ham metal, sirka va propion kislotalarning amidi bilan almashingan.

Manbai: - siankobalamin manbai mikroorganizmlar va hayvon mahsulotlari – jigar, sut, tuxum, buyrak ayniqsa qoramol va jo`janing jigari vitamininga boy. Kundalik extiyoji yosh organizm uchun 0.001 mg; katta odamlarda – 2-5 mg.

Metabolizmi: - kobolaminni organizmda so`rilishi uchun ichki faktor kerak bo`lib (uni Kasl faktori ham deyiladi), quyidagi boqichlardan iborat:

- 1) Vitamin B12 va ichki faktor kompleksini hosil bo`lishi;
- 2) Ca 2+ ioni yordamida oshqozon shilliq qavatini kompleks bilan bog`lanishi;
- 3) Ichki faktor bilan bog`langan vitamin B12 ni shilliq parda endotsitozi orqali transporti;
- 4) Vitaminni qayta erkin holatiga o`tishi.

Vitamin B12 ingichka ichakdan passiv diffuziya orqali ichki faktor ishtirokisiz, so`rilishi ham mumkin, lekin bu jarayon sekin boradi. Tibbiyotda qo`llaniladigan siankobalamin gidroksikobalaminga OH – B12 ga o`tadi. Gidroksikobalamin OH – B12 ikki xil plazma oqsillari yordamida: transkobalamin TK – I va transkobalamin TK – II orqali transport qilinadi. TK – I - alfa globulin fraktsiyasiga kiradi. Molekulyar og`irligi 120 000. TK – II - betta globulinga kiradi. molekulyar og`irligi 35 000. TK – II - asosiy transport oqsili,506 kobolaminni to`qimalarga tashilishini osonlashtiradi. TK – I – kobolaminni qondagi kontsentratsiyasini normallashtirib turadi. Metilkobalamin (metil – B12) va dezoksiadenozilkobalamin (DA- B12) to`qimalarda OH-B12 koferment formasiga o`tadi. Kofermentlar jigar va buyraklarda hosil bo`lib, keyinchalik boshqa organlarga taqsimlanadi. Kobolamin organizmdan siydik orqali chiqib ketadi.

Biokimyoviy funktsiyasi: Vitamin B12 va shu oilaga mansub birikmalarning biokimyoviy qatnashishi ko`pchiligi reaksiyalarda aniqlangan. Metil kobalamin transmetillash reaksiyasida metil guruhining oraliq tashuvchisi funktsiyasini bajaradi. Masalan, metionin sintezi shunday reaksiyalardan hisoblanadi.

Yetishmovchiligi: - avitaminozida Adisson – Birmer anemiyasi nomi bilan ataluvchi hafli kamqonlik (pernitsioz anemiya) namoyon bo`ladi.

Belgilari: - Bu nerv – distrofik kasallik bo`lib, asosan ovqat hazm qilish yo`lining shikastlanishi (oshqozonda xlorid kislotasi miqdorini kamayishi yoki butunlay bo`lmasligi), qon yaratuvchi organlar va nerv sistemasining zararlanishi kuzatiladi, eritrotsitlar soni keskin kamayib, gemogloblin umumiy miqdori pasayadi; qonda qonning yetilmagan shaklli elementlari paydo bo`lib, leykotsitlar hosil bo`lishini susayishi kuzatiladi.

Ishlatilishi: - tibbiyot amaliyotida siankobalamin dezoktsianilkobalamin preparatlari megoblastik anemiyada, orqa miya va periferik nervlar zararlanganda qo`llaniladi.

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak vitaminlar organizmni ajralmas qismi hisoblanadi. Ayniqsa B guruhga kiruvchi vitaminlar bolalarni o`shish va rivojlanishidan tashqari organizmga boshqa moddalarni so`rilishida qatnashadi. Qon hosil bo`lishida ishtirok etadi. Bu vitaminlar dukkakli o`simliklarda, hayvon mahsulotlarida; sut, tuxum, pishloq, buyrak va jigarda ko`p miqdorda bo`ladi. Bu mahsulotlar kundalik ovqat rejimimiz tarkibida albatta bo`lishi kerak. Vitaminlarni yetishmasligi turli hil kasalliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Vitaminlarni asosan tabiiy mahsulotlar, oziq-ovqat mahsulotlaridan qabul qilgan holda hamda kunlik me`yorini saqlash insonlar salomatligi uchun albatta foydali bo`ladi.

Adabiyotlar:

1. Yo.X.To`raqulov “Bioximiya” Toshkent O`zbekiston nashriyoti-1996.
2. M.N.Valixonov “Biokimyo” Toshkent Universitet nashriyoti-2009.
3. N.A.Raxmatov, T.M.Mahmudov „Biokimyo" Ta`lim nashriyoti-2009
4. O.O.Obidov , A.A.Jo`rayeva “Biologik kimyo” Toshkent nashriyoti-2011.
5. P.Mirxamidova, D.Boboxonova “Biologik kimyo va Molekulyar biologiya” Navro`z nashriyoti Toshkent-2018
6. Articles: A complete guide to B vitamins written by Jennifer Berry, on May 28, 2019
7. 8 Surprising Health Benefits of B Vitamins by Jennifer Brown, PhD

ФИО авторов: *Tojiboyev Sherali Imomali o'g'li (FarPI doktoranti), Nosirjonov Shohruh Ilhomjon o'g'li (FarPI assistenti)*

Название публикации: «ТРАКТОРЛАР SOVUTISH TIZIMINING EKSPLUATATSION SINOVLARI TAHLILI»

Kalit so'zlar: Radiator, sovutish tizimi, termostat, ekspluatatsiya sinovlari, suv nasosi, parrak.

Annotatsiya: Qishloq xo'jaligi mashinalarining aksariyati chang va qumli sharoitda ishlashga mo'ljallangan bo'lib, asosan ekspluatatsiya sharoitida sovutish tizimi tashqi atmosfera muhiti ta'sirida dvigatel qizishiga olib kelmoqda. Shu sabablarni tahlil qilish uchun sinovlar ishlab chiqildi va bu orqali traktorlarning sovutish tizimiga ta'sir qiluvchi omillar o'rganildi. Ekspluatatsion sinovlar sovutish tizimining ishonchligining haqiqiy ko'rsatkichlarini baholash imkoni yaratildi.

Ekspluatatsion sharoitda sovutish tizimlarining testlari eng ishonchli hisoblanadi. Oddiy ekspluatatsiya sharoitida sinovlar turli xil qishloq xo'jaligi ishlarini bajarishda turli xil dvigatel yuklari, atrof-muhit harorati va radiatorni sovutish sirtlarining tiqilib qolishi ostida sovutish tizimining haqiqiy ishlashini aniqlashga imkon beradi[1].

Tezkor sinovlarni o'tkazish uchun joylarni tanlash muhim ahamiyatga ega va atrof-muhit harorati asosida amalga oshiriladi. Ekspluatatsion sinovlar iqlim zonasining turli nuqtalarida va har bir nuqtada bir necha namunalarda o'tkaziladi[2].

Ekspluatatsion sinovlarni o'tkazish dasturi va metodikasi traktor va tarkibdagi sovutish tizimlariga tegishli bo'lib, sinovlar doirasini, sinovlar va sinov usullari davomida tekshiriladigan parametrlar ro'yxatini belgilaydi.

Testlarning maqsadi sovutish tizimining konstruktorlik hujjatlari va texnik shartlarga muvofiqligini tekshirish, shu jumladan[1]:

- sovutish tizimining ekspluatatsion ishonchligi va chidamliligini aniqlash;
- ekspluatatsion sifatlarni baholash, ekspluatatsion sharoitlarda tizimni saqlash va ta'mirlash qulayligi;

- tizimning issiqlik xususiyatlarining turg'unligi xizmat muddatiga, radiatorning tashqi va ichki yuzalarining ifloslanish darajasiga qarab aniqlash;
- xavfsizlik, ekologik tozalik talablariga rioya etilishini tekshirish;
- yuqori sifat barqarorligini ta'minlash uchun ishlab chiqarish jarayonini tekshirish.

Sinovlar ob'ekti- bu traktor yoki boshqa mobil mashinaga o'rnatilgan yangi ishlab chiqilgan sovutish tizimi. Sovutish tizimining sinovlari odatda traktorning boshqa tarkibiy qismlari yoki tizimlarining sinovlari bilan bir vaqtda amalga oshiriladi. Tasodifiy namuna olish yo'li bilan kamida 10 dona miqdorda tanlab olingan va ketma-ket texnologiya bo'yicha ishlab chiqarilgan traktorlarning namunalari sinovlardan o'tkaziladi[3].

Hujjatlar sinov uchun taqdim etiladi ya'ni sovutish tizimi masalan dalolatnomasi, shu jumladan, sovutish tizimi to'liq ro'yxati, ekspluatatsiya va texnik qo'llanmasi.

Sinovlar traktor yoki boshqa mashinani sinovdan o'tkazish bo'yicha me'yoriy standartlarga muvofiq amalga oshiriladi. Sovutish tizimini qabul qilish va uni sinashga tayyorlash mashinani sinashga qabul qilish bilan bir vaqtda amalga oshiriladi. Sovutish tizimini birlamchi tekshirishga to'liqligi, hujjatlarning mavjudligi, alohida qismlar va yig'uv birliklarining ko'rinarli zararlanmasligi (mavjudligi)ni tekshirish, tizimni sovutish suvi bilan to'ldirish, bo'g'implarda sovutuvchi oqim mavjudligi va yig'uv sifati kiradi.

Ishga tushgandan keyin traktor oddiy ishlovda (me'yoriy hujjatlarga muvofiq) 1000 dvigatel soati miqdorida sinovdan o'tkaziladi.

Traktordagi sovutish tizimining sinov dasturi:

- kundalik (dvigatelni ishga tushirishdan oldin) sovutish suyuqligi darajasining monitoringi;
- traktor agregatini ishlash vaqtida sovutgich haroratining doimiy monitoringi;
- parrak kamarining holati va tarangligini davriy kuzatish;
- sovutish tizimlari holatini davriy monitoringi: radiatorni o'rnatish, suv nasosi, parrak, ulash uchun shlanglar, bug'-havo klapanlari;

- yozgi ishlash davriga o'tishda termostatning ishlashini tekshirish;
- radiatorning ichki bo'shliqlarini davriy tekshirish;
- yozgi ishlash davriga o'tish davrida sovutish tizimi yuqori haroratda qaynamaydigan suyuqlik bilan to'ldiriladi va agar tizim suv bilan to'ldirilsa, yuqori muhit haroratida tez qaynab ketadi.

Test dasturining maqsadi bo'yicha ko'rsatilgan vazifalarni hal qilish bilan birga, tizimning alohida tarkibiy qismlarining ishonchliligini aniqlashni ko'zda tutadi.

Sovutish tizimining xizmat ko'rsatishi quyidagilarga bog'liq:

- tizimda sovutish darajasini saqlash;
- suyuqlik yo'lining kengaytirish va kompensatsion sxemalarini ishlatish;
- termostatning suyuqlanish haroratiga qarab katta va kichik doiralarda suyuqlikning aylanishini ta'minlash qobiliyati;

Sovutish suyuqligi sathining pasayishi shlanglarning shikastlanishi, radiator, suv nasosi, blok va boshqa komponentlar, radiatorning markazi yoki baklari, bug'-havo vilkasi klapanlari va suyuqlikning keyingi bug'lanishi tufayli sodir bo'ladi. Dvigatelning qizib ketishi suyuqlikning bug'lanishi va sathining pasayishiga ham olib keladi.

Termostat elementlarining nosozligi yoki shikastlanishi radiator orqali suyuqlik aylanishini kamaytirishi yoki to'xtatishi mumkin. Bu nosozlik dvigatelning qizib ketishiga olib kelishi mumkin, ayniqsa yilning yoz davrida. Termostatni nosoz holatda tiklab bo'lmaydi va almashtirishni talab qiladi.

Sovutish tizimi va suv nasosining ishonchliligi haydovchining mahoratiga va ishlashiga bog'liq

Haydovchi vaqti-vaqti bilan kamarlarning shikastlanmasligi, taranglik kuchi va parrakdan avtomatik ravishda o'tmasligi va o'chirilmasligiga tekshiriladi. Parrak kamarlarining tarangligini tekshirish va ularni sozlash sovutish tizimini ta'mirlash qoidalari bilan ta'minlanadi. Kamarning yoki parrakni nosozligi sovutgich harorati oshganda yoki dvigatel qizib ketganda aniqlanadi. Diskli kamarlarning eskirishi yoki yorilishiga sabab shkiylarni o'rnatish (shish, vibratsiya) yoki eskirishi, buzilishi bo'lishi

mumkin. Suv nasosi, generator yoki parrakni almashtirishda haydovchi parrak ishlashiga alohida e'tibor berish kerak.

Sovutish tizimi boshqaruv qurilmalarining nosozligi sovutish suyuqligining harorat rejimini kuzatish va dvigatelning qizib ketish xavfini vizual aniqlash imkonini bermaydi. Boshqarish qurilmalarining ishga yaroqliligi ko'rsatgich va datchiklarning xizmat ko'rsatuvchanligiga bog'liq. Nosozlik sabablari ko'rsatgich va datchiklarning o'zini yo'q qilish, shuningdek simlarning sinishi yoki kuchsiz mahkamlanishi, qo'shimcha qarshilikning sinishi, sensorga ulangan sim massasida qisqa tutashuv va boshqalar bo'lishi mumkin.

Sinovlar yakunida sovutish tizimining yakuniy tekshiruvi qisman yoki to'liq qismlarga ajratish va qismlarning texnik holatini baholash bilan amalga oshiriladi.

Ekspluatatsion sinovlar natijalariga ko'ra sovutish tizimi ishonchliligining haqiqiy ko'rsatkichlarini baholashni aks ettiruvchi bayonnoma tuziladi va sinovlar tahlil qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. А.И.Якубович и другие “Системы охлаждения тракторных и автомобильных двигателей” Конструкция, теория, проектирование. Минск: ИНФРА-М, 2013.
2. Мануйлов Вячеслав Сергеевич “Диагностирование автомобильных радиаторов нагрузкой в эксплуатации” Диссертация. Оренбург-2010
3. Курмашев Геннадий Абдуллович “Улучшение эксплуатационных показателей тракторов и автомобилей путем совершенствования температура-динамических характеристик охлаждающих жидкости” Диссертация Санкт-Петербург 2000.

ФИО авторов: *G.Abduqodirov*

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universitetining “Professional ta’limi metodikasi” kafedrası katta o’qituvchisi

S.A.Boltaboev

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universitetining “Professional ta’limi metodikasi” kafedrası dotsenti

D.A.Qodirov

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universitetining “Professional ta’limi metodikasi” kafedrası o’qituvchisi

Название публикации: «UZLUKSIZ TA’LIMDA TEXNOLOGIK TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA IZCHILLIK VA UZVIYLIK TAMOYILLARI»

ANNOTATSIYA

Uzluksiz ta’limda fan va ishlab chiqarish davlat va jamiyat bilan o’zaro mavjud bog’liq tomonlari yoritib berilgan. Kadrlar tayyorlash dasturi bo’yicha ishlab chiqarish kadrlarga bo’lgan ehtiyojni, uning sifatiga talablarni belgilovchi buyurtmachilar bilan amalga oshirilayotgan ishlar. Ta’lim va tarbiya jamiyat taraqqiyotini ta’minlovchi muhim tamoyillari.

АННОТАЦИЯ

Непрерывное образование подчеркивает взаимосвязь между наукой и производством, государством и обществом. Производство по программе обучения - это работа, проводимая с заказчиками, определяющая потребность в персонале, требования к его качеству. Образование и воспитание - важные принципы развития общества.

ANNOTATION

Continuing education highlights the interrelationships between science and industry and the state and society. Production under the training program is carried out with customers, who determine the demand for personnel, the requirements for its quality. Education and upbringing are important principles for the development of society.

Uzluksiz ta’limda fan va ishlab chiqarish davlat va jamiyat bilan o’zaro bog’liq. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi bo’yicha zamonaviy ishlab chiqarish, kadrlarga bo’lgan ehtiyojni, uning sifat, talablarini belgilovchi buyurtmachidir. Ta’lim va tarbiya jamiyat taraqqiyotini ta’minlovchi muhim omildir. Chunki, ta’lim tizimi jamiyat

taraqqiyotining muayyan bosqichidagi ijtimoiy buyurtmasini bajarishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Ta’lim tarbiya sohasiga milliy didaktik nuqtai nazardan yondashib, uni quyidagicha, «Ta’lim O‘zbekiston xalqi ma’naviyatiga yaratuvchilik faoliyatini baxsh etadi. O‘zib kelayotgan avlodning barcha yaxshi imkoniyatlari unda namoyon bo‘ladi, kasb-kori, mahorati uzluksiz takomillashadi, katta avlodlarning dono tajribasi anglab olinadi »-deb ta’riflash mumkin:.

Ta’lim mazmunini tashkil etish ilmiylik, faollik, tushunarlilik, ta’lim va tarbiyaning birligi, ko‘rgazmalilik va muntazamlilik, uzviylik, izchillik kabi didaktik tamoyillarlar asosida amalga oshiriladi. Ana shu tamoyillarlardan biri ta’lim tizimida uzviylik bo‘lib, u texnologik ta’limini tashkil etishda etakchi tamoyillarlardan hisoblanadi. Texnologik ta’limda uzviylik tamoyillari o‘tilgan o‘quv materiali bilan kelgusida o‘tiladigan o‘quv materiali o‘rtasidagi mantiqiy bog‘lanishni taqozo etadi. Bu tamoyillarning mohiyatiga ko‘ra o‘tilgan o‘quv materiali yangi o‘tilishi kerak bo‘lgan o‘quv materiali uchun asos yaratadi. Bunda texnologik ta’lim tizimining bosqichlari va kurslarida bilimlar mantiqiy jihatdan bir-birini to‘ldirib borishi, o‘quv predmetlari mazmuni uzviylik va uzluksizlikni ta’minlashga qaratilishi, o‘quv materiallarining bayonida ma’lum ketma-ketlik, yaxlit tizim bo‘lishi hamda mavzularning bir-biriga mantiqan bog‘liqligi, ularning ketma-ketligi ta’lim mavzularining yuqori bosqichlarda chuqurlashtirilgan, kengaytirilgan holda berilishi hisobga olinadi.

Uzluksiz ta’lim tizimida uzviylashgan fan dasturlarining mavjud bo‘lishi va uni o‘quv jarayoniga joriy qilinganligi katta ahamiyatga ega.

Demak, uzluksiz ta’lim tizimida metodik ta’minotni: Davlat ta’lim standartlari, o‘quv rejalari va o‘quv dasturlarining ahamiyati, ta’lim sifatini oshirishda, uzluksiz ta’limni takomillashtirishda uzviylashgan dasturlarning yaratilishi va izchillik bilan amaliyotga tatbiq etilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Texnologik ta’lim samaradorligini oshirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri ta’lim turlari uzluksizligini takomillashtirish va fanlararo uzviylikni ta’minlashdir. Oliy ta’lim bosqichlari o‘rtasidagi uzviylikning ta’minlanishi – ta’limning keyingi bosqichi mazmuni avvalgi bosqichdagi mazmuni bevosita davom ettiribgina qolmay, balki

mazmun jihatdan uzviy bog‘langan tarzda, ayrim fanlarni kengaytirilgan va chuqurlashtirilgan holda takomillashtirishi va boyitishida hamda fanlararo uzviylikning ta‘minlanishi asosida noo‘rin takrorlanishlarga chek qo‘yishida o‘z ifodasini topadi.

Oliy ta‘lim tizimida mehnat bozorida o‘z o‘rnini topadigan yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini ko‘p jihatdan umumkasbiy va maxsus fanlarni yuqori darajada o‘qitish belgilaydi.

Umumkasbiy fanlar fundamental fanlar hisoblanib, umumta‘lim fanlar negizida o‘qitiladi va maxsus fanlar yo‘nalishidagi bilimlarni kengaytiradi, chuqurlashtiradi hamda shu maxsus fanni o‘rgatish uchun asos yaratadi. Maxsus fanlarni o‘qitish amaliy bilim kuchli va ishlab chiqarishga bogliq bilimlar bilan boglangan bo‘lganligi, o‘zlashtirilgan nazariy-amaliy bilimlari asosida ishlab chiqarish muammolarini hal qilishga yo‘nalganligi sababli o‘ziga xoslikni namoyon etib, o‘quv maqsadlarini belgilashda ham o‘ziga xoslikni talab etadi.

Talabalarni kasb-hunarga yo‘naltirishda maxsus fanlar butunligicha (mazmuni va bilimi darajasi bo‘yicha) shu kasb xususiyatiga mos tushishi, faoliyat turlari to‘liq yoritilishi kerak.

Fan dasturlaridagi mavzularning mazmuni va tuzilishi o‘quv materiallarining mantiqiy ketma-ket qo‘yilishini, o‘qitish metodlarini, didaktik qo‘llanmalar xarakterini belgilaydi. O‘qitish metodlari uning elementlari va ular orasidagi bogliqliklarni o‘rganishda unga tizimli yondashish zarurligini ham e‘tiborga olish maqsadga muvofiqdir.

Oliy ta‘lim tizimida umumkasbiy va maxsus fanlarni o‘qitishda uzviylikni ta‘minlashga quyidagi tamoyillarni qo‘llash maqsadga muvofiqdir:

1. Maqsadga yo‘naltirish tamoyillari;
2. Ta‘lim va tarbiyaning birligi tamoyillari;
3. O‘zaro aloqadorlik tamoyillari;
4. Mukammallik tamoyillari;
5. Izchillik tamoyillari.

Bu tamoyillarlar metodik tizim komponentlarini amalga oshirishda yuzaga keladi va uzviylikni tizimli amalga oshirishda asosiy qurol bo'lib xizmat qiladi.

Oliy ta'lim tizimida uzviylik tamoyillari avvalgi o'tilgan o'quv materiali bilan kelgusida o'tiladigan o'quv materiali o'rtasidagi mantiqiy bog'lanishni taqozo etib, ta'lim maqsadi, mazmuni, ta'lim metodi va vositalarini aniqlashda hamda talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishda katta ahamiyat kasb etadi.

Oliy ta'lim tizimida umumkasbiy va maxsus o'quv fan dasturlarini uzviylashtirishni ilmiy-uslubiy va amaliy ahamiyati shundan iboratki, jamiyatdagi demokratik o'zgarishlar, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy-iqtisodiy islohotlar va ularning natijalarini inobatga olgan holda uzviylashgan o'quv fan dasturlari yaratiladi. Ta'lim tizimida uzviylashgan fan dasturlarining qo'llanilishi avvalambor noo'rin takrorlanishlarga barham beradi, talabalarga beriladigan bilim, ko'nikma va malakalarni tizimlashtirilib, ularning bilimlaridagi bo'shliqlarni to'ldirishda hamda ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Uzluksiz ta'lim tizimida texnologik ta'limi o'qituvchilarining kasb egallash va kasbiy qobiliyatlarini takomillashtirish imkoniyatlarini yanada oshirishda ta'limning uzluksizligini barqarorlashtirish, umumta'lim va kasbiy tayyorgarligini doimo yangilab hamda chuqurlashtirib turish, mazkur ta'lim jarayonida uzviy ketma-ketlikka erishish, ularning kasbiy mahoratini pedagogik va axborot texnologiyalar asosida oshirib borish kabilar asosiy omil bo'ladi, deb hisoblaymiz.

Ana shunday muhim ishlarni amalga oshirishda texnologik ta'lim tizimida uzluksizlik va uzviylikni yanada takomillashuviga xizmat qiluvchi yangi uslubiy shakl, vosita va tajribalarni kengroq jalb qilish maqsadga muvofiqdir.

Foydalangan adabiyotlar:

1) SH.M.Mirziyoev 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909 sonli qarorlarida oliy ta'lim tizimini rivojlantirish to'g'risida so'z yuritilgan.

- 2) SH.M.Mirziyoev. “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoev Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma‘ruzasi”. 2016 10 dekabr.
- 3) Mirziyoev, SHavkat Miromonovich «Tanqidiy tahlil, kat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik» Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma‘ruza, 2017 yil 14 yanvar. - Toshkent: «O‘zbekiston», 2017. - 104 b.
- 4) Muslimov N. va b. T. Mehnat ta’limi o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. –T.: 2009. 427 b
- 5) Tolipov O‘.K., M. Usmonboeva. Pedagogik texnologiyalarning nazariy va amaliy asoslari - T., 2006.

ФИО авторов: *Asliddin Akbarov*

Semerkant Devlet Tıp Enstitüsü

3 sınıf öğrencisi

Har yili 1-sentyabr yurtimizning barcha viloyatlarida, xiyobonlaru – bog'larda katta tantana bilan nishonlanadi. “O'zing mening ulug'lardan ulug'imsan, Vatanim!”-deganda shoir haq so'zni aytgan: odam farzandi uchun vatan bamisoli onaday, bamisoli otaday, bu yorug' olamda bitta, yagona. Vatan borki, biz bormiz. Ona bor mehrini farzandiga ataganiday, Vatan boshida kulgan quyosh kabi bizni o'z harorati og'ushida erkalaydi. Uning bag'rida kulgan bahor - bizning bahorimiz, Vatan erishgan zafar - bizning ko'chamizda bayramlarni boshlaydi. Uning olamda qozongan obro'-e'tibori, mavqedan har birimizning chehramizda nur, ko'zimizda chaqmoq. U bor ekan, boshimiz tog'larday sarbaland, qaddimiz qoyalarday tik. Ona-O'zbekistonimiz biz uchun shunday tengsiz, yagona, e'zozli ma'vo, tanho Vatan, bebaho qadriyat.

Vatanga sadoqat, ona-yurtga muhabbat hissi kishi qalbidagi eng bebaho tuyg'udir. Shoirlar ona-Vatanga sadoqat mavzusini otashin misralarda madh etsa, iste'dodli hofizlar buni dilbar navo, soxir ovoz ila kuylaydi. Shunisi ham borki, Vatan haqida so'z aytmoq, ona-yurtga muhabbatni tarannum etmoq oson yumush emas. Buning o'ziga yarasha mas'uliyati, yuki bor. Betakror san'at asarlari, yosh avlod qalbida o'zi tug'ilib-o'sgan makonini ulug'lash va uni ko'z qorachig'idek asrashga intilish, his-tuyg'usini shakllantirishga xizmat qiladi. Vatan! Bu muqaddas so'z zamirida qanchalik ilohiy kuch-qudrat, ma'no, beqiyos da'vat mujassam ekanligini hech kim, hech qachon to'la ifoda etolmasa kerak. Biz kindik qonimiz to'kilgan Vatan, ona tuproq bilan faxrlanamiz, e'zozlaymiz. Uning nomini eshitgan zahoti qalbimiz to'lqinlanadi, bir olam g'ururga to'ladi. Vatan yagonadir, vatan bittadir. Dunyoda o'zbekman degan har bir insonning asl vatani shu aziz tuproqdir. Bu muqaddas zaminda ulug' bobokalonlarimiz hoki yotibdi. Dinimizda iymon, qalblarda «Vatanni sevmqlik — iymondandir» degan hikmat muhrlanib qolgan. Vatanni quruq madh etish boshqa-yu, vatan tuyg'usini qalbdan his etish boshqa. Uning muqaddasligi ana shu holda namoyon bo'ladi. Vatan yurakdadir. Inson uchun yurak nechog'li zarur va aziz bo'lsa, vatan undan-da zarur va azizroqdir. Azizlar aytmishlarki, “Tuprog'iga keldik, tuprog'iga keturmiz”. Binobarin, ozod va obod vatanda pok odamlar yashashi kishilik jamiyatining azaliy orzusi, aql va idrokning, qalbning eng totli, mo'jizaviy tantanasidir. Bu tantana yuz bersa, shaksiz, vatanga oliy maqom va benazir xoslik bag'ishlaydi. Uni yer yuzidagi mayoqda aylantiradi. Illo, yurtboshimiz

bizdan ana shu yo'ldan yurishimizni, sobit va qat'iy qadam tashlashimizni istaydi. Bu yo'l baxtli istiqbol, komil insonlar qo'nim topadigan, hech kimdan kam qilmaydigan, vatanimiz mazmunini yuksaltiradigan fikratdir. Mamlakatimiz Konstitutsiyasida O'zbekiston fuqarolari o'zlarining nasl-nasabi, irqi, millati va boshqa holatlaridan qat'iy nazar teng huquqqa egadirlar deb yozib qo'yilgan. Azizlar, ozod va obod O'zbekistonni sevmalik, sog'inmaslik, qadrlamaslik, unga mehr qo'ymaslik, u bilan faxrlanmaslik, zarur bo'lsa, uning sha'nini himoya qilmaslik mumkin emas. Vatan hamisha bizga kuch va harorat bag'ishlab turadi. U ona kabi muqaddasdir. O'zbekiston zamini, ona tuprog'imiz har birimiz uchun aziz va muqaddas! Mustaqillik hayotimizga ko'plab yangiliklar olib kelmoqda. G'olibona bosib o'tilgan 30 yillik yo'lga nazar salsak, bu o'zgarishlar yaqqol ko'zga tashlanadi. Milliy istiqbol sharofati tufayli o'zligini tanib, qadr-qimmatini topib, qad rostlayotgan, o'ziga xos taraqqiyot va yuksalish yo'llarini belgilab, istiqbolning ko'z ilg'amas yorqin ufqlari sari muzaffar odimlar tashlab borayotgan O'zbekistonimizning jahon uzra e'zozu e'tibor, shonu shuhratga sazovor bo'lib, qanchalab xorijiy ellar, davlatlar bilan turli-tuman aloqalarda, hamkoru hamjihatliklarda bo'lib kelayotganligi, teran, baquvvat ildizlari asrlar qa'riga borib tutashuvchi asl milliy qadriyatlarimiz, sharqona urf-odatlarimiz, ajoyib-g'aroyib an'analarimiz, go'zal udumlarimiz, dinu iymonimiz, e'tiqodu e'timodimiz, qayta tiklanganligi, hayotda o'z o'rnini topayotganligi hamda xalqimizning bebaho ma'naviy mulkiga aylanib borayotganligi – bular bugun kechayotgan dorilamon davrimizning betakror, beqiyos xarakterli belgilaridandir. Istiqbol-o'zaro hurmat, bir-birini tan olish, bir-birini qadrlash asosida mamlakat fuqarolarining o'zaro munosabatida ham, jahon davlatlari o'rtasidagi aloqalarda ham ana shu umuminsoniy qadriyatlarga tayanish, ana shu umumiy mezonlar asosida yashash demakdir. Mana 30 yildirki, ona yurtimiz bag'rida mazmuni va ko'lami asrlarga qiyos qilgulik ulug'vor, hayratomuz o'zgarishlar, salmoqli ijtimoiy siljishlar yuz bermoqda, xalqimizning turmush tarzi, ma'naviy qiyofasi boyib, sifat jihatidan o'zgarib, kamalak ranglaridek yangi jilolar kashf etib bormoqda. Bu esa, shubhasiz, baxtiyor zamondoshlarimizning olg'a tomon harakatlarida, intilishlarida, ularning yuksak ezgu maqsadlar sari xayrli izlanishlarida o'z ijobiy samarasini namoyon etmoqda. Milliy istiqbol bamisoli sehrli mo'jiza yanglig' berkilib qolgan buloqlar ko'zini ochib, ming-minglab tashna lablarga obi hayot ato etganidek, yurtimiz odamlarining ham yuzlariga quvonch, ko'zlariga ziyo bag'ishlab, emin-erkin qilib, ularning ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida javlon urishlari, o'z iste'dodu iqtidorlarini, ijodkorliklarini to'la-to'kis namoyon etishlari uchun keng ufqlar ochib berdi. Mustaqillik yillarida Respublikamizning barcha joylarida shahar va qishloqlarida, turli sohalarda ancha ishlar qilindi. Har jihatdan o'zini angelayotgan millat ulug' bunyodkorliklar qilishga kirishib ketdi. O'tgan 30 yil ichida O'zbekiston tanib bo'lmas darajada o'zgardi. Nafaqat ko'chalar va xiyobonlar, bu davrda jamiyat va odamlar ham o'zgarib, yurtdoshdarimiz erkin fikrlay boshladilar. Har kimning o'z vazifasiga nisbatan mas'uliyati ham ortdi. Shu bilan birga yoshlarda Vatanga sadoqat hissi kuchaydi. Inson uchun ozodlikdan qadrlı ne'mat

yo'q. Dunyodagi jamiki bunyodkorlik va yaratuvchanlikning asosi – ozodlikdir. Tarixan qisqa bir davrda, avvalo el-yurtimizning xohish-irodasi, kuch-qudrati, mashaqqatli va bunyodkorona mehnati evaziga jahon xaritasida yangi, o'z kuchi va salohiyatiga tayangan, bugun taraqqiyot yo'lidan barqaror sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan mustaqil, suveren O'zbekiston davlatining paydo bo'lishi, hech shubhasiz, xalqimizning tarixiy g'alabasidir.

ФИО автора: *Shukurova Laziza Shokir qizi*

JDPI magistranti

Название публикации: «BOSHLANG'ICH O'QUVCHILARIGA BERILADIGAN MATNLARGA QO'YILADIGAN TALABLAR»

Annotatsiya: mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga beriladigan matnlar va matnlarga qo'yiladigan talablar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Аннотация: В статье представлена информация о текстах и требованиях для учеников начальной школы.

Annotation: This article provides information on the texts and requirements for elementary school students.

Kalit so'zlar: matn, teks, yozma axborot, talab, personaj, yosh xususiyat, matn hajmi.

Ключевые слова: текст, письменная информация, требование, символ, возраст, размер текста.

Key words: text, written information, requirement, symbol, age, text size.

Har bir jamiyatning taraqqiyoti va istiqboli ta'lim tizimining jadal rivojlanishi, ijtimoiy hayot, ishlab chiqarish bilan o'zaro muvofiq kelishishi, jahon ta'limining eng yuqori natijalariga tenglasha olishi, davr talablariga javob berishi va mavjud subyektiv ehtiyojlarni qay darajada qondira olishiga bevosita bog'liq.⁵⁰ Ta'lim tizimida ro'y berayotgan tub o'zgarishlar, o'qitish mazmunining tobora yangi g'oya va qarashlar bilan boyib borayotganligi, yosh avlodning intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qiluvchi yangi texnologiyalarning yaratilayotganligi ham bunga yaqqol misoldir. Bunday islohotlar albatta boshlang'ich ta'limdan boshlanishi tabiiydir.

Boshlang'ich sinflarda asosiy ish turlaridan biri bu matn ustida ishlashdir. "Matn" so'zi ko'pgina adabiyotlarda "tekst" tarzida keltirilgan. "Tekst" lotincha "texsus" so'zidan olingan bo'lib, "to'qima" dagan ma'noni bildiradi.⁵¹

Matn-lingvistik tadqiqotning eng murakkab obyektlaridan biri hisoblanadi. Mazkur tushunchani ta'riflashda barcha matnlar uchun xos bo'lgan belgilardan kelib chiqish lozim. Bunday belgilarga quyidagilar kiradi:

⁵⁰ Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Toshkent -2019.

⁵¹ Sharafjon Sariyev. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida matn ustida ishlash orqali nutq o'stirish. Yurist-media markazi nashriyoti. Toshkent-2010, 33-bet.

- 8) matn-yozma shakldagi axborot;
- 9) matn mazmun jihatidan o'ziga xos tugallikka ega;
- 10) matn o'quvchida muayyan munosabatni uyg'otadi.

Boshlang'ich sinflarda o'qish darslarining asosiy bosqichi o'quvchilarni matnni tushunib, to'g'ri, ongli, ifodali o'qishga, idrok qilishga va o'qiganlari yuzasidan o'z munosabatini bildirishga tayyorlashdan iborat. Bunday natijalarga erishish uchun boshlang'ich sinf o'quvchilariga berilgan matnlar bir necha talablar va shartlarga mos bo'lishi lozim.

Yuqoridagi jihatlardan kelib chiqib boshlang'ich sinf o'quvchilariga beriladigan matnlarga qo'yiladigan talablar sifatida quyidagilarni sanashimiz mumkin:

- 1) matnning mazmuni boshlang'ich sinf o'quvchisining yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tanlanishi;
- 2) matnda foydalanilgan so'zlar va ularning ma'nolari bolalarga tushunarli bo'lishi;
- 3) matndagi personajlar o'quvchi ongida yaxshi taassurotlar qoldirishi;
- 4) matn bolalar psixologiyasidan kelib chiqib tanlanishi;
- 5) matnda boshlang'ich sinf o'quvchilarining yoshlariga mos bo'lgan suratlar, maqollar, ibratli so'zlardan foydalanishlik;
- 6) tanlanayotgan matn ham milliy mintalitetga mos bo'lishi, ham dunyoviy bilimlarni o'zida mujassamlashtirgan bo'lishi lozim;
- 7) matndagi voqealar ketma-ketligi o'quvchilar hayotiga yaqin voqealardan tanlanishi;
- 8) matn hajmi boshlang'ich sinf o'quvchilariga mos bo'lishi.

Matnning mazmuni boshlang'ich sinf o'quvchisining yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tanlanishi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga beriladigan matnlarning mazmuni bolajonlar yoshiga, fikrlashiga mos bo'lishi kerak. Shundagina o'quvchi matnni yaxshi tushunadi va matn ustida erkin ishlay oladi.

Matnda foydalanilgan so'zlar va ularning ma'nolari bolalarga tushunarli bo'lishi. Yosh bolalarga matn tanlash, ularga mos matn, ertak, hikoya, she'rlar yaratish juda mas'uliyatli jarayondir. Bu jarayonda har bir so'zga alohida e'tibor qaratish lozim. Ya'ni so'zlar o'quvchiga tushunarli bo'lishi, ozi ishlatadigan so'zlar yoxud shunga yaqin so'z bo'lishi lozim. Ma'nosi qiyin so'zlardan foydalanilgan jarayonda o'sha so'zning ma'nosi izohlanishi kerak bo'ladi.

Matndagi personajlar o'quvchi ongida yaxshi taassurotlar qoldirishi. Matndagi voqea-hodisalar, unda qatnashayotgan qahramonlar o'quvchi ongida yaxshi taassurot qoldirishi kerak. Chunki yosh bolalar ertak, hikoyalardagi qahramonlarga o'xshagisi

keladi, ulardan o'rnak oladi. Salbiy qahramonlar ular ongida albatta salbiy fikrlar bilan qoladi.

Matn bolalar psixologiyasidan kelib chiqib tanlanishi. Matnlarni o'quvchilar psixologiyasidan kelib chiqib tanlash yoki yaratish maqsadga muvofiqdir. Matndagi voqealar o'quvchi hayotiga yaqin bo'lishi, qahramonlar bolaga o'xshashi mumkin.

Matnda boshlang'ich sinf o'quvchilarining yoshlariga mos bo'lgan suratlar, maqollar, ibratli so'zlardan foydalanishlik. Matnda boshlang'ich sinf o'quvchilariga mos bolgan suratlar, maqollar, ibratli so'zlardan foydalanishlik yaxshi samara beradi. Rasmlar orqali boladi atrof muhit haqidagi tasavvurlari rivojlanisa, ibratli so'zlar, maqollar orqali xulosa chiqarish ko'nikmalari yanada , rivojlanib boradi. Masalan, mehnat -mehnatning tagi rohat, ona bilan bola, gul bilan lola.

Tanlanayotgan matn ham milliy mintalitetga mos bo'lishi, ham dunyoviy bilimlarni o'zida mujassamlashtirgan bo'lishi lozim. Biz bo'shlang'ich sinf o'quvchilariga matn berish jarayonida tanlangan matnning milliyligimizga mos kelishiga ham ahamiyat berishimiz kerak. O'z milliy qadriyatlarimiz, ananalarimiz asosida boyitilgan matnlar o'quvchilada vatanga bo'lgan sadoqat, oilaga bo'lgan muhabbat yanada shakllanib, rivojlanadi. Matnda dunyoviy bilimlarning mujassam bo'lishi o'z navbatida bolada turli yo'nalishlardan tushuncha va tasavvurlarga ega bo'lishiga olib keladi.

Matndagi voqealar ketma-ketligi o'quvchilar hayotiga yaqin voqealardan tanlanishi. Matndagi voqea hamda hodisalar uzviyligi o'quvchi hayotiga yaqin bo'lgan voqeyliklardan tanlansa, boshlang'ich sinf o'quvchisining qiziqishi yanada shu matnga nisbatan kuchliroq bo'ladi. Shunga o'xshash voqea menda ham sodir bo'lgan edi, demak men o'sha payt to'g'ri yo'l tutibman yoki noto'g'ri yo'l tutibman, kabi xulosalarga keladi.

Matn hajmi boshlang'ich sinf o'quvchilariga mos bo'lishi. Bu talab eng muhim talablardan biridir. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchisiga o'zining yoshiga mos bo'lmagan matnlarni o'qish ham psixologik ham fiziologik jihatdan og'irlik qiladi. Bolada charchoq alomatlari kuzatilishi mumkin. Shuning uchun ham matn hajmi o'quvchining yoshiga mos bo'lishi kerak.

Demak, boshlang'ich sinf o'quvchilariga matn tanlash va berish jarayonida yuqorida sanab o'tilgan bir nechta talablarga rioya qilish o'quvchilarda matnga , o'qish faniga nisbatan qiziqishini ortishiga, ko'proq bilimlar egallashga, o'z fikrini erkin bayon qilishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Sharafjon Sariyev. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida matn ustida ishlash orqali nutq o'stirish. Yurist-media markazi nashriyoti. Toshkent-2010, 33-bet.
2. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Toshkent -2019.
- 3.X.A. To'raqulov, B.S.Abdullayeva, I.X.To'raqulova. Boshlang'ich ta'lim metodologiyasi. Toshkent- 2020.
4. www.ziyonet.uz

ФИО автора: *Nilufar Aliyeva Qo'chqar qizi*

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti Harbiy jurnalistika yo'nalishi talabasi

Название публикации: «JURNALISTIK FAOLIYAT ERKINLIGI»

Annotatsiya: Jurnalistika “to‘rtinchi hokimiyat” sifatida har doim erkin fikr aytiladigan maydon sifatida tushinilgani bilan uning faoliyatini tartibga soluvchi me‘yorlar ham mavjudligini hisobga olish zarur. Davlat boshqaruvi va huquq tizimiga asoslangan holda faoliyat olib borish kerak.

Kalit so‘zlar: Jurnalistika, erkinlik, to'rtinchi hokimiyat, OAV, avtoritar, senzura, auditoriya.

Reja:

1. Jurnalistikada erkinlik tushunchasi
2. Jurnalistikada iqtisodiy shart-sharoitlar va OAV erkinligi omillari
3. Jurnalistika erkinligining yuridik jihatlari

Matbuot erkinligi muammosi matbuot paydo bo‘lgan paytlardan boshlaboq yuzaga keladi. Jurnalist o‘z faoliyati turini tanlar, muayyan g‘oyaviy-ijodiy yo‘nalishdagi asar yohud dastur yaratar ekan, erkinlik muammosiga albatta duch keladi. Bu murakkab narsa. Murakkabligi shundaki, erkinlik deganda jurnalistga nima xohlasa va qanday xohlasa shuni qilishday tuyuladi. Holbuki, bunda bir qancha to‘siqlar, huquqiy, ahloqiy, jismoniy chek-chegaralar, cheklashlar borligini nazarda tutmoq lozim. Bundan tashqari, jurnalist niyati, xohishi bilan amaldagi ijro-asar sifati o‘rtasida muayyan farq, tafovut bo‘lishi mumkinligini ham hisobga olmoq kerak.

Jurnalistika turli xil siyosiy va davlat nazoratidan ozod bo‘lishi kerak. Har qanday qaramlik OAV erkinligini yo‘qotishga, nazorat esa ularning ma‘lum bir g‘oya targ‘ibotchisiga aylanishiga olib keladi.

Jurnalist shu o‘rinda o‘z mahoratini ham namoyon qila olishni bilishi kerak.

Axborotni uzatishdan avval o‘quvchisining qabul qilishini ham inobatga olishi kerak.

Mana shu vaziyatda esa uning jurnalistik mahorati namoyon bo‘ladi. Jurnalistning bunda hech qanday erkinligiga putur yetmaydi. Faqatgina u axborotning qay usulda berilishi, qaysi intervyuning qolishi, voqeaning qaysi qismi yirik planda yoritilishi umuman barcha qismlarini auditoriyaning qabul qilishi bilan hisoblashgan holda yoritishi va uzatishi bunda esa jurnalistik odob-axloq va ommaning fikrini inobatga olishi lozim.

Qanday erkinlik haqida so‘z ketishi muhim? Albatta, bunda yuridik kafolat, erkinlikning huquqiy jihatdan ta‘minlanishi, muayyan siyosiy kuchlar tomonidan ta‘qib, tazyiqlardan himoya qilish muhim. Garchand shuning o‘zi yetarli emas. Iqtisodiy erkinlik, ya‘ni yuridik huquqlarni amalga oshirish uchun texnikaviy vositalar, moddiy-moliyaviy imkoniyatlar ham kam ahamiyatga ega emas. Bularning o‘zi ham chinakam erkinlikka to‘liq kafolat bo‘la olmaydi. Jurnalistika uni tushunishni istaydigan va keng media muhitini ishlab chiqarishni xohlaganlar uchun mo‘ljallangan.” Xullas, har bir konkret holda, iqtisodiy, huquqiy yohud ijtimoiy-ijodiy erkinlik haqida gap borishini farqlamaslik-anglashilmovchilik, xatolik, o‘zboshimchalikka olib kelishi mumkin.

Har qanday sohada erkin faoliyatning asosini-mustaqil qaror qabul qilish imkoniyati, ish-harakat yo‘nalishi va usullarini tanlashda majburiylikning yo‘qligi tashkil etadi. Busiz hech qanday erkinlik haqida so‘z bo‘lishi mumkin emas. Qul, mute odam erkin bo‘lolmaydi. Aniqrog‘i, qul xo‘jasiga mute bog‘liq bo‘lmagan, mustaqil ish yuritishga imkoniyat tug‘ilgan paytdagina erkindir. Odamlar erkinligidagi cheklashlar, masalan, oila qurgandan keyin paydo bo‘ladi va cheklashlar ixtiyoriy sur‘atda tanlanadi.

Inson o‘z amaliyotida (jurnalist ham) shunday tabiiy to‘siqlarga duch keladiki, ularga barham berish, yengib o‘tishga qodir emas. Bu, eng avvalo tabiat va jamiyat qonunlari, odamning, odamzodning yer yuzida istiqomat qilishi bilan bog‘liq

fizikaviy, ijtimoiy-tarixiy, umumpsixologik va boshqa yashash tarzlaridir. Inson irodasi bilan yaratilgan to‘siqlar ham borki, bular qonun yo‘li bilan cheklashlar, siyosiy qarorlar, iqtisodiy tartib-qoidalar va h.k. Jurnalist o‘z faoliyatida bularni inobatga olishi, rioya qilishi majbur. Yana shaxsiy g‘ov-to‘siqlar ham bor-bilim, malaka, tajriba, qobiliyat kamligi, aqliy, jismoniy, ruhiy, ahloqiy, estetik sifaalandlik ham bo‘lmaydi va h.k.)

Jurnalist bilimi, saviyasi, tafakkur, tasavvur doirasi, tabiat, jamiyat qonuniyatlaridan nechog‘lik xabardorligi-uning erkinligida, ijodiy imkoniyatida muhim rol o‘ynaydi. “Madaniyat erkinligi”, “erkinlik madaniyati” bilan hisoblashishi lozim, deydi jurnalistika nazariyotchisi YE.Proxorov.

Jurnalistlar, ommaviy axborot vositalari jamoalari o‘z faoliyatida ijtimoiy-ijodiy erkinlik uchun muttasil kurash olib borishlari bejiz emas. Hayot, sharoit o‘zgarib turadi va doimiy suratda erkinlik “kim uchun?”, “nima uchun?”, “nimaga?”, “kimdan?”, “nimadan?” degan savollarga konkret holatdan kelib chiqib, javob berishga to‘g‘ri keladi. “Amaliy terminlar bilan aytganda, intiluvchan jurnalistlar xolislik qonuning o‘zgaruvchan parametrlari to‘g‘risida, sud zaliga hurmatsizlik bilan qaraydigan va bo‘xtonlar to‘g‘risida bahs yuritadilar. Aslini olganda hech qanday muharrir qo‘l ostida jurnalistikaning qonunga oid aspektlari borasida zamonaviy bilimga ega bo‘lmagan jurnalist ishlashini xohlamagan bo‘lar edi.” Bunda jurnalistni o‘z-o‘zini doimiy nazorat qilib turishi, e’tiroz, tanqidlarga e’tibor bilan qarshi o‘ta muhim “Erkin o‘ylash”, “erkin fikrlash”da tabiat va jamiyat taraqqiyoti qonunlaridan chuqur xabardor bo‘lish, muttasil amal qilish jurnalist ijtimoiy-ijodiy erkinligi asosini tashkil etadi.

2.Jurnalistikada iqtisodiy shart-sharoitlar va OAV erkinligi omillari

Jurnalistika erkinligining ijtimoiy-ijodiy muammolarini hal etishda iqtisodiy (moliyaviy, texnikaviy va h.k.) hamda huquqiy omillar muhim ahamiyatga loyiqdir.

Ijtimoiy-ijodiy erkinlikka erishish uchun iqtisodiy imkoniyatlar, shart-sharoitlar kerakligi o‘z-o‘zidan ayondir. Masalan, gazeta yoki jurnal chiqarish, tele-radiostansiya yaratish, axborot agentligini yo‘lga qo‘yish uchun eng avvalo moddiy baza: bino, jihoz, aloqa kanallari, xodimlarga maosh va h.k.lar zarur. OAV muassisi dastavval moddiy ta‘minotni o‘ylashi, o‘z mablag‘ini ishlatishi yohud qarz (kredit) olishi yoki sponsor (muqavviy) topishi kerak bo‘ladi. Maqsad shunga yo‘naltirishi kerakki, oxir-oqibat daromad harajatni qoplashi, foyda keltirishi lozim. “Agar jurnalistika ta‘limi o‘z muttaxassislik ishini bajarishga qodir bo‘lsa va jurnalistlarning keyingi avlodini ijtimoiylashtirsa, u yangiliklar axboroti sanoatidan rag‘batlantirilishi kerak va shu axborot vositalari o‘z amaliyotidan tashqaridagi odatda, iste‘molchi va aholidan iborat bo‘lgan taqlidchilarning muzokalaridan xabardor bo‘lishlari lozimdir.” OAVda daromad manbalari bir qancha (gazeta va jurnallarni sotish, abonement haqi, obuna, reklama, va h.k.) OAV davlat muassasalari tomonidan tashkil etilgan bo‘lsa davlat byudjetidan, soliq tushumlaridan foydalaniladi. Va bunda erkinlik muayyan darajada cheklangan bo‘ladi (kimning aravasiga tushsang, shuning ashulasini aytasan).

3. Jurnalistika erkinligining yuridik jihatlari

Matbuot va jurnalist faoliyati erkinligining huquqiy jihatining tarixan konsepsiyasi mavjud:

Avtoritar (lot. *auctoratus* ”hukmron, ta‘siri zo‘r” degani) va uning yuqori cho‘qqisi-totalitar konsepsiya bo‘yicha, axborot faoliyati erkinligidan faqat hokim doiralargina foydalanishi mumkin. Turgan gapki, ular bunda o‘zlariga mansub bo‘lgan siyosiy, iqtisodiy va mafkuraviy hukmron kuchlar manfaatidan kelib ish ko‘radi. Ushbu kuchlar tomonidan chiqariladigan OAV amalda cheklanmagan erkinlikka (hattoki sohta, yolg‘on axborot tarqatish erkinligiga) ega bo‘ldilar. O‘zgacha fikr yurituvchilar bu sohaga yaqinlashtirmaydi yohud ularning nashrlari va dasturlari qattiq senzura qilinadi, iqtisodiy siquvlarga olinadi.

Matbuot erkinligiga avtoritar yondoshuv amalda har bir hukmron kuchga ega bo‘lib, ular ijtimoiy hayotning asosiy masalalari bo‘yicha mutlaq, juda bo‘limganda ko‘proq haq-xuquqli ekanligini ko‘rsatishadi. Demokratik jamiyatda ham avtoritar tamoyillar ko‘zga tashlanadi, ”yosh ” demokratiya sharoitida saylovda g‘olib chiqqan kuchlar o‘z dasturini tezroq va kengroq amalga oshirishga intiladi, buning uchun oppozitsiyani “ezib” tashlash, uning imkoniyatlarini cheklash turli to‘siqlar qo‘yishga harakat qiladi. Hukmron kuchlarga qarshi kurashda ilg‘or doiralar matbuotning to‘la erkinligi g‘oyasini ko‘tarib chiqishadi. Matbuot erkinligi g‘oyasi 17 asrda yuzaga keldi, 17 asrda feodal monarxiya absolyutizmiga qarshi kurashgan inqilobiy-demokratik kuchlarning asosiy talabiga aylandi.

Rivojlangan mamlakatlarda matbuot davlat tomonidan har xil yo‘llar bilan nazorat qilishdan xalos etilmoqda. Masalan, AQSh konstitutsiyasida “kongres” so‘z va matbot erkinligini cheklovchi birorta ham qonun chiqarmasligi lozim degan modda bor. Germaniya konstitutsiyasida “har bir kishi o‘z fikrini yozma, og‘zaki, tasvir vositasida erkin ifoda etishi, tarqatishi mumkin... Radio va kino orqali matbuot erkinligi, axborot erkinligi kafolatlanadi, senzura yo‘l qo‘ymaydi” deb yozib qo‘yilgan. Rossiya konstitutsiyasida, mustaqil O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyalarida ham matbuot erkinligi kafolatlangan.

Fuqorolik jamiyati va huquqiy davlatchilikning taraqqiy etishi bilan ommaviy-axborot faoliyati erkinligining prinsipial asoslarini saqlashda OAV faoliyatini huquqiy jihatdan boshqarishga ehtiyoj, zarurat tug‘ildiki buning natijasida OAV erkinligi mas’uliyati konsepsiyasi shakllana boshladi, masalan, FRG konstitutsiyasida senzura yo‘l qo‘yilmaslik haqidagi modda paydo bo‘lgandan keyin, qonun chiqaruvchi hokimiyat OAV erkin faoliyati doirasini boshqaruvchi qonunlar chiqarishga haqli degan ma’noda qoida yuzaga keladi. AQShda ham jurnalistik faoliyatni huquqiy jihatdan boshqarishning bir qancha yo‘nalishlari mavjud. «Davlat-

OAV”, “muassis-jurnalists”, “jurnalists-voqelik”, “jurnalists-auditoriya”, “jurnalists-ijtimoiy institutlar”, “jurnalists-OAV infratizimi” va h.k.

Erkinlik muammosi munosabati bilan OAV erkinligini suiste’ mol qildishni ta’qiqlovchi harakatlarni ham ajratib ko’rsatish lozim.

Birinchiidan, bu davlat manfaatlarini himoya qilish. FRG konstitutsiyasida yozib qo’yilgan: «Fikrni ifoda qilish erkinligini...» erkin demokratik tartiblar asosiga qarshi kurashda foydalangan har bir kishi ushbu asosiy huquqlardan mahrum etiladi. Asosiy huquqlar va ularning hajmi federal konstitutsiyaviy sud tomonidan belgilanadi; AQSH oliy sudi, mamlakat konstitutsiyasini sharhlab, ”matbuotda qo’poruvchilik harakati olib borgan”, “ro’yi-rost xavf tug’dirgan”, “davlatga aniq va tezkor tahdid solgan”, “zararli tamoyillar”ga yo’l qo’ygan shaxslarga nisbatan choralar (sanksiyalar) qo’llashi lozimligini ta’kidlagan. Boshqa bir qancha mamlakatlarda davlat, hukumat, parlament obro’sini to’kishga, davlat boshliqlarining sha’nini haqorat qilishga va h.k.lari qaratilgan matbuot chiqarishlariga nisbatan choralar ko’rilishi ta’kidlangan.

Ikkinchiidan, shaxsning huquqiy, qonuniy manfaatlarini muhofaza qilishni BMT qabul qilgan ”Inson huquqlari umum deklaratsiyasi”da ham bu hususida muhim fikrlar bayon qilingan. OAVda shaxsga tuhmat qilish, haqorat, irqiy, milliy, sinfiy dushmanlik olovini yoqish, shaxsiy maktublar va uy-joylarning daxilsizligi haqida bandilar bor.

Jurnalists pozitsiyasining har birida jon bor. Birinchisida-o’z qarashlarini dangal aytish; himoya qilish; ikkinchisida kelishuv (kompromiss)ga, o’zgacha fikrlovchilarni hurmat qilishga intilish; uchinchisida- hammani barobar ko’rishga, holis bo’lishga harakat. Bunda eng muhim yo’l-to’rtinchi yo’ldir. U ham bo’lsa, konsensus (kelishuv) asosida ijtimoiy muhim muammoga yondoshishda umumiy yo’l topish.

Hozirgi murakkab, dolg’ali, sermuammo jamiyatda barcha ijtimoiy muammolarni xal etishda umumiy yo’l,, umuminsoniy qadriyatlaridir. Insoniyat taraqqiyoti jarayonida ishlab chiqilgan qadriyatlar turli-tuman va rang-barangdir...

Umuminsoniy qadriyatlar jurnalistning ijtimoiy nuqtai nazarini belgilovchi, hal qiluvchi omildir.

ADABIYOTLAR:

- 1.M. Xudoyqulov "Jurnalistikaga kirish", Toshkent, 2005.
2. Martin Sonboy Journalism studies. Printed in USA, 2013.
3. Proxorov YE.P."Vvedeniye v teoriyu jurnalistiki", M.,1998.
4. Rendell Devid. Universalny jurnalist. Olma-ota.1995.

ФИО авторов: *Lapasov Shakhzod Anvar o'g'li*

Ташкентский Государственный Экономический Университет

Республика Узбекистан, Город Ташкент, Чиланзарский район

Makhammadrizoyeva Madinabonu Mahammadrizo qizi

New Time University

Республика Узбекистан, Город Ташкент, Чиланзарский район

ФИО научного руководителя: *Аллаяров Асрор Назарович*

Сотрудник главного управления туризма и спорта

Название публикации: «ADVANTAGES OF COMPETITION IN UZBEKISTAN»

Abstract. This article provides detailed information about the competition and its types. Then, the main objectives of the competition and its positive and cheerful aspects. Information was also provided on the benefits of competition in the Republic of Uzbekistan and the measures taken to protect competition.

Key words: Fair competition, rough competition, price competition, Priceless competition, intra-industry and inter-industry competition, free competition, monopolistic competition, monopoly and oligopoly competition, regulatory function, resource allocation function, innovation task, customization function, distribution function, control function.

Introduction. Changing times require new changes and improvements in the economy. One of the immortal foundations of a developed economy is the importance of competition in a market economy. One of the important reasons for this is that a non-competitive market economy has not developed. The Law of the Republic of Uzbekistan "On Competition" for the development and protection of competition in Uzbekistan is a good example.

Let's find out what competition is. Competition is the struggle between independent producers (enterprises) to produce goods on favorable terms and sell them at a good price, in order to strengthen their position in the economy as a whole. It is a multifaceted economic phenomenon that represents a complex relationship between all market participants. Competition between suppliers of resources is to sell their economic resources (capital, land, labor) at high prices and conditions. Competition between producers and suppliers of resources is evident in a market economy and a fully liberalized economy.

Competition can take place in many aspects of the economy. An example of this is the competition between consumers. This type of struggle is aimed at buying goods at affordable prices, that is, the buyer tries to get more profit for every penny spent, and fights to buy cheaper and better goods faster. Competition between producers leads to higher profits, and the pursuit of these profits leads to a struggle for better markets, cheaper raw materials, energy, and cheaper labor. Competition is based on the separation and independence of producers as property owners, and conflicts of interest. Because every property owner has their own interests, and they strive to achieve those interests. The property owner's activities in the production of goods and in all other spheres are subject to this interest. Another condition for the existence of competition is the existence of a well-developed market system of commodity-money relations. Therefore, the main area of competition is the market. Therefore, the market is the most important aspect for the development of the economy.

One of the most important benefits of competition is that the introduction of new technologies, the rapid development of goods in response to demand, the desire to have a skilled workforce and the growing demand for modern marketing services. Monopolies are also anti-competitive, as competition provides the producer with sole dominance and does not create conditions for competition. Where there is competition, there is development, but where there are monopolies, there is development.

There are also different aspects of competition. These aspects have both pros and cons. Competition is also divided into fair and impartial in terms of the choice of the path of struggle. Fair competition is based on market rules, accepted in the struggle in the market, in ways that are acceptable to all. Prohibited and condemned methods of competition include criminal methods such as fraud, deception, disobedience, deception, economic espionage, subversion, and even physical violence. The market economy actually only recognizes fair competition. Competition keeps the economy healthy.

Another type of competition is price competition and priceless competition. Price competition means selling these goods or services at a lower price by temporarily reducing profits than competitors, as well as discounts, discounts to wholesale buyers, and so on. Priceless competition includes any legal means of capturing and retaining customers that are not related to lower prices (improving quality, extending service life, environmental friendliness, safety, etc.).

Competition is also divided into types according to their scale. These types of competition are intra-industry and inter-industry competition. Intra-network competition also includes 4 forms. These are free competition, monopolistic competition, monopoly and oligopolistic competition, and certain conditions must be in place for these types to exist. These conditions can only exist in an environment

where market relations are established. As the principles of monopolization intensify in the economy, competition is limited. In order to create a competitive environment, the state pursues antitrust policy, takes measures to eliminate monopolies in the economy, and implements antitrust laws.

Let's start with the basics of competition in today's market economy. The competition consists of 6 main tasks. These are:

1. The task of regulation;
2. The task of allocating resources;
3. Innovative task;
4. Adaptation function;
5. Distribution function;
6. Control function.

The task of regulating competition is to influence supply in order to bring production in line with demand (consumption). It is through this task that supply in the economy is determined by demand, the structure and volume of production by individual and social needs, that is, the economy is regulated by market laws.

The task of resource allocation of competition allows the rational allocation of factors of production to the enterprises, regions and regions where they are most productive.

The innovative function of competition is the introduction of various types of innovations based on the achievements of scientific and technological progress and requiring the development of market economy entities.

The task of adapting competition is to rationalize the adaptation of enterprises (firms) to the internal and external environment, which means that they move from the simple maintenance of self-sufficiency to the expansion of economic activities.

The function of the distribution of competition has a direct and indirect effect on the distribution of the volume of goods produced (gross domestic product) among consumers.

The task of controlling competition is to prevent some market participants from establishing monopolistic dominance over other participants. These tasks will greatly contribute to improving the quality of competition in a market economy. Each task plays an important role in the competition.

In Uzbekistan, competition protection is also provided by law. This will ensure that the rights of competing manufacturers or service providers in a market economy are

legally guaranteed and that there are no irregularities between them. To this end, on March 15, 1996, the Committee on De-monopolization and Development of Competition was established under the Ministry of Finance. It was later transformed into an independent state committee. In order to create a competitive environment in Uzbekistan, the method of price competition was chosen and prices were set freely. The Law on the Restriction of Monopolistic Activities of August 3, 1992, prohibits the monopolization of prices, the creation of a deliberate shortage in the market, and the use of rigid competition. The Law on Consumer Protection of April 26, 1996, also pays special attention to the creation of a mechanism to prevent excessive competition. The Law on Restriction of Monopolistic Activities and Competition in Commodity Markets of December 27, 1996 also provides the legal conditions for a healthy competitive environment. New changes have been introduced in Uzbekistan to protect competition for economic development. The adoption of the Law of the Republic of Uzbekistan "On Competition" in 2011 has led to many positive changes. If there is competition in the Republic of Uzbekistan, the economy will grow because competition will increase the quality of the product or service. This is one of the big steps for economic development in the world.

Conclusion. The article goes on to explain what competition is and why it is so important in the economy. Information was also provided on the types and main aspects of the competition. General competition is a struggle between sellers in a market economy to get more profit and more buyers. This struggle will lead to an increase in product quality and lower prices, but in some cases this will lead to illegal activities. Therefore, in a competitive market economy, legislation has been enacted to address violations in the fight against sellers of goods and services. These laws provide detailed information on how competition is violated and what penalties are imposed. Information is provided on the reforms that have taken place in the Republic of Uzbekistan. Competition is one of the best ways to develop any country. Competition creates a monopoly. This will be detrimental to the country's economic development. That is why competition is so important now for the development of a market economy.

References.

1. The first volume of the "National Encyclopedia of Uzbekistan", Tashkent, 2000.
2. "Microeconomics" - Robert Pindyck, 2002.
3. "Theory of Economics" - D. Tadjibayeva, 2005.
4. "Microeconomics" – K.R. McConnell, 2005.
5. Electronic resource: <https://www.lex.uz/>
6. Electronic resource: <https://kun.uz/>

7. Electronic resource: <https://uz.wikipedia.org/>

8. Electronic resource: <https://www.google.co.uz/>

ФИО автора: *Raxmonova Azimaxon Asadullayevna*

Prezident ta'lim muassalari agetligi tizimidagi Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktabi
psixologi

Название публикации: «МАКТАВ О‘QUVCHILARIDA DIQQATNING
RIVOJLANGANLIK DARAJASI»

Annatsiya. Maqola orqali siz diqqatning inson hayotidagi o'rni va ahamiyati haqida ma'lumotga ega bo'lasiz. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida diqqatning hususiyatlari, diqqatning kuchi va barqarorligi va uning ko'lami haqida ma'lumotlarga ega bo'lasiz.

Kalit so'zlar: Diqqat, ixtiyoriy diqqat, ixtiyorsiz diqqat, diqqat ko'lami, diqqat kengligi

Tevarak atrof va insonlarni o'rganishimizda ularning xatti-harakatlarini diqqatimiz orqali o'rganamiz. Diqqat shunday psixik jarayonki, uning yordamida ongimiz o'zimiz uchun ahamiyatli narsalar, hodisalar va predmetlar mohiyatiga qaratiladi. Diqqat ongning bir nuqtaga to'plab ma'lum narsa va hodisalarga aktiv yo'naltirilishiga aytiladi. U odamning barcha faoliyatlarida eng sodda faoliyatdan tortib eng murakkab faoliyatni ham diqqatning ishtiroki orqali bajaramiz. Diqqat sezish jarayonida, idrok qilishda, xotira, hayol va tafakkur jarayonlarida ham ishtirok etadi. Diqqat barcha psixik jarayonlarda qatnashsa ham diqqatning o'zi hech narsani aks ettirmaydi. Odam ayrim narsalarga o'z diqqatini ongli ravishda, o'zi xohlab qaratsa, boshqa bir narsalar diqqatni beixtiyor, ya'ni bizning xohishimizdan tashqari jalb qiladi. Diqqat tushunchasiga olimlar tomonidan bir qator ta'riflar keltirilganligini ta'kidlash mumkin. P.I.Ivanov tomonidan **Diqqat** deb- ongni bir nuqtaga to'plab muayyan bir ob'ektga aktiv qaratilishga aytiladi. Bosh miya yarim sharlarining po'stida paydo bo'ladigan kuchli qo'zg'alish manbai nisbatan uzoqroq saqlanib turadigan mustahkam qo'zg'alish bo'ladi. Ana shu nuqtai-nazardan I.P.Pavlov "diqqatning fiziologik asosini bosh miya po'sti qismidagi optimal qo'zg'alish manbai tashkil qiladi", deb ta'kidlagan.

F.N.Dobrinin, N.V.Kuzmina, I.V.Straxov, M.V.Gamezo, N.F.Gonobolin va boshqalarning fikricha, diqqatning vujudga kelishi ongning bir nuqtaga to'planishi ong doirasining torayishini bildiradi, go'yoki ong doirasi bir muncha tig'izlanadi.

Psixolog G. K.D.Ushinskiyning "diqqat ruhiy hayotimizning shunday yagona eshigidirki, ongimizga kiradigan narsalarning barchasi shu eshik orqali o'tib kiradi" degan fikrlari uning ahamiyatini bildiradi.

S.Bakradze diqqatning ob'ektda to'planishi faoliyatning roli haqida qiziqarli ilmiy tekshirish tajribasini o'tkazgan. Agarda diqqatni zaifligini tekshiruvchi o'z vaqtida payqab, unga nisbatan qandaydir muskul harakatini amalga oshirsa, u yana tiklanadi. Bulardan tashqari diqqat barqarorligini faoliyatning xarakteriga, shaxsning o'ziga bog'liqligi bir qancha psixologlar tomonidan isbotlangan. A.P.Gazova diqqatning bo'linuvchanligini ko'p stanokda ishlovchi to'quvchilarda o'rganib, juda qimmatli materiallarni yig'gan. Uning fikricha, diqqat bu kasbdagi odamlarda ixtiyorsiz va ixtiyoriy muvozanatlashgan bo'lishi mumkin. Bir necha stanokda ishlash malakalari hosil bo'lishi natijasida bularda ixtiyoriy muvozanatlashgan diqqat turi vujudga keladi.

Diqqatning bo'linuvchanligi ustida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ikkita yoki uchta ishni birdaniga bajarish mumkin, bunda I.P.Pavlov ko'rsatganidek, ulardan biri tanish (ishlash oldin bajarilganligini eslatuvchi) va bosh miya yarim sharlar po'stlog'ida "navbatchi punktlar" mavjud bo'lsa amalga oshiriladi. Ikkita faoliyatni bir davrning o'zida bajarish uchun faoliyatning biri diqqatni talab qilmaydigan yoki avtomatlashgan bo'lishi talab qilinadi. Kishida bunday imkoniyat faqat mashq qilish orqaligina yuzaga kelishi mumkin.

. Diqqatning o'rni hayotimizda kata ahamiyatga ega. Diqqatning rivojlanishida maktab va bog'cha yoshi alohida ahamiyat kasb etadi. O'smir va o'spirin yoshda diqqat yuqori taraqqiyot darajasiga ko'tariladi. O'smir yoshdagi o'quvchi diqqati yordamida uzoq vaqt davomida ma'lum faoliyat turi bilan yetarlicha uzoq shug'ullana oladi. Alohida takidlab o'tishimiz lozimki diqqatning sifatiga tarbiyalash sharoitlaringiz o'zi emas balki, yosh hususiyatlari ham ta'sir ko'rsatadi.

O'quvchilarida diqqatni jamlash uchun tavsiyalar.

Diqqatni rivojlantiruvchi mashqlar

Topshiriq 1. Guruhning oldiga 2-3 kishini o'tkazib, ulardan o'zlarini tabiiy tutishlari so'raladi. Ma'lum vaqt davomida "aktyorlar" tinchlanishlari va yangi sharoitga o'rganishlari uchun ularga e'tibor bermaslik lozim. So'ngra mashg'ulot rahbari guruhga (tekshiriluvchilarga ham) xonada ro'y bergan barcha voqealarni so'zlab berishlarini taklif etadi. Bu stul g'ichirlashi, ruchkaning polga tushib ketishi, kimningdir yo'tali, birorta ishtirokchi gavdasining holatini o'zgarishi va boshqalar bo'lishi mumkin.

Topshiriq 2. Bir necha soniyalar davomida ishtirokchilar xonada nechta oqsariq, nechta qorachadan kelgan odam borligini, nechta kvadrat shaklidagi, nechta doira shaklidagi buyumlar, nechta sumka, kitob, daftar borligini hisoblab chiqishlari lozim.

Topshiriq 3. Ishtirokchilarga hayotda qanchalik ko'p oddiy narsalarga e'tiborsiz ekanliklarini ko'rsatish uchun ularga o'zlariga yaxshi tanish buyumini, masalan, sumka, soat, tufli va h.k. sinchiklab ko'rib chiqish va ular ilgari e'tibor bermagan jihatlarni so'zlab berishlari taklif etiladi. Tajribaning ko'rsatishicha, bunday jihatlarning buyumlaning egalari o'ylagandan ham ko'proq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "Umumiy psixologiya" F.I.Xaydarov N.I.Xalilova. Toshkent 2009
2. "Umumiy psixologiya" M.V.Voxidov. Toshkent. 1992 yil.
3. "Umumiy psixologiya" A.V.Petrovskiy. Moskva.1976
4. www.tashxis.uz

ФИО автора: *Qadamova Shodiya Hamdambek qizi*

Urganch davlat universiteti Bioinjeneriya va oziq-ovqat xavfsizligi fakulteti
Biotexnologiya yo'nalishi 2-kurs talabasi

Название публикации: «GEN MUHANDISLIGIDA YECHIMINI
KUTAYOTGAN MUAMMOLAR»

Annontatsiya: *Ushbu maqolada gen muhandisligida yechimini kutayotgan muammolar hamda gen muhandisligini falsafiy omillari to'g'risida fikr yuritilgan*

Kalit so'zlar: *Gen, muhandislik, muammo, chora tadbir, yo'nalish*

Biotexnologiya (bio va yun. techne — mahorat, san'at, logos -so'z, ta'limot) sanoat va tibbiyotning turli sohalarida tirik organizm va biologik jarayonlardan foydalanadigan sanoat usullari majmui. Biologiya. va texnika imkoniyatlarini birlashtiradigan ilmiy yo'nalish. "B." terminining vujudga kelishiga

Stenford universiteti (AQSH; 1973) bir guruh olimlarining har xil xossaga ega irsiy molekulalarini biriktirib rekombinant DNK (istalgan organizmdan ajratilgan DNKning ikki yoki undan ortiq qismlarini invitro sharoitida birikishidan vujudga kelgan hosila) olishi sabab bo'ldi.

Shundan keyin biologiya. fani yutuqdaridan kelib chiquvchi, ya'ni tirik organizmlar hayot faoliyatida ishtirok etadigan barcha kimyoviy, fizikaviy va biologik jarayonlarni o'rganish natijalari tatbiq etilgan texnologik jarayonlarni ifodalashda "B." terminidan foydalanila boshlandi. Mikrobiologiya, biokimyo, bioorganik kimyo, molekulyar biologiya, fiziologiya, genetika, molekulyar genetika, genetik injeneriya va boshqa yutug'iga asoslanadi.

Biologiyaning mikrobiologik membranalar biologiyasi, immobillashgan fermentlar biologiyasi, xujayrasi, gen va Hujayra injeneriyasi biologiyasi kabi sohalari mavjud. Mikrobiologik biologiya. mikroorganizmlar hayot faoliyatidagi jarayonlarga asoslangan bo'lib, bu sohada fermentli preparatlar, antibiotiklar, aminokislotalar,

gormonlar, oqsil moddalari va xalq xo'jaligining turli tarmoklari uchun zarur metabolitlar sintez qilinadi

Membranalar va immobillashgan fermentlar biologiyasi vositasida xilma-xil jarayonlarni o'lchash va nazorat qilish uskunalari ishlab chiqarish mumkin. Shuningdek, fermentlar imobillashganda (biror bir sathga kimyoviy biriktirilganda) ularning aktivligi ortib, funksional holati bir qadar muddatga uzayadi. Bundan foydalanib biotexnologik jarayonlar (mas, membranalar o'tkazuvchanligini boshqarish usuli, fermentlarni mobillash va boshqalar) yaratilgan.

Hujayra biologiyasi. o'simlik, hayvon va odamxujayralarining sun'iy sharoitda o'sishi hamda ko'payishi mikroorganizmlarnikiga o'xshashligiga asoslangan. Odam va hayvon hujayralarini sun'iy o'stirish nodir biologik preparatlar, antitelalar va oqsil gormonlarini sanoat miqyosida ishlab chiqarish imkonini berdi. O'simlik, hayvon va odam kasalliklarini aniqlash uchun monoklonal antitelalar (boshlang'ich birgina hujayra avlodlari ishlab chiqaradigan antitelalar) asosida o'ta sezuvchan diagnostik vositalar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

Jumladan, O'zbekiston FA Yadro fizikasi instituti koshidagi "Radiopreparat" korxonasi va O'zR Sog'liqni saqlash vazirligining Onkologiya va radiologiya institutida rak kasalligining ayrim turlarini oddindan aniklaydigan biotexnologik vositalar ishlab chiqarilmoqda. Fiziologik aktiv ikkilamchi birikmalarni sintez qilish faqat o'simlik hujayralariga xos xususiyatdir. Bunday moddalarga tibbiyotda va sanoatning turli sohalarida ishlatiladigan alkaloidlar, glikozidlar, jumladan steroidli saponinlar, steroidli gormonal preparatlar olishda ishlatiladigan moddalar, efir yog'lar, polisaharidlar, fitogormonlar kiradi.

O'stirilayotgan hujayra, odatda qaysi o'simlikdan olingan bo'lsa, shu o'simlikka xos ikkilamchi moddalarni sintez qiladi. Ammo xujayralarda sintez qiinadigan biomassa miqdori o'simlik organlaridagiga nisbatan ancha kam bo'ladi. Shuning uchun rentabelligi sanoat usulidagi biologik hujayrasi uchun tez o'sadigan, yuqori biosintetik

xususiyatga ega, oddiy ozuqali muhitda ham o'sadigan, osmotik va mexanik ta'sirlarga chidamli mutant liniyalar kerak

Genetik injeneriya molekulyar genetika sohasi; genlarning tabiatda uchramaydigan yangi birikmalarini genetik va biokimyoviy usullar yordamida maqsadga muvofiq holda vujudga keltirish bilan shug'ullanadi. Muayyan organizm hujayrasidan ajratib olingan gen yoki genlar guruhini nuklein kislotaning ma'lum molekulalari bilan biriktirib, hosil bo'lgan duragayni boshqa organizm hujayrasiga kiritishga asoslangan.

Viruslar va har qanday tirik mavjudot hujayralarining irsiy programmasini maqsadga muvofiq modellashtirish, yangi shtamm virus va mikroorganizmlar, o'simlik, hayvon hujayralarining yangi xillarini, o'simlik navlari va hayvon zotlari uchun zarur shakllarini yaratish va biotexnologik vazifasidir.

AQSH olimi P. Berg xodimlari bilan birga virus va mikroorganizmlar irsiy molekulasi qismlarini probirkada ulab, rekombinant DNK olishi genning vujudga kelishiga asos soldi Restriktazalardan (300 dan ortiq xili bor) DNK molekulasini har xil qismlarga ajratishda, ligazadan esa ularni yana qayta birlashtirishda foydalaniladi. Genlarda eng ko'p ishlatiladigan restriktaza (Yeso Rb) 1971 yilda olingan. genningning rivojlanish tarixi in vitro sharoitida (organizmdan tashqarida) rekombinant DNK molekulalarini, ya'ni har xil plazmidalar (xromosomalarsiz, mustaqil yashash xususiyatiga ega DNK halqa molekulalari), xattoki plazmida bilan faglar orasida duragaylar yoki vektor molekulalar (xo'jayin hujayrada mustaqil qayta tiklana olish xususiyatiga ega DNK molekulasi) olish mumkinligini prinsipial isbotlashdan boshlangan.

Keyinchalik prokariotlar (shakllangan yadrosi yo'q organizmlar)ga taalluqli xromosoma genlari bilan har xil plazmidalar orasida rekombinant molekulalar olindi. Vektor molekulalarga eukariot (shakllangan yadroga ega) organizm (asosan, hayvon va o'simlik) genlari DNKsini kiritish Genlarning katta yutug'idir. Natijada hayvon genlarini bakteriya hujayralarida ko'paytirish va ekspressiya qilish (genlarni klonlash) imkoniyati vujudga keldi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1 /uz.wikipedia.org/
- 2 /arxiv.uz/r
- 3 .samdu.uz/
- 4 /n.ziyouz.com

ФИО автора: *Sunnatullayeva Moxinur Saydulla qizi*

Toshkent To‘qimachilik va Yengil Sanoat Instituti. Kimyoviy texnologiya yo‘nalishi magistratura bosqichi talabasi

ФИО научного руководителя: *Abdusamatovna Iroda Nabiyeva (Professor)*

Название публикации: «IP-GAZLAMALARGA OLOVBARDOSHLIK XUSUSIYATINI BERISH JARAYONLARINI O‘RGANISH»

Annotatsiya: Ushbu maqolasa matoning olovbardoshlik xususiyatini o'rganish jarayonida olib borilgan laboratoriya ishlari va matoning yonuvchanlik xususiyatidan saqlaydigan antipirin xossalari haqida ma'lumot berib o'tilgan. Ilmiy ishni bajarishda tirli fizik-kimyoviy usullardan foydalanildi. Olingan natijalarga asoslanib, kompozistiya tarkibidagi moddalarning o'zaro ta'siri, uning turli haroratlardagi chidamliligi o'rganiladi. Bu sohadagi ilmiy tadqiqot ishlarini davom ettirish va yangi kompozistiyalar yaratish, hamda ularni xalq xo'jaligining turli tarmoqlarida tadbqiq etish Respublikamiz uchun katta iqtisodiy samara beradi.

Annotation: This article provides information on the laboratory work carried out in the process of studying the flammability of the fabric and the antipyrine properties that protect the fabric from flammability. Various physicochemical methods were used in the scientific work. Based on the results obtained, the interaction of substances in the composition, its resistance to different temperatures is studied. Continuation of scientific research in this area and the creation of new compositions, as well as their application in various sectors of the economy will bring great economic benefits for the Republic.

Kalit so'zlar: olovbardoshlik xususiyati, antipirin , apyrol Ced, keramik qatlam, additiv antipirin .

Keywords: flammability, antipyrine, apyrol Ced, ceramic layer, additive antipyrine.

Bugungi kunning eng muhim va dolzarb masalalaridan biri sanoat miqyosida ko'pgina zamonaviy aralashmalar ya'ni antipirenlar (yong'inga to'sqinlik qiluvchi moddalar) ishlab chiqarishning samarali usullarini yaratish hisoblanadi. Barcha olovdan himoya qiluvchi vositalar jumladan tuzsiz antipirenlar o'z tarkibiga fosforlik va organik moddalar birikmalarini qo'shadi. Mana hozirgi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan qurilish va qayta tiklash ishlarida ushbu preparatlarni ishlatilishi ortib borishi bizga ayon shuning uchun bu masalada katta ishlar amalga oshirilmoqda qolaversa, harbiy va maxsus sohalarda olovbardosh, suvga chidamli matolarning roli kundan kunga ortib bormoqda. Bu esa o'z navbatida bunday matolarga talabni ortishiga olib keladi. Bundan tashqari yong'in holatlarida jabrlanishni kamaytirish maqsadida to'qimachilik materiallariga ishlov berish eng asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Shuni inobatga olib, to'qimachilik sanoatida tuzli, kislotali va o'tga chidamli bo'lgan kompozitsiyalarni yaratish va uni qo'llash juda muhim amaliy ahamiyat kasb etishi bilan bir qatorda, nazariy jihatdan ham katta ahamiyatga ega bo'lgan ilmiy tadqiqot yo'nalishidir.

OLOVBARDOSHLIK xususiyati bu metallarning 1000° dan ham yuqori temperaturada havo yoki boshqa gazsimon muhit ta'sirida kimyoviy yemirilishga chidamlilik xususiyati hisoblanadi. Oksidlaydigan atmosferada metall (krtishma) ning Olovbardoshlik xossasi metall sirtida oksid — kuyindi katlami (metall ichida gaz diffuziyasini qiyinlashtiradigan qatlam) hosil bo'lishiga bog'liq. Olovbardoshlik metallning kislorod yutishi hisobiga metallning massasi ortishi yoki uning sirtidan kuyindi yo'qolishi natijasida massasi kamayishi bilan ifodalanadi. Olovbardoshlik materialni yuqori t-rali sharoitda ishlatish mumkinligini belgilaydigan muhim omil hisoblanadi.

Ma'lumki, to'qimachilik sanoatida yong'in va portlash xavfsizligi bo'yicha bir necha ko'rsatgichda ta'riflanadi. Materiallarni va konstruktsiyalarni olovdan himoyalashda qurilishda ishlatilayotgan material va konstruktsiya elementlari yong'indan himoya qilish xususiyatiga ega bo'lgan tarkiblar, bo'yoqlar va materiallar bilan olib boriladi. Shunga asosan ilk bora kraxmal va karboksimetilstellyuloza asosida turli tarkibli tuzli-kislotali kompozitsiyalar yaratilib ularning xossalari o'rganildi i va

to'qimachilik sanoatida suv o'tkazmaydigan, chirimaydigan, yonmaydigan xossalar berildi.

Kraxmal va karboksimetil-stellyuloza asosida tayyorlangan kompozistiyalarni to'qimachilik sanoatida antipiren sifatida qo'llanadi. Ilmiy ishni bajarishda turli fizik-kimyoviy usullardan (IK-, UBSpektroskopiya, mikroskopiya, gravimetriya, viskozimetriya, va b.) foydalaniladi. Olingan natijalarga asoslanib, kompozistiya tarkibidagi moddalarning o'zaro ta'siri, uning turli haroratlardagi chidamliligi o'rganiladi. Bu soxadagi ilmiy tadqiqot shlarini davom ettirish va yangi kompozistiyalar yaratish, hamda ularni xalq xo'jaligining turli tarmoqlarida tadbiq etish Respublikamiz uchun katta iqtisodiy samara beradi.⁶²¹

Sanoatda ip-gazlamalarga turli ishlov berish natijasida olinadigan tayyor mahsulotlar yong'in va portlash xavfsizligi bo'yicha bir necha ko'rsatgichda ta'riflanadi. Materiallarni va konstruksiyalarni olovdan himoyalashda to'qimachilik sanoatida ishlatilayotgan material va konstruksiya elementlari yong'indan himoya qilish xususiyatiga ega bo'lgan tarkiblar, bo'yoqlar va materiallar bilan olib boriladi.

To'qimachilik materiallari yong'in vaqtida xavfli manba hisoblanadi, chunki yonish jarayoniga yordam beradi. Natijada kata miqdordagi tutn va gazlarni chiqaradi. Sellyuloza tolasidan to'qilgan matolar eng oson va tez alanganadi, ko'p sintetik tolalar qizdirilganda qisqaradi va eriydi ammo yoqilgandan keyin ular juda qattiq yonadi. Hozirgi vaqtda turli xil talablar qo'yiladigan texnik maqsadlar uchun to'qimachilik materiallari ko'proq qiziqish uyg'otmoqda, ulardan biri yong'indan himoya qilishdir. Paxta tolalari asosida olingan materiallarga chet el va mahalliy appretlar asosida olovbardoshlik xususiyatini berish jarayonlarida ularning bir-biridan farqi alanganishga chidamliligi, ishlov berilganda materialga tasiri, yuvishga chidamliligi har bir jarayonlari alohida o'rganildi va hozirda ham shu bo'yicha ishlar olib borilmoqda.

Mazkur ilmiy mavzu doirasida oqartirilgan va aktiv bo'yovchi modda bilan bo'yalgan xavo rangli ip gazlamalarga mahalliy va chet eldan keltirilgan appretlar asosida olovbardoshlik xossasi berildi. Jarayon xona xaroratida turgan appretlardan foydalanildi. Jarayon quyidagi ketma-ketlikda ketdi.

Shimdirish à Siqish à Quritish à Terma ishlovli.

2 minut 100% 90-100°C 160°C


Antipirin - yoqib ko'rganda tez alangalandi. Shaffof tusdagi eritma . O'tkir hidga ega emas.

Apyrol Ced - Quyuq, yog'simon bo'lib, shaffof tusdagi eritma asosan zig'ir va selluloza tolali matolar uchun foydalaniladi. Ushbu eritmaga shimdirilgan mato olovbardoshlik yuqori. Ammo 100% va 75% eritmasida shimdirilgan mato yuzasida yog'lanish mavjud bo'ldi.


Mazkur eritma turli xil % larda qo'llanildi. Masalan 100% li eritmada ishlov berilgan mato yog'lanib qoldi. Lekin yonishga bo'lgan chidamlilik mustahkam edi. 75%li eritmada ishlov berilgan mato ham yog'lanib qoldi. 50%li eritmada ishlov berilgan mato yog'lanmadi va yaxshi natija berdi. 25% li eritmada ishlov berilgan mato yog'lanmadi va ijobiy natija berdi.

	Mahalliy				Chet elniki							
	Antipirin				APYROL CED							
	100%		50%		100%		75%		50%		25%	
	sekund	sm	sekun d	sm	sekun d	sm	sekun d	sm	sekun d	sm	sekun d	sm
<i>Terma ishlovli</i>	11	6	9	7	27	1.5	20	2	15	1.7	33	6.5
<i>Terma ishlovsiz</i>	10	7	7	14	17	2.5	26	1.8	16	2	33	5.5

Mahalliy Antipirin



Chet el Apyrol Cedi



Yuqori haroratni ta'sirida bo'yoqlar ko'piradi va ularning hajmi bir necha o'n marta ortadi. Shunday qilib, olovdan himoya qilinilayotgan yuzada ko'pik qobiq hosil bo'ladi va u "Ko'pikkoks" deb nomlaniladi[6]. Bu qobiq past issiqlik o'tkazuvchanlik

xususiyatiga ega, bu qobiq material va konstruksiyalarni issiqlik va olovning to'g'ridan to'g'ri izolyatsiya qilib turadi. Ishlash prinsipi bo'yicha antipirenlarni reaktiv va additive antipirenlarga bo'linadi. Reaktiv antipirenlarni polimerizatsiya jarayonida polimer molekulasiga singdiriladi. Shuning uchun ular migratsiyaga moyilligi past. Additiv antipirenlarni ko'proq polimer modifikatsiya jarayonida qo'llaniladi. Bu turdagi antipirenlarni yo kimyoviy yo fizikaviy jarayon kirmaydi, yo gazli va yo qattiq faza bo'lib ham realizatsiya qilmaydi. Amaliyotda ko'proq noorganik gidroksid, galogen antipiren, fosfor birikmalarni antipirenlarni keng qo'llanilib kelinadi. I-tur noorganik gidroksidlarni suyultirish vaqtida va gazli mahsulotlarni yonish jarayonida ajralib chiqadigan issiqlikni so'rib oladi, (asosan endotermik reaksiyalarida ishlatiladi) noorganik gidroksidlarni eng yaxshi effekti belgilangan konsentratsiyada bo'ladi (50%dan yuqori). Bunday antipirenlarni asosan kompaundlarda ishlatiladi.

2-tur antipirenlarni galogenli bular asosan surmaoksidi bilan birikma holda uchraydi. Yonish jarayonida galogenli antipirenlarni gazli fazoda reaksiyaga kirishadi. Gazli fazoda bo'lgani uchun oraliq mahsulotlar ajralib chiqadi. Bularni ishlash jarayonida yong'in avvalo sekinlashib keyin batamom tugaydi. Galogen additive antipirenlarni olovdan himoya qiluvchi konsentratlar ishlab chiqarishda qo'llaniladi. Fosforli antipirenlarni issiqlik berish natijasida fosfat kislotasi ajratib chiqaradi va yonish jarayonida ajralib chiqqan fosfat kislotasi ko'mir qatlam hosil qiladi. Hosil bo'lgan ko'mir qatlam olovni tarqalishiga yo'l qo'ymaydi. Intumestrli antipirenlarda keramik qatlam hosil qiladi buni hosil bo'lish jarayonida fosfor organik birikmalarda ko'pirtiruvchi mahsulotlar qoladi. Natijada keramik qatlam hosil bo'ladi. Spetsifik xossasiga ko'ra bu intumestrli va tarkibida P turli birikma universal emas va kam nollardan qo'llaniladi.

Ip-gazlamalar uchun yong'indan himoyalovchi shimdiruvchilar tuzli va tuzsizlarga bo'linadi. Tarixiy antipirenlarga tuzli antipirenlarni kiradi. Ular hozirgi paytda ham ip-gazlamalarni i yong'indan himoyalovchilar sifatida ham qo'llanilib kelinmoqda va o'tdan himoyalovchilar sifatida Rossiya bozorida keng tarqalgan. Kimyoviy tarkibi bo'yicha ular karbonat, fosfat, bor kislotalarning konsentratlashgan tuzlaridan iborat. Tuzlik antipirenlarni asosiy afzalligi, ular tarkibidagi komponentlarni

soddaligi va nisbatan arzon narxlaridir. Shu bilan birgalikda ularning quyidagi kamchiliklari bor, bu antipirenlarni yuqori sarflanishi va tez o'z xususiyatlarini yo'qotishi. Antipirenlarning asosiy sifat ko'rsatgichiga, antipirenlarni sarf miqdorini yong'indan himoyalovchi ko'rsatgichiga nisbatlari. Antipirenlarning tarkibining asosiy sifat ko'rsatgichiga uning yong'indan saqlovchi maxsus guruhlariga kirishi. ГОСТ 28815-96 ga asoslanib I-guruhga kirish uchun tuzlik antipiren sarfi m² mato sirtiga 600 gramdan kam bo'lmasligi kerak. Bunga avtoklav shimdirish natijasida erishish mumkin. II-guruh himoyada antipirenni 6 qavat ishlov berilganda ham ishlatish mumkin. Undan tashqari yana bir muhim ko'rsatkichlardan biri antipirenlarni yong'indan himoyalovchi xususiyatlarini saqlash vaqti. Tuzlik shimdiruvchilarning ko'pchiligini muddati 1,5 yildan ko'pga o'tmasligi. Tuzsiz antipirenlarni, tuzli antipirenlardan farqi shundaki, ularning yuksak darajasidir. Ular tarkibiga asosiy komponent sifatida ba'zi fosfor organik birikmalar qo'llanadi. Bu shimdiruvchilar tarkibiga mato tarkibiga kimyoviy yaqin bo'lgan moddalar kiradi va mato sirtini 2-3mm ichiga kiradi va tuzlik antipirenlardan qattiq farq qiladi. Tuzsiz antipirenlarning fizika-kimyoviy o'zgarishlar zanjirlari natijasida murakkab komplekslar hosil qiladilar. Shu sababdan tuzsiz antipirenlarni himoyalovchi muddati ancha oshadi. Tashqarida 6 yilgacha ichkarida 16 yilgacha. Bundan tashqari bu antipirenlarni boshqa himoyalovchi shimdiruvchilardan farq qilib ulardan past haroratda foydalanish mumkinligi tajribalar orqali aniqlandi. Bu antipirenlardan -150C dan +500gacha haroratda foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. M.Z. Abdulkarimova, A.L.Hamroyev, A.A.Miratayev "Tolali materiallarni pardoqlash kimyoviy texnologiyasi" Toshkent. "Mehnat" 2004 yil
2. Matmusayev.U.M va boshqalar "To'qimachilik materialshunosligi" 1-qism To'qimachilik materiallarining olinishi, O'zbekiston 2005yil
3. Г.С.Грановский.А.П. Мшвениерадзе «Строение и анализ тканей» Москва «Легпромбыт здат» 1988г

- 4.. P.T.Bukayev “Ip gazlamalar ishlab chiqarishning texnologiyasi” Toshkent “O’qituvchi” 1984 yil.
- 5.. Г.З.Кричевский, М.В.Корчагин, А.В.Сенахов «Химическая технология текстильных материалов» Москва «Легпрамбыт здат» 1985г
6. Abbasova N.G. Abdullayev A.Z “Kiyim materiallarining turlari haqida umumiy tushunchalar ” G:TTESI, 1992 yil
7. Кукин.Г.Н, Соловьев А.Н «Текистильное материаловедение» Москва «Легпрамбыт здат» 1985г
8. Тихомиров В.Б «Нетканые клееные материалы»
- 9.Папков.С.П. «Физик-химическая основы производства искусственных и синтетических волокон» Москва Химия 1972г

ФИО автора: *Avezklicheva Sayat Saparklichevna*

Qoraqalpoq davlat universiteti

Turkman tili va adabiyoti kafedrası assistenti

Nukus, O`zbekiston

Название публикации: «BAXSHICHILIK SAN'ATI VA DOSTOCHILIK AN'ANALARINING TARIXIY ILDIZLARI»

Annotatsiya. Maqolada baxshichilik san'ati, dostonchilik an'alarining tarixiy ildizlari va dostonchi baxshilar haqida ma'lumot berilgan.

Tayanch so'zlar: folklor, an'ana, san'at, doston, baxshi, dostonchilik an'anasi, baxshichilik san'ati.

Annotation. The article provides information about the historical roots of the folk performing arts, the tradition of poetry and epic poets.

Key words: folklore, tradition, art, poem, folk singer, the tradition of poetry, folk performing arts.

Biz qaysidir bir hodisa haqida suhbat qilsak, uni qadimgi davrga bog'lashga, ildizlarini eng qadimgi tarixdan qidirishga odatlanganmiz. Ayniqsa, bu masala folklor va dostonchilik haqida so'z ketganda, yaxshi natija beradi. Demak, bu o'ylaganimizdek, odat emas, hozirgi zamon ilmiy tadqiqotining zaruriy talabidir, ijobiy sinovdan o'tgan ilmiy usul hisoblanadi. Baxshichilik san'atining va dostonchilik urf-odatları tarixining ham qadimiyligi shunday usulda tadqiq qilinishiga muhtojdir.

Shu nuqtayi nazardan mazkur maqolamizda o'sha uzoq tarixning ma'naviy hosili bo'lgan dostonchilikning tarixiy ildizlari va baxshichilik san'atining u yoki bu tomonlari haqida atroflicha tadqiq va tahlil qilishga e'tibor qaratamiz.

Kuy-qo'shiqning xizmatini tarixiy davr, jamoatchilik ongi belgilaydi. O'sha davrning va madaniyatning o'sish tarixida qo'shiqlar mifik kuch-qudrati, tabibchilik xizmati, insonni ruhiy jihatdan tarbiyalashi, estetikasi va ma'naviy ehtiyojini rivojlantirishni o'zining bosh maqsadi hisoblagan. Qo'shiqning qudrati haqida ta'sirli fikrlar, romantik, ba'zida tarixiy baholar uning tabiati bilan bog'lanib, bizda katta faxr

tuygʻusini paydo qiladi. Oʻsha faxr tuygʻusi qoʻshiqning tarixiga nazar tashlashga yanada undaydi, bizni oʻzi bilan tarixning qaʼriga olib ketadi. Oʻsha uzoq oʻtmishga nazar tashlaganimizda qoʻshiqning maʼnaviy ehtiyojning natijasida paydo boʻlganligiga, oʻsha ehtiyoj boʻlsa, tarixiy holat, sinfiy tushuncha, milliy tuygʻu asosida kamolga kelib, tarixning bosqichlarida yuqoriga koʻtarilganligiga guvoh boʻlamiz. U kezi kelganda jangga kirgan, xon-bekdan ustun chiqqan, kezi kelganda charchoq, ojiz ruhni koʻtargan, unga dalda bergan, homiylik qilgan. Umumlashtirib aytganimizda, pok axloqqa xizmat qilgan. Shu sanʼatni saqlagan, rivojlantirgan, bizning davrimizga yetkazgan xalqdir. Xalqning ongiga, qulogʻiga, maʼnaviy ahvoliga aylangan qoʻshiqlar, qoʻshiqchilar, sozandalar, ozanlar, hofizlar, jirovlar bu sanʼatni saqlaydigan va rivojlantiradigan xazinadir. Shunga koʻra qoʻshiqning bu vakillari, ayniqsa, baxshilar haqida sanʼat , etnografiya, folklorshunoslik fanlarida birqancha ishlar qilingan, ularning tarixiy kelib chiqishi, amalga oshirgan ishlari haqida turli qarashlar oʻrtaga tashlangan. Baxshilarning xizmatiga haqiqiy bahoni xalqning oʻzi bergan. Ular:

Elga davlat kelar boʻlsa,
Baxshi bilan ozan kelar.
Eldan davlat ketar boʻlsa,
Toʻra bilan tozan kelar. [4.5sah]

(Ile döwlet geler bolsa,
Bagʻsy bilen ozan geler.

Ilden döwlet gider bolsa,
Töre bilen tozan geler.)

deb, baxshilarning toʻy-tomosha, toʻkin-sochinlik, shodlik bilan bogʻlangan, xalqsevar insonlar ekanligini aytganlar.

Qoʻshiqchilik sanʼati hayotning, tarixning badiiy hamrohi, folklor va adabiyotning ayrilmas qismidir. Hayotning rivojlanish bosqichida musiqa rivojlangan, folklorning va badiiy adabiyotning gullagan davrida qoʻshichilik yangi koʻrinishga

o'tgan, xalqning ko'pchiligiga ma'naviy yordam bergan. Dostonchilikning rivojlanishi natijasida endi rivojlangan dostonchi baxshilar sahnaga kelgan.

XVII-XVIII asr turkman xalqining hayotida yuksalish, ma'naviy ahvolning komillik, jamiyat madaniyatining rivojlangan davri bo'lgan. Bu davrning ijtimoiy-tarixiy o'ziga xosliklari, unumli rivojlanishning, komillikning kalitlarini ochgan. Bizning ma'naviyatimizni tozalab, charchog'imizni chiqargan xalq epik asarlari shu davrda komillikning yuqori bosqichiga ko'tarilgan.

Dostonlar ham xuddi qo'shiqchilik san'ati kabi o'zining yaratilish tarixi bo'yicha qadimgi davrlarga borib taqaladi. Ular turkiy xalqlarning boy adabiy merosining bir qismi bo'lib, xalqning ongida o'tmishning jonli merosi sifatida yashaydi. Shu sababdan dostonchilik masalasi bizning kun tartibimizda turgan masalalardan biridir. Turkman adabiyotshunosligida bir qancha masalalarning o'rganilishi bilan birga, dostonchilik urf-odatlarining kelib chiqishi va rivojlanish xususiyatlari haqida ham qator ishlar amalga oshirilgan. So'zimizning isboti sifatida o'sha ishlarning ba'zilarini aytib o'tishni ma'qul ko'rdik. Jumladan, A.N.Samaylovichning "Ocherki po istorii turkmenskoy literatury" nomli ishida, Y.E.Bertelsning "Turkman xalqining adabiy o'tmishi (eng qadimgi davrlardan XVIII asrgacha) deb nomlangan ocherkida dostonchilikning eng qadimgi ildizlari haqida ma'lumotlar berilgan. Dostonchilik urf-odatlarining u yoki bu masalalariga oid fikrlarni turkman adabiyotshunoslarining ishlarida ham ko'rish mumkin. Akademik A.Kekilovning «Mollanepes» nomli monografiyasida, f.f.n. A.Meredovning «XVIII-XIX asr turkman adabiyotining tarixi bo'yicha ocherklar» kitobining kirish qismida, [1.8-9sah], «Ocherklarda» Andalibning ijodiga bag'ishlangan f.f.d. H.G.Go'ro'g'ling yozgan qismida ham dostonchilik masalalariga doir juda qiziqarli ma'lumotlarni ko'rish mumkin. Yuqorida aytib o'tilgan mualliflarning barchasi ham o'z ishlarida dostonlarning prozasining ahamiyati haqida aytib o'tganlar. Dostonlarning prozasining «bog'lovchilik ro'li» haqidagi fikrlar dastlab V.M.Jirmunskiyning va H. Zaripovning «Uzbekskiy narodniy geroicheskiy epos» nomli kitobida. Bu kitobda dostonchilik an'analarining turli masalalari o'rganilib, mualliflarning bu masalalar haqidagi aytgan fikrlari dostonchilik an'analarini o'rganishda katta ahamiyatga ega. [3.24sah]

«Turkman xalq ijodi bo'yicha ocherk» ishining bir bo'limi dostonlar haqida bo'lib, uning muallifi prof. H.G. Go'ro'g'li folklorda doston janrining o'rni haqida qiziqarli fikrlarini aytib o'tadi. [2.50-80sah] Shuningdek, doston haqida qiziqarli ilmiy ma'lumotlar B.Garriyev, B.Mammetniyazov, M.Avezgeldiyev, A.Durdiyev, N.Gullayev, A.Mulkamanovlarning ishlarida ham berilgan. Bu masala qardosh xalqlar adabiyotshunos olimlarining ilmiy ishlarida ham ma'lum darajada o'rganilgan. Shunday adabiyotshunoslarning qatorida professorlar H.Arasli, V.Abdullayev, I.Sagitov, A.Valixo'jayev, S.Erkinov, K.Ayimbetov, K.Maksetov, M.R.Gulizade, K.Tahirov va boshqalarni aytib o'tishimiz mumkin. Shuningdek, dostonchilik an'analari adabiyotshunoslarning yaqindan qiziqadigan masalalaridan biri bo'lib, uning ayrim tomonlari ba'zi ishlarda u yoki bu tomonlama o'rganilgan.

Doston ko'rinishi qachon va qanday sharoitlarda paydo bo'lgan degan savolning bulishi tabiiy hol.

Dostonni odamlarning epiki bayonga bo'lgan istagi, ruhiy holati, jamiyat muhiti, ijtimoiy tengsizlik yaratgan. Doston dastlab o'qiladigan asar emas, u tinglanadigan, ijro etiladigan, hozirgi davrning dunyoqarashi bilan aytsak, xalq ommasining sahnasiga chiqarilgan asar edi. Asarni sahnaga chiqarish uchun dastlab artistni tayyorlash, obrazni yaxshi yaratib bilgan, uni jonlantira oladigan odamni tarbiyalash kerak edi. Dostonning yaratilishi baxshichilik san'atining rivojlanishiga yordam qilgan. Dostonchilik an'anasining asosi ham shunday bo'lgan. Bir qancha nusxadagi "Og'uznoma"lar, diniy va qahramonlik eposlar ijro etilgan, roviylar va hofizlar, maxsus huquqli o'quvchilar diniy va didaktik rivoyatlarni, legendalarni, hikoyalarni ovozli ijro etganlar. Jamiyat ongi endi hayotga qahromonona, romantik va fantastik ruhda qaraydigan, uni shu ehtiyojlarining, jiddiy ijtimoiy ziddiyatlarning asosida aks etgan badiiy asarlarni kutardi. Bu adabiyot jamiyatiga ma'lum bo'lganidek, turkiy xalqlarining folklorida eposdan boshlangan, sababi qahramonlik o'sha davrda juda zarur bo'lgan, uni jamiyat muhiti, ijtimoiy ziddiyat, g'alayonli davr talab qilgan. Natijada dostondan avval sujetli asarlarni ijro etadigan baxshilar dostonning yaratilishi bilan dostonchi baxshilar maktabini yaratganlar.

Dostonchi baxshilarning epik repertuari folklarning g'oyaviy-mavzuviy, obrazlar tizimida yutuqlarini belgilaydigan, aniqrog'i, folklarning epik boyligini saqlaydigan va tildan tilga o'tkazadigan, rivojlantiradigan jonli kitobdir. Uning sahifalarini madaniyatning, san'atning, folklarning tarixida o'chmaz iz qoldirgan insonlar tuzib, u uzoq taraqqiyot bosqichlarini boshdan kechirgan.

Doston qancha ko'p aytilsa, u badiiylashadi, yangi materiallar bilan boylashadi, ko'p variantga ega bo'ladi. Har bir variantda bir baxshining ixlosi, repertuariga maxsus xususiyatlari saqlanadi. Shu sababdan ham dostonlar ilmiy tomondan o'rganilganda baxshi variantlarining tenglashtirilishi nazarda tutiladi. Sababi ularda baxshining o'z doston ijro etish usuliga dahilli xususiyatlari mavjud.

Shu dalillar mustaqil ilmiy tahlilga muhtoj. Sababi ular birgalikda dostonlarning bizning davrimizda ham mashhur va belgili san'at turi, baxshilarning va qissachilarning esa xalq e'tiborida bo'lishiga sabab bo'lganlar.

Adabiyotlar:

1. XVIII-XIX asr turkman adabiyotining tarixi bo'yicha ocherklar. Ashxobot, 1967.
2. Turkman xalq ijodi bo'yicha ocherklar. Ashxobot, 1961.
3. Jirmunskiy W.M., Zaripov H.T. Uzbekiy narodniy geroicheskiy epos. M., 1947.
4. Waliew Baba. Türkmen halk poeziyası. Aşhabat, 1983.

ФИО автора: *Duvlayev Kamil Abdurashidovich*

Samarqand viloyati Qo'shrabot tumani 2- umumiy o'rta ta'lim maktabi amaliyotchi psixologi

Название публикации: «O'QUVCHILARGA KASB TANLASHIDA MAKTAB PSIXOLGINING RO'LI»

Anotaysiya: Ushbu maqolada siz maktab o'quvchilarining kasbga- hunarga yo'naltirishda maktab amaliyotchi psixolgining ro'li haqida ma'lumotga ega bo'lasiz.

Kalit so'z: Maktab bolalar ota- ona qiziqishlar kasb bola motivlari.

Har bir inson hayotida kasbiy faoliyat muhim o'rin tutadi. Bolaning birinchi qadamlaridan boshlab, ota-onalar uning kelajagi haqida o'ylashadi, bolasining qiziqishlari va moyilliklarini diqqat bilan kuzatib boradilar, ularning professional taqdirlarini oldindan belgilashga harakat qiladilar. Maktabgacha yoshdagi bolalarning mehnat va kasblar dunyosi haqidagi tasavvurlarini shakllantirish muammosi pedagogikada etarlicha rivojlanmagan, garchi hamma bolalarning kasblar va mehnat to'g'risidagi g'oyalarining ulkan rolini tushunishiga o'xshaydi. Bolalar bog'chalarida mehnat va kasblar dunyosi haqida g'oyalarni shakllantirish ba'zan maqsadga muvofiq va tizimli ravishda amalga oshiriladi, chunki maktabgacha yoshdagi bolalar kasb tanlashda muammolarga duch kelmaydilar. Ammo professional o'zini o'zi belgilash har qanday yosh bosqichlarida shaxsiyatni rivojlantirish bilan o'zaro bog'liq bo'lganligi sababli, maktabgacha yoshni kelajakda kasbiy o'z taqdirini belgilash uchun poydevor bo'lgan tayyorgarlik sifatida ko'rib chiqish mumkin. Bola kasblarining namoyishlari uning kambag'al hayotiy tajribasi bilan cheklangan - onam va dadam, bolalar bog'chasi o'qituvchisi, uchuvchi, politsiyachi va sotuvchi kasblari, lekin, qoida tariqasida, bolalar bu yoki boshqa tanish kasblar haqida juda kam va juda yuzaki bilishadi. Ayni paytda, zamonaviy dunyoda mehnatning juda ko'p turlari mavjud. Odamlar ishg'olining ushbu okeaniga yo'naltirish bolaning ijtimoiy moslashuvidagi eng muhim bo'g'in hisoblanadi. Shunday qilib, maktabgacha yoshdagi bolalarning mehnat va kasblar dunyosi haqidagi g'oyalarini shakllantirish zamonaviy dunyoda dolzarb bo'lgan zarur jarayondir.

Tashxis bolalarning kattalar kasbiy faoliyati sohasidagi bilimlari etarli emasligini ko'rsatganligi sababli, men ushbu yo'nalishda ishlashni rejalashtirdim, chunki bolalarning kasblar bilan tanishishi, ularning jamiyatdagi ijtimoiy moslashuvi o'qituvchilarning to'g'ri tashkil etilgan ishlariga bog'liq. Ma'lumki, bolalarning asosiy faoliyati o'yindir, rol o'ynaydigan o'yin orqali bolalarni kattalar kasblari bilan tanishtirish mantiqan to'g'ri keladi. O'yinni maktabgacha tarbiyachining etakchi faoliyati sifatida aytganda, men asosan qo'shma syujet-rolli o'yinni nazarda tutaman.

Men quyidagilarni aytdim faraz:

Maktabgacha yoshdagi bolalarning mehnat va kasblar dunyosi haqidagi tasavvurlarini shakllantirish quyidagi hollarda samarali bo'ladi:

Maktabgacha tarbiyachilar mehnat va kasblar dunyosi bilan rolli o'yin orqali tanishadilar;

Maktabgacha yoshdagi bolalarning kasblar dunyosi haqidagi tasavvurlarini shakllantirish uchun turli xil usullar va vositalar qo'llaniladi

Mavzuni rivojlantirish uchun qulay, qulay muhit yaratildi.

Shunday qilib, maqsadi Mening ishim maktabgacha yoshdagi bolalarning o'yin faoliyati sharoitida kasblar dunyosi haqida bolalarning fikrlarini shakllantirishdir.

Men bu maqsadni quyidagilar orqali hal qildim vazifalar:

Psixologik, pedagogik va metodik adabiyotlarni tahlil qilish;

Mavzuni rivojlantiradigan muhitni yaratish;

Qanday qilib xato qilmaslik kerak?

Bolaga kasb tanlashda qanday yordam berish mumkin?

Siz nima qila olasiz, lekin faqat yaqinda yurishni o'rgangan bola tez o'sadi. Va kelajakdagi kasbini tanlashi kerak bo'lgan vaqtga ko'z yumguncha, u ota-onasining yordamiga muhtoj bo'lishi mumkin. Turli xil yordamlar bo'lishi mumkin, ammo bu jarayonda sizning ishtirokingiz bola uchun muhimdir.

Qaysi yoshda o'ylab ko'rishga arziydi?

O'lchov hamma narsada muhimdir. Va yoshligidanoq, bolani shifokor bo'lish uchun tashviqot qilish ham foydali emas. Ha, ehtimol bu sizning orzuingiz amalga oshmagan bo'lishi mumkin, lekin siz uni bolaga majburlamasligingiz kerak. Ha, u

sizning kengaytmangiz, lekin u allaqachon butunlay boshqacha odam va uning afzalliklari qarama-qarshi bo'lishi mumkin.

Farzandingiz erta yoshda hamma narsani sinab ko'rishiga imkon bering. Bolalarni har xil turdagi to'garaklarga berish kerak, ammo agar bola raqslarni yoqtirmasa va ular u bilan yaxshi yurmasa, uni u erga borishga majburlamasangiz, bu ularga umr bo'yi yoqtirmasliklari mumkin. Farzandingiz bilan bog'laning va u bilan muvaffaqiyatsizliklar haqida gaplashishga ishonch hosil qiling, siz bolaga amaliy maslahat bilan yordam berishingiz, uni qo'llab-quvvatlashingiz mumkin. Sinov va xatolar bosqichida u sizga haqiqatan ham muhtoj.

Har xil turdagi doiralarni sinab ko'rishda siz bolangiz bilan birga uning eng katta qiziqishini uyg'otadigan narsani topishingiz mumkin. U o'z xohishi bilan va katta g'ayrat bilan qiladigan kasb. Uning harakatlarini davom ettirishga harakat qiling, ularni jiddiy kasbga aylantiring. Oxirida kasb tanlashda asosiy narsa - o'zingizga yoqqan narsani qilish imkoniyati... Va kasbingizga bolaligidanoq tayyorgarlik ko'rishingiz mumkin. Agar sizning farzandingiz umuman bilmasa va uning kelajagini tasavvur qila olmasa, lekin tez orada o'qishga kirish uchun ariza topshirish kerak bo'lsa, u bilan ma'lum kasblarning afzalliklarini ko'rib chiqishga harakat qiling, lekin moddiy manfaat bilan emas, balki sizning bilimingiz va ko'nikmalingizdan boshlang. bola, qandaydir mashg'ulotlar bilan qanday kurashganligi, qat'iyatliliigi, odamlar bilan qanday aloqada bo'lganligi bilan. Bu kasb tanlashda yordam bermasa, bolani to'g'ri yo'nalishga yo'naltiradi. Shuningdek, siz eng ko'p talab qilinadigan kasblarni ko'rib chiqishingiz va bolangiz ularga qiziqishini tekshirishingiz mumkin.

Erta yoshda bolalar ko'pincha ularga o'rnak bo'lishni xohlashadi. Bu maktab o'qituvchisi yoki multfilm qahramoni yoki sevimli kitob bo'lishi mumkin.

U yoki bu tanlov haqida qanday xarakterli xususiyatlar gapiradi?

Har qanday kasb, hatto eng oddiy kasb ham odamdan ma'lum mahorat talab qiladi. Siz bunga e'tibor berishingiz kerak. Masalan, korrektor uchun diqqatni jamlash muhim, rassom xayoliy fikrlashga ega bo'lishi kerak. Ushbu omillarni hisobga olish muhimdir. Bolaga o'z qobiliyatini maksimal darajada ochib beradigan, o'zini maksimal darajada

anglab etadigan va eng katta muvaffaqiyatga erishadigan kasbni tanlash yaxshidir. Agar siz unga bu borada yordam bersangiz, kelajakda u sizga minnatdor bo'ladi.

Bugungi kunda o'rta maktab o'quvchilariga kasbga yo'naltirish uchun psixologik testdan o'tish taklif etiladi. Bunday testlar bir vaqtning o'zida bir nechta mutaxassislar tomonidan tuziladi: psixologlar, o'qituvchilar, kadrlar bo'yicha mutaxassislar. Sinov natijalariga ko'ra, bolaga bir vaqtning o'zida kasblar uchun bir nechta variantlarni tanlash taklif etiladi. Bu unga to'g'ri yo'nalishni tanlashiga yordam beradi. U ruh ko'proq qaysi kasbni tanlashi va qabulga tayyorlanishni boshlashi mumkin bo'ladi. Kerakli kurslarga yoki o'qituvchiga yoziling.

Farzandingizga to'g'ri qaror qabul qilishda qanday yordam bera olasiz?

Birinchiidan, bolangizni o'zingizning kasbingiz bilan tanishtiring. Darhaqiqat, ko'pincha ota-onalar farzandining ota-ona kasbini davom ettirishini xohlashadi. Ammo u buni xohlaydimi yoki yo'qmi, bu boshqa savol. Va buni tushunishning yaxshi usuli - unga ota yoki onaning qanday ishlashini ko'rsatish, unga ish kunini, kasbning barcha zavqlari va kamchiliklarini ko'rsatish.

Kasb tanlashda xatolar

Kasb tanlashda bola odatdagi xatolarga yo'l qo'yishi mumkin. Uni ularga qarshi ogohlantiring.

Kasb tanlashga o'zgarmas sifatida qarash. Bu umuman to'g'ri emas, endi odamlar o'z kasblarini hayoti davomida va bir necha bor o'zgartiradilar, hatto o'z kasblarini emas, balki o'z malakalarini o'zgartiradilar. Sizning farzandingiz ham kelajakda bunga duch keladi.

Kasbning obro'si haqida hukmronlik. Ommabop kasblar vaqt o'tishi bilan eskirishga moyildir va hatto turli sabablarga ko'ra talab qilinmaydigan bo'lib qolishi mumkin. Bozorda mutaxassislarning haddan tashqari ko'pligi sababli. Siz har doim bolangizga mashhur kasb bilan bog'liq narsalarni taklif qilishingiz mumkin, agar u bundan boshqa narsani xohlamasa.

Faqat kasbning tashqi yoki biron bir tomoniga bo'lgan ehtiros. Bolaning kasb haqida to'liq tushunchaga ega bo'lishi muhimdir. Ehtimol, u me'morlarni va ularning

ishi tashqi tomondan qanday ko'rinishini yoqtiradi, lekin ichki tomondan bu kasb u qadar jozibali bo'lmasligi mumkin.

Muayyan kasbni ifodalovchi shaxsga nisbatan munosabatni kasbning o'ziga o'tkazish. Atrofdagi oilalar fotosuratchi sifatida ishlaydigan do'stiga qanday munosabatda bo'lishlarini ko'rish, masalan, bola bir xil bo'lishni xohlashi mumkin, lekin u oilaviy do'sti o'zining shaxsiy fazilatlarini tufayli shunchalik mashhurligini emas, balki u o'zining professionalligi bilan emas, hatto u yaxshi bo'lsa ham mutaxassis.

Bolaning shaxsiy fazilatlarini tushunishga qodir emasligi va istamasligi. Bu qiyin, lekin bolada o'ziga va uning manfaatlariga bo'lgan qiziqishni uyg'otishga arziydi. Uni tashqi tomondan kuzatib boring va iloji bo'lsa, uning qobiliyatlarini, nima bilan shug'ullanayotganini ko'rsating.

Kasb tanlashda ularning jismoniy qobiliyatlari va mavjud kamchiliklarini bilmaslik. O'zini anglash uchun bola rivojlanib, o'z qobiliyatlarini sinab ko'rishi mumkin bo'lgan biron bir ish bilan band bo'lishi kerak.

Asosiysi, bu masalalarda beparvo bo'ling va bolaga bosim o'tkazmang, unga biroz erkinlik bering, shuningdek, uning tanlagan javobgarligini ko'rsating.

Sizga to'g'ri kasbni tanlashga nima yordam berdi?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kasb hunarga yo'naltiruvchi treninglar Toshkent nashriyoti 2008 yil 28 bet.
2. Www.Book.uz sayti

ФИО автора: *M.A. G`aybullayeva*

Jizzax politehnika instituti talabasi

Название публикации: «ALKOGOLSIZ MAHSULOTLAR OLISH
TEKNOLOGIYASINING ILMIY ASOSLARI»

Tayanch iboralar: Uzum sharbati, sharq shirinliklari, marinadlar, likyorlar, kishmish, alkogolsiz vino.

Uzum vinochilik sanoatida asosiy mahsulot hisoblanadi. Uzumdan olinadigan alkogolsiz mahsulotlar ham vinochilik sanoatida katta ahamiyatga ega va bu mahsulotlarning turlari xilma - xildir. Uzumdan olinadigan alkogolsiz mahsulotlarga quyidagilar - uzum sharbati, sharq shirinliklari, marinad va kompotlar, kishmish, likyor va alkogolsiz vino kabilarni o`z ichiga oladi.

Mazkur maqolada vinochilik sanoati, aynan uzumdan olinadigan alkogolsiz mahsulotlar, ularning turlari, tayyorlash usullari haqida so`z yuritiladi.

Vinochilik sanoati – oziq - ovqat sanoatining tarmog`i bo`lib, bu tarmog`ida uzum va meva hamda rezavor mevalar vinosi, konyak, etil spirtidan tayyorlanadigan o`tkir ichimliklar, har xil spirtli ichimlik turlari, likyorlar ishlab chiqariladi.

Uzum sharbati - uzumni maydalash va suyuqlikka aralastirishdan olinadi. Sharbat olish uchun xom – ashyo yaxshilab yuviladi. Issiq suvda blanshirlanadi va eziladi, ezilgan uzum mahsuloti mezga deyilib undan sentrifuga yoki press orqali toza sharbati oqib tushadi. Qoldiq quyqa gomogenizatorida sof sharbatga aylantiriladi. So`ng sharbat qizdirilib (50-60 °C) aeratsiya qilinadi va idishlarga solinib, sterilizatsiya qilinadi.

Uzum sharbatini tayyorlash texnologiyasi ularni sifat ko`rsatgichlariga qarab, asosan, 3 turga bo`linadi: Tiniq, quyuc va quyqali sharbatlar. Sharbatlarni qizdirmasdan sterilizatsiya qilish, ya`ni turli mikroorganizmlardan tozalaydigan pressfiltrlardan foydalanish mumkin. Buning press qatlamlari orasi maxsus filtrlaydigan materiallar o`rnatilgan bo`ladi. Materiallar orasidagi teshiklar shunchalik maydiki, ulardan mikroorganizmlar o`tmaydi va sharbat sterillanib tiniqlashadi.

Sharq shirinliklari – qandolatchilik - hunarmandchilikning mahalliy shakarpazlik mahsulotlari, mahalliy shirinliklar, qand-qurslar tayyorlanadigan sohasidir. Sharq an`anaviy qandolatchilik mahsulotlari - asal, obaki, holva, novvot, parvarda, murabbolar turli mevalarning shiralari, jumladan, uzum shinnisi tayyorlangan. Uzum shinnisi tayyorlashda uzum shinnisi olinadigan maxsus qurilmalar va boshqa asboblardan foydalanilgan.

XX asrning 20 - yillarida qandolatchilik mahsulotlari ishlab chiqaradigan zamonaviy korxonalar paydo bo`la boshladi. Ammo shu bilan birgalikda uzumdan olinadigan qandolatchilik mahsulotlariga ham e`tibor kamaymadi, aksincha uzumni qayta ishlash sanoati yo`lga qo`yilib, bu mahsulotdan turli xil jelatin, murabbolar, shirinliklarning asosiy qismini tashkil etuvchi mahsulotlar ishlab chiqarila boshlandi.

Murabbo shakar qiyomi bilan uzumdan tayyorlanadigan shirinlik. Bunda uzum donalari butunligicha qiyomda barobar taqsimlangan bo'lishi lozim. Murabbo maxsus qozonlarda vakuum qurilmalarida qaynatiladi. Har gal qiyom 3-8 daqiqa qaynatilib so'ngra 8- 12 soat olovdan olib qo'yiladi. Bunda uzumni mazasi qiyomga qiyom suvi g'ujumga o'tadi. Bu diffuziya hodisasi deb ataladi. Tayyor bo'lgan murabboda 70-75% quruq modda bo'ladi. Shunda u sifatini yo'qotmaydi va buzilmaydi.

Kompot tayyorlash uchun uzum yangi uzilgan bo'lishi kerak. Tozalanib yuvilgan uzum donalari bankalarga zich joylashtiriladi. So'ng ustidan tiniqlashtirilgan shakar qiyomi quyiladi. Qiyomni bankalarga quyishdan oldin harorati 80 °C dan kam bo'lmasligi kerak. Idishlar to'ldirilab zich berkitiladi va sterilizatsiyaga qo'yiladi.

Marinadlangan konservalar yangi uzilgan, donasi yirik, xo'raki navlardan tayyorlanadi. Buning uchun sirka kislotasi, tuz, shakar, ziravor va xushbo'y ko'katlar qo'shib marinat tayyorlanadi. Marinadlarni tayyorlashda sirka kislotasi 0,9 % miqdorda qo'shiladi. Lekin mikroorganizmlar zivojlanishini oldini olish uchun ular sterilizatsiya qilinadi. Sirkaning ma'lum miqdori isitilib 70-80 °C da konserva banklarga quyiladi. Sirka albatta, o'tkir qilib tayyorlanadi. 100 °C li suvda konservalar 1 litrli marinatlangan 1-2 litrli bankalar 5-7 daqiqa va 3 litrli bankalar 20 daqiqa davomida pasterizatsiyalash tavsiya etiladi.

Kishmish - quritilgan uzum mahsuloti. Kishmish tayyorlashda quyidagi usullardan foydalaniladi: Objosh - uzumni ishqorli qaynoq suvga botirib olib oftobga quritish usuli. Shtabel – bu usulda asosan oq rangli uzumlar quritilib, oltingugurt bilan dudlanadi.

Kishmish tayyorlashda asosan, Oq kishmish, Qora kishmish, Pushti kishmish, Xishrau kishmish, Sultoni rizamat, Qora janjal, Andijon qorasi kabi navlardan foydalaniladi. Likyor - kuchli spirtli ichimlik. Tarkibida 20% dan 30% gacha qand, 45% gacha (hajmiga nisbatan) spirt bo'ladi. Tayyorlash uchun tarkibida qandi ko'p bo'lgan uzum navlari ishlatiladi, qandi kam bo'lganida esa konsentrlangan uzum sharbati qo'shiladi.

Dunyo bo'yicha turli xil mashxur likyorlar tayyorlanadi. Agar vino tarkibida etil spirti 0,5% dan oshmasa u alkogolsiz vino hisoblanadi. U ishlab chiqarishning barcha bosqichlaridan o'tgan, oxirida spirtni olib tashlaydigan va ichimlikning organoleptik xususiyatlarini saqlaydigan oddiy sharobdan tayyorlanadi.

Alkogolsiz vino bozorda yaqinda paydo bo'lgan bo'lsada uni ishlab chiqarish texnologiyasi rimliklar va misrliklarga qadimdan ma'lum bo'lgan. Ular alkogolsiz vino ishlab chiqarish uchun qisqa muddatli isitish usulidan foydalanganlar.

Bu usulda etil spirt 78 °C haroratda bug'lanadi, lekin bu bilan birga vino ham o'z ta'mini sezilarli darajada yo'qotadi. Shuning uchun bugungi kunda vinoning ta'mi va foydali xususiyatlarini yo'qotmaydigan usullar qo'llanilmoqda.

Bu usullarga teskari tormoz distillash va vakuumli distillash kiradi. Teskari tormoz distillash usulida vino tayyorlash moduli orqali o'tkaziladi, so'ng suv va spirt membranalaridan o'tadi. Bu orqali vinoda xushbo'y va aromatik moddalar saqlab qolinadi. Ajratish moduli orqali yetarlicha uzoq aylanish jarayonida, sharobga doimo suv qo'shiladi va natijada spirt yo'qoladi yoki minimal 0,5% darajaga yetadi. Faqat bu usulni kamchiligi ko'p vaqt talab etilishidir.

Ikkinchi usul 1908 - yilda doktor Karl Yung tomonidan ixtiro qilingan bo'lib, bu vino tayyorlash va sotishning tezkor usulidir. Bu usulda spirtli ichimliklar 27 °C da ham vakuum ichida bug'latiladi va sharobning ta'mi va xushbo'yligi saqlab qolinadi.

Bugungi kunda malakatimizda vinochilik sanoatiga katta e'tibor berilmoqda. Jumladan, davlat tomonidan 2021- yil oxirigacha vinochilik sanoatini rivojlantirish, vino eksportini oshirishga va uzum ekin maydonlarini ikki barobarga kengaytirishga doir chora tadbirlar majmuasi ishlab chiqildi. Bu albatta iqtisodiyotimizni yuksalishiga, aholi turmush sharoitlarini yaxshilanishiga olib keladi.

Foydanilgan adabiyotlar:

1. Bo'riyev X.Ch., Jo'rayev R., Alimov O. Meva-sabzavotlarni saqlash va dastlabki ishlov berish. - T.: Mehnat, 2002
2. Vinochilik texnologiyasi fan dasturi. Abdullayeva B. A. Qosimxo'javeva D.A. 6 – bet, Toshkent 2018
3. <https://swn.ru/>
4. <https://centralasia.media/>
5. <https://arxiv.uz/uz/>
6. <https://uz.wikipedia.org>
7. <https://www.ziyonet.uz>

ФИО автора: *Diyorova Muqaddas Norturayevna*

Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumani Maktabgacha ta'lim bo'limiga qarashli 4- sonli Maktabgacha ta'lim tashkiloti logoped-psixologi

Название публикации: «NUTQIDA KAMCHILIGI BO'LGAN BOLALAR TAFAKKURINING XUSUSIYATLARI»

Anotatsiya: Nutq fikrlash faoliyat mexanizmi sifatidagi bunday jarayonlar xususiyatiga nutqiy fikrlashning muayyan turi umumlashgan yoki aniq hodisaviy turi to'g'ri keladi. Soz manosi tizimi va nutq patologiyasi tizimlarining mana shunday ozaro shartlangan o'zgarishi, meyorlar kabi, tafakkur va nutq birligini asosli ravishda aks etadi.

Kalit so'zlar: Nutq, tafakkur, maktabgacha ta'lim, fikrlash mexanizmlari.

Bolalar psixik rivojlanishining boshqa tomonlari bilan nutq buzilishining chambarchas bog'liqligiga ular tafakkurining o'ziga xos ba'zi xususiyatlari sabab bo'ladi.

Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarni intellektning jalb etilmagan (noverbal) sharoitiga qarab uch guruhga ajratish mumkin (O.N.Usanova, T.N.Sinyakova):

1) jalb etilmagan intellektning rivojlanishi ba'zi bolalarda me'yordagidan birmuncha farq qiladi. Bunda intellekt rivojlanishining shu o'ziga xosligi nutqdagi qiyinchiliklar bilan bog'lanmagan va ularga bo'ysunmaydi. Mualliflarning ma'lumotlariga ko'ra, bu guruhni NTR li bolalarning 9% i tashkil etadi.

2) jalb etilmagan intellektning rivojlanishi me'yorga mos keladi (27%),

3) jalb etilmagan intellektning rivojlanishi me'yorning past chegarasiga mos keladi, lekin doimiy emasligi bilan xarakterlanadi: aniq paytlarda bolalar intellektning me'yordan pastligini ko'rsatishi mumkin. Foiz hisobida eng ko'p guruh – 63%.

Dj. Ravenning (M.A.Fotekova) rangli ilg'or matritsaning bolalar varianti yordamida aniq - obrazli fikrlashning xususiyatlarini o'rganishda topilgan edi,

vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish bo'yicha kichik yoshdagi bolalar jamoasi xilma - xil va har xil guruhlar bilan ko'rsatilgan. Aniq vazifalarni bajarish natijalariga ko'ra ko'proq muvaffaqiyatli guruh nutq patologiyasi qo'pol bo'lmaganligi bilan xarakterlanadi (ovoz talaffuz qilishdagi kamchiliklar va grammatik qurilmaga egalik qilishning bo'shligi). NTR li 37% ga yaqin bolalar past darajani ko'rsatdilar. Nutq maktablarining 7% bolalarigina me'yorda rivojlanayotgan tengdoshlariga o'xshab, bilish faoliyatlarining xususiyatlari bilan ko'rsatkichlarga yaqinlashadilar.

V.A.Kovshikov, Y.A.Yelkin, motor alaliyali bolalarning tafakkurini tadqiq qilar ekan, bir nechta tushunchalarni chegaralab qo'ydilar: bilim – borliqni bilishda o'tgan zamon tajribasi natijalarida shakllangan majmuaviy to'plam (obrazlar, tasavvurlar, tushuncha), qaysiki, fikrlash operatsiyalari uchun manba bo'lib xizmat qiladi; psixik faoliyatning o'z - o'zini tashkil qilishi – bilish faoliyatini va uni boshqarishni faollashtirishga qaratilgan yaxlitlik bo'lib, tafakkur jarayonini oqishi va muammoli vaziyatlarni hal qilib berishi uchun kerakli sharoit yaratib beradi; shaxsiy tafakkur - muammoli vaziyatlarni hal qilishga yo'naltirilgan jarayon.

Tadqiqot jarayonida quyidagi natijalar olindi: nutqi rivojlanmagan bolalarda bilimidagi kamchiliklar tafakkur jarayoni va natijalariga va o'z - o'zini tashkil qilishning buzilishiga ko'proq ta'sir qiladi. Ularda atrofdagilar to'g'risida yetarli hajmda ma'lumotlar bo'lmaydi, borliqdagi predmetlarning xususiyatlari va funksiyalari haqida, hodisalarning sababtergov aloqalarini o'rnatishda qiyinchiliklar tug'iladi. O'z - o'zini tashkil qilishning buzilishida hissiyotli-iroda va motiv doirasidagi kamchiliklar sabab bo'ladi va psixojismoniy tormozlanish kamdan-kam to'xtab qolishi va vazifaga qiziqishning yo'qligi namoyon bo'ladi. Bolalar, ko'pincha, siz taklif qilgan muammoli vaziyatga uzoq vaqt qo'shilmaydilar, yoki aksincha juda tez vazifani bajarishga kirishib ketadilar, lekin bunda vazifaning hamma xususiyatlarini hisobga olmasdan muammoli vaziyatni yuzaki baholashadi. Boshqalar vazifani bajarishga kirishadilar, lekin unga qiziqishlari tez yo'qoladi, xatto vazifa to'g'ri bajarilayotgan bo'lsa ham, ishni tugatmasdan ishlashdan bosh tortadilar. Bunda nutqi rivojlanmagan bolalarda fikrlash operatsiyalarini to'g'ri amalga oshirish sharoiti

qoidaga ko'ra, saqlangani o'z - o'zini tashkil qilishni tartibga solish va bilim zahiralarini kengaytirilganligi ochib ko'rsatiladi.

Ularning yoshiga mos bo'lgan fikrlash operatsiyalarining rivojlanishi uchun to'liq ma'noda dastlabki shartlarni qo'lga kiritib, bolalar, aniq obrazli fikrlashning rivojlanishida orqada qoladilar, maxsus o'qitish jarayonisiz tahlilni, tozalashni, solishtirishni, turkumlashni, ortiqcha tushunchaning yo'qligi va qiyosiy natija chiqarishni qiyinlik bilan amalga oshiradilar. Nutqi rivojlanmagan bolalarda aniq obrazli fikrlashning kamchiliklari faqat ikkilamchi emas, balki birlamchi xarakterga ega bo'lishi mumkin, bu sharoitda ular bosh miya po'stlog'ining tepagardan qismining yetarli emasligi shart qilinadi. Nutq nuqsoni og'ir ifodalangan darajadagi ko'pchilik hollarda nutq rivojlanmaganida aniq - obrazli fikrlashning shakllanmaganligi bilan bog'langan (T.A.Fotekova). Nutqi to'liq rivojlanmagan ko'p bolalar uchun fikrlashning rigidligi xos bo'ladi. (L.I.Belyakova, Y.F.Gargusha, O.N.Usanova, E.L.Figeredo).

Nutq maktablari bolalarining fikrlash nutqini tadqiq qilinganida (I.T.Vlasenko) quyidagi xususiyatlar, shaxsiy nutqning buzilishi bilan emas, balki o'zining psixologik mexanizmiga ko'ra nutq rivojlanmasligining tizimi bilan birlamchi bog'langanligi topildi. Predmet obrazi bilan so'zning ichki rejadagi nutq fikrlashini o'rnatish bu bolalarda nutq ko'rinishlarining fikrlash bo'limiga o'tishi yoki aksincha, ichki nutq mexanizmining shakllanganligini yetishmasligidan buziladi (masalan, bilvosita esda qolish).

Me'yorda rivojlanayotgan sog' bolalarda faraz qilishni tadqiqot qilishga bag'ishlangan manbalarda, faraz qilish bilan nutqning uzviy bog'liqligi ta'kidlanadi. L.S.Vigotskiy: «Faraz qilishning rivojlanishini kuzatish bu funksiyaning nutq rivojlanishiga bog'liqligini ko'rsatdi – deb yozgan. Nutq rivojlanishining to'xtab qolishi faraz qilishning ham to'xtab qolishini boshlaydi».

V.P.Gluxovning tadqiqoti nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarda faraz qilishning xususiyatlari haqida xulosa qilishga imkon beradi. Bu turdagi bolalar faraz qilishning samarali faoliyati bosqichida me'yorda rivojlanayotgan tengdoshlaridan orqada qolishadi. Sinash uchun berilgan geometrik figuralarning rasmini tayyorlashda va

